

M.M. MUXAMMADSIDIQOV

XALQARO
MINTAQASHUNOSLIK

TOSHKENT

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK
INSTITUTI**

•

M.M. MUHAMMADSIDIQOV

XALQARO MINTAQASHUNOSLIK

*O'zbekiston raspublikasi Oliy va o'rtta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan
5120700-Jahon siyosati ta'lif yo'nalishi talabalari uchun asosiy
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan.*

UO'K: 327(075)

KBK: 66.4ya7

M 96

ISBN 978-9943-5010-8-9

Muhammadsidiqov M.M. Xalqaro mintaqashunoslik. O'quv qo'llanma. –T.: «Barkamol fayz media», 2017, 292 bet.

O'quv qo'llanmada turli mintaqalardagi integratsion birlashmalar hamda mazkur minqalardagi davlatlarning zamonaviy xalqaro munosabatlardagi o'rni va roli, yuz berayotgan siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni keng va atrofli-cha o'rganadi. Shuningdek, o'quv qo'llanmada turli mintaqalardagi mavjud muammolar, ularga nisbatan yangicha yondashuvlar yoritib berilgan. O'quv qo'llanma Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilab berilgan talablar asosida tayyorlandi.

O'quv qo'llanma jahon siyosati, xalqaro munosabatlar va siyosatshunoslik yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar, bu borada faoliyat olib borayotgan mutaxassislar va umuman mazkur masala bilan qiziquvchilarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

R.Z. Jumayev – siyosiy fanlar doktori, professor;

M.M. Bahadirov – siyosiy fanlar nomzodi, dotsent.

ISBN 978-9943-5010-8-9



©«Barkamol fayz media», 2017.

KIRISH

XX asr insoniyat tarixida muhim ahamiyat kasb etgan turli ijobiy va salbiy jarayonlarning sodir bo‘lganligi bilan iz qoldirdi. Bularning biri barqarorlikni, taraqqiyotni ta’minlashga xizmat qilsa, boshqasi bashariyat uchun ulkan muammolar tug‘dirgan bo‘ldi. Ana shunday ijobiy jarayonlardan biri davlatlararo hamkorlikning yangi bosqichga ko‘tarilishidir. Hamkorlik jarayonlari tom ma’noda dunyoda tinchlikni, tenglikni, taraqqiyotni ta’minlashga xizmat qilib, yangi xalqaro tartibotning shakllanishiga imkoniyat tug‘diradi.

Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimining globallashuvi va uning transformatsiyasi sharoitida xalqaro hayotning barcha sohalarida keskin o‘zgarishlar natijasida davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar shaffoflashib, integratsiyalashuv jarayonlari kuchayib bormoqda. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning yangi ishtirokchilar sifatida xalqaro hukumatlararo moliyaviy, iqtisodiy va nodavlat tashkilotlar, hamda yangi mustaqil davlatlar yangi subyekt sifatida kirib kelishi bilan harakatlanmoqda. Hozirgi davrda mintaqaviylashuv, mintaqashunoslikning mazmun va mohiyatini, o‘ziga xos xususiyatlarini chuqur anglab yetishni hamda uning ishtirokchilarining asosiy maqsad va vazifalarini ham yakuniy, ham amaliy jihatdan tahlil etishni talab qiladi. Shu bilan birga, zamonaviy xalqaro munosabatlarda turli mintaqalarda kechayotgan o‘ziga xos jarayonlarni to‘g‘ri baholay olish hamda davlatlararo o‘zaro aloqalarni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha yetarli bilimlarga ega bo‘lgan malakali mutaxassislarini tayyorlash, ularni bu yo‘nalishdagi tajriba va malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etib borayotgan vazifalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlarini, tashqi siyosat va diplomatik qoidalar, xalqaro siyosat va jahon siyosati, siyosiy jarayonlar va xalqaro muammolar, ularni hal etish usul va uslublarini o‘rganishga urg‘u berish muhimdir.

Mamlakatimizda olib borilayotgan barcha ijtimoiy islohotlarning negizida asosiy bosh g‘oya qilib yurt tinchligi va xalq farovon-

ligi maqsad qilib olingen ekan, shubhasiz, xalqaro maydondagi tajribalarni o‘rganish va tegishli xulosalar chiqarish orqali bu maqsad-larga osonroq va jadallik bilan erishish mumkin.

“Xalqaro mintaqashunoslik” kursida ham aynan turli mintaqalarda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni keng va atroficha yoritishni maqsad qiladi. Ushbu o‘quv kursining maqsadlaridan yana biri talabalarda mazkur fanning oliv o‘quv yurtlarida zamonaviy talablar asosida o‘qitish ko‘nikmalarini hosil qilishga qaratilgan.

Talabalar zamonaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari o‘quv kursini o‘rganish jarayonida fanning asosiy kategoriyalari bilan tanishish bilan birga, bu fanning xalqaro munosabatlar va jahon siyosati fanlari tizimidagi o‘rnini aniqlaydilar. Bundan tashqari, talabalar jahon siyosati va bugungi kundagi zamonaviy siyosiy jarayonlar borasida tushunchaga ega bo‘ladilar.

Talabalar o‘quv kursi mavzulari bo‘yicha tahliliy materialllar bilan tanishtiriladi. Ular o‘qish jarayonida zamonaviy siyosiy jarayonlar tendensiyalari va bugungi kundagi ijtimoiy muammolarni tahlil etishda ko‘nikmalar hosil qiladilar. Natijada talabalarda yuz berayotgan siyosiy hodisalarini muhokama etishda faollik va bashorat qilish mahorati oshib boradi. O‘quv mashg‘ulotlari ma’ruzalar va amaliy mashg‘ulotlarning ketma-ketlikda olib borilishi shaklida amalga oshiriladi.

Mazkur o‘quv kursini o‘qitish davomida jahon mamlakatlarining, qator integrasion birlashmalarning zamonaviy xalqaro munosabatlardagi o‘rni va roli to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar beriladi. Ushbu kursni o‘qitishda Osiyo, Afrika, Yevropa va Amerika davlatlarining xalqaro munosabatlar tizimida tutgan mavqeyini hamda mazkur hududlarda mintaqaviylashuv jarayonining borishi, mintaqaviy hamkorlik kabi masalalarni tahlil etishga alohida e’tibor qaratadi. Shu bilan birga, talabalarda davlatni har tomonlama rivojlantirish jarayonida o‘ta muhim, o‘ziga xos rol o‘ynovchi tashqi siyosat, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va xususan, xorijiy davlatlarning tajribasidan foydalanish mamlakatimizning chet mamlakatlar bilan o‘zaro munosabatlarini yanada mustahkamlashda va tashqi siyosatining yo‘nalishlarini belgilashda nazariy bilim va amaliy mahoratni shakllantirishdan iborat.

1-BOB. XALQARO MINTAQASHUNOSLIK FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI

Darsning maqsadi:

- mazkur ma’ruzani o‘qitishdan ko‘zlangan maqsad talabalarning jahon siyosatida turli mintaqalar haqida tasavvurga ega bo‘lishi hamda xalqaro mintaqashunoslik fani yuzasidan bilimlarini chuqurlashtirish;
- talabalar turli mintaqalardagi mamlakatlarning siyosiy-ijtimoiy jarayonlari borasida tasavvur hosil qilishlariga ko‘maklashish;
- usul va uslublardan foydalanish tajribasini oshirish hamda ilmiy tadqiqot ishlari, axborot-tahliliy yozishmalarni olib borish qobiliyatlarini rivojlantirish;
- talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo‘llashni o‘rgatishdan iborat.

Tushunchalar va tayanch iboralar: *xalqaro mintaqashunoslik, mintaqaviylashuv, regionalistika, mintaqaviy hamkorlik, integratsiya, xalqaro munosabatlar, jahon siyosati, xalqaro siyosat, xalqaro tashkilotlar, globallashuv, tendensiya, global muammolar, mintaqalashtirish, xalqaro hamjamiyat, konsepsiya, demokratik dunyo g‘oyasi, geosiyosiy jarayonlar, mintaqaviy integratsiya, global erkin savdo.*

1.1. O‘quv kursiga kirish

Mintaqa ko‘p ma’noli tushuncha bo‘lib, ma’lum makon va zamon qolipidagi aniq hududni bildiradi, shundan kelib chiqib, u ilmiy adabiyotlarda ikki xil talqin qilinadi.

- Bir mamlakat ichidagi xo‘jalik subyekti.
- Bir nechta davlatlarni o‘z ichiga olgan ulkan hudud.

Rossiyalik akademik N.N. Nekrasov bu atamani “tabiiy sharoiti bir xil bo‘lgan va o‘ziga xos tabiiy resurslari asosida ishlab chiqaruvchi kuchlar rivoji bilan xarakterlangan davlatning katta qismi” deb qayd etadi¹.

¹ Некрасов Н.Н. Региональная экономика. – М.: Мысль, 1978, 29 с.

Har qaysi fan tarmog‘i o‘z vazifasidan kelib chiqib mintaqani shakllantiradigan u yoki bu omilga asosiy urg‘u berishi bu atamaga nisbatan turli xil talqinlarning kelib chiqishiga olib keladi. Yuqoridagilarga asoslanib, mintaqaga tabiiy chegaralar bilan cheklangan madaniy, iqtisodiy, siyosiy va harbiy sohalarda tarixiy uyushgan hamkorlik makoni, deb ta’rif berish mumkin.

Insoniyat taraqqiyotida, shu bilan birga, dunyoda tinchlikni, barqarorlikni ta’minalashda muhim ahamiyat kasb etayotgan jarayon – bu mintaqaviy hamkorlik hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, endi asosiy urg‘uni mintaqaviy hamkorlikka bersak.

“Mintaqa” lotinchadan “qism, bo‘lak” ma’nolarini anglatadi. Mintaqqa quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak: umumiy tarixiy rivojlanish; o‘ziga xos muayyan madaniy xususiyat; yagona va bir-biriga tutash geografik hudud; iqtisodiyotining o‘xshashligi; mintaqaviy xalqaro tashkilotlar doirasida birgalikda faoliyat yuritish.

Aytish mumkinki geografik makon qo‘shti davlatlar bilan o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lgan vaqtdagina mintaqaga aylanadi. O‘zaro bog‘liqlik mintaqqa ichida savdo oqimlari va diplomatik harakatlar ning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Mintaqa bu qandaydir alomat va hodisalar majmui bo‘yicha ajratilgan hudud va hududiy bo‘linish tizimida birlik sifatida namoyon bo‘ladi.

Mintaqa deganda yirik tabiiy-geografik, iqtisodiy-geografik, geosiyosiy va boshqa taksonlar anglanadi. E.B.Alayevning tavsifiga ko‘ra, boshqa hududlardan o‘z unsurlari bilan farq qiluvchi tarkibiy unsurlari o‘zaro bog‘langan yaxlitlikka ega hudud mintaqada deb hisoblangan. Rus olimi Makarevich 1997-yilda umuman boshqa bir fikrni aytadi. Unga ko‘ra, mintaqqa – yer, havo, flora, fauna va insonlardan iborat kompleks, unda unsurlar bir-biri bilan alohida munosabatda bo‘ladi. Mintaqada bir-biriga yaqin davlatlar guruhi bo‘lib, u yerda alohida iqtisodiy – geografik birlikka ega, milliy tarkib va madaniy jihatdan yaqin yoki ijtimoiy-siyosiy qurilish jihatidan bir turga mansub hudud. Ta’riflardan shu xulosa kelib chiqadiki, mintaqaning asosiy xususiyati geografik yaqinlik, yaxlitlik va o‘zaro bog‘langanlidir.

Globallashuv barcha hududlarning bevosita aloqasi sifatida qabul qilinmasligi lozim. Dunyo tizimlarini tahlil etish natijasida shunday

xulosaga kelish mumkinki, birinchi o‘rinda dunyoning “markaziy” hududlari, davlatlari va periferik hududlar o‘rtasidagi noteng munosabatlar global oqimlarni vujudga keltiradi (Mvrdal. 1957; Wallerstein. 1974; Grasland and Van Hamme. 2010; Van Hammeand Pion. 2012). Biroq inson va iqtisodiy omillarning hayot davomiyligi faqatgina aniq geografik omilga bog‘liq emas u, shuningdek, kuchli tarixiy omilga, jumladan, jamoaviy va xususiy faktorlarga bog‘liqdir. Bu omillar ularni uzoq yashashiga yordam beradi. Bunga qo‘srimcha tarzda regionalizatsiya siyosiy jarayon bo‘lib, bu yangi regionalizm deb ham ataladi, u makro-mintaqaviy darajadagi hamkorlik va integratsiyani nazarda tutadi (Storper. 1997; Hettne. 1995). Ko‘pgina makro-mintaqaviy keli shuvlar iqtisodiy aloqalar, ayniqsa, erkin savdo kelishuvlaridan iborat. Shu sababli, bir xil makro-mintaqaviy tizimga bog‘liq bo‘lgan davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning yuqori sifati tovarlar va kapitallar aylanmasiga asoslangan siyosiy qarorlar orqali yanada kengaytiriladi. Yevropa Ittifoqi eng rivojlangan hududlar birlashmasida paydo bo‘ldi. Chunki iqtisodiy integratsiyaga hukumat mexanizmiga bog‘liq bo‘lgan siyosiy integratsiya sherik bo‘lgan.

Bu bilan bog‘liq birinchi asosiy muammo – hududiy strategiya sifatida regionalizmda regionalizatsiya jarayonlari bilan aloqaviy mosligi bo‘lgan darajasidir. Boshqacha qilib aytganda, real inson va iqtisodiy oqimdan ko‘tarilayotgan funksiyaviy makrohududlar siyosiy hududiy shartnomalarning geografiyasiga mos keladimi? Yevropa holatida biz shuni topdikki, javob aniq tarzda – “yo‘q”: Yevropa bo‘ylab chuqur va funksional tarzda integratsiyalashgan jahonning bir qismi bo‘lgan funksional Yel ga a’zo bo‘lmaganlar (Islandiya, Norvegiya, Shvetsariya, G‘arbiy Bolqon davlatlari) hamda Yevropaning sharqiy, Janubi-sharqiy va janubiy “qo‘snilari”, mos tarzda sobiq Ittifoq davlatlari, o‘z ichiga olish uchun nafaqat Yevropaning siyosiy, balki an’anaviy chekllovleri ostida bo‘ladi. Shimoliy Afrika bilan birgalikda Turkiya va Yaqin Sharq ham (Grasland va Van Hamme. 2011). Bu barcha hududlarda inson oqimi Yel hududi bilan kuchli funksional aloqalar, FDI, tovarlar va xizmatlar savdosini yoki havo aloqalari mavjuddir. Biroq bu aloqalar muvozanatga solinmagan va “aniq va ikkinchi darajali” aloqalar singari siyosiy-iqtisodiy o‘ylashlardan tas-

virlanishi mumkin. Shimoli-sharqiy va Shimoliy Yevropaning asosiy davlatlari asosan o‘rtacha va yuqori texnologik miqdori bilan xizmat va tovarlarni sotadi, ular xom materiallarni (Rossiya, Jazoir, Liviya va boshqalardan), asosan energiyani va past-qo‘silgan qiymatli ishlab chiqaruvchi tovarlarni (Marokash, Tunis, Misr va Turkiyadan) sotib oladi. Inson oqimi uchun, asosan talabalar va sifatli ishchilar hali ham imkoniyatlar zamini sifatida qabul qilingan G‘arbiy Yevropa orqali o‘ziga jalb qilinadi, turistlar oqimi esa qarama-qarshi yo‘nalishni oladi. Natijada, Yevropa uning qo‘shnilariga muhimroq ko‘rinadi. Umumiyligda, funksional aloqalarni qabul qilishda Yel chegaralari umumiy holatda uning chegaralari ulkan tarzda masofa bilan kamayishi ostida Yevropa ta’sirida tushunarsiz ko‘rinadi, ammo ular, shuningdek, assimetrik sifatida ko‘rinadi va bu chegaralar bo‘ylab inson va iqtisodiy oqimlar muvozanatlashmagan².

1.2. Mintaqaviylashuvning nazariy masalalari

Mintaqa deganda, hududiy-iqtisodiy va milliy-madaniy kompleksli muayyan hudud tushuniladi, uning geografik, tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy-tarixiy, milliy-madaniy sharoitlari bir xil bo‘ladi va ushbu hududni boshqalardan ajratishga asos bo‘ladi deb aytish mumkin.

Hududning alohida ko‘rinishi, spetsifik yaxlitlik bilan xarakterli yirik hududiy birlik. Tabiiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa turdagagi mintaqalarga ajratiladi.

Sotsiomadaniy “Ko‘pning birlikda bo‘lishi”, turli tashqi va mahalliy omillar hisobga olingan holda hayot sifatini ta’minlaydi. Yevropa mintaqashunosligida mintaqalarni davlatdan keyingi davlat va individ o‘rtasidagi hududiy taksonomik birlik.

Hayotiy faoliyatning elita namunasi. Mintaqalarni ajratishda sotsiomadaniy kod ustuvorlik qiladi. U tabiiy-geografik, geosiyosiy, geo-iqtisodiy va boshqa alomatlardan tashkil topadi.

Mintaqaviylashuv (Regionalization)

Mintaqaviylashuv hududiy xususiyati asosida iqtisodiy, madaniy, siyosiy, iqtisodiy jihatdan davlatlarning bir-biriga yaqinlashuv jar-

² Petty Pain and Gilles Van Hamme. Changing urban and regional relations in a globalizing world. Edvard Elgar. 2014.

yoni. Bu davlat va davlatdan yuqori darajada qarorlar qabul qilish jayronida davlat hokimiyatining bir qism funksiyasini o‘zida qamrab olgan turli institutlarning vujudga kelishi va rivojlanishi jarayonidir. Ya’ni mintaqalarning institutsional maqomga ega bo‘lishi. Bildirilayotgan ta’riflarda globallashuv xalqaro munosabatlarning mintaqaviylashuviga ergashib boradi, davlat funksiyalarining bir qismi xalqaro yoki millat usti darajaga beriladi.

Jahon regionalizmi globallashuv bosqichlaridan biri bo‘lishi bilan birga unga qarama-qarshi tendensiyadir. Boshqacha aytganda, mintaqaviylashuv markazlashgan tizimdan markazlashmagan tizim tomonga o‘tish tendensiyasi. Bugungi kunda ko‘pgina rivojlanayotgan davlatlar mintaqaviy integratsiyada global raqobatga qarshi turishga urinishni ko‘rishadi. Funksional belgisiga ko‘ra, geosiyosiy, iqtisodiy, madaniy mintaqaviylashuv farqlanadi. Jahon tizimi va nazariy asosga bog‘liq holda jahon shkalasida muhim va muhim bo‘lmagan qism yagona jahon tizimi ichida assimetrik va teng bo‘lmagan aloqalar mavjudligi bilan belgilanadi. Asosiy jahon iqtisodiy regionlarining foydasiga to‘plangan (kapital, bilim va odamlar) miqdori markaz va aglomeratsiya hududlari o‘rtasida noteng rivojlanishlar mavjudligini ko‘rsatadi. Shunga qaramay, markaz va aglomeratsiyalarning rivojlanganlik darajalarini noteng munosabatlar deb xarakterlab bo‘lmaydi³.

Xalqaro mintaqashunoslik fanida geosiyosiy mintaqaviylashuvda “katta makonlar”ning shakllanishi va ajratilishi, ularning harbiy-siyosiy va iqtisodiy qudrati jahon gegemoniga qarama-qarshi turishi mumkin.

Iqtisodiy mintaqaviylashuvda mintaqaviy guruhlar chegaralarida erkin savdo zonasi, bojxona ittifoqi va umumiy bozorni bosqichma-bosqich shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Iqtisodiy mintaqaviylashuv ikki asosiy shaklda namoyon bo‘ladi: birinchidan, mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik, ikkinchidan, mintaqaviy iqtisodiy integratsiya. Mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik davlat suverenitetini cheklamaydi va

³ Petty Pain and Gilles Van Hamme. Changing urban and regional relations in a globalizing world. Edvard Elgar. 2014, 13 b.

koordinatsiya metodiga amal qiladi. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya esa aksincha, subordinatsiya metodiga amal qiladi.

Madaniy mintaqaviylashuv sotsiomadaniy xususiyatlari bilan farqlanuvchi madaniy mintaqa va submintaqalarning rivojlanish jarayoniga e'tibor qaratadi.

Regionalizm – muayyan mintaqa manfaatlari asosida iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va boshqa muammolarni o'rganish va hal etish yondashuvi. Regionalizm mintaqa xususiyatlari asosida shakllangan turli mintaqalardagi jarayonlar va institutlar borasidagi qarashlar va amaliyotlar tizimi.

1.3. Mintaqalar tasnifi

Boshqa bir asosiy manfaat regionalizatsiya jarayoni globallashuvga bog'langanmi yoki antinomikmi. Ikkinci farazda, regionalizatsiya jarayoni ichki integratsiyani oshiradi, ammo asosan bojxonato'lovi orqali global integratsiyani pas0aytiradi. Birinchi farazda, qarama-qarshi holatda shu narsa ta'kidlanadiki, regionalizatsiya global savdoni ta'minlaydi. 1990-yillardagi ideologik muhitda, Yevropa integratsiyasi YeI 1993-yilda xizmatlar va tovarlarning erkin aylanishi bilan butunlay integratsiyalanganda potensial xavf sifatida ko'pgina iqtisodiy mualliflar orqali qabul qilingan (Krugman, 1991; Frankel, 1995). Asosiy qo'rquv shundaki, ichki iqtisodiy integratsiya iqtisodiy jarayon uchun eng zo'r muhit sifatida (neo) liberal mualliflar orqali ko'rib chiqilgan jahon erkin savdosi bo'lган iqtisodiy ko'pdavlatlilikni cheklash sifatida harakatlanuvchi iqtisodiy bojxona orqali birlashishi mumkin (Richard va Zanin, 2009). Biroq, 1990-yillarning oxirida bu qo'rquvlar pasaygandek tuyuladi va hududiy erkin savdo kelishuvlari haqida qarashlar butunlay o'zgargan. Albatta, ko'pgina mualliflar shuni ko'rsatishdiki, ichki tarzda integratsiyalashgan makrohududlar iqtisodiy himoyalangan hududlarga olib bormadi (Anselin va O'Lofin. 1996: Poon, 1997). Qarama-qarshi holatda ichki va tashqi savdo yuqori darajalarda rivojlandi.

Shu bois, regionalizatsiya haqida nazariy qarashlar rivojlangan ho-latda o'zgardi, bu vaqtida maqsad bir xilligicha qoldi: o'sayotgan liberalizatsiya va savdo. Ba'zi mualliflar uchun, regionalizatsiya ik-

kinchi darajali holat sifatida ko‘riladi, boshqalar uchun esa, bu global shkalada liberalizatsiyani to‘ldirishda muhimdir (Bhagvati, 1992; Mashayeki va Ito. 2005; Richard va Zanin. 2009). Bu ikkinchi qarash aniq tarzda 2009-yilgi jahon rivojlanishida Jahon Banki orqali qabul qilingan⁴.

Agar oxirgi maqsad asosan “uchinchи dunyo” deb ataluvchi mamlakatlar uchun jahon shkalasida iqtisodiy integratsiya bo‘lsa, makro-hududli integratsiya hozir keng tarzda bu maqsadga erishishda yaxshi yo‘l sifatida qabul qilinadi. Bu shuning uchunki, bunday integratsiya yuqori aglomeratsiya iqtisodlarini qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiy rivojlanishni kuchaytira oladi va liberalizatsiya cheklangan hududiy asosda siyosiy jihatdan yaxshiroq qabul qilinadi. Qisqa qilib aytganda, regionalizatsiya hozir umumiylar tarzda ijobiy jarayon sifatida ko‘riladi, chunki u savdo va global lashuvni ta’minlaydi va ta’minlanuvchi savdo hududiy iqtisodiy rivojlanishni o’stirishi kutiladi. Globallashuv tabiatidagi asosiy farq dastur va global lashuv qarashi sifatida milliy davlatning pasayishidir va shuning uchun bu jahon o‘zgarishini tu-shunishga eng zo‘r yo‘lni ko‘rsatib beradi. Bu asosda asosiy zamonaviy ijtimoiy jarayonlar global darajada sodir bo‘ladi, ya’ni milliy davlatlarning o‘rtacha darajasiz: transmilliy korporatsiyalar qudratining o‘sishi, yangi kommunikatsion texnologiyalar orqali qilingan madaniy almashinuvlar, muayyan joylarda kamroq o‘rnatilgan ijtimoiy jahon elitasining ko‘rinishi va turli xil darajalarda siyosiy qatnashuvlar⁵.

Zamonaviy dunyoda geografik alomatlariga ko‘ra G‘arb, Amerika va Sharq regionalizmi farqlanadi.

Xalqaro mintaqashunoslik fanida G‘arb regionalizmi deganda har qanday jamiyatda shaxs manfaat va huquqlarning ustuvorligiga asoslangan Yevropa mintaqaviylashuvi muvaffaqiyatli rivojlanayotganligi tushuniladi.

⁴ Petty Pain and Gilles Van Hamme. Changing urban and regional relations in a globalizing world. Edvard Elgar. 2014, 15 b.

⁵ Petty Pain and Gilles Van Hamme. Changing urban and regional relations in a globalizing world. Edvard Elgar. 2014.

Amerika mintaqaviylashuvi Amerika liberalizmi G'arb liberal qadriyatlaridan foydalangan holda yuqori texnologiyalar geografik periferiyasiga aylandi.

Sharq mintaqaviylashuvi avtoritar davlat hokimiysi bilan bosqichma-bosqich jahon bozoriga ochiq bo'lishga asoslanadi. Xitoy va boshqa Osiyo davlatlari Sharq mintaqaviylashuvidan foydalanmoqda.

Ko'pgina turli soha maktablari bu qarashni ko'rileyotgandek qabul qilsa, global shaharlar va tarmoq aloqasi farqlanuvchi sifatida ko'rildi, chunki bu shuni olg'a suradiki, Taylorning empirik "jahon shahar tarmog'i aloqasi Wallersteining jahon tizimlari tahlilidan keladi" nazariyasiga qaramasdan globallashuvning asosiy kuchi shaharlari bo'ladi.

Birinchidan, mintaqalar tasnifi bo'yicha makromintaqa, davlat darajasidagi mintaqqa va submintaqa kabi uch darajaga ajratiladi.

Makromintaqalarga global miqyosdagi yirik hududiy tuzilmalar tegishli bo'ladi. Masalan, makromintaqalarga Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro mintaqaviy guruuhlar kiradi.

Davlat zamonaviy xalqaro munosabatlarning asosiy subyekti hisoblanadi, u o'z vazifalarining bir qismini yuqori yoki quyi turuvchi mintaqaviy darajalarga beradi.

Submintaqa – asosiy mintaqalardan bir taksonomik pog'ona quyi turuvchi mintaqqa hisoblanadi.

Ikkinchidan, funksional belgilariga ko'ra, mintaqalarning bir qator turlari farqlanadi:

- Kollektiv xavfsizlikni ta'minlovchi yagona harbiy-strategik tizimga tegishli davlat geosiyosiy (geostrategik) mintaqani hosil qildi.

- Geosiyosiy (nizoli) mintaqqa.

- Ma'muriy mintaqqa – siyosiy-ma'muriy tuzumning taksonomik darjasini markaziy hokimiyat u orqali mintaqaviy siyosatini amalgamoshiradi.

- Iqtisodiy mintaqqa-xalqaro mehnat taqsimotida ixtisoslashgan ishlab chiqarish hududi.

- Sotsiomadaniy mintaqqa – tamadduniy kod uzoq vaqt davomida shakllangan hududiy birlik.

Yevropa mintaqashunosligi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga ko‘ra, Yevropa mintaqasi, transchegaraviy va muammoli mintaqalarga ajratiladi.

Yevropa mintaqasi bevosita davlat darajasidagi ma’muriy birliklar. Mintaqalari tegishli siyosiy vakolatlari mavjud hukumatga ega.

Transchegaraviy mintaqalari – ikki yoki bir qancha davlat chegara hududiy jamoalarini o‘z ichiga oluvchi mintaqalari. Unda konsolidatsiyalangan budjet iqtisodiy, transport, madaniyat, fan, ta’lim va ekologiya sohalarida qo‘shma dasturlarga ega bo‘ladi.

Muammoli mintaqalar. Kam rivojlangan, sanoati inqirozga yuz tutgan, qishloq xo‘jaligiga qaram bo‘lgan davlatlar muammoli mintaqalar maqomiga ega.

Iqtisodiy munosabatlariga ko‘ra:

- 1) Donor mintaqalari;
- 2) Depressiv mintaqalari.

Mintaqaviy hamkorlik darajalari:

Mintaqalararo hamkorlik, submintaqalararo hamkorlik, transchegaraviy hamkorlik.

Nazorat uchun savollar va topshiriqlar

1. Xalqaro mintaqashunoslikni fan sifatida ajralib chiqishiga nima sabab bo‘ldi va uning vazifalari (shartlari) qanday?
2. Xalqaro siyosiy mintaqalari geografik mintaqadan nimasi bilan farq qiladi?
3. Zamonaviy mintaqashunoslik tizimida qanday bo‘limlarni ajratib ko‘rsatish mumkin?
4. Xalqaro mintaqashunoslik faniga oid qanday yondashuvlar mavjud?
5. Xalqaro mintaqashunoslik fanining jadal rivojlanishi qachon boshlandi?
6. Mintaqashunoslik predmeti qaysi davrdan fan sifatida qabul qilindi?
7. Qaysi davr “Mintaqalar” deb nomlanadi va nima uchun?
8. Mintaqashunoslikning boshqa fanlar bilan o‘zaro qanday aloqadorligi mavjud?

9. Integratsion jarayonning ijobiy tarafi nimadan iborat?
10. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati nimada?
11. Integratsiyani o'rganishda pozitivistlar va kognitivistlar yondashuvlarida qanday farq bor?
12. "Tashkillashtirilgan integratsiya"dan "notashkiliy integratsiya" ning qanday farqi bor?
13. Yevropada borayotgan integratsion jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Xalqaro mintaqashunoslik fanini o'rganishning dolzarbliги haqidida ma'lumot tayyorlang.
2. Xalqaro mintaqashunoslik fanini jadal o'rganish davri mavzusida ma'lumotlar to'plang.
3. "Markaziy Osiyodagi mintaqaviylashuv" mavzusida ma'ruza tayyorlang.
4. "Mintaqaviylashuv-regionalistika" mavzusida ma'lumotlar tayyorlang.
5. "Mintaqaviylashuvdan asosiy maqsad nima?" mavzusida referat tayyorlang.
6. Integratsiya borasidagi ta'riflarni o'rganib, tahlil eting.
7. Yevropa Ittifoqi doirasida integratsion jarayonlarni mustahkamlash borasida olib borilayotga chora-tadbirlar haqida ma'ruza tayyorlang.
8. Hozirgi davrda mavjud integratsion birlashmalar haqida referat tayyorlang.
9. Markaziy Osiyo integratsiyasining xususiyatlari mavzusida referat tayyorlang.
10. Arab davlatlarida mavjud integratsion birlashmalar haqida referat tayyorlang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Kathy Pain. Changing Urban and Regional Relations in a Globalizing World. – USA, 2014. – 248p.

2. TimoBehr., JuhaJokela. Regionalism and global governance: the emerging agenda. –Notre Europe, 2011. – 67 p.
3. Rouben Azizian, Carleton Cramer. Regionalism, security and cooperation in Oceania. – USA: APCSS, 2015. – 172 p.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Барыгин И. Н. Международное регионоведение.–СПб.: Питер, 2016, 384 с.
2. Мухаммадсидиқов М.М. Замонавий халқаро муносабатларнинг минтақавий жиҳатлари (ўқув қўлланма) –Т: ТошДШИ, 2013. – 182 б.
3. Мухаммадсидиқов М.М. Хорижий Шарқ ва Ғарб мамлакатларида ижтимоий-сиёсий жараёнлар (ўқув қўлланма) Т: ТошДШИ, 2013, 160 б.
4. Muhammadsidiqov M.M. Sharq mamlakatlari xalqaro munosabatlari (o'quv qo'llanma). T.: ToshDSHI, 2017, 240 b.

2-BOB. MINTAQAVIY TARAQQIYOTNING TARIXIY JIHATLARI

Darsning maqsadi:

- talabalarga mintaqaga taraqqiyoti haqida ma'lumot berish;
- mintaqaviy taraqqiyotning bosqichlari haqida bilimlarini shakllantirish;
- yoshlar orasida sog'lom ma'naviy-ilmiy muhitni shakllantirish;
- mazkur ma'ruzani o'qitishdan ko'zlangan maqsad talabalar ning jahon siyosatida turli mintaqalar haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- talabalar turli mintaqalardagi mamlakatlarning siyosiy-ijtimoiy jarayonlari borasida tasavvur hosil qilishlariga ko'maklashish;
- usul va uslublardan foydalanish tajribasini oshirish hamda ilmiy tadqiqot ishlari, axborot-tahliliy yozishmalarni olib borish qobiliyatlarini rivojlantirish;
- talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo'llashni o'rgatishdan iborat.

Tushunchalar va tayanch iboralar: *Geotizim, regionalistika, integratsiya, xalqaro munosabatlar, iqtisodiy hamkorlik, madaniy hamkorlik, jahon siyosati, xalqaro siyosat, xalqaro tashkilotlar, globallashuv, tendensiya, global muammolar, mintaqalashtirish, xalqaro hamjamiyat, konsepsiya, demokratik dunyo g'oyasi, geosiyosiy jarayonlar, mintaqaviy integratsiya, erkin savdo hududi, bojxona ittifoqi.*

2.1. Mintaqaviy siyosatga doir ilmiy yondashuvlar

Ilmning tarixiy rivojlanishi, mintaqaviy jarayonlar tadqiqodlarining kengayishi va chuqurlashishi davomida mavjud bo'lgan ilmiy yondashuvlarning takomillashib, yangi ilmiy yondashuvlar, xususan, turli ilmlar doirasida yaratilgan yondashuvlar ishlab chiqiladi. Ularni sintez qilish natijasida fundamental tadqiqotlarni chuqurlashtirish va amaliy tadqiqotlarni kengaytirish, mintaqaviy rivojlanishning yanada murakkab nazariy va amaliy vazifalarini hal qilish imkonini beruvchi yondashuv va usullarning butun bir tizimi shakllanadi.

Mintaqalar rivojlanishi borasidagi tadqiqotlarning ilk va shuningdek, eng muhimlaridan biri – makon va zamon yondashuvi hisoblanaadi. Ushbu yondashuv ildizlari XX asrlardayoq vujudga kelgan nemis geografik maktabiga borib taqaladi. Uning asoschilari bo‘lib K.Ritter va A.Gettner hisoblanib, ular asosiy rol geografiyaga tegishli bo‘lgan “makon ilmi”ning asosiy tushunchalarini asoslab berishgan.


XX asrning o‘rtalarida makon qonun-qoidalari borasidagi qidiruvlarni ko‘plab xorijiy olimlar: V.Kristaller, A.Lesh, R.Xarshton va boshqalar olib borishgan. Makon haqidagi fikrlarni rivojlantirish bilan, R.Xarshton “vaqt”, zamon va makon paradigmasing asoslari” tushunchasini kiritdi.

Iqtisodchi olim B.B.Rodoman obyektlarning geomakonda harakat qilishining pozitsion tamoyilini shakllantirdi, unga asosan, mintaqalarning iqtisodiy rivojlanish darajasi ko‘p hollarda ularning ishlab chiqarish, ilm, madaniyat markazlariga nisbatan joylashgan o‘rnini bilan aniqlanadi.

Inson hayot faoliyatining uni o‘rab turgan tabiat va ijtimoiy-iqtisodiy muhit bilan uzlusiz zamon va makon jihatdan tashkil etilishi haqidagi fikr Shvetsiyadagi Lund matabining nazariyasi asosiga qo‘yilgan (rahbar prof. T.Xagerstrand). Ushbu nazariyaga asosan, individuumlarning bir-biri bilan, shuningdek, mehnat predmet va qurollari bilan aloqasi hayot faoliyatining sutkalik sikli, chegaralangan atrof-muhit va mikromakon darajasida amalga oshadi.

Zamon va makon tashkiloti insonlar va tabiatning birligi yoki ijtimoiy-geografik makonning birligiga asoslanadi. Inson birlikkari va alohida individuum maqsad va manfaatlarining hamjihatligiga ichki qarama-qarshiliklarning: ideologik, siyosiy, diniy, ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqalarning yengilishi natijasida erishiladi. Bularning har birini yengish ko‘plab qiyinchiliklar bilan o‘tib, kutilmagan natalarga olib kelishi mumkin.

Ijtimoiy-geografik makonning ijtimoiy va geografik tarkiblari o‘rtasida ham katta qarama-qarshiliklar mavjud. Bunga butunning har qanday qismi o‘z qonun-qoidalariga asosan rivojlanishi sababdir. Ijtimoiy qism tabiiy, geografik qismiga nisbatan jadalroq o‘zgaradi. Mazkur qarama-qarshilikning kengayishi global xarakterga egadir.



Ijtimoiy-geografik makon differensiyaga, ya’ni «o‘z» makonining xususiyat va parametrini saqlab qoluvchi tuzilmalarga: etnik, iqtisodiy, siyosiy makon birliklari bo‘linishga uchragandir.

Mintaqaviylashuvga bo‘lgan yana bir muhim ilmiy yondashuv – genetik yondashuv hisoblanadi. Bu yondashuv mintaqaviy tizimlar, ya’ni tarixiy rivojlanish jarayonidagi ijtimoiy-geografik maydonning genezis va evolyutsiyasini namoyon qilish imkonini beradi. Bunday yondashuv uning zamonaviy ahvolining o‘ziga xos jihatlarini tushuntirish, rivojlanish istiqbollarini belgilab olishga yordam beradi. Ummiy genetik yondashuvning bir turi bo‘lib etnogenetik yondashuv hisoblanadi va bu yondashuv o‘rganilayotgan jamiyatdagi etnos munosabatlarining xarakterini, shuningdek, aniq etnik birliklarga nisbatan «inson-tabiat» munosabatini aniqlab berish, milliy muammolarning yechimini topish imkonini beradi. Genetik yondashuv o‘rganilayotgan obyektlarning rivojlanish yo‘llarini namoyon qilish, mintaqaviy rivojlanish istiqbollarini asoslash, muqobil variantlar orasidan eng maqbul yo‘llarni tanlashda juda muhim o‘rin egallaydi.

Zamonaviy mintaqaviy tadqiqodlarda geotizimli yondashuv keng ishlatiladi. Bu yondashuv oddiyroq, organik jihatdan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan obyektlardan tuzilgan murakkab obyektlarning tuzilishini nisbatan chuqurroq o‘rganishga yordam beradi. Bunday aloqadorliklar vertikal, ya’ni bir obyekt tarkibiy qismi orasidagi aloqa bilan (masalan, landshaftda-relyef, tuproq, o‘simliklar orasida; shaharda-ishlab chiqarish, aholi, infratuzilma orasida), gorizontal, ya’ni tabiy va ijtimoiy obyektlarni o‘zaro bog‘lovchi aloqalar bilan bo‘lishi mumkin. Sababli aloqadorliklarni namoyon bo‘lishi va tahlili asosida obyektning kelib chiqishi va ahvoli borasidagi xulosalar chiqariladi.

Geotizinga yaxlit tuzulmalar, faoliyati ularning hududdagi (maydonidagi) o‘rniga va o‘rab turgan tabiiy muhitga bog‘liq bo‘lgan ko‘plab o‘zaro aloqador elementlar tegishlidir. «Geotizim» tushunchasi maydon obyektlarining (hududiy, ekvatorial, oyeroterial), tabiiy-hududiy va hududiy-ishlab chiqarish komplekslarning eng keng doirasini anglatish uchun qo‘llaniladi. Ushbu tushuncha, shuningdek, ekologik-ijtimoiy-iqtisodiy birliklarni ko‘rib chiqishda ham qo‘llaniladi.

“Chiqish” va “Kirish” aloqasi xarakteri bo‘yicha geotizimlar yopiq, ochiq va izolatsiyalangan turlarga bo‘linadi. Ochiq geotizimlarda atrof-muhit bilan keng tarzdagi almashinuv o‘rin egallaydi; yopiq geotizimlarda faqatgina massa bilan almashinuv yuzaga chiqadi, ammo energiya bilan emas; izolatsiyalangan geotizimlarda esa massaning ham, energiyaning ham quyilish va oqib chiqishi bo‘lmaydi. Geotizimning tashqi omillarga ta’sir qila olish qobiliyati, uni boshqara olish mumkin degan xulosaga kelishga imkon beradi. Boshqariladigan geotizimning o‘zgarish tezligi va doirasiga ko‘ra, geotizim optimal, keskin va halokatli bo‘lishi mumkin⁶.

Optimal holatda geotizim doimiy ravishda, qonun-qoidalar ning hech qanday buzilishisiz rivojlanishi ta’minlanadi. Buzz‘unchi ta’sirlar natijasida kelib chiqqan optimal holatdan chekinish geotizimning keskin holatga kelishiga olib keladi. Geotizim strukturasining tashqi impulslar natijasida shiddatli o‘zgarishiga halokat sifatida qaratadi.

Geotizimli yondashuv bilan birqalikda mintaqaviylashuvda, shuningdek, qayta ishlab chiqaruvchi yondashuv ham qo‘llaniladi. Ushbu yondashuv yuxlit mintaqaviy tizimlarni ichki element (tizimosti) larning o‘zaro bog‘liq birikuvlari sifatida o‘rganishni nazarda tutadi. Shuning bilan birqalikda, mintaqaviy qayta ishlab chiqarish jarayonlaridagi tadqiqodlarni o‘rab turgan tabiiy muhit bilan yaqin bog‘liqlikda, o‘zaro bog‘liq mintaqaviy tizimlar rivoji bilan muvofiqlashtirgan holda olib borish zarur. Qayta ishlab chiqarish yondashuvi mintaqaviy darajadagi iqtisodiy qonuniyatlarni o‘rganishda muhim o‘rin egallaydi.

Zamonaviy sharoitlarda mintaqaviy tadqiqodlar va mintaqaviy siyosat muammoviy yondashuv dolzarbligini yanada oshirmoqda. Ushbu yondashuvning mohiyati muammo—zamon va makon rivojlanishida qarama-qarshilikning mujassamlashgan ifodasi tushunchasidan iborat. Mantiq, metodologiya, psixologiya, kibernetika, pedagogika to‘qnashganda hozirgi paytda ilmning yangi sohasi—muammoning

⁶ Odilqoriyev X.T., Razzoqov D.X. Siyosatshunostlik. –T.: O‘qituvchi, 2008, 43 b.

umumiylar insonlarning maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatiga deatamaistik ta’sir ko‘rsatadi.

Ba’zi bir muammolarning keskinligi shu darajagacha yetdiki, hatto ular global xarakter kasb eta boshladi. Global muammolarni anglab yetish milliy yoki mintaqaviy muammo va qarama-qarshiliklar prizmasi orqali kelib chiqadi. Ko‘plab xilma-xil muammolar orasida darhaqiqat global bo‘lgan muammoni ajratib olish va shakllantirish uchun milliy va mintaqaviy doiradagi qarama-qarshilik va muammolarni aniqlash, milliy, davlat va mintaqaviy darajasidagi ularni hal qilish strategiyasini ishlab chiqarish zarur. Mintaqaviy rivojlanishning umumlashtirilgan nazariy modeli quyidagi mantiqiy zanjir yordamida namoyon qilinishi mumkin: qarama-qarshilik, muammo, ehtiyojlar-manfaatlар-aniq harakatlar orqali amalga oshiriluvchi maqsadlar.

Muammoviy yondashuvga geosiyosiy yondashuv bevosita aloqador hisoblanadi. Shuningdek, unga zamon va makon yondashuvi ham bog‘liqdir. Ushbu yondashuvda markaziy o‘rinni geografik maydonda ijtimoiy munosabatlari subyektlarining o‘zaro ta’siri hodisalarini o‘rganish egallaydi.

Ijtimoiy munosabat subyektlari manfaatlari maydon tashkilotining ma’lum qonun-qoidalarini tan olish – geosiyosatchi-olimlar ishining o‘ziga xos xususiyatidir. Geosiyosiy yondashuv mintaqaviy darajadagi boshqaruva qarorlarini qabul qilish va asoslashda muhim ahamiyatga ega.

Ko‘rib chiqilgan yondashuvlar mintaqaviy tadqiqodlarning aniq metodini tanlash va ishlatishda asos bo‘lib hisoblanadi.

2.2. Mintaqaviy tadqiqot metodlari

Tadqiqot yoki bilish metodi – bu oldiga qo‘ylgan maqsadga erishish usulidir. Bilish metodining majmuasi real hayotning barcha obyektlari va hodisalarini o‘zaro bog‘liqlik va rivojlanishda ko‘rib chiqish imkonini yaratadi. Bilishning asosini umumilmiy metodlar

⁷ Гладкий Ю.Н., Чистобаев А.И. Регионоведение: – М.: Гардарики, 2003, 11 с.

tashkil etadi. Ular bilan birgalikda, qisman ilmiy, maxsus metodlar yaratilgan. Agar umumilmiy metodlardan barcha ilmlarda foydalanssa, ikkinchilaridan-faqatgina aniq ilmiy sohalarda foydalansilgan. Mintaqaviy siyosatni ilmiy asoslash uchun umumilmiy metodlar bilan birgalikda xususiy metodlar ham ishlataladi. Foydalansilayotgan metodlar majmuasi naqadar keng bo'lsa, tadqiqot obyekti va predmetini bilish shunchalik chuqur, qabul qilinadigan qarorlar shunchalik asoslangan bo'ladi.

Qiyosiy-geografik metodlar majmui mintaqaviy tadqiqodlarda keng tarzda qo'llaniladi. Qiyoslash—bu bilish obyektlarining o'xshashlik va farqlarini o'matilishidir. Yetarlicha ko'p sonli obyektlar qiyoslanuvchi belgilar mavjudligida tasniflash amalga oshiriladi.

- obyektlar mavjudligida—obyektlarning bir guruh, tur, turosti, sinfga birlashishi amalga oshiriladi.

- obyektlarning turlarga bo'lish natijasida boshqa obyektlarni qiyoslash mumkin bo'lgan etalonlarning ajralib chiqish imkonini vujudga keladi. Etalonlarning metodi—qiyosiy-geografik metodning bir turi hisoblanadi.

Inson hayot faoliyati barcha vositalarining yaqin o'zaro aloqadorligi va o'zaro katta ta'siri obyektlarni u yoki bu belgilariga asosan tasniflashni qiyinlashtiradi. Bu holatlarda analogiya metodi qo'llaniladi. Uning mohiyati bir mintaqaviy qismni boshqa bir, shunga o'xshash tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlardagi qismlar bilan qiyoslashdan iborat. Ko'pincha ushbu metod o'zlashtirib bo'lingan huduqlar tajribasi bilan qiyoslash asosida yangi o'zlashtiriluvchi mintaqalar rivojlanish strategiyasi, tanlash uchun qo'llaniladi.

Statistik metod statistik ma'lumotlarni, sohaviy va mintaqaviy ma'lumotlar bankini qo'llashga asoslanadi. U yig'ilgan ma'lumotlarni, ma'lumotlarning tizimlashtirilishini, obyekt holatiga ta'sir qiluvchi omillarga miqdoriy xarakteristika berish, obyektlarni aniq miqdoriy va sisfat xaracteristikalarini bo'yicha o'zaro qiyoslash imkonini beradi. Statistik metod doirasida quyidagi metodlar qo'llaniladi: o'rtacha kattalikni aniqlash metodi, dispers tahlil metodi, qiyosiy metod, korrelyatsion-regression tahlil, balans metodi.

Mintaqaviylashuv mintaqaviy tadqiqot metodlari orasida nisbatan kech yuzaga kelgan metod, bu siklik metod hisoblanadi. Uning yordamida mintaqa ishlab chiqariluvchi jarayonlarning, xomashyodan va energiyadan boshlab tayyor mahsulotgacha, texnologik ketma-ketligini aniqlash mumkin⁸.

Mintaqaning ishlab chiqarish jarayonini tahlil va bashorat qilish, uning iqtisodiyotini keyinchalik eng muhim umumiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasiga chiqishni diagnostika qilishda "chiqim chiqarish" metodi yoki mintaqaviy sohalararo balansni ishlab chiqarish metodi qo'llaniladi.

Mintaqalar rivojining qisqa muddatli va uzoq muddatli bashoratini yoki istiqbolini ishlab chiqishda, turli xil gipotezalar rivojining ehti-molli yo'llarini ilgari surish va tahlil qilishda modellashtirish metodi, shu jumladan, matematik va mantiqiy modellashtirish qo'llaniladi⁹. Matematik modellar shakllantiruvchi metodlar sirasiga, mantiqiy modellar esa—shakllanmaydigan metodlar sirasiga kiradi, chunki ular verbal modellar—timsol, definisiya va boshqalar, grafik modellar—blok va kartografik modellar—azero va kosmik suratlarga asoslanadi.

Mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojining uzoq muddatli prognozlarning ishlab chiqilishi bilan dasturiy-maqsadiy metod ham bog'liq hisoblanadi. Bu metod ushbu rivojlanishning maqsadlarini shakllantirish, ularning maqsadostilarga bo'linish, kelishilgan holda amalga oshirilishi uchun kerakli bo'lgan resurslarni aniqlanishiga asoslangan. Mintaqalar rivojlanishining maqsadli majmuaviy dasturi ishlab chiqilmoqda.

Ko'rib chiqilgan mintaqaviy tadqiqot metodlarining har biri mintaqaviy siyosatning aniq vazifalarini hal etish uchun qo'llaniladi.

Shunday qilib, mintaqalarni o'rganishdagi ilmiy yondashuv va metodlarning xilma-xilligi mintaqalar haqidagi fanda plyuralizmning ortishidan darak beradi. Ilmiy tadqiqot natijalari mintaqaviy qurilish amaliyotiga yanada ko'proq ta'sir ko'rsatib bormoqda, xalqaro tajriba o'mining ahamiyati oshmoqda.

⁸ Гладкий Ю.Н., Чистобаев А.И. Регионоведение-М.:Гардарики, 2003, 13 с.

⁹ Nye J.S. International regionalism. Readings. Boston, 1968, 43 с.

Mintaqaviy rivojlanish borasidagi mavjud bo‘lgan g‘arbcha fikrlar MDH davlatlarida iqtisodiy reformalarni amalga oshirishda, mintaqalararo hamkorlik tizimini tartibga solishda qo‘llanilishi mumkin.

Nazorat uchun savollar va topshiriqlar

1. Xalqaro mintaqashunoslikni boshqa itimoiy-gumanitar fanlar bilan qanday bog‘liqligi bor?
2. Xalqaro siyosiy mintaqadagi geografik mintaqadan nimasi bilan farq qiladi?
3. Zamonaviy mintaqashunoslik tizimida qanday bo‘limlarni ajratib ko‘rsatish mumkin?
4. Xalqaro mintaqashunoslik faniga oid qanday yondashuvlarni bilasiz?
5. Xalqaro mintaqashunoslik fanining mamlakatshunoslik fanidan qanday farqi bor?
6. Mintaqashunoslik fani qaysi davrdan boshlab fan sifatida qabul qilindi?
7. Qaysi davr “Mintaqalar” deb nomlanadi va nima uchun?
8. Qaysi mintaqadagi integratsiya jarayonini muvaffaqiyatli deb hisoblaysiz?
10. Iqtisodiy integratsiya nimani anglatadi?
11. Integratsiyaning bosqichlarini sanab o‘ting?

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Mavjud mintaqalarning imkoniyatlari haqida ma’lumot tayyorlang.
2. Xalqaro mintaqashunoslik fanini o‘rganishning dolzarbligi mavzusida ma’lumotlar to‘plang.
3. “Janubiy Osiyodagi mintaqaviylashuv” mavzusida ma’ruza tayyorlang.
4. “Mintaqaviylashuv-regionalistika” mavzusida ma’lumotlar tayyorlang.
5. “Mintaqaviylashuvdan asosiy maqsad nima” mavzusida referat tayyorlang.
6. Integratsiya borasidagi ta’riflarni o‘rganib tahlil eting.

7. Markaziy Osiyo mintaqasi doirasida integratsion jarayonlarni mustahkamlash borasida olib borilayotga chora tadbirlar haqida ma’ruza tayyorlang.
8. Hozirgi davrda mavjud integratsion birlashmalar haqida referat tayyorlang.
9. Yevropa integratsiyasining xususiyatlari mavzusida referat tayyorlang.
10. Shimoliy Arab davlatlarida mavjud integratsion birlashmalar haqida referat tayyorlang.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

Asosiy adabiyotlar

- 1.Kathy Pain. Changing Urban and Regional Relations in a Globalizing World. – USA, 2014, 248p.
- 2.TimoBehr., JuhaJokela. Regionalism and global governance: the emerging agenda. – Notre Europe, 2011, 67 p.
- 3.Rouben Azizian, Carleton Cramer. Regionalism, security and cooperation in Oceania. – USA: APCSS, 2015, 172 p.

Qo‘sishimcha adabiyotlar

1. Барыгин И. Н. Международное регионоведение. – СПб.: Питер, 2016, 384 с.
2. Мухаммадсидиков М.М. Замонавий халқаро муносабатларнинг минтақавий жиҳатлари (ўқув қўлланма) –Т: ТошДШИ, 2013, 182 б.
- 3.Мухаммадсидиков М.М. Хорижий Шарқ ва Ғарб мамлакатларида ижтимоий-сиёсий жараёнлар (ўқув қўлланма). –Т: ТошДШИ, 2013, 160 б.
4. Muhammadsidiqov M.M. Sharq mamlakatlari xalqaro munosabatlari (o‘quv qo‘llanma). – T: ToshDSHI, 2017, 240 b.

3-BOB. XALQARO MINTAQASHUNOSLIKNING METODOLOGIK ASOSLARI

Darsning maqsadi:

- mazkur ma’ruzani o‘qitishdan ko‘zlangan maqsad—talabalar xalqaro mintaqashunoslik haqida tasavvurga ega bo‘lishi;
- xalqaro mintaqashunoslik fani yuzasidan talabalarning bilimlarini chiqurlashtirish;
- turli mintaqalardagi mamlakatlarning siyosiy-ijtimoiy jarayonlari borasida tasavvur hosil qilishlariga ko‘maklashish;
- usul va uslublardan foydalanish tajribasini oshirish;
- ilmiy tadqiqot ishlari, axborot-tahliliy yozishmalarni olib borish qobiliyatlarini rivojlanтирish;
- talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo‘llashni o‘rgatishdan iborat.

Tushunchalar va tayanch iboralar: *xalqaro mintaqashunoslik, sotsiomadaniylik, mintaqaviylashuv, regionalistika, mintaqaviy hamkorlik, integratsiya, xalqaro munosabatlar, jahon siyosati, xalqaro siyosat, xalqaro tashkilotlar, globallashuv, tendensiya, global muammlar, mintaqalashtirish, xalqaro hamjamiyat, konsepsiya, demokratik dunyo g‘oyasi, geosiyosiy jarayonlar, mintaqaviy integratsiya.*

3.1. Mintaqva va mintaqaviylashuvning nazariy masalalari

Mintaqa va mintaqaviylashuv masalasi XX asrning ikkinchi yaridan siyosatshunoslik va iqtisodiy fan olimlarini jiddiy o‘ylantirib kelayotgan masalalardan biridir. Turli mamlakatlarda bu masalaga turlicha yondashuvlar paydo bo‘ldi. Dastavval mintaqva tushunchasiga tarif berib o‘tamiz. Garvard universiteti professori Jozef Nayning ta’rifiga ko‘ra, geografik makon qo‘shti davlatlar o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lgan vaqt dagina mintaqaga aylanadi. O‘zaro bog‘liqlik mintaqachiida savdo oqimlari va diplomatik harakatlarning kuchayishiga olib keladi¹⁰.

¹⁰ J. S .Nye. International regionalism. Readings. Boston,1968. p.vii.

M.P. Komarovning “Mintaqalar infratuzilmasi” asarida mintaqaga quyidagicha ta’rif beriladi: mintaqqa bu qandaydir alomat va hodisalar majmui bo‘yicha ajratilgan hudud (akvatoriya) va hududiy bo‘linish tizimida birlik sifatida namoyon bo‘ladi¹¹.

Rus olimi Gladkiyning fikriga ko‘ra, mintaqqa deganda yirik tabiiy-geografik, iqtisodiy-geografik, geosiyosiy va boshqa taksonlar anglanadi¹². Boshqa bir rus olimlari mintaqqa tushunchasiga boshqa ta’riflarni keltirishadi. 1983-yil E.B. Alayevning tavsifiga ko‘ra, boshqa hududlardan o‘z unsurlari bilan farq qiluvchi tarkibiy unsurlari o‘zaro bog‘langan yaxlitlikka ega hududga mintaqqa deb hisoblagan. Rus olimi Makarevich 1997-yilda umuman boshqa bir fikrni aytadi. Unga ko‘ra mintaqqa - yer, havo, flora, fauna va insonlardan iborat kompleks, unda unsurlar bir-biri bilan alohida munosabatda bo‘ladi. Mintaqqa bir-biriga yaqin davlatlar guruhi bo‘lib, u yerda alohida iqtisodiy – geografik birlikka ega, milliy tarkib va madaniy jihatdan yaqin yoki ijtimoiy - siyosiy qurilish jihatidan bir turga mansub hudud. Ta’riflardan shu xulosa kelib chikadiki, mintaqaning asosiy xususiyati geografik yaqinlik, yaxlitlik va o‘zaro bog‘langanlikdir.

Keng ma’noda mintaqqa deganda, hududiy-iqtisodiy va milliy-madaniy kompleksli muayyan hudud tushuniladi, uning geografik, tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy-tarixiy, milliy-madaniy sharoitlari bir xil bo‘ladi va ushbu hududni boshqalardan ajratishga asos bo‘ladi¹³.

Yana bir rus mutaxassisi V.A. Dergachevning 2004-yilda nashr etilgan mintaqashunoslikka atalgan kitobida mintaqqa tushunchasiga ta’rif beriladi¹⁴:

¹¹ Комаров М.П. Инфраструктура регионов мира: – СПб.: Изд-во Михайлова В.А., 2009, 9–14 с.

¹² Гладкий Ю.Н., Чистобаев А.И. Регионоведение: – М.: Гардарики, 2003, 32 с.

¹³ Восток/Запад: Региональные подсистемы и региональные проблемы международных отношений. Учебное пособие / Под редакцией А.Д. Воскресенского. – М.: Московский государственный институт международных отношений (Университет); «Российская политическая энциклопедия» (РОССПЭН), 2002, 6. с.

¹⁴ Дергачев В.А. Регионоведение. – М.:ЮНИТИ-ДАНА. 2004, 45 с.

1) Hududning alohida ko‘rinishi, spetsifik yaxlitlik bilan xarakterli yirik hududiy birlik. Tabiiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa turdag'i mintaqalarga ajratiladi.

2) Sotsiomadaniy “Ko‘pning birlikda bo‘lishi”, turli tashqi va mahalliy omillar hisobga olingan holda hayot sifatini ta’minlaydi. Yevropa mintaqachiligidagi mintaqada davlatdan keyingi davlat va individ o‘rtasidagi hududiy taksonomik birlik.

3) Hayotiy faoliyatning elita namunasi. Mintaqalarni ajratishda sotsiomadaniy kod ustuvorlik qiladi. U tabiiy - geografik, geosiyosiy, geoijtisodiy va boshqa alomatlardan tashkil topadi.

Mintaqashunoslikda uch asosiy taksonomik mintaqaviy darajalariga ajratiladi: davlatdan yuqori turuvchi (mintaqaviy guruhlar), mamlakat va davlatning ichki darajalari¹⁵.

Mintaqashunoslikning nazariy va metodologik asosi bo‘lib regionalistika keladi.

Jahon regionalizmi globallashuv bosqichlaridan biri bo‘lishi bilan birga unga qarama-qarshi tendensiyadir. Globallashuv xalqaro munosabatlarning mintaqaviylashuviga ergashib boradi, davlat funksiyalarining bir qismi xalqaro yoki millat usti darajaga beriladi.

Ko‘pgina rivojlanayotgan davlatlar mintaqaviy integratsiyada global raqobatga qarshi turishga urinishni ko‘rishadi. Funksional belgisiga ko‘ra, geosiyosiy, iqtisodiy, madaniy mintaqaviylashuv farqlanadi.

Geosiyosiy mintaqaviylashuvda “katta makonlar”ning shakllanishi va ajratilishi, ularning harbiy-siyosiy va iqtisodiy qudrati jahon gegemoniga qarama-qarshi turishi mumkin.

Iqtisodiy mintaqaviylashuvda mintaqaviy guruhlar chegaralarida erkin savdo hududi, bojxona ittifoqi va umumiy bozorni bosqichma-bosqich shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

Madaniy mintaqaviylashuv:

Sotsiomadaniy xususiyatlari bilan farqlanuvchi madaniy mintaqada va submintaqalarning rivojlanish jarayoniga e’tibor qaratadi.

Zamonaviy dunyoda geografik alomatlariga ko‘ra g‘arb, Amerika va sharq regionalizmi farqlanadi.

¹⁵ O’sha joyda

Har qanday jamiyatning manfaat va huquqlarida shaxs manfaat va huquqlarining ustuvorligiga asoslangan Yevropa regionalizmi muvafaqiyatli rivojlanmoqda.

Amerika liberalizmi G‘arb liberal qadriyatlaridan foydalangan holda yuqori texnologiyalar geografik periferiyasiga aylandi.

Xitoy va boshqa Osiyo davlatlari Sharq regionalizmidan foydalanganmoqda, avtoritar davlat hokimiyati bilan bosqichma-bosqich jahon bozoriga ochiq bo‘lishga asoslanadi.

Iyerarxik alomatlariga ko‘ra makromintaqaviy, davlat va submin-taqaviy darajalarga ajratiladi¹⁶.

Makromintaqalarga global miqyosdagi yirik hududiy tuzilmalar tegishli bo‘ladi. Masalan, makromintaqalarga Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro mintaqaviy guruqlar kiradi.

Davlat zamonaviy xalqaro munosabatlarning asosiy subyekti hisoblanadi, u o‘z vazifalarining bir qismini yuqori yoki quyi turuvchi mintaqaviy darajalarga beradi.

Submintaqa bu asosiy mintaqalardan bir taksonomik pog‘ona quyi turuvchi mintaqqa hisoblanadi.

Funksional belgilariga ko‘ra mintaqalarning bir qator tiplari farqlanadi.

1) Kollektiv xavfsizlikni ta‘minlovchi yagona harbiy-strategik tizimga tegishli davlat geosiyosiy (geostrategik) mintaqani hosil qiladi.

2) Ma’muriy mintaqqa - siyosiy-ma’muriy tuzumning taksonomik darajasi markaziy hokimiyat u orqali mintaqaviy siyosatini amalga oshiradi.

3) Iqtisodiy mintaqqa - xalqaro mehnat taqsimotida ixtisoslashgan ishlab chiqarish hududi.

4) Sotsiomadaniy mintaqqa-tamadduniy kod uzoq vaqt davomida shakllangan hududiy birlik.

Yevropa regionalizmi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga ko‘ra, Yevropa mintaqalari transchegaraviy va muammoli mintaqalarga ajratiladi.

¹⁶ Дергачев В.А. Регионоведение. – М.: ЮНИТИ - ДАНА, 2004, 45 с.

Transchegaraviy mintaqasi – ikki yoki bir qancha davlat chegara hududiy jamoalarini o‘z ichiga oluvchi mintaqadir. Unda jamlangan budjet iqtisodiy, transport, madaniyat, fan, ta’lim va ekologiya sohalarida qo’shma dasturlarga ega bo‘ladi.

Kam rivojlangan, sanoati inqirozli qishloq xo‘jaligi davlatlari muammoli mintaqalar maqomiga ega.

Xalqaro munosabatlarda mintaqaviy lashuvga bag‘ishlangan dolzarb nazariy yondashuvlar mavjud. Bular geosiyosiy, ijtimoiy, siyosiy-iqtisodiy, geografik nazariya va konsepsiyalaridir.

Geosiyosiy nazariyalar an’naviy (davlat) geosiyosat, yangi geosiyosat (geoiqtisod) va eng yangi geosiyosat (tamaddunlar geosiyosati).

3.2. Mintaqaviy raqobat masalasining nazariy va konseptual asoslari

Ko‘p qutbli dunyo tartiboti nazariyasi bir qancha makromintaqlarning geosiyosiy qutblar bilan birlgilikda mavjud bo‘lishiga tayandadi.

Buyuk makonlar nazariyasi nemis huquqshunosi, siyosatshunos va faylasufi Karl Shmidtning geosiyosiy ta’limotidir. Uning asosida bir qancha buyuk davatlarning yagona strategik blokka birlashishi yotadi.

Buyuk makon mafkuraviy jihatdan kuchli davlatning hukmronligi ostida bo‘ladi.

Geoiqtisodiy strategiya “hayotiy manfaatlar zonasasi” nazariyasi ning asosi bo‘ldi, u AQSHning dunyoning turli mintaqalarida iqtisodiy manfaatlari mayjudligiga asoslanadi.

Samuel Koen, E.Xantington, N.Spaykman, J.Kiffer va boshqa olimlarning asarlarida yangi geosiyosatning asoslari ochib hamda geoiqtisodiy urushlar yo‘li bilan jahonga hukmronlik qilish yutuqlari asoslab beriladi.

Fernan Brodelning dunyo-iqtisod to‘g‘risidagi ta’limoti regionalistika va geoiqtisodda katta ahamiyatga ega. Uning nazariyasida jahon iqtisodiyoti markazlarining mintaqalardan mintaqalarga ko‘chishi yoritiladi.

Immanuel Vallerstaynning jahon tizimlari nazariyasi uning “Zamnaviy jahon tizimi” (1974), ”Kapitalistik jahon iqtisodiyoti” (1979), “Siyosiy dunyo iqtisodi”(1984) va boshqa asarlarida bayon qilingan.

Jahon kon'yunkturasi sikli to‘g‘risidagi ta’limot Kondratev-Vallerstayn modelining yaratilishiga imkon berdi.

Britaniyalik geograf N.J. Taylor geoiqtisodiy monosentrizm ta’limotini ishlab chiqdi.

Olim davlatning geosiyosiy gegemonligini tadqiq qildi, u xalqaro munosabatlar iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy sohalarda mutlaq hukmronligi bilan izohlanadi.

Keyingi ko‘rib chiqiladigan masalalardan biri – bu mintaqaviylik va mintaqaviylashuv masalasidir.

Mintaqaviylashuv – davlatlarning geografik joylashuvi asosida mintaqada iqtisodiy aloqalarning shakllanishidir.

Mintaqaviylik deganda esa, geografik jihatdan yaqin joylashgan davlatlar preferension tipdagи savdo bitimlari vositasida iqtisodiy hamjamiyatni shakllantirish anglanadi.

Ba’zi tahlilchilar mintaqaviylik deganda (aniqrog‘i, xalqaro mintaqaviylik), mamlakatlarning o‘zaro bog‘liqligi va milliy subyektlar manfaatlarining milliy chegaralardan chiqishi va mintaqaviy darajada bo‘lishi tushuniladi.

Keng ma’nodagi mintaqta tushunchasidan kelib chiqib, mintaqaviy tizimosti va mintaqalar shartli ravishda quyidagicha ajratiladi: geografik makromintaqalar: Osiyo, Amerika, Yevropa, Avstraliya va Okeaniya; mezomintaqalar: Markaziy, Shimoliy va Janubiy Amerika, Yevropa, Avstraliya va Okeaniya, Shimoli-sharqi, Janubi-sharqi, Janubiy, G‘arbiy va Markaziy Osiyo, Shimoliy Afrika, Sahro Afrikasi; mintaqalar (submintaqalar): Amerika markaziy, shimoliy va janubiy qismga ajratiladi; Yevropa shimoliy, sharqi, markaziy va janubiy qismga; G‘arbiy Osiyo Yaqin va O‘rta Sharqqa ajratiladi.

Bundan tashqari, tarixiy-madaniy mintaqalar ham ajratiladi: Xitoy, Koreya, Vyetnam (Vyetnam, Laos, Kambodja), Hind (Pokiston, Afg‘oniston, Eron va Tojikiston), Turk (6 davlatdan iborat), arab (22 davlatdan iborat), rus (Rossiya, Ukraina va Belarus), Yevropa (13 davlatdan iborat).

Shimoliy Amerika, Lotin Amerikasi va Afrika mintaqalari geosiyosiy an'analarini, integratsiya, etnolisoniy, etnomadaniy yoki etnopsixologik birlik parametrlari bo'yicha mintaqaviy birliliklarga birlashadi. Madaniy-diniy makromintaqalarga, konfutsiy-budda, yahudiylik, musulmon, provaslav, g'arbiy xristianlik, Lotin Amerikasi, Afrika, Tinch okeani mintaqalariga ajratiladi.

O'zbekistonlik siyosatshunos N.Qosimovning fikricha, mintaqaviylikni bir mintaqada davlatlararo guruhning shakllanishi deb ta'riflash mumkin. Mintqa esa geografik aloqalar bilan uzviy bog'langan, davlatlarning cheklangan soni va umumiy o'zaro bog'liqlikning muayyan darajasiga ega makondir¹⁷.

Mintaqaviylikning besh asosiy kategoriyasi mavjud:¹⁸

- Mintaqaviylashuv – mintqa ichidagi integratsiyaning o'sishini bildiradi. Ammo mintaqaviylashuv davlatlar chegarasiga mos kelmasligi mumkin.
- Mintaqaviy ong va identifikatsiya – unda mintqa ichida umumiy madaniyat, tarix, diniy an'analar mavjud bo'ladi.
- Davlatlararo mintaqaviy hamkorlik – mintqa ichida davlatlar turli sohalarda hamkorlikni amalga oshiradilar.
- Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya – turli shakldagi bitim va kelishuvlar orqali iqtisodiy integratsiya jarayoni shakllanadi.
- Mintaqaviy bog'lanish-mamlakatlar o'zaro bog'liqlikda bo'ladi.

Bella Belashi integratsiyaning asosiy besh bosqichini ajratib ko'rsatadi:¹⁹

1. Erkin savdo zonasasi.
2. Bojxona ittifoqi.
3. Umumiy bozor.
4. Valyuta va iqtisodiy ittifoq.
5. Siyosiy ittifoq.

¹⁷ Касымова Н.А. Глобализация и регионализм: связь и взаимодействия. Теоретические аспекты // Халқаро муносабатлар, №3, 2008, 15 с..

¹⁸ Касымова Н.А. Региональная интеграция: аспекты теории. // Халқаро муносабатларю, №3, 2005, 5–13 с..

¹⁹ Bella Bellachy. The theory of economic integration.–London: Macmillan, 1962.

Iqtisodiy integratsiya mintaqaviylashuv bilan yonma-yon sodir bo‘layotgan jarayondir. Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari o‘tgan asrning 50- yillarida G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida boshlangan bo‘lib, ishlab chiqarish kuchlarini o‘sishi va sifat o‘zgarishlari, xalqaro mehnat taqsimotini rivojlanishi va chuqurlashuvi, kapital va ishlab chiqarishni baynalmilallashuv jarayonlari, sanoati rivojlangan mamlakatlarning xalqaro iqtisodiy munosabatlarda baynalmilallashuviga bo‘lgan harakati bilan bog‘liqidir.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy sabablari fan-texnika taraqqiyoti (FTT) bo‘lib, u moddiy, moliyaviy, mehnat kabi ahamiyatli resurslar rivojini, shuningdek, ilmiy-texnikaviy sohada alohida mamlakatlarning birgalashib faoliyat yuritishlaridagi katta bozorlar yuzaga kelishini taqozo etadi. Iqtisodiy integratsiyaning bosh sabablardan biri – transmilliy korporatsiya (TMK)lar, ya’ni yirik xalqaro monopoliyalarning taraqqiyotidir²⁰.

Iqtisodiy integratsiyaning katta ahamiyatga ega bo‘lgan sababiyosiy omildir. Bu omil – davlatlarning integratsiya yordamida nufuzli siyosiy obro‘ qozonishga, dunyo hamjamiyatida yuqori mavqega ega bo‘lishga intilishidan iboratdir.

Erkin savdo hududi – iqtisodiy integratsiyalarning boshlang‘ich darjasи bo‘lib, u mamlakatlarning soliq to‘lashda maxsus imtiyoz tartibiga amal qiladigan alohida hududidir. Unga kiritilgan tovarlar boj va kvotalar to‘lovidan ozod etiladi va bojxona nazoratidan xoli bo‘ladi.

Bojxona ittifoqi – ikki yoki bir qancha davlatlarning bojlar bo‘yicha o‘zaro chegaralarni bekor qilish va yagona boj tarifi joriy etish yuzasidan o‘zaro kelishuvi.

Umumiy bozor – iqtisodiy integratsiyaning hammadan ko‘proq rivojlangan turi. Integratsiyalashgan mamlakatlar nafaqat tovar va xizmatlar erkin harakati haqida kelishishadi, balki ishlab chiqarish faktorlari – davlatlar o‘rtasida kapital va ishchi kuchlar borasida ham almashuvlar qilishadi. Iqtisodiy ittifoq – integratsiyaning oliy formasi bo‘lib, bunda qatnashuvchi mamlakatlar o‘z iqtisodiy siyosatlarini,

²⁰ Petty Pain and Gilles Van Hamme. Changing urban and regional relations in a globalizing world. Edvard Elgar, 2014.

shu jumladan, pul, soliq va ijtimoiy siyosatlarini, savdoga hamda ishchi kuchi va sarmoya ko'chib yurishiga nisbatan siyosatni muvofiqlashtiradilar. Unda bojxona tariflari, tovar va ishlab chiqarish faktorlari, mikroiqtisodiy siyosat koordinatsiyalari, valyuta, budget, pul sohalarida qonunchilikning unifikatsiyasi ko'rib chiqiladi.

To'liq iqtisodiy integratsiya – a'zo mamlakatlar guruhlari yagona iqtisodiy siyosatini o'tkazilishida qarab chiqilgan turlari aralashadi. Ular integratsion ittifoq chegarasida huquqiy qonunchilikning unifikatsiyasini, ya'ni birlashishini talab qiladi²¹.

XX asr oxirlariga kelib integratsiya jarayonining asosiy kuchi Osiyo-Tinch okeani (OTOH) hududida birlashdi. Ular o'zlarida mavjud gigant imkoniyat va kuchlar hamda 3,5 mlrd.ga ega bo'lgan aholisi bilan katta hududga ega bo'lishdi. Ushbu hudud hisobiga hozirda 565 turdag'i dunyo yalpi ichki mahsulotlarini ishlab chiqarish va jahon eksporti va importining 45% lik ulushi to'g'ri kelmoqda²².

Osiyo – Tinch okeani hududi integratsion jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:²³

- bu integratsiyaga iqtisodiyoti rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar jalb etiladi;
- integratsiya jarayonlari hududidagi mamlakatlar firma va korporatsiyalari o'rtaida asosan makroiqtisodiy darajalarning yuqorigligi;
- integratsiya jarayonlarining maxsus alohida hududlarda yuqori darajada kechishi;
- integratsion jarayonlari ham yuqori tayyorgarlikda tashkil etilmagan hududlarni rivojlantirishi;
- mavjud integratsion guruhlarning aniq ajratilmaganligi.

Osiyo – Tinch okeani hududi bir qator submintaqaviy birlashmalari, ya'ni Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi (ASEAN). Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati tashkiloti (ATES) –

²¹ Ишмухamedov А.Э., Суннатов М.Н., Шибаршова Л.И. Жаҳон иқтисодиётига интеграция. –Т.:ТДИУ, 2004, 67 б.

²² Маматкулов Х.М. Жаҳон иқтисодиёти ва халқаро иқтисодий муносабатлар. Ўқув қўлланма, –Тошкент, 2008, 224 б.

²³ Ўша жойда.

Avstraliya, Yangi Zelandiya erkin savdo hududi, Janubiy-Tinch okean forumi (YuTF), Tinch okeani iqtisodiy soveti (TES) dan tashkil topgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mintaqa va mintaqaviylashuv jarayonini o‘rganish iqtisodiy integratsiyani tushunishda katta ahamiyatga ega. Kelajakda asosiy iqtisodiy integratsiya guruhlarining tajriba va yutuqlaridan Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlarning sodir bo‘lishida foydalanish mumkin.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Xalqaro mintaqashunoslikning qanday metodologik usullarini bilasiz?
2. Erkin savdo hududi deganda nimani tushunasiz?
3. Mintaqa mamlakatlari o‘rtasida bojxona ittifoqi tuzish deganda qanday holat tushunish mumkin?
4. Xalqaro mintaqashunoslik fanini o‘rgatishdan maqsad nima?
5. Mintaqa davlatlari orasida valyuta va iqtisodiy ittifoqning tuzilishi nimani anglatadi?
6. Mintaqashunoslik fanini xalqaro munosabatlar nuqtai nazaridan o‘rganishning qanday ahamiyati bor?
7. Qaysi davr “Mintaqalar” deb nomlanadi va nima uchun?
8. Mintaqashunoslikning boshqa fanlar bilan o‘zaro qanday aloqadorligi mavjud?
9. Integratsion jarayonning ijobiy tarafi nimadan iborat?
10. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati nimada?
11. Integratsiyani o‘rganishda pozitivistlar va kognitivistlar yondashuvlarida qanday farq bor?

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Iqtisodiy integratsiyaning dolzarbliги haqida ma’lumot tayyorlang.
2. Siyosiy integratsiyaning mohiyati mavzusida ma’lumotlar to‘plang.
3. “Osiyodagi mintaqaviylashuv” mavzusida ma’ruza tayyorlang.

4. “Mintaqaviylashuv-regionalistika” mavzusida ma’lumotlar tuyyorlang.
5. “Mintaqaviylashuvdan asosiy maqsad nima?” mavzusida referat tayyorlang.
6. Integratsiya borasidagi ta’riflarni o‘rganib tahlil eting.
7. Janubiy Osiyo mintaqasi doirasida integratsion jarayonlarni mustahkamlash borasida olib borilayotga chora-tadbirlar haqida ma’ruza tayyorlang.
8. Hozirgi davrda mavjud integratsion birlashmalar haqida referat tayyorlang.
9. G‘arbiy Osiyo integratsiyasining xususiyatlari mavzusida referat tayyorlang.
10. Fors ko‘rfazi davlatlarida mavjud integratsion birlashmalar haqida referat tayyorlang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati **Asosiy adabiyotlar**

1. Kathy Pain. Changing Urban and Regional Relations in a Globalizing World. – USA, 2014. – 248p.
2. TimoBehr., JuhaJokela. Regionalism and global governance: the emerging agenda. –Notre Europe, 2011. – 67 p.
3. Rouben Azizian, Carleton Cramer. Regionalism, security and cooperation in Oceania. – USA: APCSS, 2015. – 172 p.

Qo‘srimcha adabiyotlar

1. Барыгин И.Н. Международное регионоведение. СПб.: Питер, 2016, 384 с.
2. Мұхаммадсидиқов М.М. Замонавий халқаро муносабаттарнинг минтақавий жиҳатлари (ўқув қўлланма) –Т: ТошДШИ, 2013, 182 б.
3. Мұхаммадсидиқов М.М. Хорижий Шарқ ва Ғарб мамлакатларида ижтимоий-сиёсий жараёнлар (ўқув қўлланма) –Т: ТошДШИ, 2013, 6.
4. Muhammadsidiqov M.M. Sharq mamlakatlari xalqaro munosabatlari (o‘quv qo’llanma). – T.: ToshDSHI, 2017, 240 b.

4-BOB. XALQARO MINTAQAVIY JARAYONLARNI MODELLASHTIRISHNING ASOSIY METODOLOGIK YONDASHUVLARI

Darsning maqsadi:

- mazkur ma’ruzani o‘qitishdan ko‘zlangan maqsad talabalarning zamonaviy xalqaro munosabatlarda integratsiya tushunchasi, integratsiya borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish;
- talabalar jahon hamjamiyatidagi mavjud integratsion birlashmalar borasida tasavvur hosil qilishlariga ko‘maklashish;
- talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo‘llashni o‘rgatish;
- xalqaro mintaqashunoslik fani yuzasidan bilimlarini chuqurlashtirish;
- turli mintaqalardagi mamlakatlarning siyosiy-ijtimoiy jarayonlari borasida tasavvur hosil qilishlariga ko‘maklashishdan iborat.

Tushunchalar va tayanch iboralar: *xalqaro munosabatlar, jahon siyosati, globallashuv, tendensiya, mintaqaviy integratsiya, global erkin savdo, dezintegratsiya, S. Xoffman, E. Xaas, U. Rayker, U. Fisher, federalizm, funksionalizm, kommunikatsiyaviy yondashuv, neofunktionalizm, xalqaro siyosat, xalqaro tashkilotlar, globallashuv, tendensiya, global muammolar.*

4.1. Xalqaro mintaqaviy jarayonlarni modellashtirishga nisbatan qarashlar

Ko‘pgina turli soha maktablari bu qarashni ko‘rilayotgandek qabul qilsa, global shaharlar va tarmoq aloqasi farqlanuvchi sifatida ko‘riladi, chunki bu shuni olg‘a suradiki, Taylorning empirik “jahon shahar tarmog‘i aloqasi Wallersteining jahon tizimlari tahlilidan keladi” nazariyasiga qaramasdan globallashuvning asosiy kuchi shaharlar bo‘ladi (Taylor, 2004; Brown, 2010). Taylor va uning izlanuvchilari, asosan, kapitalizm geografik jihatdan global rivojlangan servis iqtisod tashkiloti orqali strukturalangan yo‘lni bilishda muvofiq tahliliy

shkala sifatida shaharlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi (Taylor, 2000). Eng muhim narsa shuki, tahlil rivojlangan ishlab chiqaruvchi xizmatlar tarmog‘ining ishlayotgan amaliyotlari ishlashini ko‘rsatuvchi Sassenning “global shahar” konsepsiysi asosida quriladi. Sassenning fikriga ko‘ra, biz global lashuv bilan bog‘laydigan metropolitan, milliy va global darajalarda iqtisodiy jarayonlarning koinotga tarqalishiga doir yondashuvlar yuqori darajali boshqaruv va boshqaruv ope-ratsiyalari hududiy markazlashuvining yangi shakllari uchun talabga hissa qo‘shadi (Sassen, 2002, 3-bet). Bu yerdagi Tayloring tahliliy uslubi haqida qiziqish nuqtasi shundaki, tarmog‘ paradigmasi oqim-lar bo‘shlig‘ining yangi tarmoq paradigmasi bilan hududlar va milliy davlatlarning eski paradigmalarini o‘rnini egallovchi yangi linzalari orqali jahon rivojlanishini kuzatishimizga imkon beradi (Castells. 19%). Bu qarashga ko‘ra, (global) shaharlar faqatgina tarmoq ichidagi birlashgan joylar emas, balki ular turli holatga doir shkalalarda iqtisodiy jarayonning to‘ldiruvchi markazlashuvi va markazlashuv-dun qochishini global jarayonining bir qismidir. Bu konsepsiya asosiy joylar bo‘lgan global shaharlar ostida globallashuvning aloqador jarayonini tushunishimizga yordam beradi.

Taylor taklif qilganidek (2000), kapitalizmni anglash uchun Braudel nazariyasi (1979, 1995)ga qaytish lozim. Braudel nazariyasida kapitalizm va liberalizm sohalarda ularning ta’sirlarida mavjud g‘oyalarni nazarda tutuvchi ikkala nazariy aloqalarning murosaga kelishiiga imkon beradi. Braudelning qarasharida, kapitalizm bundan buyon bozor ishlamaydigan iqtisod zonasidir (iqtisodning yuqori qatlumi). Arrigi (1994, 8-b.) buni quyidagicha talqin qilgan:

Iqtisodning yuqori qatlami “katta daromadlar” bor yerda joylash-gan. Bu yerda daromadlar kattaligiga faqat kapitalistlar biznesning eng daromadli sektorlarini monopollashtirgani sabab bo‘lgani yo‘q; kapitalistlar qatlami o‘z sarmoyalarini kam natija beruvchi biznesga kiritishni borgan sari kamaytirayotgani ahamiyatliroq. Bunday vaziyatda transmilliy xususiy munosabatlardan axborot olish va moliyaviy aylanmalarni boshqarishda bozorlardan ko‘ra ko‘proq ahamiyatga ega. Braudel yondashuvi kapitalizm va davlat o‘rtasidagi murakkab dialektik munosabatlarni tushunishda ham yordam beradi.

Bir tomondan, kapitalistlar davlat hududidan tashqariga chiqishi, dunyo iqtisodiyoti bo‘ylab o‘z tizimlarini yo‘lga qo‘yishi kerak. Lekin boshqa tomondan, ular davlatga, uning qudratiga, monopoliyalar qurish va uni ushlab turish kabi qobiliyatiga muhtojdirlar (Wallerstein, 1974). Shuning uchun, avvaldan, kapitalizm chegaralash – boshqarish, nazorat qilish, davlat hududlari bo‘ylab bozorlar yaratish kerakligi va chegaralarni yo‘qotish, Braudel so‘zlari bilan aytganda, “Kapitalizm – bu iqtisodning shunday bir qismiki, u biznesning eng daromadli sohalarini egallash uchun davlat hududidan chiqib ketadi” (Sassen. 2007). Shunday ekan, o‘zining kapitalistlarini tashqarida qo‘llab-quvvatlashi uchun, davlatlar o‘z hududida qudratli bo‘lishi kerak. Lekin shu bilan birga, kapitalistlar davlat limitlaridan tashqariga chiqa olishi uchun, uning qudrati geografik jihatdan chegaralangan bo‘lishi lozim. Qadimdan kapitalizm qudratli davlat va transmilliy kapital o‘rtasidagi vosita bilan xarakterlangan: iqtisodiy chegaralari davlatning chegaralaridan kengroqdir. Shuning uchun, globallashuv davrida hech qanday o‘zgarishlar bo‘lgani yo‘q deyish mumkin: davlatning qudrati xalqaro iqtisodiy faktorlarning qudratini kuchaytiradi.

Lekin, o‘zak jarayonlar xuddi o‘sha bo‘lgani bilan, ularning mashtabi va intensivligi o‘zgargan: birinchidan, Braudelning Yevropa “iqtisod dunyo”si (“economiye-monde”) xalqaro bo‘ldi, ikkinchidan, oqimlar intensivligi oxirgi yigirma yillikda jadallahishib bormoqda. Xalqaro firmalar xalqaro ishlab chiqarish tarmoqlari bilan bu jarayonlarda markaziy rolni o‘ynamoqda (Dicken, 2003; Coye et al.. 2004). Bu global moliyaviy kapitallardagi o‘zgarishlar davlatlarning iqtisodiy qudratini sindirib, davlatlar va hududlar o‘rtasidagi kapitallar oqimini jalb qilishdagi raqobatning o‘sishiga sabab bo‘lmoqda (Brenner and Theodore, 2002). Masshtab va intensivlik o‘zgarishlari, tabiiyki, xalqaro tizim yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan sifat o‘zgarishlari sifatida talqin qilinishi mumkin (Brenner, 2001, 610-b). Davlat bu jarayonlardagi asosiy aktor bo‘lganiga qaramay, uning hudud jihatdan chegaralanganligi tashqaridagi jarayonlarga ta’sir qilish kuchi ancha susayganligiga olib keladi. Ijtimoiy va iqtisodiy tartibotlarning lokal va xalqaro miqyosda o‘zaro aralashuvi (Cochrane and Pain, 2000) transmilliy kuchlardan ortda qolayotgan

milliy davlatlar avtoritetiga shubha bildirmoqda (Robinson. 2011). Shu sababli, globallashuv jarayoni ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning subnatsional, regional va xalqaro iqtisodiy zonalar, boshqaruv mehanizmlari va madaniy komplekslar ko‘rinishda “reterritorializatsiya” lashishiga stimul bo‘ldi²⁴.

Ayni vaqtida integratsiyaning jarayon sifatidagi ba’zi o‘ziga xos sifat jihatlari ham ta’kidlanadi. Ularning bo‘lmasligi, Doych fikricha, muvaffaqiyatli rivojlanish imkoniyatlarini ancha kamaytiradi:

- vaqt omiliga katta ahamiyat beriladi: integratsiya jarayonining ishtirokchilari integratsiyada ishtirok etish tufayli zimmalardagi yukni sezishlaridan avvalroq haqiqiy foyda olgan taqdirdagina integratsiya jarayonini muvaffaqiyatli deb hisoblash mumkin;

- integratsiya jarayoni aksariyat hollarda integratsion birlashmaning qolgan a’zolariga nisbatan rivojlanganroq yoxud kuchliroq bir yoki bir necha siyosiy birlikdan iborat “kuch markazi” atrofida tashkil etiladi va muvaffaqiyatli rivojlanadi;

- integratsiya jarayoniga ishtirokchilar o‘rtasida urushlarni psixologik jihatdan qabul qilmaslikning chuqurlashuvi xos bo‘lib, yanada muhimrog‘i, «harbiy harakatlarga tayyorgarlikni institusionallashtirishga va urushni qonuniy asoslangan deb hisoblashga tayyorlikning pasayishi» xosdir;

- integratsiya rivojlanishi bilan siyosiy partiylar, diniy, iqtisodiy manfaatlar guruhlari kabilar o‘rtasidagi davlat ichki ajralishi (ichki milliy ajralish) o‘zining ichki milliy xususiyatini yo‘qotadi va borgan sari transmilliy xususiyat kasb etadi;

- ilgari integratsiyaviy birlashmaning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan asosiy siyosiy partiya yoki fraksiyalarning muayyan yangi g‘oya, shior, umummintaqaviy xususiyatga ega rejalarini maydonga olib chiqishlari bilan belgilangan.

²⁴ Petty Pain and Gilles Van Hamme. Changing urban and regional relations in a globalizing world. Edvard Elgar. 2014, 15 b.

4.2. Xalqaro mintaqaviy jarayonlarni modellashtirishning metodlari

K. Doych o‘z tadqiqotida muhit sharoitining noqulayligi oqibatida yuzaga keladigan omillarni ham keltiradiki, ularda xavfsizlik hamjamiyatini tashkil qilish uchun talab etiladigan barcha sharoitlar bo‘lgan taqdirda ham teskari dezintegratsiya jarayoniga olib kelishi mumkin bo‘lgan integratsiya rivojlanadi. Dezintegratsiyaviy sharoitlarning ikki guruhi farqlanadi:

1) integratsiya ishtirokchilariga yuklatiladigan vazifa ko‘payishiga olib keluvchi shartlar;

2) ishtirokchilarning vazifani bajara olish qobiliyatini pasaytiruvchi shart-sharoitlar.

Albatta, shunday ijobiy natijalarga qaramay, integratsiyaga kommunikatsiyaviy yondashuv ba’zi kamchiliklarga ham ega bo‘lgan. Uni S. Xoffman, R. Inglxart, K. Fridrix, E. Xaas, U. Rayker, U. Fisher kabi tadqiqotchilar tanqid qilganlar.

Birinchidan, K. Doych konsepsiyasining muammolariga u davlatlarning hokimiyat vakolatlari qay tariqa qayta qurilishi mumkinligini tushuntirmasligini kiritish mumkin.

Ikkinchidan, mazkur metodning jiddiy kamchiliklaridan biri, uning ijtimoiy kommunikatsiyalar o‘sishi odamlar ongiga o‘z-o‘zidan ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlashidir. Biroq obyektiv ijtimoiy rivojlanish ziddiyatli xususiyatga ega bo‘lib, ham markazga intiluvchi, ham markazdan qochuvchi tamoyillarni namoyon eta oladi..

Uchinchidan, integratsiya xususiyati va sur’atlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatuvchi ko‘pgina muhim omillar kommunikatsiyaviy yondashuvdan tashqarida qolgan.

Bundan tashqari, mazkur nazariya vakillari bir necha asrlar ilgari mavjud bo‘lgan voqealarni tahlil qilish asosida chiqarilgan xulosalarni qo‘llaganlarki, ularni hozirgi sharoitda korrelatsiyadan foydalansmay turib qo‘llab bo‘lmaydi, bu mutlaqo mumkin emas va olingan natijalarning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Neofunktionalistik tahlil siyosiy integratsiyani nazariy o‘rganishdagi yetakchi yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ko‘pchilik, hatto Yevropa integratsiyasining bugungi rivojlanishini neofunksio-

nalistlar ishlab chiqqan strategiyaga muvofiq, Yevropa Ittifoqining o‘zini esa mazkur konsepsiyaning asosiy qoidalarini tekshirish uchun deyarli ideal laboratoriya deb hisoblaydi.

Neofunksionalizmning yaratuvchisi va eng buyuk vakili E. Xaasdir. U funksionalizmning ayrim asosiy qoidalaridan foydalanib, global darajaga emas, balki mintaqaviy darajaga qo‘llagan holda o‘z konsepsiyasini ishlab chiqishga uringan.

Xaas o‘zining «Yevropaning birlashuvi: siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy kuchlar» kitobida siyosiy integratsiyaga quyidagicha ta’rif beradi: «Bu – bir qancha milliy tizimlar siyosiy hayotining ishtirokchilari o‘z sodiqligi, maqsadlari va siyosiy faoliyatini yangi markaz tomon yo‘naltirishga moyil bo‘lgan, institutlari mavjud milliy davlatlarga taalluqli bo‘lgan yoki bunga da’vo qiladigan jarayon». Shunday qilib, siyosiy integratsiya o‘z o‘lchamlari bo‘yicha milliy davlatdan ustun turadigan siyosiy hamjamiyatning shakllanishiga olib boruvchi jarayon sifatida ta’riflanadi. Bu jarayonning o‘ziga xos jihatni uning markaziy institutlariga nisbatan sodiqlikning mavjudligidir.

E.Xaas keyinroq F. Shmitter bilan birgalikda yozgan asarida siyosiy integratsiya deganda milliy maydonda faoliyat ko‘rsatuvchi ishtirokchilari (hukumat amaldorlari, «manfaat guruhlarining» vakillari, siyosiy arboblar, shuningdek, oddiy fuqarolar)dan iborat bo‘lgan hamda o‘zlarini va kelajakdagi farovonligini o‘z milliy hukumati va uning siyosati bilan birday hisoblamaydigan, borgan sari ko‘proq darajada davlatdan ustun turadigan birlashmaga qarab mo‘ljal oladigan integratsiya jarayonini tushunadi.

Neofunktionalistik tahlilga sodiqlik dualizmi xos bo‘lib, u davlatdan yuqori turadigan tashkilotga nisbatan sodiqlik hamda milliy davlat markazlariga nisbatan sodiqlikning parallelligida ko‘rinadi. Ikki tomonlama sodiqlik to‘g‘risidagi ushbu qoida pirovard natijada integratsiyaning eng keskin muammolaridan biri bo‘lmish integratsiya jarayonida milliylik (davlatga oidlik) va milliylikdan (davlatdan) ustunlikning nisbati muammosiga olib keladi.

Shundan kelib chiqib, E. Xaas obyektiv voqelikni inobatga oluvchi odatdagي siyosiy maqsadga muvofiqlikka oid fikrlarida quyidagi xulosaga keladi: integratsiya jarayonlarining rivojlanishi Yevropa-

ning o‘zligini saqlab qolish haqidagi shiorlarga ega bo‘lgan «Yevropa g‘oyasi» tufayli emas, «Yevropaning buyukligi», «Yevropa sivilizatsiyasi»ning tarixiy missiyasi haqidagi mavhum mushohada oqibatida ham emas, balki muayyan ijtimoiy-siyosiy guruhlarning birlashishdan amalda manfaatdorligi, pragmatik xatti-harakati tufayli yuz bermoqda.

Bunday natija amalda ilmiy neofunksionalistik tafakkurni integratsiya jarayonida iqtisodiyot rolining muhimligini tan olishga undaydi. Ishtirokchilar manfaatlarining pragmatiklashuvi haqidagi qoidani kengaytirish siyosatni «kichik» va «katta» siyosatga ajratishga olib keladi. Ulardan birinchisi iqtisodiy o‘sishni yuksaltirish zarurati bilan bog‘lansa, ikkinchisi esa, obro‘, milliy nafsoniyat va shu kabilar uchun sodir etiladigan harakatlarga asoslanadi. Bu yerda yana neofunksionalizmning o‘ziga xos jihatiga aylanayotgan va ushbu muayyan vaziyatda muhim nazariy muammolardan biri – iqtisodiy va siyosiy integratsiyaning o‘zaro nisbati haqidagi, siyosatlarning qaysi birkichik yoki kattasi – ustuvor ekanligi, kattaroq ahamiyatga egaligi haqidagi masalani hal qilishdan iborat dualizm ko‘zga tashlanadi.

E. Xaas va uning tarafдорлари iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishida siyosiy tagma’no borligining dalillariga ega bo‘lish uchun «tovlinish» (spill-over) tushunchasini kiritadilar. L. Lindberg fikricha, mazkur hodisa «muayyan maqsadga erishish uchun amalgaloshiriladigan ushbu harakat dastlab qo‘ylgan maqsadga erishilishi faqat yangi harakatlarni qabul qilish orqali ta’minlanadigan, bu harakatlar esa, o‘z navbatida, faolroq harakat uchun yangi sharoit va zaruratni yuzaga keltiradigan vaziyatning yaratilishiga olib kelgan» holda mavjud bo‘ladi va sh.k. Shunday qilib, integratsiya mantig‘iga kengayish, qamrab olish va yangi sohalarga tatbiq etish, ijtimoiy tuzumning yanada kengroq sohalariga kirishga intilish xosdir.

«Tovlanish» konsepsiysi, jumladan, neofunksionalistlar tomonidan integratsiyaning iqtisodiy zanjirini nazariy tarzda izohlash maqsadida foydalanilgan: masalan, erkin savdo zonasining bojxona ittifoqiga, so‘ngra – umumiy bozorga, shundan keyin – iqtisodiy va valyuta ittifoqiga o‘tishi. Buning ustiga, ushbu nazariya tarafдорлари iqtisodiy integratsiyani ilgarilama rivojlantirish, har qanday shubha-

siz, institutsiional o‘zgarishlarga olib keladi va siyosiy integratsiyani yangi darajaga ko‘taradi, deb ta’kidlaganlar.

Shunday qilib, «tovlanish» mantiqining mohiyati, iqtisodiy va siyosiy integratsiyaning uzviy birligini isbotlash hamda iqtisodiy ittifoq muqarrar ravishda siyosiy ittifoqqa o‘tishini ko‘rsatishdan iborat.

Shunday qilib, barcha mavjud nazariya va ta’limotlar integratsiyaning mohiyati va elementlariga o‘z yondashuvlarini e’lon qiladilar. Ayrimlar integratsiyada siyosatning, boshqalar esa iqtisodiyotning birlamchilagini e’lon qiladilar.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Xalqaro siyosiy mintaqqa geografik mintaqadan nimasi bilan farq qiladi?
2. Zamonaviy mintaqashunoslik tizimida qanday bo‘limlarni ajratib ko‘rsatish mumkin?
3. Mintaqashunoslik faniga oid qanday yondashuvlar mavjud?
4. Qaysi davr “Mintaqalar” deb nomlanadi va nima uchun?
5. Xalqaro mintaqashunoslikning qanday metodologik usullarini bilasiz?
6. Erkin savdo hududi deganda nimani tushunasiz?
7. Mintaqqa mamlakatlari o‘rtasida bojxona ittifoqi tuzish deganda qanday holat tushunish mumkin?
8. Xalqaro mintaqashunoslik faniga oid qanday yondashuvlar mavjud?
9. Mintaqqa davlatlari orasida valyuta va iqtisodiy ittifoqning tuzilishi nimani anglatadi?
10. Mintaqashunoslik predmeti qaysi davrdan fan sifatida qabul qilindi?

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Iqtisodiy integrtatsiyaning dolzarbligi haqida ma’lumot tayyorlang.
2. Siyosiy integratsiyaning mohiyati mavzusida ma’lumotlar to‘plang.
3. “Osiyodagi mintaqaviylashuv” mavzusida ma’ruza tayyorlang.

4. “Mintaqaviylashuv-regionalistika” mavzusida ma’lumotlar tayyorlang.
5. “Mintaqaviylashuvdan asosiy maqsad nima?” mavzusida referat tayyorlang.
6. Integratsiya borasidagi ta’riflarni o‘rganib, tahlil eting.
7. Janubi-sharqiy Osiyo mintaqasi doirasida integratsion jarayonlarni mustahkamlash borasida olib borilayotga chora tadbirlar haqida ma’ruza tayyorlang.
8. Hozirgi davrda mavjud integratsion birlashmalar haqida referat tayyorlang.
9. Sharqiy Osiyo integratsiyasining xususiyatlari mavzusida referat tayyorlang.
10. Markaziy Osiyo davlatlarida mavjud integratsion birlashmalar haqida referat tayyorlang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati **Asosiy adabiyotlar**

1. Kathy Pain. Changing Urban and Regional Relations in a Globalizing World. – USA, 2014. – 248p.
2. TimoBehr., JuhaJokela. Regionalism and global governance: the emerging agenda. –Notre Europe, 2011. – 67 p.
3. Rouben Azizian, Carleton Cramer. Regionalism, security and cooperation in Oceania. – USA: APCSS, 2015. – 172 p.

Qo‘srimcha adabiyotlar

1. Барыгин И. Н. Международное регионоведение. – СПб.: Питер, 2016, 384 с.
2. Мұхаммадсидиков М.М. Замонавий халқаро муносабаттарнинг минтақавий жиҳатлари (ўкув қўлланма) –Т: ТошДШИ, 2013, 182 б.
3. Мұхаммадсидиков М.М. Хорижий Шарқ ва Ғарб мамлакатларида ижтимоий-сиёсий жараёнлар (ўкув қўлланма) –Т: ТошДШИ, 2013, 160 б.
4. Muhammadsidiqov M.M. Sharq mamlakatlari xalqaro munosabatlari (o‘quv qo’llanma). – T.: ToshDSHI, 2017, 240 b.

5-BOB. GLOBALLASHUV JARAYONI, UNING ASOSIY JIHATLARI VA YO'NALISHLARI

Darsning maqsadi:

- mazkur ma'ruzani o'qitishdan ko'zlangan maqsad talabalar xalqaro mintaqashunoslik haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- xalqaro mintaqashunoslik fani yuzasidan bilimlarini chuqur-lashtirish;
- turli mintaqalardagi mamlakatlarning siyosiy-ijtimoiy jaray-onlari borasida tasavvur hosil qilishlariga ko'maklashish;
- usul va uslublardan foydalanish tajribasini oshirish;
- ilmiy tadqiqot ishlari, axborot-tahliliy yozishmalarni olib borish qobiliyatlarini rivojlantirish;
- talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo'llashni o'rgatishdan iborat.

Tushunchalar va tayanch iboralar: *globallashuv, axborotlashuv, sotsiomadaniylik, global madaniyat, global jamiyat, global siyosat, global ta'lim, mintaqaviylashuv, regionalistika, mintaqaviy hamkorlik, integratsiya, xalqaro munosabatlar, jahon siyosati, xalqaro siyosat, xalqaro tashkilotlar, globallashuv, tendensiya, global muammlar, mintaqalashtirish, xalqaro hamjamiyat, konsepsiya, demokratik dunyo g'oyasi, geosiyosiy jarayonlar.*

5.1. Globallashuv jarayonining mazmuni va mohiyati

Bugun insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqda. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnalistlar bu davrni turlich ra'slab, har xil nomlar bilan atamoqda. Kimdir uni yuksak texnologiyalar davri desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda.

Albatta, bu fikrlarning barchasida ham ma'lum ma'noda haqiqat, ratsional mag'iz bor. Chunki ularning har biri o'zida bugungi serqirra

va rang-barang hayotning qaysidir belgi-alomatini aks ettirishi tabiiy. Ammo ko‘pchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg‘otmoqda. Bunday ta’rif ko‘p tomondan masalaning mohiyatini to‘g‘ri ifodalaydi. Nega deganda, hozirgi paytda Yer yuzining qaysi chekkasida qanday bir voqeа yuz bermasin, odamzot bu haqda dunyoning boshqa chekkasida zudlik bilan xabar topishi hech kimga sir emas. Globallashuv fenomeni bugungi kunda ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma’noni anglatadi. Umumiy nuqtayi nazardan qaraganda, bu jarayon mutlaqo yangicha ma’nomazmundagi xo‘jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-biologik global muhitning shakllanishini va shu bilan birga, mavjud milliy va mintaqaviy muammolarning jahon miqyosidagi muammolarga aylanib borishini ifoda etmoqda.

Globallashuv jamiyat rivojlanishi formalaridan tubdan farq qiluvchi o‘z qonun-qoidalariga ega. Bu barcha mamlakatlar oldiga ko‘pgina muammolarni ko‘ndalang qilib qo‘ymoqda. Globalizatsiya jarayonida mamlakatlar qanday qilib milliy o‘zligini saqlab qolishi mumkin? O‘zbekiston bu borada ulkan tajribaga ega.

Hozirda axborot xurujlari haqida ko‘p gapirilayotgan bo‘lsa-da, mutaxassislar tomonidan mazkur tushunchaga hali to‘la ta’rif berilganicha yo‘q. Buning ustiga, hatto soha tadqiqotchilar, mutaxassislar ham «axborot xuruji» yoki «axborot urushi» degan jumlaning qachondan muomalaga kirgani va axborot-qurol sifatida ilk bor qachon foydalanilgani haqida bir to‘xtamga kelgani yo‘q. Shu bois, mazkur ishda bu borada yuzaga keladigan quyidagi savollarga javob topish zarurati yuzaga keldi: Axborot urushi nima? U qanday vositalar bilan amalga oshiriladi va bunda qanday maqsadlar ko‘zlanadi? Axborot tizimlari va texnologiyalarini izdan chiqarish, axborot xurujlarini tashkil etishni davlat yoki jamiyatga nisbatan tahdid, ekspansiya harakati deyish mumkinmi? Agar shunday bo‘lsa, unga qarshi qanday javob vositalari va usullarini qo‘llash mumkin?

Globallashuv sharoitida mazkur savollarga javob topish nechog‘li muhim ekanligi tayin. Negaki, bugun “Globallashuv tushunchasining yagona umumqabul qilingan ta’rifi bo‘lmasa-da, bu hodisani turlicha talqin qiladigan ko‘plab nazariy yondashuvlar mavjud. Odatda, glo-

ballashuv deganda dunyo miqyosida yagona iqtisodiy-moliyaviy va axborot maydonining shakllanishi jarayoni tushuniladi”²⁵.

Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni obyektiv tan olish kerak – bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo’shnilar, balki jahon miqyosida boshqa hudud va mintaqalar bilan shunday chambarchas bog’lanib borayaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas.

Shu ma’noda, globallashuv – bu avvalo hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir.

Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo’lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g’oyat o’tkir va keng qamrovli ta’sirini deyarli barcha sohalarda ko’rish, his etish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o’rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko’plab ish o’rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizida uyg’unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o’zarlo yordam ko’rsatish imkoniyatlarining ortishi – tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmoqda.

Ayni paytda hayot haqiqati shuni ko’rsatadiki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda – ezgulik va yovuzlik yo‘lida foydalanish mumkin. Agarki, bashariyat tarixini, uning tafakkur rivojini tadrijiy ravishda ko’zdan kechiradigan bo’lsak, hayotda insonni kamolotga, yuksak marralarga chorlaydigan ezgu g’oya va ta’limotlar bilan yovuz va zararli g’oyalar o’rtasida azaldan kurash mavjud bo’lib kelganini va bu kurash bugun ham davom etayotganini ko’ramiz.

Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig’iz, shu qadar tezkorki, endi ilgarigidek, ha, bu voqeа bizdan

²⁵ Умарова Н. Глобаллашув шароитида ахборот хуружларига қарши кураш. –Т.: 2005, 3 б.

juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo‘q, deb beparvo qarab bo‘lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas.

Globallashuv jarayonining yana bir o‘ziga xos jihat shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning nihoyatda o‘tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfatlariga xizmat qilayotganini sog‘lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar.

Ta’bir joiz bo‘lsa, aytish mumkinki, bugungi kunda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko‘proq kuchga ega. Bu masalaning kishini doimo ogohlikka undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo‘lsa, buni sezish, ko‘rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uing ta’siri va oqibatlarini tezda ilg‘ab yetish nihoyatda qiyin.

Mana shunday vaziyatda odam o‘z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o‘tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog‘lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo‘lmasa, har turli ma’naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko‘rinishdagagi ta’siriga bardosh berishi amrimahol.

Buni kundalik hayotda uchrab turadigan ko‘plab voqealar misolida yaqqol kuzatish mumkin va ularning qanday og‘ir oqibatlargaga olib kelishini uzoq tushuntirib o‘tirishning hojati yo‘q. O‘tgan yillar davomida dunyoda va mintaqamizda ro‘y bergen, biz bevosita o‘z boshimizdan kechirgan voqealar, mafkuraviy jarayonlarning rivoji bu xulosalarning to‘g‘ri ekanini qayta-qayta isbotlamoqda.

Bugungi kunda yoshlarmiz nafaqat o‘quv dargohlarida, balki radio-televide niye, matbuot, internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma’lumotlarni olmoqda. Juhon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o‘rab-chirmab, uni o‘qima, buni ko‘rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o‘rab olish, hech shubhatsiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to‘g‘ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o‘z oldimizga qat’iy maqsad qilib qo‘yanmiz va bu yo‘ldan hech qachon qaytmaymiz.

Binobarin, biz davlatimiz kelajagini o‘z qobig‘imizga o‘ralib qolgan holda emas, balki umumbashariy va demokratik qadriyat-larni chuqur o‘zlashtirgan holda tasavvur etamiz. Biz istiqbolimizni taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan foydalanib, davlat va jamiyat boshqaruvini erkinlashtirish, inson huquq va erkinliklarini, fikrlar rang-barangligini o‘z hayotimizga yanada kengroq joriy qilishda ko‘ramiz. Biz butun ma’rifatli dunyo, xalqaro hamjamiyat bilan tinch-totuv, erkin va farovon hayot kechirish, o‘zaro manfaatli hamkorlik qilish tarafborimiz.

Shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda inson ma’naviyatiga qarshi qaratilgan, bir qarashda arzimas bo‘lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin.

Bugungi kunda dunyoning globallashuvi ta’sirida axborot oqimi, jarayonlar almashinuvi shunchalik tez sodir bo‘lmoqdaki, ilgari bir necha asr davom etgan jarayonlar hozirda o‘n yillarda sodir bo‘lmoqda. Shu jihatdan kelib chiqib, butun jahonda ro‘y berayotgan globallashuv jarayonlarini o‘rganish, ularni falsafiy jihatdan tahlil qilish hamda turmushimizning turli sohalariga ko‘rsatayotgan ijobiy va salbiy ta’sirlarini aniqlash, tegishli ilmiy xulosalar ishlab chiqish bugungi kunning muhim vazifalari hisoblanadi. Mamlakatimizda mazkur jarayonni o‘rganish, uning alomatlari va asoratlarini tahlil qilish bo‘yicha ko‘plab ilmiy anjumanlar o‘tkazilmoqda. Lekin, bu mavzuda yozilayotgan maqola va tezislarni hisobga olmaganda, haligacha globallashuv jarayonini, uning falsafiy tahlili hamda ijobiy va salbiy oqibatlari bo‘yicha fundamental asarlar e’lon qilinganicha yo‘q. Zero, globallashuv jarayoni inkor etib bo‘lmaydigan, butun yer shari miq-yosida sodir bo‘layotgan jarayondir.

Keyingi vaqtarda internetda, respublikamiz hamda xorij davlatlarida o‘tkazilayotgan ilmiy anjumanlarda *global*, *globallashuv jarayoni* (yoki *globalizatsiya*, *globallashuv jarayoni deb ham yuritiladi*), *globalizm* atamalari ko‘plab uchramoqda. Rossiyalik olim A.I.Utkin globalizatsiyani milliy iqtisodiyotlar kapitalining tezkor harakati, jahonning informatsion oshkoraliqi, texnologik inqilob,

sanoati rivojlangan davlatlarning tovar va kapitali harakatining liberallashuvi, kommunikatsion yaqinlashuv hamda jahonshumul ilmiy inqilob zamiridagi yagona, butunjahon tizimiga qo'shilishidir, deya izoh beradi²⁶. Shuningdek, u globallashuvni davlatlar ta'sirida emas, balki bozor munosabatlari ta'siridagi jarayon ekanligini ta'kidlaydi. M.G.Delyagin esa globalashuvni yangi kompyuter texnologiyalari asosida yagona butunjahon moliyaviy-axborot muhitining jadal shakllanish jarayonidir, deb ta'riflaydi²⁷. Bunda globallashuvning asosiy alomatlari sifatida ommaviy axborot vositalarini va axborot komunikatsiya texnologiyalarini keltiradi. I.B.Chubaysning fikricha, jamiyat tarixida qadriyatlar tizimining taraqqiyoti globallashuv jarayoniga olib keldi²⁸. Bu atamalarga berilgan ta'riflar va izohlarni tahlil qilsak, ularga turlicha nuqtayi nazardan yondashilganligini hamda ular bir-birini to'ldirganligini ko'rish mumkin.

Ko'pchilik mualliflar ta'kidlaganidek, *globallashuv va globalizatsiya* so'zi lug'aviy ma'nosiga ko'ra, biror jarayonni, sohani butun *Yer sayyorasi miqyosiga ega bo'lish jarayonini* bildiradi. Masalan, iqtisodiyotning globallashuvi yoki ekologik muammolarning globallashuv jarayoni – ularning butunjahon miqyosga ega bo'lishi, butun Yer shariga yoyilish jarayonini bildiradi.

Globalizm – ijtimoiy tuzum bo'lib, insoniyat va jamiyat taraqqiyoti bosqichining bir ko'rinishidir. Bunda ijtimoiy munosabatlar va turli sohalar (fan-texnika, ta'lim-tarbiya, sanoat, iqtisod, siyosat va h.k) bir butun global xarakterga va ko'rinishga ega bo'ladi, ya'ni *global madaniyat, global jamiyat, global siyosat, global ta'lim*²⁹ va h.k.

A.N.Chumakov global, globallashuv va globalizm atamalariga quyidagi ta'riflarni keltiradi: "Global – butun globusni qamrab olgan, ya'ni o'z ta'sirini butun Yer shariga o'tkazadigan, sayyoraga nisbatan bir butun; globallashuv – universallashuv jarayoni bo'lib, ijtimoiy

²⁶ Глобализация, энциклопедия. Под ред. И.И.Мазур и А.Н.Чумакова. –М., 2003, 181–182 с.

²⁷ O'sha joyda. 185 b.

²⁸ O'sha joyda. 189.b.

²⁹ Глобализация, энциклопедия. Под ред. И.И.Мазур и А.Н.Чумакова. –М., 2003.

hayotning turli sohalari tuzilmalari, aloqalari va munosabatlarini butun Yer shari miqyosida bir butunga aylanish jarayonidir; globalizm dunyoning, shuningdek, ma’naviy dunyoqarashning, atrof-muhitni his etish usulining globalligini ifodalovchi ko‘rinishidir”³⁰.

Globallashuv jarayonining ijobiy va salbiy jihatlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, uning ijobiy jihatlarini moddiy ne’matlarning ishlab chiqarish va iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi bilan bog‘langanligini ko‘rishimiz mumkin.

5.2. Globallashuv jarayonining jahon axborot tizimiga ta’siri

Bugun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari dunyosida kechayotgan inqilobiy o‘zgarish bilan siyosat o‘rtasidagi munosabatlar an’anaviy qolipga sig‘may qoldi. Nima sababdan shunday bo‘lmoqda? Bu, avvalambor, ulkan, ijtimoiy o‘zgarish yoki jarayon sifatida bata-nom yangi axborot va kommunikatsiya texnologiyalari maydonida vujudga kelgan “axborot makoni” ning o‘ziga xos xususiyatlariga borib tuiqladi. Axborot makoni ko‘zga ko‘rinmaydigan, ya’ni virtual omildir. Aniqroq aytish lozim bo‘lsa, u intellektual-ma’naviy hodisalar sirusiga kiradi, ya’ni axborot moddiy ishlab chiqarish emas, balki bilim hamda aqlning mahsulidir. Shu boisdan, uni ijtimoiy taraqqiyotdagi o‘rniga ko‘ra ilm-fan bilangina qiyoslash mumkin. Jismga, ya’ni umuman, moddiylikka adad, hajm, og‘irlik, uzunlik va kenglik singari o‘lchovlar xos bo‘lsa, axborot, aksincha, unday xossalarga xos emas. Bu jihatdan axborot olami – hadsiz-hududsizdir. Axborot maydonini kuzatib borish, uning oqimini nazorat ostiga olish va maqsadli tafsimlashga moslashtirishning imkonи yo‘q. Demak, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari mahsulotlarini inson ongi, dunyoqarashi hamda qadriyatlariga, madaniyatiga, xullas, ijtimoiy taraqqiyotga ta’sir qilish qudrati nuqtayi nazaridan juda bahaybat mashinaga qiyos qilish mumkin.

Axborotning noan’anaviy xossalardan kelib chiqadigan bo‘lsak, unga ta’sir qilish yoki uni ma’muriy boshqarishning iloji yo‘q. Aksincha, axborot bugungi kunda ma’muriy tizimlar va tuzilmalararo

³⁰ Чумаков А.Н. Глобализация, контур целостного мира. – М.: Проспект, 2005, 31 с.

munosabatlар, real jarayonlarga, siyosiy qaror qabul qilishga jiddiy ta'sir ko'rsatib, ularning yo'nalishini ba'zan keskin o'zgartirib yuborishi mumkin. Kimda-kim axborot va kommunikativ resurslarga boy bo'lsa, siyosiy jarayonlar yo'nalishi ham uning izmidan chiqmaydi. Mabodo, axborotning g'oyalar va texnologiyalardan iborat ekanligini e'tirof etadigan bo'lsak, uni ma'rifiy jihatdan boshqarish zarurati paydo bo'ladi.

Voqe-a-hodisalar oqimining shunday yo'nalishda davom etishi, an'anaviy siyosiy maydonda mutlaq noan'anaviy subyektlar va funksionerlar paydo bo'lishi ehtimolini yanada oshirmoqda. Bordiyu, axborot davrida bu sohada biron-bir kutilmagan o'ta samarali hujjatlar tavsiyasi joriy qilinmas ekan, u holda siyosiy subyektlari o'rtasida kelishilgan yoki o'rnatilgan qonuniy munosabatlар, tartibot ham mutlaqo boshqacha qiyofa kasb etishi mumkin. Ya'ni siyosat obyekti (jamiat, millat, ijtimoiy guruhlari, shaxs va boshqalar) an'anaviy saqlanib qolgani holda, uning subyektlari tuzilmalari va pillapoyalarida ulkan o'zgarishlar ro'y beradi. Natijada yillar osha kundalik hayotda biz ko'nikib qolgan "jamiat-davlat-fuqaro" munosabatlari o'rnini g'ayritabiyy, g'ayriinsoniy tarmoqli hamjamiat, "axborot tashuvchi va individ" dan iborat tizim egallashi mumkin. Masalan, ilgari ijtimoiy-siyosiy jarayonlar asosan jamiat va davlat doirasida kechgan bo'lsa, bugun an'anaviy, ya'ni bosh siyosat subyekti – "davlat yo'l-yo'riqlaridan chiqmaslik" tamoyili huquq, burch hamda mas'uliyatdan asta-sekin shunchaki rasmiyatchilikka aylanmoqda. Ya'ni global axborot qamroviga kirg'an fuqarolar hududga oid yo'riqnomalarga rasman itoat etishsa-da, ularning aqlu zakovati, ongi va xatti-harakati hamda xulq-atvorini allaqachon ko'rinas "axborot monstri" belgilay boshladi. Shu ma'noda, sayyorada yashayotgan aholining aksariyati uchun nisbatan arzon va qulay bo'lgan teleeshitirishlar orqali uzatilayotgan axborotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda jahon teletarmog'i, dunyodagi eng yirik axborot kanallari odamlar tasavvuri, qarashlari va qadriyatлari tizimiga shu darajada ta'sir o'tkazmoqdaki, oqibatda dunyo haqida, qolaversa, u yoki bu xalq, millat uchun jahon hamjamiyatining munosabati o'zgarib,

borgan sari voqelikdan yiroqlashish xavfi tug‘ilmoqda. Olimlarning fikriga ko‘ra, hozirda hokimiyat, ya’ni siyosiy ta’sir manbai ikki qismdan – an’anaviy hamda ma’muriy axborot hokimiyatlaridan iboratdir. Ba’zan ijtimoiy jarayonlarga axborotning ta’siri shunchalik kuchaymoqdaki, u an’anaviy hokimiyat tizimining ta’sirini ancha zaiflashtirib qo‘ymoqda.

Ayrim qudratli mamlakatlarga xizmat qilayotgan, resurslari nuqtayi nazaridan zamonaviy hisoblangan qudratli axborot uzatgichlar duNyodagi jarayonlarni ongli ravishda buzib ko‘rsatmoqda. Achinarli joyi shundaki, tevarak-atrofda sodir bo‘layotgan siyosiy jarayonlarga bir tomonlama talqin berish avjiga chiqmoqda. Mavjud vaziyat olam to‘g‘risidagi haqqoniy axborotga ega bo‘lishga jiddiy putur etkazmoqda. Shunday ekan, jahon hamjamiyati, qolaversa, har bir siyosatchi axborot sifati va mazmuni uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olishga majbur.

Shaxsning ommaviy axborotni qabul qilish nuqtayi nazaridan ijtimoiy qaramligi talay olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Bunda asosiy poydevor individ ongidagi ongli va ongsiz faoliyatning o‘zaro bog‘liqligi yoxud induviduallik va ongsiz jamoaviylik mutanosibligi masalasi bo‘lib qolmoqda. Bunga Z.Freyd va K.Yung kabi olimlarning tadqiqotlarini misol qilib keltirish mumkin. Jumladan, Rossiyada chop etilgan “Yangi falsafa qomusi” mualliflarining yozishicha, inson ruhiyati, psixikasi Yung tomonidan onglilik va ongsizlik o‘zaro munosabatda bo‘lgan va bir-birini to‘ldiradigan energetik tizim sifatida qabul qilinadi. U “individlashuv” jarayonini, ya’ni “men”likdan – o‘zlik arxitipi tomon yo‘nalishni tadqiq etgan. Shuni ta’kidlash lozimki, aynan individuallashuv inson ongi va uning shaxs sifatida shakllanishining eng muhim masalasi bo‘lib kelmoqda.

Axborot davri shunday xususiyatga egaki, siyosat, jamoat pozitsiyasi, boshqalar bilan munosabatlardagi yangilanishlarga qarab yashin tezligida o‘zgarib boradi. Ayni paytda biz davlat, jamiyat va shaxs ham misli ko‘rilmagan tarzda o‘zgarayotganiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Mutaxassislar shaxs, davlat va jamiyatga nisbatan tezroq o‘zgarayotganini ushbu davrning obyektiv qarama-qarshiliklaridan biri deb e’tirof etmoqdalar. Bu quyidagi qonuniy holga

sabab bo‘lishi shubhasiz: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) davrida individning axborot xavfsizligi jamiyat va davlat xavfsizligidan o‘zgacha namoyon bo‘ladi. Ya’ni individ xavfsizligi jamiyat va davlat xavfsizligi kabi barqaror emas. Zero, shaxs doimo muttasil o‘zgarib turgan ijtimoiy jamoalarda bo‘ladi, u hatto milliy davlat chegaralaridan chetlarga chiqish imkoniyatiga ham ega. Shu bois, globallashuv jarayonida agar davlat shaxsga nisbatan kichik bir murvat deb qarasa, bu davlatning o‘ziga qimmatga tushishi mumkin. Zero, bir qaraganda shaxs mo‘jazgina ko‘rinsa-da, u ta’sir etishning yagona fikrlovchi obyekti va harakat subyektidir. Binobarin, uning manfaatlarini e’tibordan soqit qilish ma’lum vaziyatlarda davlat uchun xavfli hisoblanadi. Bu vaziyat AKT taraqqiyoti davrida yanada ko‘proq namoyon bo‘lmoqda.

Axborot oqimining kuchayishi dunyoviy, mintaqaviy va milliy siyosatning, jamiyatlar, ijtimoiy institutlar, guruhlar, shaxslarning o‘zgaruvchanligini oshirdi. Masalan, bir-birlari bilan o‘zaro qo‘snnichilik qilib kelgan davlatlar endi o‘zaro hamkor bo‘la olmayaptilar. Hatto bir oilaning a’zolari goho avvalgidek bir-birlari bilan ma’naviy yaqin emaslar. Bir so‘z bilan aytganda, jahon siyosati tez o‘zgaruvchan, davlatlar o‘rtasidagi ittifoqlar nobarqaror, ijtimoiy jamiyatlar va guruhlar, hatto shaxslar ham o‘zgaruvchan bo‘lib qoldi. Demak, siyosiy tahlil va bashoratlarning avvalgidan boshqacha me’yor va qadriyatlari talab etilmoqda. Masalan, bugun hamma narsani shaxs hal qiladi, ammo u axborot xuruji oldida himoyasizdir.

Shu bilan birga, shaxs axborot texnologiyalari yaratgan sharoitlar sababli, bugun ilgarigidek davlat beradigan ma’lumotlarga qarab o‘tirmasdan, mustaqil ravishda har tomonдан unga yog‘ilayotganxabarlarini o‘zlashtirishga kirishayotir. U olingan axborotlar ta’sirida davlat, jamiyat, oila, shuningdek, ko‘cha, kompaniya, klublar kabi an’anaviy kuchli hamda “qiyin” omillar ta’siridan chiqib ketayotir. Umuman olganda, AKT davri tamadduni ilgari misli ko‘rilmagan axborot erkinligini baxsh etmoqda. Shu bois, shaxs, eng avvalo, asrlar davomida o‘zining axborot dunyosini cheklab, bo‘g‘ib, yo‘naltirib kelgan davlatni o‘z munosabatlari doirasidan chiqarib tashlayotgan tarixiy xarakterdagi individual-global kategoriyaga

aylanmoqda. Bu jarayonda davlat, bir tomonidan, insonning mustaqilligini cheklagan bo‘lsa-da, ikkinchidan, u axborot mustaqilligiga erishgan kishilarning o‘zini, madaniy ekologiyasini asrab-avaylab kelganini ham unutib qo‘ymoqda.

Amerikalik olim Manuel Kastelning qayd etishicha, 2006-yil may oyigacha dunyoda internetda 37 million bloglar mavjud bo‘lgan, hozir esa har daqiqada yangi bir blog, ya’ni yiliga 30 million blog tashkil etilayotir. Sun’iy yo‘ldosh antennalari orqali esa 1,5 mingdan ortiq telekanallarni ko‘rish va 5 mingga yaqin radiokanallarni tinglashi mumkin. Bu raqamlar internet tarmog‘idan, tele va radio kanallaridan foydalananuvchi individlar mustaqilligi ortib borayotganligining yorqin dalilidir. Bu jarayonning oqibatlari nimalarga olib kelishini oldindan bilishning mutlaqo iloji yo‘q. Ammo shu narsa ravshanki, axborotni olish, uni uzatish va unga baho berishda shaxs mustaqilligi cheksizlashib bormoqda. Bularning barchasi qanchalik ijobiy hol bo‘lmisin, unda noayon va keraksiz jihatlar ham mujassamdir.

Vaziyatning murakkabligi shundaki, bunda mustaqil tanqidiy fikr-lash qobiliyatiga, qat’iy iyomon-e’tiqodga, mutahkam irodaga ega bo‘lмаган inson goh ochiq, gohida pinhon o‘tkazilayotgan g‘oyaviy tazyiqqa dosh bera olmaydi. Shu bois, davlat va jamiyat alohida inson manfaatlarining himoyachisi sifatida maydonga chiqishi lozim, shundagina u qudratli bo‘ladi. Bunda davlat bir qator shartlarni bajarishi kerak. Avvalo, u har bir davlatning o‘z ichki davlat-ijtimoiy internetiga, chetdagи tele va radiokanallarga raqobatbardosh bo‘lgan tezkor, xolis va muntazamlikda ishlaydigan o‘z teleradiotarmog‘iga ega bo‘lishi va uni kuchaytirishi darkor. Shaxs esa undan o‘ziga kerakli axborotni ola bilishi lozim. Ikkinchidan, jamiyat va davlat unga axborot sohasida o‘zini to‘la namoyon etishga imkon yaratishi kerak. Bu maqsadlarni amalga oshirilishi uchun qisqa muddatli dasturlar bilan birga, puxta o‘ylangan o‘ziga xos davlat siyosati – AKT tarmog‘ini rivojlantirish dasturi va Axborot siyosati konsepsiysi zarur bo‘ladi.

Jumladan, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov globallahuv jarayonining ijobiy ta’sirlariga to‘xtalib: “...uning g‘oyat o‘tkir va keng qamrovli ta’sirini deyarli barcha sohalarda ko‘rish, his etish mumkin.

Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko‘plab yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg‘unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o‘zaro yordam ko‘rsatish imkoniyatlarining ortishi – tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmoxda,”³¹ deb ko‘rsatadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, globallashuv jarayonining ijobiy jihatlarini siyosat, iqtisod, fan-texnika, ishlab chiqarish texnologiyalari sohalarida ko‘rish mumkin. Bunday yangiliklarning kirib kelishi va o‘zlashtirilishi barobarida yangi, raqobatbardosh moddiy ishlab chiqarish munosabatlari shakllanadi. Uni takomillashtirish va rivojlantirish mahalliy xalqning moddiy, ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy, siyosiy salohiyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Globallashuv jarayonining salbiy jihatlari iqtisodiy o‘sishdagi farqning keskin ortishiga va ommaviy-ma’naviy tahdidlarning kuchayishiga ham sabab bo‘lmoqda. Shuningdek, globallashuv jarayonida raqobat harbiy kuch yoki boshqa jismoniylar tazyiqlar ostida kechmaydi. U g‘oyaviy, mafkuraviy, diniy, ilmiy, iqtisodiy, siyosiy, diplomatik tazyiqlar va ta’sirlar ostida kechadigan jarayondir. Bu borada Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov globallashuvning salbiy jihatlari sifatida “...hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta’mir o‘tkazishning nihoyatda o‘tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlarning manfaatlariga xizmat qilayotganligini” keltiradi³².

Globallashuvning salbiy jihatlarini ommaviy axborot vositalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, nashriyotlar orqali kirib kelayotgan, ma’naviyat, madaniyat, diniy e’tiqod, milliy mafkura so-

³¹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.:Ma’naviyat, 2008, 112-bet.

³² Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.:Ma’naviyat, 2008, 113-bet.

halaridagi turli g‘oyaviy-mafkuraviy tajovuzlarda ko‘rish mumkin. Bunday mafkuraviy tajovuzlar zamirida milliy birlikka putur yetka-zib, milliylikni yo‘qotish, tarixiy xotira va milliy g‘urur tuyg‘ularini so‘ndirish orqali insonlarni moddiy boylik manqurtlariga aylantirish va ularni boshqarish maqsadlari yotadi. Jumladan, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta‘kidlaganidek, “...bugungi kunda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko‘proq kuchga ega”³³. Chunki ommaviy qirg‘in quroli bo‘lmish yadro bombalari bir necha millionlab aholining umriga zomin bo‘lishi mumkin, lekin millatni, xalqni, uning milliy ma’naviyati, madaniyati va qadriyatlarini butunlay yo‘qotib yubora olmaydi. Mafkuraviy tazyiqlar kuchayib borishi ta’sirida butun bir millat, xalq yo‘qlikka yuz tutishi mumkin. Bu kabi tajovuzlarga qarshi turish uchun insonlarda milliy-ma’naviy immunitetni shakllantirish va rivojlantirish, raqobatbardosh, milliy-ma’naviy ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirish zarur.

Bugungi globallashuv jarayonining salbiy ta’sirlari orasida ommaviy-ma’naviy tahdidlarning kuchayib borayotganligini ko‘rish mumkun. Ommaviy-ma’naviy tahdidlarning ko‘lami, jadalligi, eng muhimi, amal qilish tartibi bevosita globallashuv jarayoni ta’sirida kechmoqda. Afsuski, globallashuv jarayonining bunday maqsadli ta’sir qilish usuli, ya’ni ommaviy ma’naviyat xuruji borgan sari kuchaymoqda. Ommaviy ma’naviyatning milliy ma’naviyatga nisbatan zid qarashlari millionlab odamlarning ma’naviy dunyoqarashiga, milliy ruhiyatiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Bu holni statistik ma'lumotlarga tayanib tahlil qiladigan bo‘lsak, mamlakatimiz aholisining 40 foizidan ko‘prog‘ini hali dunyoqarashi shakllanib ulgurmagan, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lмаган 18 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil qiladi. Bu yoshlarda ma’naviy qarashlarga tanlab yondashuvdan ko‘ra ko‘rko‘rona taqlid qilish hissi ustuvor bo‘ladi. Bu taqlidchilikning xatarli tomoni shundaki, hozirgi murakkab davrda “inson ma’naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arzimas bo‘lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab

³³ O’sha joyda.

bo‘lmaydigan ulkan ziyon etkazishi mumkin”³⁴. Respublikamizda axborot oshkorali va bugungi kunda asosiy axborot manbalari internet, ommaviy axborot va aloqa vositalari hamda nashriyotlar tashkil etayotganligini hisobga olsak, bu muammoga befarq qarab bo‘lmaydi. Shuningdek, har qanday o‘zgarishlarga qiziquvchan yoshlarimizning tarbiyasida, ularning ma’naviyati va dunyoqarashini shakllanishida madaniy va diniy qadriyatlarning globallashuvi tariqasida kirib kehayotgan turli kinofilmlar va videokliplar, missionerlik harakatlarning ham salbiy ta’sirlarini nazardan chetda qoldirmaslik zarur. Bu “ommaviy” mahsulotlar va harakatlar zaminida jirkanch maqsadlar, manfaatlar turganligini e’tiborda tutishimizga ehtiyoj oshib bormoqda. Chunki ular yoshlarning milliy ma’naviyatini zaiflashtirish yo‘li bilan ulardan mamlakatda beqarorlik keltirib chiqarishda vosita sifatida foydalanishga harakat qilmoqdalar. Shuning uchun ham ularning xatti-harakatlariga qarshi kurashishimiz zarur bo‘ladi.

Keltirilgan faktlardan ko‘rinadiki, mamlakatimizda globallashuvning milliy ma’naviyatimiz, madaniyatimiz, an’ana va qadriyatlarimiz, yoshlarimiz tarbiyasiga ko‘rsatayotgan ta’sirini o‘rganish, uning ijobiyligi va salbiy jihatlarini tahlil qilishga jiddiy yondoshmog‘imiz zarur. Buning uchun, asosan, dunyoqarashi to‘liq shakllanmagan yoshlarda milliy-ma’naviy immunitetni shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalari sirasiga kiradi.

Hozirgi globallashuv jarayonida ma’naviy kurash o‘ta murakkablashib, alohida davlatlar, xalqlar chegaralaridan chiqib borishi barobarida, uning usul va vositalari o‘zgarib va takomillashib bormoqda. Bunday turli ma’naviy ta’sir va tahdidlarga faqat xalqning behavo tarixiy merosi, demokratik qadriyatları, an’analari, urf-odatlari va dunyoviy tafakkurdan oziqlangan milliy uyg‘oqlikka da’vat etuvchi milliy-ma’naviy immunitetni insonlarda shakllantirmasdan turib qarshi kurashib bo‘lmaydi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov bu haqda shunday fikr bildirgan: “G‘oyaga qarshi faqat g‘oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi faqat ma’rifat bilan bahsga kirisha olish

³⁴ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.:Ma’naviyat, 2008, 115 bet.

mumkin”³⁵. Prezidentimizning bu ko‘rsatmalarida mamlakatimizda barqarorlik va milliy taraqqiyotimizni amalga oshirishimizda milliy-ma’naviy immunitetni shakllantirish borasida har birimizning fidoyilik ko‘rsatishimiz zarurligi belgilab berilgan. Uni amalga oshirishda mavjud barcha imkoniyatlarimizdan samarali foydalanishimiz zarur bo‘ladi. Zero, milliy ma’naviyatni globallashuvning salbiy ta’siridan himoya qilish yo‘li bilan millatni asrash, uning barqaror taraqqiyotiga erishish mumkin.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Globallashuv sharoitida mintaqaviy integratsiya jarayonlarining borishi qanday?
2. Globallashuv sharoitida erkin savdo hududi deganda nimani tushunasiz?
3. Xalqaro mintaqashunoslik fanida globallashuvga oid qanday yondashuvlar mavjud?
4. Integratsiyani o‘rganishda pozitivistlar va kognitivistlar yondashuvlarida qanday farq bor?
5. Mintaqqa davlatlari orasida valyuta va iqtisodiy ittifoqning tuzilishi nimani anglatadi?
6. Globallashuvning ijobjiy va salbiy jihatlarini sanab bering.
7. “Globalizatsiya” qanday jarayon?
8. Mintaqashunoslikni tadqiq etishda globallashuvning aloqadorligi qanday?
9. Integratsion jarayonlarning rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotidagi ahamiyati qanday?
10. Globallashuv davrida iqtisodiy integratsiyaning mohiyati nima?

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Globallashuvning dolzarbliji haqida ma’lumot tayyorlang.
2. Siyosiy integratsiyaning mohiyati mavzusida ma’lumotlar to‘plang.
3. “Osiyodagi mintaqaviylashuv” mavzusida ma’ruza tayyorlang.

³⁵ Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халкни халқ, миллатни миллат килишга хизмат қилсин. –Т.:Ўзбекистон, 1998, 18-бет.

4. “Mintaqaviylashuv-regionalistika” mavzusida ma’lumotlar tayyorlang.
5. “Mintaqaviylashuvdan asosiy maqsad nima?” mavzusida referat tayyorlang.
6. Integratsiya borasidagi ta’riflarni o‘rganib, tahlil eting.
7. Janubiy Osiyo mintaqasi doirasida integratsion jarayonlarni mustahkamlash borasida olib borilayotga chora-tadbirlar haqida ma’ruza tayyorlang.
8. Hozirgi davrda mavjud integratsion birlashmalar haqida referat tayyorlang.
9. G‘arbiy Osiyo integratsiyasining xususiyatlari mavzusida referat tayyorlang.
10. Fors ko‘rfazi davlatlarida mavjud integratsion birlashmalar haqida referat tayyorlang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati **Asosiy adabiyotlar**

- 1.Kathy Pain. Changing Urban and Regional Relations in a Globalizing World. – USA, 2014. – 248p.
- 2.TimoBehr., JuhaJokela. Regionalism and global governance: the emerging agenda. –Notre Europe, 2011. – 67 p.
- 3.Rouben Azizian, Carleton Cramer. Regionalism, security and cooperation in Oceania. – USA: APCSS, 2015. – 172 p.

Qo‘srimcha adabiyotlar

1. Барыгин И. Н. Международное регионоведение. – СПб.: Питер, 2016, 384 с.
2. Мұхаммадсidiқов М.М. Замонавий халқаро муносабаттарнинг минтақавий жиҳатлари (ўкув қўлланма) –Т.: ТошДШИ, 2013, 182 б.
3. Мұхаммадсidiқов М.М. Хорижий Шарқ ва Ғарб мамлакатларида ижтимоий-сиёсий жараёнлар (ўкув қўлланма) –Т: ТошДШИ, 2013, 160 б.
4. Muhammadsidiqov M.M. Sharq mamlakatlari xalqaro munosabatlari (o‘quv qo‘llanma). – T.: ToshDSHI, 2017, 240 b.

Darsning maqsadi:

- mintaqaviy integratsion uyushmalarning asosiy ko‘rinishlari, integratsion va globallashuv jarayoni, uning asosiy jihatlari va yo‘nalishlari, mintaqa va mintaqaviy lashuvning nazariy masalalariga ilmiy baho berish;
- mazkur bilimlarni mustaqil tahlil qilishga ko‘maklashish; yoshlar o‘rtasida sog‘lom ma’naviy va tarbiyaviy muhitni shakllantirish;
- turli mintaqalardagi mamlakatlarning siyosiy-ijtimoiy jaryonlari borasida tasavvur hosil qilishlariga ko‘maklashish;
- usul va uslublardan foydalanish tajribasini oshirish;
- ilmiy tadqiqot ishlari, axborot-tahliliy yozishmalarni olib borish qobiliyatlarini rivojlantirish;
- talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo‘llashni o‘rgatishdan iborat.

Tushunchalar va tayanch iboralar: *mintaqa va mintaqaviy lashuv, Yevropa Ittifoqining institutsional shakllanishi, Yevropa davlatlarining iqtisodiy, siyosiy va harbiy birlashuvi, Yevropa Atom Energiyasi bo‘yicha Hamjamiyati, Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati, globallashuv, axborotlashuv, sotsiomadaniylik, global madaniyat, global jamiyat, global siyosat, global ta’lim, mintaqaviy lashuv, regionalistika, mintaqaviy hamkorlik, integratsiya, xalqaro munosabatlar, jahon siyosati, xalqaro siyosat, xalqaro tashkilotlar.*

6.1. Integratsyaning mazmun va mohiyati

Hozirgi zamон integratsiya jarayonlarining o‘chog‘i G‘arbiy Yevropadir, bu yerda integratsiya oxirgi o‘n yilliklarda eng baland nuqta-ga yetdi. Shu sababli ham mavjud adabiyotlar Yevropa integratsiyasini keng yoritadi. Biz Yevropa siyosiy integratsiyasida mavjud bo‘lgan yondashuvlar – federalizm, funksionalizm, kommunikatsiyaviy yondashuv va neofunksionalizmning mohiyatini ochib berishga harakat qilamiz.

Xalqaro hamjamiyatning XX asr yakuni va XXI asr boshidagi rivoji dunyoning barcha mintaqalarida (Avstraliyadan tashqari) davlatlararo integratsiyaviy tuzilmalarning shakllanishi bilan izohlanishi mumkin. Hozirgi kunda suveren davlatlarni birlashtiruvchi o‘ndan ortiq shu kabi birlashmalar mavjud. Vaqt o‘tishi bilan davlatlarning turli sohalardagi hamkorligi ular o‘rtasida mavjud bo‘lgan yondashuvlarning yaqinlashuviga va bu oxir-oqibat ular o‘rtasida kamida mintaqaviy tuzilmalarning shakllanishiga olib keladi. Bu hol esa integratsiyaviy tuzilma hisoblanmish siyosiy va ilmiy fenomenni atroflicha o‘rganishni taqozo etadi. Bunday ilmiy izlanuv har qanday holda ham Markaziy Osiyo va O‘zbekiston manfaatlari nuqtayi nazaridan amalga oshirilishi lozim.

Mazkur muammoni o‘rganish bilan jahon iqtisodiyoti, shuningdek, boshqa fanlar sohasidagi ko‘plab olim va mutaxassislar ham shug‘ullanganlar. Nazariyotchilar tadqiqotlarning bosh obyekti sifatida ko‘plab xilma-xil integratsion qarash va nazariyalar rivojlanishi uchun boshlang‘ich nuqtaga aylangan Yevropa mintaqaviy integratsion jarayonini tanlaganlar.

Ta’kidlash lozimki, «integratsiya» tushunchasining o‘zi (lotincha «integrande» – «butunga aylantirish», «integer» – «butun», «integratio» – «tiklash», «yaxlit narsani to‘ldirish») nisbatan yaqinda paydo bo‘lgan. Mashhur amerikalik iqtisodchi F.Maxlup ushbu atamaning kelib chiqish tarixini kuzatishga urinib, u 1942-yildan avval paydo bo‘limganligini, ammo xalqaro iqtisodiy munosabatlar – xalqaro savdo, kapitallar harakati, moliyaviy soha kabilarda tezda foydalanila boshlaganligini aniqladi.

«Integratsiya» umumlashma tushunchasi quyidagicha ifodalanshi mumkin: bu jamiyat, davlat tuzilmalarining davlat doirasida yoki kengroq davlatlararo jamoaga birlashishi, qo‘shilishidir. Davlatlararo integratsiya hokimiyatning yangi institutlarini tashkil qilish va ularga milliy organlar huquqlarining bir qismini berish orqali yuz beradi.

Turli tadqiqotchilarning integratsiya nazariyalari integratsiya jarayonining mazmuni va shakllarini o‘ziga xos talqin etishi bilan o‘zaro farqlanadi. Yevropa tarixida Yevropa davlatlarini birlashtirish g‘oyasiga asoslangan ko‘plab turli-tuman loyihalar topiladi. Turli

asrlarda va turli maqsadlar qo‘yib, jamoatchilik oldida integratsiya loyihalarini ilgari surgan arboblar orasida Fransiya qiroli Go‘zal Filippning legisti Per Dyubua (XIV asr), Chexiya qiroli Irji Podebrad (XV asr), Genrix IX ning maslahatchisi gersog Syulli (XVI asr), mash-hur ingliz kvakeri Uilyam Penn (XVII asr), publitsist va anarxosindikalizm mafkurachisi Per-Jozef Prudon va «Yevropa Qo‘shma Shtatlari» shiorini birinchi bo‘lib ilgari surgan yozuvchi Viktor Gyugo, 1922-yildayoq «pan-Yevropa» g‘oyasi bilan chiqqan Avstriya grafi R.N.Kudenxove-Kalergi hamda bu g‘oyani amalga oshirishga uringan Fransiya bosh vaziri Aristid Brian kabilarni keltirish mumkin.

Biroq Yevropa mamlakatlarini birlashtirish jarayoniga oid ushbu tadqiqotchilarining barcha xilma-xil takliflari Ikkinchiji jahon urushi oxirida Yevropa mintaqada joylashgan davlatlarni birlashtirish rejalarining amalga oshishiga obyektiv ravishda imkon bergan vaziyatda qolgan, Ikkinchiji jahon urushining oxirigacha hayotga amalda siyosiy joriy etishni talab qilmay, faqat nazariy shaklda bayon etilganicha qolgan edi. Yevropaliklarning milliy suverenitetga ustuvorlik bergen davlat-millatlardan ko‘ngli qolishi Umumiy Yevropaning tashkil qilinishiga asosiy turtki bo‘ldi. Milliy davlatlarga nisbatan salbiy munosabat asosan millionlab odamlarning qurbon bo‘lishiga olib kelgan Birinchi jahon urushi tufayli yuzaga kelgan edi. Aynan shu kayfiyatlar Yevropa davlatlarini birlashtirish loyihalari paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu loyihalar integratsiyaga oid ilmiy maktablar yuzaga kelishi bilan mustahkamlandi. Ushbu maktablar aslida yangi dunyoviy tartib o‘rnatalishi zarurligining, shuningdek, Yevropa va xalqaro hamjamiyatni rivojlantirishning urushni inkor etuvchi va tinchlikka da’vat qiluvchi ancha oqilona yo‘lga ehtiyoj mavjudligining dalili bo‘lgan turli model va nazariyalarni ishlab chiqdilar.

Agar integratsiyaga oid nazariy tafakkurning shakllanishi va rivojlanishida sezilarli ahamiyatga ega bo‘lgan nazariy yo‘nalishlarni xronologik tartibda qo‘yib chiqadigan bo‘lsak, birinchi o‘rinni G‘arbiy Yevropada Federativ Ittifoq tashkil qilish tarafdarlarini birlashtiruvchi hamda Yevropa integratsiya jarayonini tadqiq etish va tahlil qilishga eng ko‘p darajadagi siyosiy yondashuv bo‘lgan federalizm birinchi o‘rinni egallaydi.

Mazkur konsepsiya vakillari Yevropa birlashuvini amalga oshirish g‘oyasida federal prinsipdan foydalanganlar. Bu prinsip «hokimiyat tarmoqlarini umumiy (markaziy) va mintaqaviy (mahalliy) hukumatlar har bir alohida sohada muvofiqlashgan va mustaqil bo‘ladigan tarzda taqsimlash usuli» sifatida ta‘riflanadi. Boshqacha aytganda, hududiy birliklar, federalistlar fikricha, markaziy hokimiyat idoralariga o‘z vakolatlarining bir qismini beradilar, ayni vaqtida o‘zlarining yaxlitligi va muayyan darajadagi muxtoriyatini saqlab qoladilar. Bunda yangi Birlashgan Yevropaning davlatlararo organlari vakolatlari alohida davlatlarning vakolatlaridan keng bo‘lishi mumkin emas. Buning oqibatida E.Uistrich «Federalizmning mohiyati barcha zarur joylarda nomarkazlashtirish (desentralizatsiya)dan iborat» deb hisoblagan. Shu o‘rinda «barcha zarur joylarda» prinsipi bo‘yicha bunday nomarkazlashtirish, aslida, Yevropa Ittifoqi to‘g‘risidagi Maastricht shartnomasining asosiy qoidalaridan bo‘lgan subsidiarlik prinsipining mazmunini tashkil qiladi.

Shunisi e’tiborliki, federalistlar Yevropaning birlashuvi jarayoni inqilobi xususiyatga ega emasligiga ishonar va uni tadrijiy, ilgarilama rivojlanadirish zarurligini e’tirof etardilar. O‘z vaqtida g‘arbiy Yevropalik mashhur arbob, Yevropa Ittifoqi doirasida davlatlararo integratsiyaning faol kurashchisi J. Monne ta’kidlaganidek, «...Yevropa ittifoqi ham, iqtisodiy integratsiya ham bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak. Kunlardan bir kun bu jarayon bizni Yevropa Federatsiyasiga olib keladi...». Shu bilan birga, bu ittifoq davlatlar o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar sohasi bilan cheklanib qolishi mumkin emas, siyosiy integratsiyasiz, federalistlar fikricha, umuman haqiqiy integratsiya bo‘la olmaydi.

Davlatdan ustun turadigan federativ davlat g‘oyasining afzalliklariga qaramay, barcha federalistik loyihiilar Ikkinchi jahon urushi tugamagunicha loyihamadan nari o‘tmadi. Urushlar o‘rtasidagi davrda «Birlashgan Yevropa» to‘g‘risidagi mulohazalar mavhum-nazariy xususiyatga ega edi va umuman olganda, sof shior xususiyatiga ega bayonotligicha qolib keldi. Buni o‘scha vaqtida Yevropa birlashuvi amaldagi siyosiy voqelikka mos kelishidan hali juda uzoq ekanligi bilan izohlash mumkin. Buning ustiga, federalizm u yoki bu davlat

manfaatlarini, uning tashqi siyosiy strategiyasi kabi siyosiy muhim kategoriyalarni inobatga olmas edi. Amalda esa integratsiyaviy bir-lashuvda ishtirok etuvchi har bir davlat mavhum umumiylar maqtashlar uchun yon bermay, o‘z manfaatlarini ko‘p yoki oz darajada izchil himoyalashga harakat qilardi.

Federalistik qoidalarning haqiqiy hayotdan uzilib qolishi integratsiyani o‘rganishning federalizmdan mutlaqo farq qiladigan yangi konsepsiyalari paydo bo‘lishiga olib keldi.

Milliy davlatning buzg‘unchi xususiyatiga qarshi chiqqan, ammo federalistik yondashuvdan ancha farq qiluvchi ikkinchi yo‘nalish funksionalizm nazariyasi edi. Bu nazariya klassik ko‘rinishda D. Mitrani asarlarida o‘z ifodasini topdi. Olim buning uchun, federalistlar qilganidek, Yevropa davlatlari o‘rtasidagi mojarolarni tugatish usullarini topishga intildi hamda buning uchun xalqaro hamjamiyat tizimining ideal shaklini izlash emas, balki u bajarishi kerak bo‘lgan funksiyalarini ochib berish kerak, deb hisoblardi.

Shunday qilib, D.Mitranning fikricha, bir necha o‘n yillar mobaynida shakllangan xalqaro munosabatlardan tizimi haqidagi tasavvurlarni o‘zgartirish va yangilash hamda buning o‘rniga pirovard maqsadi yalpi jahon birligi bo‘lgan «funksional muqobililik»ni taklif etdi. Mazkur nazariya Yevropa davlatlarining yaqinlashuviga olib kelgan amaliy harakatlarda o‘z ifodasini topdi.

Funksionalizmning asosiy qoidalardan biri shundaki, millatlar o‘rtasidagi integratsiya iloji boricha nosiyosiy bo‘lmog‘i kerak, davlatlarning samarali hamkorligi va to‘qnashuvlarga yo‘l qo‘ymasligiga esa birinchi navbatda integratsiyaviy tuzilmaning barcha ishtirokchilari uchun umumiylar bo‘lgan farovonlik masalalarini hal qilishda sa‘y-harakatlarni kelishib olish orqali erishilmog‘i kerak. Funksionalizm nazariyasiga binoan, integratsiya jarayonlarining rivojlanishi bevosita davlatlarning o‘zlarida namoyon bo‘ladigan muayyan vakolatlarga ega funksional tashkilotlar paydo bo‘lishiga olib keladi. Integratsiyaning oxirgi mahsuli «elementlari umumiylar siyosiy ustqurmasiz ishlay boshlashi mumkin bo‘lgan funksional tizim...» bo‘ladi. Funksionalizm vakillari xalqaro integratsiyaga an‘anaviy davlatlararo hamkorlik tizimidan muayyan funksional hamjamiyatga asta-sekin o‘tish,

suveren davlatlar hokimiyat vakolatlarini tashkil etilayotgan va funk-sional samaradorlikka ega bo‘lgan, davlatdan ustun turuvchi tuzilma-larga berish jarayoni sifatidagi xalqaro integratsiya deb qaraydilar.

Funksionalizm tarafдорлари о‘зларининг integratsiya jarayoni haqi-dagi mulohazalarida inson hamda uning ehtiyoj va manfaatlari ustuvorligi qoidasidan kelib chiqqanlar. Bu manfaatlар, ularning fikricha, har qanday millat-davlatdan ustun turadi. D.Mitrani internatsional (baynalmilal) tashkilotlar insonning ayrim ehtiyojlarini milliy davlatlarga qaraganda yaxshiroq qondira olishi mumkinligiga ishongan. Binobarin, odamlar o‘z ehtiyojlarini oqilona belgilamoqlari hamda ushbu ehtiyojlarni qondirish funksiyasi ishonib topshirilgan va ularni bajara oladigan institutlarni tashkil etishga ijodiy yondashmoqlari kerak.

D.Mitranining fundamental g‘oyalaridan ayrimlari keyinchalik jiddiy o‘zgarishlarga uchradi va xalqaro integratsiyaga oid eng obro‘li nazariyalardan biri bo‘lmish neofunksionalizmning asosini tashkil etdi. Bu nazariyaga keyinroq batafsil to‘xtalamiz.

Fanda o‘ziga xos kommunikatsiyaviy yondashuv yoki «xavfsizlik hamjamiyatlari» nazariyasi ancha rivojlangan bo‘lib, uni amerikalik siyosatshunos K.Doych ilgari surgan. Bu nazariya hozirgi zamon xalqaro munosabatlarining rivojlanishidagi eng muhim qonuniyatlarini ochib bergen. Mazkur munosabatlar bo‘Imaganida Yevropa integratsiyasini nazariy jihatdan tadqiq etish mumkin bo‘Imagan bo‘lardi. Shu bois, biz uni batafsilroq ko‘rib chiqamiz.

Ushbu konsepsiya kommunikatsiya nazariyasi nuqtayi nazari-dan ko‘rib chiqiladi va unda ijtimoiy kommunikatsiyalar (aloqalar) ijtimoiy rivojlanish jarayonida milliy davlatga aylanuvchi (evolyu-tsiyanuvchi) mahalliy jamoalarga asos bo‘ladigan o‘ziga xos g‘ishtchalar hisoblanishi ta’kidlanadi.

K.Doych davlat ichidagi o‘zaro munosabatlar hamda xalqaro so-hadagi hamkorlik o‘rtasida o‘ziga xos o‘xshashlik o‘tkazadi. Bunda davlatlar shunday «xavfsizlik hamjamiyati»ni tuzadilarki, ular «o‘zaro integratsiyaning katta darajasiga erishgan va muayyan ham-jamiyat (birlik) zarurligini anglagan bir guruuh davlatlar» bo‘ladi. Bunday hamjamiyat doirasida davlatlar urush yuzaga kelishi xavfini

nolga tenglashtirishga harakat qiladilar, buning uchun o‘z kelishmovchiliklarini hal qilishning boshqa yo‘llarini qidiradilar va bu bilan hamjamiyat a’zolarining «tinch-totuv yashashini» ta’minlaydilar.

Davlatlararo integratsiya, mazkur yo‘nalish vakillarining fikricha, – ko‘p vektorli, ko‘p jihatli jarayon bo‘lib, uni har tomonlama o‘rganish uchun bilishning yetarlicha ko‘p usul va vositalarini qo‘llash lozim. Shu sababli, K.Doych davlatlar integratsiya tashabbuslarini amalga oshirishlari darajasini aniqlash, u yoki bu sohada ular hamkorligining amalga oshish tezligini, shuningdek, ularning bu yo‘nalishdagi sa’y-harakatlarini faollashtirishga xalal berayotgan to‘sqliarni aniqlash maqsadida muayyan mezonlar tizimi kiritishni taklif qildi.

K.Doych integratsiyaviy evolyutsiyaning manbai deganda, individual xatti-harakatning pragmatik deatamaantlashganligini tushunadi. «Odamlar, – deb yozadi K.Doych, – ertami-kechmi iqtisodiyot va siyosatning raqobatli o‘yinida agar koalitsiya (uyushma) tuzsa o‘z manfaatlarini yaxshiroq himoya qila olishlarini tushunib yetadilar... Siyosat va iqtisodiyotda bunday koalisiyalar ko‘p jihatdan ijtimoiy kommunikatsiyalar va madaniyatga, shaxsning tuzilishiga, ishtirokchilarining kommunikatsion odatlariga bog‘liq bo‘ladi». Kommunikatsion nazariya tarafdarlarining fikrlaricha, diplomatik va savdo aloqalarining yaqinroq bo‘lishi «hamjamiyat va ishonch hissini» kuchaytiradi.

K.Doych ishtirok etuvchi birliklar ichida va orasida «xavfsizlik hamjamiyati»ni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun zarur bo‘lgan quyidagi asosiy ilk ijtimoiy-iqtisodiy omillarni keltiradi. Ularning dastlabki to‘rttasi transmilliy hamjamiyat shakllanishini osonlashtiruvchi yordamchi xususiyatga ega, ammo majburiy emas; dastlabki sulo laviy yoki ma’muriy ittifoqning mavjudligi; etnik yoki lingvistik assimilatsiya; chambarchas iqtisodiy aloqalar; tashqi harbiy tahdid; siyosiy xatti-harakatga aloqasi bo‘lgan asosiy qadriyatlarning o‘zaro mosligi; hamjamiyat ishtirokchilariga xos bo‘lgan turmush tarzi; ancha yaqin va foydali iqtisodiy aloqalar o‘rnatalishi va muayyan yutuqlarga ega bo‘lishni kutish; loaqlar ayrim ishtirokchi birliklarning siyosiy va ma’muriy sohalardagi imkoniyatlarining chuqurlashuvi;

loaqlal bir qator ishtirokchi birliklarda (qo'shni hududlarga nisbatan, istiqbolli integratsiya sohasidan tashqarida) ancha yuksak darajadagi iqtisodiy rivojlanish; birlashishi lozim bo'lgan hududlar va ular ichidagi jamiyatning asosiy ijtimoiy qatlamlari o'rtasida muhim uzlucksiz ijtimoiy kommunikatsiya oqimlarining mavjudligi, ularning ayirboshlanishi va integratsiyalanuvchi birliklar o'rtasida teng (muvozanatlashgan) taqsimlanishi; loaqlal bir qator siyosiy birliklar ichida siyosiy elitaning kengayishi; shaxslarning nisbatan yuqori darajadagi (geografik va ijtimoiy) harakatchanligi, loaqlal siyosiy sohaga aloqasi bo'lgan qatlamlar orasida, o'zaro kommunikatsiya va o'zaro ta'sirlar yo'nalishlarining ko'pligi; kommunikatsiyalar va o'zaro aloqalar jarayonidagi umumiy qoidalar; ishtirok etuvchi birliklar orasida guruhlar rollarining almashuvi; xatti-harakatni (ishtirokchilarning qanday ish tutishini) taxmin (bashorat) qilish mumkinligi.

Ayni vaqtda integratsiyaning jarayon sifatidagi ba'zi o'ziga xos sifat jihatlari ham ta'kidlanadi. Ularning bo'lmashligi, Doych fikricha, muvaffaqiyatli rivojlanish imkoniyatlarini ancha kamaytiradi:

- vaqt omiliga katta ahamiyat beriladi: integratsiya jarayonining ishtirokchilarini integratsiyada ishtirok etish tufayli zimmalaridagi yukni sezishlaridan avvalroq haqiqiy foyda olgan taqdirdagina integratsiya jarayonini muvaffaqiyatli deb hisoblash mumkin;

- integratsiya jarayoni aksariyat hollarda integratsion birlashma ning qolgan a'zolariga nisbatan rivojlanganroq yohud kuchliroq bir yoki bir necha siyosiy birlikdan iborat "kuch markazi" atrofida tashkil etiladi va muvaffaqiyatli rivojlanadi;

- integratsiya jarayoniga ishtirokchilar o'rtasida urushlarni psixologik jihatdan qabul qilmaslikning chuqurlashuvi xos bo'lib, yana da muhimrog'i, «harbiy harakatlarga tayyorgarlikni institutsional lashtirishga va urushni qonuniy asoslangan deb hisoblashga tayyorlikning pasayishi» xosdir;

- integratsiya rivojlanishi bilan siyosiy partiylar, diniy, iqtisodiy manfaatlar guruhlari kabilar o'rtasidagi davlat ichki ajralishi (ichki milliy ajralish) o'zining ichki milliy xususiyatini yo'qotadi va borgan sari transmilliy xususiyat kasb etadi;

– ilgari integratsiyaviy birlashmaning muvaffaqiyati ko‘p jihat-dan asosiy siyosiy partiya yoki fraksiyalarning muayyan yangi g‘oya, shior, umummintaqaviy xususiyatga ega rejalarни maydonga olib chiqishlari bilan belgilangan.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, davlatlararo integratsiya juda murakkab siyosiy jarayon hisoblanadi. Unda ishtirok etadigan davlatlar umumiyl manfaatlар tizimini yaratish orqali halq xo‘jaliklari uyg‘unlashuvi va jahon bozorida raqobatbardoshlikka erishishi mumkin.

Integratsiya tushunchasi ilmiy tahlil qilinganda uning asl mohiyati anglab etiladi. Integratsiya nazariyasi – halqaro munosabatlar fanning ajralmas qismi sifatida ma’lum mintaqa integratsion jarayoni to‘g‘risida ilmiy mulohaza yuritishda va uning amaliy mohiyatini keng yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, ilmiy jamoatchilikda ushbu nazariya atrofida baxslar keskin ravishda kechayotganligi ko‘zatilmoqda. Bu holatni bir qator olimlar siyosiy qadriyatlarni yangi, yanada takomillashgan darajaga ko‘tarilganligi bilan tushuntirishadi. Boshqacha qilib aytganda, hokimiyat masalalari davlatdan yuqori darajaga ko‘tarilmokda, ya’ni integratsiyada ishtirok etayotgan davlatlar umumiyl manfaatlarga erishish maqsadida o‘zlarining mustaqilliklaridan qisman voz kechishga majbur bo‘lmoqdalar. Xususan, g‘arb nazariyotchisi Robert Koen va Djozef Nay nuqtai nazariga ko‘ra , integratsiya davomida davlatlar o‘rtacida o‘zaro bog‘liqlikka olib keluvchi siyosiy institutlar va boshqaruv tizimi yaratiladi. Bunda mazkur mualliflar integratsiyani rudimentar darjasidan to eng yuqori darajagacha borishini tahlil qilishadi. Bundan oxirgi bosqichda yagona halqaro boshqaruv tizimi barpo etiladi degan mazmun kelib chiqadi .

Mualliflar tomonidan integratsiya yuzaga kelayotgan tabiiy holat, ya’ni tarixiy jarayondir deb qaraladi. Yuzaga kelayotgan holat jihi-tidan integratsiya tizimi ichida uni tashkil etuvchi elementlarning o‘zaro bog‘liqlik darjasini tushiniladi. Jarayon sifatida esa integratsiya tizimi ichidagi elementlarning o‘zaro bog‘liqligining kuchayib borishi anglaniladi . Integratsiyaning ushbu nazariy talqinidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, halqaro siyosiy integratsiya deganda,

mustaqil davlatlarning hamjamiyat tarzida birlashuviga olib keluvchi jarayon tushiniladi. Siyosiy integratsiya bir vaqtning o‘zida iqtisodiy integratsiyasiz kechmaydi. Iqtisodiy integratsiya o‘z navbatida ikki jahada namoyon bo‘ladi:

1) integratsiyalashuvchi davlatlar o‘rtasida halqaro mehnat taqsimoti va umumiylar bozorning shakklanishi;

2) halq xo‘jaligi faoliyatini tartibga soluvchi umumiylar qonun-qoidalari va supranatsional darajada iqtisodiy tashkilotlarning barpo etilishi.

Siyosiy va iqtisodiy integratsiyalashuv zamirida esa huquqiy integratsiya yotadi. Integratsiyaning ushbu shakli kontseptual qaramaqarshiliklarga boy bo‘lib, erishiladigan umumiylar huquqiy tizimda integratsiyalashuvchi barcha davlatlarning fuqarolari, jamiyat va davlat manfaatlari uyg‘unlashuvi asosida yuzaga keladi.

Ikkinci bir tomondan integratsiyalashuvchi davlatlardagi siyosiy tizim va siyosiy integratsiya o‘rtasida o‘zarobog‘liqlik bo‘lgandagina, integratsiyaning siyosiy jihatdan kuchayishiga olib keladi. Shu sababli, Lindberg va Shayngoldning ta’kidlashicha, integratsiya natijasida har bir siyosiy tizimda halqaro siyosat, iqtisod va xavfsizlik masalalari buyicha qaror qabul qilish jarayoni o‘lchami, ham ko‘lami jihatidan o‘sadi. Boshqacha qilib aytganda, kuchli integratsiyalashgan hamjamiyatga institutsional va huquqiy-normativ jihatdan integratsiyalashuv orqali erishish mumkin. Ha jamiyat uchun zarur bo‘lgan supranatsional organlar bo‘lmash ekan, integratsiyalashgan siyosiy tizimni shakllantirib bo‘lmaydi.

Shu o‘rinda halqaro munosabatlar nazariyasiga murojaat qilish integratsiya to‘g‘risidagi ilmiy qarashlarga yanada oydinlik kiritadi. Dastavval ta’kidlash joizki, integratsiya halqaro munosabatlar nazariysi doirasida o‘rganiladigan tushuncha hisoblanadi. Integratsiyadan maqsad: halqaro munosabatlar sub’ektlarining imkoniyatlari va resurslarini birlashtirish orqali halqaro miqyosda o‘z mavqelari va ta’sir doiralarini kuchaytirishga erishishdir. Realizm maktabi namoyondasi Gans Morgentauning quyidagi kontseptsiyasi fikrimizning yaqqol dalili bo‘la oladi:

«Halqaro siyosatning mohiyati hokimiyat uchun ko‘rashdan iborat. Halqaro siyosatning yakuniy maqsadi qanday bo‘lishidan qatiy nazar, hokimiyat bevosita maqsad bo‘lib qoladi. Bunda foydalaniladigan instrumentlar qanday bo‘lsa ham, tashqi siyosatning yakuniy maqsadi o‘zgarishsiz qoladi, ya’ni qarama-qarshi tomonlarning fikrini o‘zgartirish orqali o‘z manfaatlarini ilgari surishdir».

Darhaqiqat, «integratsiya» tushunchasining takomillashuvi 1970 yillarda yuzaga kelgan neorealizm nazariyasi ta’siridan holi emas. Jumaladan, Kennet Velts, Robert Gilpin, Stefen Krasner, Djordj Modelschi va Robert Taker singari olimlar davlatlarning halqaro sahnadagi faoliyatini anarxiya holatiga o‘xshatishadi. Ularning ta’kidlashlaricha, halqaro munosabatlarda mavjud bo‘lgan mazkur holat davlatlararo munosabatlarni halqaro tizimni shakllantirish orqali tartibga keltirishni taqozo etadi va bu esa o‘z navbatida integratsiyaga bo‘lgan extiyojni tug‘diradi.

6.2. Mintaqaviy integratsion birlashmalar

Integratsiya milliy iqtisodiyotlarning sifat jihatidan yangi sharoitlarga ega bo‘lishi va mamlakat taraqqiyoti imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida, ixtiyoriy ravishda birlashish, bir-birlariga o‘zaro ta’sir etishi jarayonidir. Integratsiya hamkorlik, iqtisodiy siyosatda ustuvor yo‘nalish deb, ishlab chiqarish rivojlanishini belgilagan mamlakatlar o‘rtasida, asosan, ishlab chiqarish sohasida yuz beradi va bu jarayonni amalga oshirish maqsadida mamlakatlar qator chora-tadbirlarni qo‘llaydilar. Mazkur borada Yevropa Iqtisodiy Hamkorligi—Yevropa Ittifoqi namuna bo‘lib xizmat qiladi. Uning integratsiya sohasidagi tajribasini boshqa mintaqalarda ham qo‘llash mumkin.

Hozirgi paytda dunyodagi ko‘plab integratsiya assotsiatsiyalari Yel tajribasiga amal qilgan holda integratsiyaning besh pog‘onasiga asoslanib ish olib bormoqdalar. Endilikda faqat pog‘onali integratsiya modeliga asoslangan erkin savdo mintaqalari (Lotin Amerika erkin savdo assotsiatsiyasi) yoki (G‘arbiy Afrika bojxona ittifoqi va Markaziy Afrika iqtisodiy-bojxona ittifoqi) bilan bir qatorda iqtisodiy ittifoqlar ham tashkil etila boshladi (EKOVAS-1975 y.).

Umuman, integratsion jarayon–bu globalizatsiyaning davomi bo‘lib, shuni eslatib o‘tish kerakki, bu jarayon bir nechta qatnashchi davlatlarni birlashtiradi. Nodavlat aktorlar esa, odatda, integratsion jarayonlarning ishtirokchisiga aylana olmaydilar va pereferiyada qoladilar. Bu jarayonda u yoki bu mamlakat davlatlararo bitimni imzolagandan keyin integratsiya qatnashchisiga aylanadi.

Integratsiyaning ahamiyatli tomonlari shundan iboratki, bu jarayonda davlatlar o‘rtasida turli sohalarda, turli shakkarda hamkorliklar amalga oshiriladi. P.A. Sigankovning tadqiqotlariga ko‘ra, integratsiyaning quyidagi ko‘rinishlari mavjud:

- siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy (ya’ni predmetiga ko‘ra);
- global, mintaqaviy, submintaqaviy integratsiya (geografik joylashuviga ko‘ra).

Shu bilan birga, boshqa bir muallif K. Voronov shuni ta’kidlaydiki, hamkorlik va integratsiya jarayon ishtirokchilari soni ortishi bilan “kengayishi”, shuningdek shu ishtirokchilarning turli sohalarda olib borayotgan o‘zaro hamkorliklari natijasida “chuqurlashishi” mumkin.

Davlatlararo hamkorlik amaliyoti anchadan buyon mavjud. Lekin XX asrning ikkinchi yarmidan davlatlararo hamkorlik keng ko‘lamda doimiy shaklga ega bo‘la boshladi. Bu hamkorlikning intensivligi, uning sohalarini kengayishi va integratsion jarayonlarning rivojlaniши bilan bog‘liq. Bularning barchasi davlatlararo institutlarni vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Shuning uchun integratsiyani xarakterlaydigan muhim jihatlardan biri–bu davlatlararo o‘zaro munosabatlarni mexanizmi, boshqa so‘z bilan aytganda, hamkorlikni institutlashtirish yaratildi. Bu borada integratsiya, birinchi navbatda, davlatlararo mexanizmlarni shakllantirish maqsadida qarorlar qabul qilinadigan hukumatlararo uyushma bilan bog‘liq. Integratsion jarayonlar birgalidagi institutsional harakatlar orqali amalga oshiriladi. Ikkinchidan, integratsiyaga ikki hil yondashish mumkin: birinchisi–“jarayon” sifatida, ikkinchisi–“davlatlarning o‘zaro munosabatlari natijasi” sifatida qarash mumkin.

Mamlakatlarni integratsiyaga nima jalb etadi? Birinchi navbatda umumiyligi muammolarning mavjudligi, ya’ni birgalikda harakat qilinsa yechilishi oson kechadigan muammolarning mavjudligi.

XX asrning oxiri XXI asrning boshida dunyoning tez sur'atlar bilan rivojlanishi xalqaro aloqalarning kuchayishiga, ayniqsa, iqtisodiy sohadagi dunyoning uzviy bog'liqligiga olib keldi va buning natijasida integratsion jarayonlar va turli hukumatlararo uyushmalar paydo bo'ldi.

Mamlakatlarning integratsion jarayonlarga bo'lgan qiziqishining yana bir sababi, "katta" va "kichik" mamlakatlarning manfaatlari, ya'ni mamlakatlararo ta'siri ortdi. Bu mamlakatlar uchun davlatlararo jarayonlarga yolg'iz ta'sir etishdan ko'ra birlashgan holda ta'sir ko'rsatish osonroqdir. Masalan, tadqiqotchi Yu.A. Borkoning ko'rsatishicha, Yevropa hamjamiyatining boshlang'ich bosqichida 3 ta "kichik" va 3 ta "katta" davlat bo'lsa, 1973-yilda 5 ta "kichik" va 4 ta "katta", 1980-yilga kelib 8 ta va 4 ta, 1990-yilda esa 11 ta "kichik" va 4 ta "katta" davlat bo'ladi. Ko'rinish turibdiki ulardan 11 tasi "kichik" davlat hisoblanadi. Davlatlar xalqaro tashkilotlarga qo'shilayotganda rasman bir qator funksiyalarini yo'qotadi va shu bilan birga, boshqa bir qator qo'shimcha funksiyalarga ega bo'ladi. Bu funksiyalar "kichik" davlatlar uchun juda muhim hisoblanadi.

Nazariy jihatdan integratsion jarayonlar XX asrning o'rtalaridan ko'zga tashlana boshladi va bir necha nazariy maktablar-funksionalizm/neofunksionalizm va federalizmni tanqidiga uchradi.

Funksionalizm maktabi otasi bo'lmish Devid Mitrani 1943-yilda "Dunyo va xalqaro tashkilotlarning funksional rivoji" nomli asarini chop ettirdi. Bu asarda Millatlar Ligasi tashkiloti nima sababdan parchalangani tahlil qilingan va integratsion jarayonlarni siyosiy sohadan boshlamaslik kerakligi haqida xulosalar keltirilgan. Chunki bunday holatda har qanday davlat ham o'z suverenitetidan tashvishga tushadi. D.Mitrani integratsion jarayonlarni iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy sohalardan boshlashga e'tiborini qaratadi, siyosiy integratsiya esa rejaning keyingi bosqichlarida amalga oshiriladi.

Bugungi kunga qadar iqtisodiy integratsiya jarayoni ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan o'rganib chiqildi va bu jarayon quyidagi qat'iy bir necha pog'onadan iboratligi ta'kidlandi:

1. Erkin savdo mintaqasini yaratish va bu mintaqada qatnashchi davlatlar bojxona to'siqlarini va savdodagi miqdoriy cheklowlarni olib tashlaydilar.

2. Bojxona ittifoqini rivojlantirish. Bu bosqichda tovarlar va xizmatlar yagona bojxona tarifi bo'yicha harakatlanadi.

3. Uchinchi bosqich umumiylar bozorni shakllantirishdan iborat bo'lib, bu bosqichda davlatlararo to'siqlar tugatilishi, nafaqat o'zaro savdo, balki ishchi kuchi va kapital ham bermalol harakatlanishi nazarda tutiladi. Bu bosqichda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari va yo'nalishlarini rivojlantirish siyosati integratsiyaning barcha ishtirokchilari tomonidan ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, umumiylar shakllana boshlaydi va bu fondlar integratsion birlashmaning qolqroq qismlarini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

4. Iqtisodiy va valyuta ittifoqini tashkil qilish va yagona valyutani yaratish.

5. Oxirgi bosqich siyosiy integratsiya bo'lib, umumiylar siyosiy institutlar shakllantiriladi. Bu bosqich birgalikda tashqi siyosat olib borish va xavfsizlik borasida siyosat yuritish, kelgusida esa birgalikda mudofaa siyosatini ham olib borish yo'li bilan xalqaro sohada o'ziga xos birxillikni qaror toptirishni nazarda tutadi.

Iqtisodiy integratsiyaning obyektiv xususiyatlari davlat va davlatlararo tashkilotlar tomonidan milliy iqtisodiyoti chetdan boshqariladi, degan ma'noni anglatmaydi. Hududiy integratsion komplekslarni shakllantirish shartnomali-huquqiy bazaga ega. Bir qator mamlakatlar guruhi o'zaro kelishgan holda mintaqaviy davlatlararo kompleksga birlashadilar hamda o'zaro hamkorlikda ijtimoiy-siyosiy va xo'jalik hayotida teng ravishda hududiy siyosat yuritadilar. Jumladan, G'arbiy Yevropada-YeH va Shimoliy Amerikada-NAFTA, Osiyo-Tinch Okeani hududida Tinch okean hamjamiyati mavjuddir.

Tarixan ancha barqarorlashgan integratsion jarayonlar G'arbiy Yevropada yuzaga kelgan bo'lib, XX asrning ikkinchi yarmida butun bir hududda yagona xo'jalik makoni tashkil etildiki, uning doirasida qayta tiklanishning umumiylar shart-sharoitlari shakllandi va uni boshqarish mexanizmi yaratildi. G'arbiy Yevropa integratsiya mexanizmining muhim qismlaridan biri-tizimli, tarmoqli va mintaqaviy siyosatni birlashib o'tkazishdir. Shuni aytish kerakki, milliy boshqarish uncha raqobatga bardoshli bo'limgan tarmoqlarda va qoloq hududlarda ishlatiladi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Mintaqashunoslikni fan sifatida ajralib chiqishiga nima sabab bo‘ldi va uning vazifalari (shartlari) qanday?
2. Xalqaro siyosiy mintaqaga geografik mintaqadan nimasi bilan farq qiladi?
3. Zamonaviy mintaqashunoslik tizimida qanday bo‘limlarni ajratib ko‘rsatish mumkin?
4. Mintaqashunoslik faniga oid qanday yondashuvlar mavjud?
5. Mintaqashunoslik fanining jadal rivojlanishi qachon boshlandi?
6. Mintaqashunoslik predmeti qaysi davrdan fan sifatida qabul qilingdi?
7. Qaysi davr “Mintaqalar” deb nomlanadi va nima uchun?
8. Mintaqashunoslikning boshqa fanlar bilan o‘zaro qanday aloqadorligi mavjud?
9. Integratsion jarayonning ijobiy tarafi nimadan iborat?
10. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati nimada?
11. Integratsiyani o‘rganishda pozitivistlar va kognativistlar yondashuvlarida qanday farq bor?
12. “Tashkillashtirilgan integratsiya” dan “notashkiliy integratsiya” ning qanday farqi bor?
13. Yevropa, Osiyo, Afrika va Amerikada borayotgan integratsion jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. “Janubi-sharqiy Osiyodagi integratsion jarayonlar” mavzusida ma’ruza tayyorlang.
2. “OTOIH forumi va Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari” mavzusida ma’lumotlar tayyorlang.
3. “OTOIHning asosiy maqsad va vazifalari” mavzusida referat tayyorlang.
4. Integratsiya borasidagi ta’riflarni o‘rganib, tahlil eting.
5. Yevropa Ittifoqi doirasida integratsion jarayonlarni mustahkamlash borasida olib borilayotgan chora tadbirlar haqida ma’ruza tayyorlang.

6. Hozirgi davrda mavjud integratsion birlashmalar haqida referat tayyorlang.
7. Markaziy Osiyo integratsiyasining xususiyatlari mavzusida referat tayyorlang.
8. Arab davlatlarida mavjud integratsion birlashmalar haqida referat tayyorlang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Kathy Pain. Changing Urban and Regional Relations in a Globalizing World. – USA, 2014. – 248p.
2. TimoBehr., JuhaJokela. Regionalism and global governance: the emerging agenda. –Notre Europe, 2011. – 67 p.
3. Rouben Azizian, Carleton Cramer. Regionalism, security and cooperation in Oceania. – USA: APCSS, 2015. – 172 p.

Qo‘sishimcha adabiyotlar

1. Барыгин И. Н. Международное регионоведение. – СПб.: Питер, 2016, 384 с.
2. Мұхаммадсидиков М.М. Замонавий халқаро муносабаттарнинг миңтақавий жиҳатлари (ўқув қўлланма) –Т.: ТошДШИ, 2013, 182 б.
3. Мұхаммадсидиков М.М. Хорижий Шарқ ва Ғарб мамлакатларида ижтимоий-сиёсий жараёнлар (ўқув қўлланма) –Т: ТошДШИ, 2013, 160 б.
4. Muhammadsidiqov M.M. Sharq mamlakatlari xalqaro munosabatlari (o‘quv qo‘llanma) – T.: ToshDSHI, 2017, 240 b.

7-BOB. XALQARO MINTAQAVIY SIYOSAT

Darsning maqsadi:

- mazkur ma’ruzani o‘qitishdan ko‘zlangan maqsad talabalarning jahon siyosatida turli mintaqalar haqida tasavvurga ega bo‘lishi hamda xalqaro mintaqashunoslik fani yuzasidan bilimlarini chuqurlashtirish;
- talabalar turli mintaqalardagi mamlakatlarning siyosiy-ijtimoiy jarayonlari borasida tasavvur hosil qilishlariga ko‘maklashish;
- usul va uslublardan foydalanish tajribasini oshirish hamda ilmiy tadqiqot ishlari, axborot-tahliliy yozishmalarni olib borish qobiliyatlarini rivojlantirish;
- talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo‘llashni o‘rgatishdan iborat.

Tushunchalar va tayanch iboralar: *Mintaqa, mintaqaviylashuv, xalqaro mintaqaviy siyosat, mintaqaviy tashkilotlar, mintaqaviy hudud, mintaqaviy ittifoqlar, xalqaro siyosiy mintaqa, mintaqaviy mojaro, hududiy nizolar.*

7.1. Xalqaro siyosiy mintaqa va mintaqaviy hudud tushunchasi

Xalqaro siyosiy mintaqa tushunchasi geografik va ijtimoiy-iqtisodiy mintaqa tushunchasidan farq qiladi. Muammoviy-siyosiy mintaqaning umumiy qismi bo‘lgan xalqaro-siyosiy mintaqa (MNR) eng avvalo xalqaro sahnada faol geostrategik faoliyat yurituvchi davlatlar o‘rtasidagi munosabatlар bilan xarakterlanadi.

Jahon siyosatida yangi tartibotning o‘rnatalishidan keyingi davrda mintaqaviylashuv (regionalizm) davlatlarning ichki va tashqi siyosatining muhim omiliga aylandi, u makon va ijtimoiy zamon funksiyalari rolining o‘sishi, hududning geosiyosati, geoiqitisodi va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarining qo‘silishi bilan xarakterlanadi. Ichki va xalqaro munosabatlarning mintaqaviylashuvi hududiy iyerarxiyaning turli darajalarida amalga oshiriladi, ular

orasida quyidagilar ajratib ko'rsatiladi: submintaqa, kontinental va transkontinental³⁶.

Shu bilan birga, mintaqaviylashuv (regionalizm) G'arb yoki industrial sivilizatsiya rivojlanishining obyektiv qonuniyatlarg'a asoslangan natijasi bo'lib hisoblanadi³⁷. Shu tariqa, Yagona Yevropa shakllanishining asosida, fuqarolik jamiyatini davlatning vasiyligidan qutqarishga qaratilgan Amerika inqilobidan boshlanadigan, Atlantik model turadi. «Atlantik federalizm» g'oyasi G'arbiy Yevropaning ijtimoiy-madaniy strategiyasiga aylandi. Bu yerda mintaqaviylashuv o'zining eng rivojlangan cho'qqisiga erishdi. Prioritet milliy davlatlarning emas, balki fuqarolik jamiyatining birlashishiga, Yevropa milliy iqtisodiy, bojaxona va valyuta ittifoqidan sekin-asta mintaqalar Yevropasiga o'tishga berilmoqda. Shu tariqa, bu yerda mintaqaviylashuv mohiyati «mintaqalar Yevropasi» formulasi ostida integratsiyalashishdan iborat.

Ikki qutbli dunyoning parchalanishidan keyingi davrda mintaqaviylashuvning kuchayishi turli iqtisodiy kengliklarning «chet»ida joylashgan chegara davlatlar rolining o'sishi bilan birga kechmoqda. Bu yerda postsovetski va G'arbiy Yevropa (Finlandiya, Turkiya, Kipr va boshqalar) o'rtaqidagi chegaraviy funksiyalardan samarali tarzda foydalanib keluvchi davlatlar guruhi ajralib ko'rsatiladi. Agar Finlandiya bevosita eng yirik postsovetski davlat—Rossiya bilan qo'shni bo'lgan Yevropa Ittifoqining a'zosi bo'lsa, Turkiya va Kipr Yevropa periferiyasida joylashgan.

Umumsayyoraviy doirada geografik jihatdan har doim ham bir turda bo'lмаган bir necha iqtisodiy hududlarni ajratish mumkin: Shimoliy Atlantik, Tinch okeani va janubiy makromintaqalar; transmiliy korparatsiyalarning, ayniqsa, bank-moliyaviy, davlat nazoratiga tobe bo'lмаган va erkinlikning yuqori darajasiga ega bo'lgan meta mintaqalar; 400–500 mlrd. dollarlik tovar aylanmasiga ega bo'lgan

³⁶ Odilqoriyev X.T., Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. –T.: O'qituvchi, 2008, 56 b.

³⁷ Petty Pain and Gilles Van Hamme. Changing urban and regional relations in a globalizing world. Edvard Elgar. 2014, 87 p.

narkokartellarning geografik «uchburchak»laridan iborat bo‘lgan bir necha jinoiy iqtisodiyotning transmilliy meta mintaqalari.

Ma‘lum bir MNR ga kiruvchi davlatlar iqtisodiy, geosiyosiy va periferiya markazlar sifatida xarakterlanadi. Shu tariqa, AQSH va Yaponiya dunyodagi iqtisodiy buyuk derjava bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek, quyidagilar ajratib ko‘rsatiladi: «Shimol katta yettiligi»—AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya va Kanada; «Janub katta yettiligi»—Xitoy, Hindiston, Braziliya, Indoneziya, Meksika, Janubiy Koreya, Tailand. Bu bo‘linish shartli hisoblanadi. Masalan, Xitoy to‘laqonli huquq bilan «Shimol yettiligi» ga kirishga da’vo qilishi mumkin, bir vaqtning o‘zida jahon moliyaviy inqirozidan so‘ng, Rossiya ramziy ravishda davlatlarning ushbu guruhiga, Indoneziya va Tailand esa janubning yetakchi davlatlariga kirishi mumkin. Asosiy makroiktisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha Rossiya XX asr so‘ngida, hatto, «Janub yettiligiga» ham yon berdi.

G‘arbning rivojlangan postindustrial davlatlari qatoriga AQSH, Yaponiya, G‘arbiy Yevropa, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya va Isroil kiradi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (GOSR) o‘z qatoriga yuqorida sanab o‘tilgan davlatlardan tashqari, shuningdek, Meksika, Vengriya va Polsha davlatlarini qo‘shadi.

Rivojlanayotgan davlatlar orasida Sharqiy Osiyo yangi industrial davlatlari (YaID), Lotin Amerikasi va Yaqin Sharq davlatlari ajralib turadi. Asosiy o‘rinni ijtimoiy xaos hukm surayotgan Qora Afrika davlatlari egallaydi.

Sotsialistik tizim va SSSR parchalanganidan so‘ng, Markaziy-Sharqiy Yevropa va MDH davlatlari guruhi ayniqsa ajralib turadi. Bu «demokratik tranzitlar» deb nomlanuvchi o‘tish iqtisodiyotiga ega davlatlardir.

XX asrning oxirgi 20-yili davomida G‘arb mamlakatlari jahon yalpi mahsulotida ham, sanoat ishlab chiqarish va xalqaro savdoda ham o‘z ulushini ko‘paytirmadi. Yaponiya mavjud bo‘lgan barqarorligini yo‘qotdi, AQSH esa o‘sishning yuqori bo‘lmagan sur’atlarini saqlab qoldi. Nisbatan yuqori dinamiklik Sharqiy Osiyo mamlakatlari, ayniqsa, Xitoy va YaID da kuzatilgan edi.

Agar davlatlar guruhini XX asrning oxirgi 10-yilligi davomidagi jahon sanoat industriyasidagi ulushini qiyoslasak, rivojlangan davlatlarning ulushi 53% dan 46% gacha qisqarganini ko‘rish mumkin. Ommaviy mahsulotlarni ommaviy ishlab chiqarish sekin-asta Shimoliy Atlantika mintaqasidan Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga (OTM) (Yaponiyadan tashqari), Hindiston va Lotin Amerikasiga ko‘chmoqda.

Rivojlanayotgan davlatlarning ulushi 35% dan 48% ga, shu jumladan, «Janub katta yettiligi»ning ulushi 19% dan 28% gacha oshdi. Agar AQSH ulushi 17% darajada saqlanib qolgan bo‘lsa, Xitoyning ulushi 8% dan 15% gacha o‘sdi.

Jahon sanoatida ulushning qisqarishi MDH davlatlarida – 7%dan 2,5% gacha, shuningdek, Qora Afrika davlatlarida eng halokatli xarakterga egadir.

Milliy davlatlarning bir-biriga bog‘liqligi globalizatsiya sharoitlarida iqtisodiy, moliyaviy va texnologik sohalarda nisbatan to‘liq holda namoyon bo‘lmoqda. Bu yerdan xalqaro munosabatlar subyektlarining o‘zaro aloqasiga, eng avvalo, davlatlar, ularning milliy manfaatlari, xavfsizlikka intilish, dunyodagi farovonlik va barqarorlikka yo‘nalishga ehtiyoj kelib chiqadi³⁸.

Davlatlarning ikki tomonlama bog‘liqligini kuchaytirgan holda, globalizatsiya bilan bir qatorda, mintaqaviylashuv (regionalizatsiya) ham tegishli siyosiy tuzilishga, ya’ni zamonaviy jarayonlarning tabab va shart-sharoitlariga javob beruvchi xalqaro munosabatlarga ega bo‘lishi lozim. Bu davlatlar o‘z milliy manfaatlaridan voz kechishi kerak degani emas. Hozirda mavjud bo‘lgan davlatlarning ikkidan uch qismi XX asrda, eng avvalo, XMning ikki qutbli tizimi va mustamlaka tizimning yemirilishi natijasida vujudga keldi..

Faol geostrategik faoliyat yurituvchi davlatlar ayniqsa ajralib turadi. Bunday davlatlar mavjud bo‘lgan geosiyosiy holatni o‘zgartirish uchun hokimiyatni amalga oshirish va o‘z chegaralaridan tashqarida ta’sir ko‘rsatish qobiliyati va milliy ixtiyoriga ega³⁹. Ular, geosiyo-

³⁸ Petty Pain and Gilles Van Hamme. Changing urban and regional relations in a globalizing world. Edvard Elgar. 2014, 95 p.

³⁹ Odilqoriyev X.T., Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. –T.: O‘qituvchi, 2008, 68 b.

siy nuqtayi nazardan, o‘zgaruvchanlik salohiyati yoki moyilligiga ega. Qanday sabab bilan bo‘lmasin, milliy buyuklikka, mafkuraviy amalga oshirilganlik, diniy missyanerlik yoki iqtisodiy yuksalishga intilish – ba’zi davlatlar mintaqaviy hukmronlik yoki butun dunyo masshtabida o‘rin egallahsga harakat qilishadi. Mashhur amerikalik siyosatchi Z.Bjezinskiyning fikricha, davlatlar orasida geosiyosiy markazlar ajralib turadi. Bu shunday davatlarki, ularning ahamiyati ularning kuchi va motivatsiyasidan emas, balki ularning muhim joylashuvi va geostrategik jihatdan harakat qilayotgan davatlarning salohiyat jihatdan nozikligi oqibatlaridan kelib chiqadi.

Ko‘pincha geosiyosiy markazlar o‘zlarining geografik joylashuvi bilan o‘zga xoslikka ega bo‘lib, bunday joylashuv ularga muhim hududlar ustidan nazorat qilishga yo‘l ochadi yoki muhim geosiyosiy faoliyat yurituvchi davatlarga resurslarni qo‘lga kiritishda rad javobini berish imkoniyatini beradi. Boshqa hollarda geosiyosiy markazlar geosiyosiy maydonda hayotiy muhim ahamiyatga ega bo‘lgan davlatlar va hatto mintaqalar uchun qalqon sifatida xizmat qilishi mumkin.

Z. Bjezinskiyning fikriga ko‘ra, hozirgi kunda kamida 5 ta asosiy geostrategik faoliyat olib boruvchi va 5 ta yangi Yevroсио siyosiy xaritasida harakat qiluvchi tomonlar mavjud. Fransiya, Germaniya, Rossiya, Xitoy, Hindiston yirik va faol figuralar hisoblanadi, juda muhim davlatlar deb tan olingen Buyuk Britaniya, Yaponiya va Indoneziya esa bu guruhga kirmaydi.

Ukraina, Ozarbayjon, Janubiy Koreya, Turkiya va Eron davlatlari prinsipial muhim geosiyosiy markazlar rolini o‘ynaydi, garchi Turkiya ham, Eron ham qandaydir darajada – o‘z imkoniyatlari doirasida tobora chegaralangan – geosiyosiy jihatdan faol davlatlar bo‘lib hisoblansa-da o‘z mashtablari bo‘yicha o‘rtta va kichik bo‘lgan hamda ko‘philigi NATO yoki Yel ning a‘zolari bo‘lgan Yevropa mamlakatlari, yoki AQSH ning yetakchiligiga amal qiladi, yoki Germaniya yo Fransiyaga ergashadi. Ular na geostrategik jihatdan faoliyat yurituvchi, na geosiyosiy markazlar bo‘lib hisoblanadi.

Rossiya va xorij adabiyotida Rossianing jahon hamjamiyatidagi o‘rni haqidagi ko‘p fikrlar o‘rtaga tashlangan. Rossianing

Yevrosiyo qit'asidagi, turli sivilizatsiyalar, madaniyatlar, davlat va xalqlar to'qnashuv joyida joylashgan geografik o'mni, hududlari ning ulkanligi va undan chiquvchi tortilish va itarilish kuchi, zamonaviy dunyoning geosiyosiy konturlari uchun salohiyatli oqibatlari ko'plab savollarni keltirib chiqarmoqda. Rossiyani «Sharq va G'arb o'rtasidagi hudud» deb nomlash mumkinmi? U dunyoviy buyuk derjavami yoki mintaqaviy derjava bo'lib hisoblanadimi? Ba'zi bir mualliflar Rossiyani rivojlanayotgan davlatlar qatoriga qo'shishadi. Gap shundaki, Rossiya global o'zgarishlarning markazida bo'lib qoldi va beqarorlikning eng yirik zonasiga aylandi. Tashqi dunyoga Rossiya eng kamida 3 tomonidan chiqadi: Yevro-amerika dunyosiga qaratilgan g'arbiy; turli xil bo'lgan islam dunyosiga qaratilgan janubiy; Osiyo va OTM (ATR) ga qaratilgan sharqiy.

Hozirda Rossiya jahon markazlariga nisbatan Birinchi jahon urushigacha bo'lGANI kabi yarim chet holatni yoki Ikkinci jahon urushi dan keyingi ikki qutbli dunyodagi ikki qutbdan biri bo'lGAN holatni emas, balki Yevropa, Uzoq Sharq va musulmon dunyosi orasidagi o'rta holatni egallaydi. Shu bilan bir vaqtida, u postsoviet hududidagi eng salmoqli figura bo'lib hisoblanadi va yagona geografik mintaqani shakllantirmasa-da, ammo xalqaro siyosiy mintaqani qamrab oladi.

Ushbu omillar sababli Rossiya uchun nafaqat harbiy jihatdan, balki barcha aspekt va sohalarda: global, mintaqaviy, milliy, shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, informatsion, siyosiy borada xavfsizlikni ta'minlash juda muhim hisoblanadi.

Agar Rossiyaga mintaqaviy derjava sifatida qaralsa, shunday savol tug'iladi: aynan qaysi mintaqada Rossiya derjava sifatida harakat qiladi? Real ahvolning tahlili shuni ko'rsatadiki, Rossiya uchun Yevropa, Yaqin Sharq, O'rta Sharq, Markaziy Osiyo, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi, shuningdek, Yaqin xorij dolzarb hisoblanadi. Juhon kuchlar muvozanati uchun quyidagi munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi: Rossiya-YeI, Rossiya-NATO, Rossiya-AQSH, Rossiya-Xitoy, Rossiya-Yaponiya, Rossiya-Yaqin Sharq mamlakatlari, Rossiya-MDH va boshqalar. Barcha yo'qotishlarga qaramasdan, Rossiya bir vaqtning o'zida Yevropa, Osiyo va Osiyo-Tinch okeani derjavasi, kontinental va okeanik derjava bo'lib qolmoqda. Uning

geosiyosiy joylashuvining o‘ziga xosligi ham ana shundadir. Shuning uchun ham Rossiya siyosiy strategiyasining asosiy yo‘nalishi bo‘lib geosiyosiy status-kvoning barqarorligini o‘rnatalishi, yuzaga kelgan dunyo kuchlari muvozanatining saqlab qolinishi va mustahkamlanishi bo‘ldi.

Milliy davlatlar bilan bir qatorda, MNR tarkibiga MNK, mega polislar, davlatlararo xalqaro tashkilotlar kiradi. Bunday tashkilotlar mintaqaviy integratsiya, xavfsizlikni ta’minlash, ekologik va boshqalar kabi bir davlatning kuchi bilangina hal qilinishi mumkin bo‘lmagan muammolarni hal etish uchun yaratiladi.

Shu tariqa, MNR ning xarakteristikasida siyosiy bilan bir qatorda geografik va iqtisodiy tarkiblar mavjud. Mintaqaviylashuv (regionalizm) mintaqaviy rivojlanish tendensiyasi va ongli ravishda shakllantiriladigan maqsad sifatida mavjuddir. Yuzaga keluvchi yangi mintaqaviylashuvning farq qiluvchi xususiyati bo‘lib: global ta’sir, transmilliy xarakter, integratsiyaning rivojlanishi, milliy ustti tizimlar hisoblanadi.

7.2. Mintaqaviy tuzilish muammosi

“Osiyo-Tinch okeani mintaqasi” (OTM) tushunchasini aniq-lashtirish borasida katta munozaralar olib borilmoqda. Bir qator mualliflar «OTM bir butun mintaqqa sifatida mavjudmi?» degan savol berishmoqda. Unga xarakteristika berishga Amerika, Australiya, Yaponiya, Xitoy, Rossiya mutaxassislari harakat qilishgan. Bir qator tadqiqodchilar OTMni aniqlash asosiga okean-geografik tamoyilni, boshqalari-iqtisodiy tamoyilni, uchinchi guruh- ijtimoiy-siyosiy strukturalarning birligi tamoyilini olishgan. Bir tomonlama yondashuv yetarli emas, majmuaviy yondashuvni qo‘llash lozim, MIR tuzilishida yetakchi rolni mintaqqa subyekt-elementlarini tizim sifatida aniqlab beruvchi integratsion jarayonlar o‘ynaydi.

Mintaqaviylashuv ikki turda bo‘ladi: ochiq va yopiq.

Ushbu mintaqadagi davatlarning iqtisodiy taraqqiyoti va integratsion o‘zaro ta’sirini jahon iqtisodiyoti rivojlanish kontekstida ko‘rib chiqadigan ochiq mintaqaviylashuv iqtisodiy globalizatsiya yo‘lida

joylashgan bo‘lib, jahon iqtisodiyotining globalizatsiyasidan oldin keluvchi o‘ziga xos zamin, bosqich bo‘lib hisoblanadi. YeI va NAF-TA bunday ochiq turdag'i mintaqaviylashuvga misol bo‘la oladi.

Yopiq mintaqaviylashuv, aksincha, globalizatsiyaga qarshi chiqadi, mazkur mintaqani globalizatsiyaning salbiy oqibatlaridan himoya qilishga yo‘naltirilgan bo‘lib, mintaqaviy chegaralargacha kengaygan «o‘z kuchiga tayanish» siyosatini kasb etadi. Yopiq mintaqaviylashuvga sobiq Sovet Ittifoqi faoliyati misol bo‘la oladi. Yopiq mintaqaviylashuvning strategiyasi izolatsiyaga, o‘sib boruvchi dunyoviy o‘zaro bog‘liqlikka moslasha olmaslikka olib keladi⁴⁰.

Yevropa ochiq mintaqaviyligidan farqli o‘laroq, zamonaviy Osiyodagi o‘ziga xoslik shundan iboratki, bu yerda YeI ga o‘xhash davlatlararo struktura mavjud emas. Siyosiy-institutsional bo‘shliq Osiyo mintaqaviyligini rivojlanishining yo‘nalish va yo‘llarini kuchaytiradi. Bunda tarkibiga 20 ta davlat kiruvchi ATES muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi kunda bu muammoga 3 ta asosiy yondashuv mavjud:

Birinchisi Osiyo iqtisodiy va moliyaviy integratsiyasini jahon va Osiyo bozorlarida Amerika va G‘arbiy Yevropaning ustunligiga alternativa sifatida qaraydi. Yagona Osiyo valyutasi va yagona Osiyo bozorini yaratish bo‘yicha turli konsepsiyalari ishlab chiqarish ishlari ketmoqda. Maqsad – Osiyo iqtisodiyotining Amerika dollariga xaddan ziyod bog‘liqligini yengish, shuningdek, Yevropaning yangi valyutasi – yevroga qarshi tura olishdir.

Yapon mutaxassislari tomonidan taklif ettilayotgan ikkinchi yondashuv ham Osiyo-Tinch okeani iqtisodiyotini yagona iqtisodiy va moliyaviy makon, ammo Shimoliy Amerika yoki G‘arbiy Yevropa integratsiyasiga qarshilik o‘rsatmaydigan, balki kelajakda YeI va NAFTA ga o‘ziga xos Osiyo alternativasini tashkil qilishga qodir bo‘lgan istiqbolda ko‘rib chiqadi.

Uchinchi yondashuv Osiyo iqtisodiy integratsiyasining submin-taqaviy darajada bosqichma-bosqich rivojlanishidan kelib chiqadi. Bunday submintaqaviy markazlar bo‘lib: ASEAN, Yaponiya-janubiy

⁴⁰ Гладкий Ю.Н., Чистобаев А.И. Регионоведение. – М.: Гардарики, 2003, 38 с.

Koreya iqtisodiy alyansi bo'lishi mumkin. Iqtisodiy integratsiyaning rivojlanish tendensiyalari, shuningdek, Rossiya va Yaponiya, Rossiya va Xitoy, Yaponiya va Xitoy orasida kuzatilmogda. Biroq Yaponiyaning Osiyo yetakchiligiga intilishi boshqalar tomonidan ma'qullanayotgani yo'q. Yaponiya tomonidan yetaklanuvchi bo'lishni istamayotgan Xitoy mintaqaviy iqtisodiy yetakchi roliga hali tayyor emas.

Rossiya o'zining Osiyo mintaqachiligi muammosiga nisbatan yondashuvini va OTM ga integratsiyasi strategiyasini hali ishlab chiqqani yo'q.

Shuni unutmaslik lozimki, obyektiv ravishda OTM da Yaponiya va Xitoy bilan bir qatorda, iqtisodiy integratsiyaning 3-markazi – AQSH mavjud bo'lib, uning jahon YaIM dagi ulushi 25 % ni tashkil etadi. (Qiyoslash uchun–Yaponiya ulushi-15 %, Xitoyniki-3%).

Shuni qayd qilish lozimki, olimlar mintaqaviy lashuv rivojlanishining davrlashtirilishiga turlicha yondashadilar. Masalan, ispaniyalik professor F. Latamendiya mintaqaviy lashuv rivojlanishining quydagicha bosqichlarga bo'linishini taklif etadi:

Birinchi bosqich – obyektivizm;

Ikkinci bosqich – perspektivizm;

Uchinchi bosqich – ratsionalizm⁴¹.

Rassiyalik muallif A. Landabaso agar mintaqaviy lashuv rivojlanishining birinchi bosqichi fenomenologiya bilan, ikkinchisi – pluralizm bilan xarakterlangan bo'lsa, hozirgi bosqich eng murakkab, sotsiologlarning majoziy ta'rifi bo'yicha, asosi bo'yicha–ideokratik bo'lib hisoblanadi, buning ustiga u antropotsentrizm bijan va bir vaqtning o'zida umummilliy g'oya va doktrinalardan chekinish bilan o'tkazilgan deb hisoblaydi. Oxirgi yillarda yuzaga kelayotgan bosqichning asosiy xususiyati, ushbu muallifning fikriga ko'ra, ijtimoiy jarayonlar olimlar «radikal voqelik» deb nomlovchi xarakterga ega bo'lmoqda. Aniq mintaqqa kirgan hukmron-axloqiy kontekst shunchalik muhim ahamiyatga egaki, hatto moddiy deatamaantlar dan yuqori turishi mumkin. Xususan, bunday mintaqalarga u G'arbiy Yevropani kiritadi.

⁴¹ Гладкий Ю.Н., Чистобаев А.И. Регионоведение. – М.: Гардарики, 2003, 32 с.

Mintaqaviylashuv fan sifatida u yuzaga chiqadigan inson jamiyatni va muhiti taraqqiyotini o'rganuvchi boshqa fanlar bilan yaqin o'zaro bog'liqlikda rivojlanadi. Shuning uchun ham mintaqaviy siyosatni ishlab chiqarishda va ayniqsa, uni bashorat qilishda geografiya, iqtisodiyot, sotsiologiya, huquq, etnologiya, dinshunoslik, demografiya, ijtimoiy psixologiya, geosiyosat, konfliktologiya va boshqa fanlar ma'lumotlaridan foydalanish zarur. Bularning bar-chasi, o'rganilayotgan mintaqqa haqidagi, uning qobiliyatlari, shu bilan birga, boshqa mintaqalar uchun xos bo'lgan tipik xususiyat va tendensiyalari haqida to'liq va obyektiv xarakteristika beradi. Mintaqashunos-olimlarning xulosalari mintaqaviy tuzilishda (qurilishda) to'plangan ijobiy malakalardan foydalanishga, siyosatda xatolarning qaytarilishining oldini olinishiga, mintaqalar rivojlanishining qonun-qoidalarni aniqlashga, murakkab vaziyatlarndan muvaffaqiyatli chiqib ketishga yordam beradi.

7.3. Xalqaro mojarolar interpretatsiyasi

Mintaqaviy mojarolarning nazariy jihatini ochishdan oldin mojararo so'zining o'ziga (konflikt) e'tibor qaratsak. Ilmiy-siyosiy abdiyotlarda "mojaro" tushunchasi turlicha ta'riflanadi. Shu bois ham "mojaro" atamasining ko'plab ma'nodagi ta'riflari bor. Ular dan eng asosiysi mazkur atamaning tomonlar o'rtasidagi qarama-qarshilik, avvalo, ijtimoiy ziddiyat tushunchasiga yaqinligidir. Siyosatda ichki qarama-qarshilik, mojarolilik g'oyasi XIX asrdan kirib kelgan. Konflikt tushunchasi esa (lat. Confictus so'zidan) iborasi murakkab oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan to'qnashuv, nizo, kelishmovchilik, bahsni anglatadi. Hozirgi paytda ijtimoiy fanlarda nizo deganda, siyosat sohasida yetarli darajada salmoqqa ega bo'lgan ayrim shaxslarning, shuningdek, butun-butun ijtimoiy guruhlar manfaatlari, xatti-harakatlari, qarashlari va yondashuvlarning to'qnashuvi tushuniladi.

Ayrim mutaxassislarning aytishicha, muammolarga nisbatan aynan jamiyatdagi mojarolarni emas, balki jamiyatdagi qarama-qarshilik, ya'ni bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan kuchlar o'rtasidagi munosa-

batlarga tadbiq qilingan⁴². Mojarolarni tadbiq etuvchi ilmiy-uslubiy yondashuvlar ijtimoiy hayotning turli qatlamlarini o'rganishda ham qo'llaniladi. Masalan, biror davlat siyosiy hayotini olaylik, davlatda istiqomat qiluvchi odamlar va guruhlarning turmushi, albatta, siyosiy ahamiyatga molik qadriyatlar bilan yo'g'rilgan. Bu tabiiy holdir. Xalqaro munosabatlardagi jarayonlarni tadbiq etishda mojaro muammolarini o'rganishga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlar eng muhimdir. Shuningdek, yurispridensiyada ham bunday yondashuvlar zarur. Zero, bunda umumiy mojaroning bir qismi sifatida insonlar o'rtasidagi ziddiyatlar, ularning yuzaga kelish mexanizmi o'rganiladi⁴³.

Mintaqaviy mojarolar haqida Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ham ko'p bora o'z asarlarida ta'kidlab o'tgan, jumladan, "Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida" asarida shunday degan edi: "Afg'onistonidagi tanglikning chuqurligi va keskinligini, uning mintaqaviy va dunyo miqyosidagi geografik-siyosiy jarayonlarga ta'sirini e'tiborga olib, bu fojiyani ko'lami va xavfi jihatidan hozirgi dunyoning eng katta mintaqaviy mojarolari jumlasiga kiritish mumkin.

Shunday ekan, mintaqaviy mojarolar jamiyatimiz farovonligi va respublikamiz taraqqiyoti uchun qanday xavf tug'dirmoqda? Bir qarashda, O'zbekiston chegaralariga yaqin joylarda yuz berayotgan barcha nizolar davlatimizdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni saqlab turishga bevosita aloqasi yo'qdek tuyuladi. Bundan buyon ham tashvishli hodisalar bizni chetlab o'z yo'lidan rivojlanaveradi, barqarorlik o'z-o'zicha saqlanaveradi, mamlakatning kelajagi esa o'z-o'zidan ta'minlangan, deya fikr yuritishni ham siyosiy, ham fuqaroviylar kaltabinlikdan boshqa narsa emas, deb hisoblaymiz"⁴⁴.

⁴² Жўраев С.А., Сайдолимов С.Т., Абдуганиева З. Халкаро хавфсизлик. –Т.: Akademiya, 2007, 26 б..

⁴³ Узаков Н.А. Проблемы теории международного права. – М.:Наука, 1988, 215 с..

⁴⁴ Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараккиёт йўлида. – Т.6. – Т.,1998, 24- 28,132 б.

“AYSEF” deb atalmish koalitsion qo’shinchilarning 2014-yilgacha va undan keyin Afg’oniston hududidan olib chiqib ketilishi bilan bog‘liq ravishda ushbu mamlakat va uning atrofidagi vaziyatning yanada keskinlashib, terrorizm, ekstremizm va narkotrafikning kuchayishi xavfi borligi, qisqa qilib aytadigan bo‘lsak, mamlakatda ahvol chegaradan chiqib ketishi mumkinligi qo’shni davlatlarda jiddiy xavotir uyg‘otmasdan qolmaydi, albatta.

Haqiqatdan ham, Afg’onistonda 30-yildan ko‘proq vaqtidan buyon davom etayotgan urushning oxiri, yakuni haligacha ko‘rinmayapti. Afgonistondagi vaziyatni barqarorlashtirish masalasi bugungi kunning eng murakkab muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Afg’oniston mojarosi faqat bu mamlakat yoki uning qo’shnilarining muammosi emas. Mojaro oqibatlari mintaqaviy va global xavfsizlikka bevosita va g‘oyat kuchli salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda Afg’oniston muammosini hal qilish yo’llarini topishda O‘zbekiston alohida o‘rin tutmoqda. So‘nggi 10-yil davomida mamlakatimiz xalqaro hamjamiyatning Afg’oniston muammosini hal qilish borasidagi sa’y-harakatlarida yetakchi o‘rinlardan birini egallab kelmoqda⁴⁵.

Shunday ekan, har qanday mintaqaviy mojaro qamrov doirasi keng bo‘lgan ichki va tashqi holatlarga bog‘liq bo‘lib, bu holatlar qanchalik o‘zgaruvchan va o‘ziga xos bo‘lmasin, baribir ular o‘rtasida mutanosiblik mavjud. Mojaroni tashqi va ichki omillari bir-biriga bog‘liq bo‘lsa-da, o‘sha tashqi yoki ichki o‘millarni tadqiq etishdagi uslubiy yondashuvlar bir-biridan farq qilishi mumkin. Ichki va tashqi holatni o‘rganishda yuzaga keladigan farqlarni, avvalo, mojaroning qamrov doirasi, ularning aniq bir kategoriyalarga, yo‘nalishlarga ega bo‘lishi kabi sabablar yuzaga chiqaradi. Lekin mojaroni umumiyligini qilib (ichki yoki tashqi holatlarga ajratmasdan) tadqiq qilayotgan mojaro yo‘nalishi va uning mavjudligini belgilovchi ikki jihat, ya’ni mojaro predmeti va uning obyektini ajratib ko‘rsatish kerak⁴⁶.

⁴⁵ Каримов И.А. Ўзбек халқига тинчлик ва омонлик керак. Ўқув кўлланма. –Т.: Ўқитувчи НМИУ, 2013, 27–28 б.

⁴⁶ Жўраев С.А., Косимова Н.А. Актуалные вопросы современных международных отношений. –Т.: Akademiya, 2008, 27 б.

Mojaro predmetini tadqiq etish faqat tomonlar o‘rtasidagi vositachi yoki arbitr (hakam) largagina tegishli bo‘lib qolmasdan, balki bevosita mojaro subyektlarning ham muhokama mavzusi bo‘lishi mumkin. Bunday muhokamalar tomonlarning o‘zaro muzokaralar olib borishi bilan amalga oshiriladi. Subyektlar o‘rtasidagi muzokaralar (vositachilik yoki hakamlik qilishga nisbatan olganda) o‘zining tomonlar o‘rtasida ruhan muammoni his qilishi, ijtimoiy o‘zaro ta’sir etish kuchiga (munosabatlarga nisbatan) egaligi, imkoniyatlarini bir qadar ko‘pligi bilan ajralib turadi. Gap shundaki, muzokaralar chog‘ida subyektlarning o‘ziga xos yashirin manfaatlari umumiyligiga «manfaatlarni mojaro»si doirasida hal qilinadi yoki aksincha. Muzokaralar predmeti esa aynan manfaatlarni mojarosi tanlagan predmetning xuddi o‘zidir. Biroq bu yerda tomonlar mojarodagi kabi harakat qilmaydilar. Ular o‘rtasidagi mubohasalar risoladagidek olib borilib, u ko‘proq, ilmiy bahs yoki bozordagi savdoni eslatadi. Biroq muzokaralar – mavjud munosabatlardan bo‘ladigan mubohasadir. Qolaversa, bu bahs va muzokaralarda tomonlar manfaatlari qarama-qarshiligi so‘z yuritiladi.

Muzokaralar davomida tomonlar o‘zlarining mojarolari predmetini aniqlab olishi yoki uni ma’lum darajada hayolan tasavvur etishlari mumkin. Biroq muzokaralar jarayonida tomonlar bir-biriga nisbatan tutayotgan pozitsiyalarini, vositachilar esa mojaroni yuzaga keltirgan asosiy «yadro»ni aniqlab olishlari kerak. Ana shu mojaro «yadro»si keyinroq «mojaro obyekti» tushunchasini anglab yetishda kerak bo‘ladi.

Mojaro obyekti degan tushunchaga nisbatan va bu tushuncha orqali mojaroning ikkala ishtirokchilari ham egallashga harakat qiladigan ana o‘sha konkret moddiy yoki ma’naviy boylik nazarda tutilganligining guvohi bo‘lamiz. Mojaro obyekti sifatida shaxs, guruhlar yoki davlat va jamiyat manfaatlariiga xizmat qiluvchi moddiy dunyo va ijtimoiy borliqdagi mavjud narsalar u yoki bu ko‘rinishda namoyon bo‘lishi mumkin. Moddiy dunyo va ijtimoiy borliq elementlarining ma’lum bir mojaro obyekti bo‘lishi uchun, ushbu element ustidan nazorat o‘rnatishga harakat qilayotgan turli ijtimoiy subyektlar manfaatlari uning atrofida bir-biriga tutashgan holda bo‘lishi kerak. Bunga

ko‘plab misollar keltirish mumkin: chiroqli o‘yinchoq ustida talashib qolgan bolakaylar o‘rtasidagi munosabatlar, u yoki bu hududni o‘z nazoratiga olish istagida yurgan davlatlar o‘rtasidagi xalqaro mojarolar va boshqalar.

Munosabatlarning muayyan tizimidagi mojaro obyekti – doimo tanqis resurslar bo‘lgan. Masalan:

- bo‘sh direktor lavozimiga da’vogarlik qilayotgan ikki o‘rnbosar;
- do‘kondagi so‘nggi non uchun navbatda turganlarning janjali;

• bitta Qora dengiz floti va undagi bitta harbiy port masalasi va boshqalar – haqiqatan nogahon yuzaga keladigan muammolarni ana shu resurslar o‘rnini to‘ldirish bilan hal etishi mumkin. Afsuski,insonlar hayotida uchrab turadigan bunday ko‘plab muammolarni barcha tomonlar istaganidek hal etib bo‘lmaydi. Kundalik hayotimizda sodir bo‘lib turadigan bir qator mojarolar obyektini ajratib olganimizda umumiy xarakterga ega muammolar doirasini belgilab olish mumkin. Masalan, biror narsani olish uchun navbatda turish, bekatlarda yo‘l transportini kutish va boshqalar mahsulotlar yetishmovchiligi yoki transport resurslarining cheklanganligi bilan bog‘liq emasmi?!

Gap shundaki, tomonlar o‘rtasidagi ana shu obyektning obyektivlik nuqtayi nazaridan bo‘linmasligi, uning subyektiv bo‘linmasligiga ham bog‘liq. Agar ikki yosh bolaga chiroqli ikki xil o‘yinchoq tutqaz-sangiz, ularning har biri sheriги o‘ynayotganini olishga harakat qiladi. Boshqacha aytganda, resurslarning yetishmovchiligi va xarakterini aniqlash hamda obyekt chegarasi – nisbiy tushuncha bo‘lib, u o‘zgaruvchan xususiyatga ega.

Biroq mojaro aniq obyektga ega bo‘imasligi ham mumkin. “Obyektlı” mojarodan tashqari, mojaro kategoriyalari o‘z ustidan nazorat qilishga yo‘l bermaydigan “obyektsiz” mojaro turiga ham ajratiladi. Masalan, oddiy ko‘p qavatlari uydagi ikki qo‘snilardan biri yozuv ustida ishlayotgan paytda, ikkinchi qo‘sni biror san’at asbobini chalyapti. Birinchi qo‘sni kuy tovushi unga xalaqit berayotgani uchun devorni taqillatadi... Natijada mojaro boshlanadi. Ko‘rinib turibdiki, mojaroga ikki tomonning o‘zaro kelishib vaziyatni yumshatishga intilishi emas, balki bir tomon faoliyatni ikkinchisining ishiga xalaqit berib, uning faoliyatini susaytirib yuborishi sabab bo‘lmoqda.

Birinchi Prezidentimiz I.Karimov aytganidek, umuman olganda, cho‘zilib ketgan mintaqaviy mojarolar atrofdagi davlatlar uchun (tabiiyki, O‘zbekiston ham bundan mustasno emas) aynan hozir keng doiradagi muammolar manbayiga aylandi. Keyinchalik esa ular si-yosat, mafkura, millatlararo munosabatlар va boshqa sohalarga ham zimdan salbiy ta’sir etishi, putur yetkazishi mumkin.

Mintaqaviy mojarolarning oqibatlari ancha sezilarli shaklga ham ega. Ular davlatlarning milliy iqtisodiyotiga va xo‘jalik aloqalariga ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa mavhum kategoriya bo‘lmay, balki har bir fuqaroning va jamiyat a’zosining aniq hisoblab ko‘rsa bo‘ladigan manfaatlari demakdir. Milliy xavfsizligimizga mojarolarning katta salbiy potensiali butun dunyo ko‘lamida halokatli oqibatlarga olib kelishga qodir. Nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasidagi, balki undan tashqaridagi har bir sog‘lom fikrli inson mintaqaviy mojarolarning yanada avj olishi bu hududdagi mamlakatlarning tanlaydigan yo‘liga ta’sir ko‘rsatmasdan qolmasligini yaxshi anglaydi.

Ayni vaqtida BMTning tuzilmasigina emas, balki uning amal qiliishi, ish tartibi va harakatlarni amalga oshirishi ham buyuk davlatlarning ta’sir doiralar uchun eski kurash ta’siridan hali qutula olgani yo‘q. BMTning mintaqaviy mojarolarni tartibga solish yuzasidan amalga oshirayotgan tinchlik o‘rnatish yo‘lidagi ishlar hamma vaqt ham muvaffaqiyatli bo‘lmayotganligini qisman shu bilan izohlash mumkin⁴⁷.

Shu bilan birga, Prezidentimiz mintaqaviy mojarolar haqida gapi-rar ekan, Afg‘onistondagi bugungi holat haqida shunday deydi: “Hech qaysi xalq urushni xohlamaydi. Bizning qo‘sнимиз Afg‘oniston xalqi ham agar o‘z holiga qo‘yilsa, o‘zar kelishib, tinch hayot kechirgan bo‘lardi. Biz qo‘sни Afg‘onistonda tinchlik barqaror bo‘lishini istaymiz. Afg‘oniston bilan aloqalarimiz va hamkorligimiz ikki tomonlama asosda tashkil topishini ma’qul deb bilamiz⁴⁸.

⁴⁷ Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. –Т.6. –Т.:Ўзбекистон, 1998, 24- 28 б.

⁴⁸ Karimov I. Tinchlik va ahillik – mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligining asosidir // Xalq so‘zi, 2014, № 91.

Mintaqaviy mojarlolar aslida siyosat subyektlarining o'zaro hamkorliklaridan kelib chiqadi. Lekin jamiyatning turli tabaqadagi kishilardan tashkil topganligi, ularning o'z maqomlaridan norozi bo'lishlari, dunyoqarashlar, qadriyatlarning mos kelmasligi natijasida individlarning xatti-harakatini o'zgartiruvchi mojarolar kelib chiqadi. Mojaro raqobatning ko'rinishi bo'lib, unda hokimiyat vakolatlari va resurslariga egalik qilish istagidagi ikki yoki undan ortiq tomonlar bir-birlari bilan o'zaro raqobat qiladilar⁴⁹.

Siyosat subyektlari mojarolarni o'zlari uchun qulay bo'lgan yo'nalishga o'zgartirish istagida uning tarkibiy qismlari va xususiyatlarini o'rganadilar. Siyosat subyektlari, bu xususiyatlardan kelib chiqib, o'z harakatlarini o'zgartirishlari mumkin. Turli mojarolarni chuqur o'rgangan ko'pgina olimlar – konfliktologlarning fikricha, ular quydagi tarkibiy qismdan iborat:

- mojaroning manbai (predmeti) bahslashayotgan tomonlar o'rtasidagi kelishmovchilikning asl mohiyati;
- mojaroning kelib chiqishiga, tomonlarning o'z maqsadlari, pozitsiyalari hamda manfaatlarini himoya qilish uchun ularning faol harakatiga turtki bo'lgan sabab va bahonalar;
- hokimiyat vakolatlari va resurslarini talashayotgan tomonlar;
- raqobatlashayotgan subyektlarning g'oyalari, o'z oldilariga qo'ygan maqsadlari, kontagentlari bilan munosabatlari – ularning qarashlari va pozitsiyalari;
- tomonlarning bir-biriga ta'sir ko'rsatishda foydalangan resurslari, usullari hamda qo'llagan vositalari;
- raqobatlashayotgan tomonlarning munosabatlarini ko'rsatuvchi mojaroning tabiatи.

Mojarolarning tarkibiy qismlarini bir-biridan ajratib o'rganish, uning asl mohiyatini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Qator olimlarning fikricha, ular o'zining ko'rinishi va intensivligi bilan bir-biridan farq qiladi⁵⁰.

⁴⁹ Исаева Б.А. Теория политики. –М.:Питер, 2008, 221 с.

⁵⁰ Жўмаев Р.З., Убайдуллаев У.А., Хўжанов Б.А. Конфликтология асослари. –Т.:Академия, 2000, 156 б.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda dunyoda turlicha mintaqaviy mojarolar mavjud, ularni hal qilish esa juda murakkabligini jahon siyosatida ro'y berayotgan siyosiy jarayonlar tasdiqlab turibdi. Mazkur muammolarni hal qilish uchun ularning har birini alohida o'rganib, mojaroni keltirib chiqargan sabablar, uning subyektlari, vaqt va umuman olganda, mojaroning faqat o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, uni hal qilish texnologiyasini ishlab chiqish zarur. Bir mintaqaviy mojaroni nazorat va hal qilish uchun ishlab chiqilgan texnologiyani boshqasiga qo'llab bo'lmaydi. Bundan tashqari, mojarolarni hal etish strategiyasi faqat bir tomonlama emas, ikki tomonlama harakat qilishga yo'naltirilgan. Ya'ni mojarolar hal qilingach, uning shartlarini ikkala tomon ham tashqi ta'sirlarsiz, o'z xohishi bilan qabul qilishlari lozim. Natijada, bahslashayotgan raqiblar o'rtasida yaxshi aloqalar o'rnatiladi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Integratsiya qanday jarayon?
2. Xalqaro siyosiy mintaqada geografik mintaqadan nimasi bilan farq qiladi?
3. Zamonaviy mintaqashunoslik tizimida qanday bo'limlarni ajratib ko'rsatish mumkin?
4. Integratsiya borasida qanday yondashuvlar mavjud?
5. Integratsiyani jadal rivojlanishi qachon boshlandi?
6. Mintaqashunoslik predmeti qaysi davrdan fan sifatiда qabul qilindi?
7. Qaysi davr "Mintaqalar" deb nomlanadi va nima uchun?
8. Mintaqashunoslikning boshqa fanlar bilan o'zaro qanday aloqadorligi mavjud?
9. Integratsion jarayonlarning afzallikkali ni madan iborat?
10. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati nimada?
11. Integratsiyani o'rganishda pozitivistlar va kognitivistlar yondashuvlarida qanday farq bor?
12. "Tashkillashtirilgan integratsiya"dan "notashkiliy integratsiya"ning qanday farqi bor?

13. Yevropa, Osiyo, Afrika va Amerikada borayotgan integratsion jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. “Janubi-sharqiy Osiyodagi integratsion jarayonlar” mavzusida ma’ruza tayyorlang.
2. “OTOIH forumi va Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari” mavzusida ma’lumotlar tayyorlang.
3. “OTOIHning asosiy maqsad va vazifalari” mavzusida referat tayyorlang.
4. Integratsiya borasidagi ta’riflarni o‘rganib tahlil eting.
5. Yevropa Ittifoqi doirasida integratsion jarayonlarni mustahkamlash borasida olib borilayotga chora-tadbirlar haqida ma’ruza tayyorlang.
6. Hozirgi davrda mavjud integratsion birlashmalar haqida referat tayyorlang.
7. Markaziy Osiyo integratsiyasining xususiyatlari mavzusida referat tayyorlang.
8. Arab davlatlarida mavjud integratsion birlashmalar haqida referat tayyorlang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati **Asosiy adabiyotlar**

1. Kathy Pain. Changing Urban and Regional Relations in a Globalizing World. – USA, 2014. – 248p.
2. TimoBehr., JuhaJokela. Regionalism and global governance: the emerging agenda. –Notre Europe, 2011. – 67 p.
3. Rouben Azizian, Carleton Cramer. Regionalism, security and cooperation in Oceania. – USA: APCSS, 2015. – 172 p.

Qo‘srimcha adabiyotlar

1. Барыгин И. Н. Международное регионоведение. – СПб.: Питер, 2016, 384 с.
2. Мухаммадсидиков М.М. Замонавий халқаро муносабат-

ларнинг миңтақавий жиҳатлари (ўқув қўлланма) –Т: ТошДШИ, 2013, 182 б.

3. Муҳаммадсидиқов М.М. Хорижий Шарқ ва Ғарб мамлакатларида ижтимоий-сиёсий жараёнлар (ўқув қўлланма). –Т: ТошДШИ, 2013, 6.

4. Muhammadsidiqov M.M. Sharq mamlakatlari xalqaro munosabatlari (o‘quv qo‘llanma). – T.: ToshDSHI, 2017, 240 b.

8-BOB. MINTAQAVIY HAMKORLIK JARAYONLARINING METODOLOGIK ASOSLARI

Darsning maqsadi:

- mazkur ma’ruzani o‘qitishdan ko‘zlangan maqsad talabalarining jahon siyosatida turli mintaqalar haqida tasavvurga ega bo‘lishi hamda xalqaro mintaqashunoslik far.i yuzasidan bilimlarini chuqurlashtirish;
- talabalar turli mintaqalardagi mamlakatlarning siyosiy-ijtimoiy jarayonlari borasida tasavvur hosil qilishlariga ko‘maklashish;
- usul va uslublardan foydalanish tajribasini oshirish hamda ilmiy tadqiqot ishlari, axborot-tahliliy yozishmalarni olib borish qobiliyatlarini rivojlantirish;
- talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo‘llashni o‘rgatishdan iborat.

Tushunchalar va tayanch iboralar: *mintaqa, mintaqaviylashuv, siyosat, xalqaro mintaqaviy siyosat, mintaqaviy tashkilotlar, mintaqaviy hudud, mintaqaviy hamkorlik, mintaqaviy integratsiya.*

8.1. Mintaqaviy hamkorlik tushunchasining mazmun va mohiyati

Asrlar mobaynida urushlar o‘chog‘i, jahon urushlarining asosiy ishtirokchisiga aylangan Yevropa davlatlari mintaqaviy hamkorlik tufayli 70-yildirki, urushsiz yashamoqda. Yevropa hamkorligi haqida Yevropa Markaziy bankining sobiq vitse-prezidenti T.Padao-Shioppa, o‘zining “Yevropa – jamoaviy kuch” kitobida, “Urushdan keyin butun dunyo kabi Yevropa ham o‘sha davr qiyinchiliklariga duch keldi. Lekin hamkorlikdagi harakati uni bu qiyinchiliklardan boshqalarga nisbatan tezroq va osonroq qutulishiga olib keldi. Yevropa Ittifoqining tajribasi dunyonи keyingi rivojlanishiga o‘rnak bo‘la oladi”⁵¹ – deb yozadi.

⁵¹ Padao-Shioppa T. Europe, a Civil Power. Lessons for EU Experience. London: Federal Trust for Education and Research. 2004, 173 p.

Bugungi kunda aynan hamkorlik natijasida ushbu davlatlar dunyoning eng yetakchi davlatlari safidan o‘rin egalladi⁵². Ularning tarixiy tajribasidan kelib chiqib, dunyoning boshqa mintaqalarida joylashgan mamlakatlar ham mintaqaviy hamkorlik jarayonlarini shakllantirishga intilmoqda. Jumladan, mintaqamizda ham bu jarayon o‘ziga xos tarzda kechmoqda. Ana shunday sharoitda mintaqaviy hamkorlikning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish, tahlil qilish, uni amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi bobda biz «mintaqaviy hamkorlik» tushunchasi, mazmun va mohiyatini, mintaqaviy hamkorlik tizimi, unga xos murakkab munosabatlar, mintaqaviy hamkorlik jarayonining asoslari va ularni rivojlantirish zaruriyati, unga ta’sir etuvchi omillar haqida to‘xtalamiz.

Hamkorlik tushunchasi ijtimoiy-siyosiy fanlarda XX asrning 20-yillarida talqin qilina boshlandi. Bu masala ko‘proq konflikt tushunchasi bilan yonma-yon bo‘lib, uning oldini oluvchi vosita sifatida o‘rganilgan. 1960-yillarga borib G‘arbda integratsiya jarayonlari kuchayishi hamkorlikni jiddiy o‘rganishga, unga nisbatan yangicha yondashuvlarni shakllantirishga olib keldi⁵³. Bunda integratsiyaga hamkorlikning bir shakli sifatida qaraldi.

Mazmun va mohiyatiga ko‘ra «hamkorlik» tushunchasi ko‘p qirrali. Shu boisdan, uni qo‘llanilayotgan sohasiga qarab turlicha talqin qilish mumkin.

“Hamkorlik” tushunchasi ijtimoiy-falsafiy lug‘atlarda turlicha talqin etiladi. Hamkorlik – maqsad va manfaatlar to‘g‘ri kelganda ikki yoki undan ortiq tomon o‘rtasidagi ijobiy hamfaoliyat hisoblanadi⁵⁴. Bunda hamkorlikning manbasi maqsad va manfaat o‘rinli ko‘rsatilsa-da, ammo u faqat ijobiy faoliyat o‘rnida talqin qilinadi. Vaholanki, hamkorlik har doim ham ijobiy bo‘lavermaydi. Zero, in-

⁵² Европа Иттифоки ЯИМ ҳажми бўйича дунёда етакчи ўринни эгаллайди. Қаранг. <http://cia.gov/library/publication/the-world-facebook/>

⁵³ Қаранг. Haas E. The Uniting of Europe: Political,Social and economic Forces, 1950–1957 London 1958’ Lingberg L. The Political Dynamics of Europion Economic Integration. London. 1963.

⁵⁴ http://gufo.me/content_pol/sotrudnichestvo-1523.

soniyat istiqboliga soya solayotgan terroristik tashkilotlar ham o'zaro hamkorlikka intiladi.

Boshqa bir talqingga ko'ra, hamkorlikni bevosita konflikt bilan bog'lashga e'tibor qaratilgan. Unda yozilishicha, u – tomonlarning birgalikdagi faoliyati, konfliktlarning oldini olishi yoki unga birgalikda yechim izlashga oid yo'naliш bo'lib, hamma ishtirokchilarning manfaatlarini qondirishga xizmat qiladi⁵⁵. Bunda muhim jihat manfaatdorlik ochib berilgan bo'lsa-da, konflikt masalasiga urg'u berish hamkorlik mohiyatini tushunishga to'sqinlik qiladi. Chunki hamkorlikdan maqsad faqat konfliktni oldini olish emas, balki o'zaro manfaatlarni qondirishdir.

Yana bir masala – hamkorlik vaziyat yoki jarayon to'g'risida turli qarashlar o'rtaga tashlanadi. Masalan, G'arb tadqiqotchilaridan R.Koxeyn davlatlararo hamkorlikni tahlil qilarkan, unga aktorlar faktik yoki kutiladigan manfaatdorlik uchun o'z munosabatlarini tartibga solish vaziyati (situatsion) deb yondashadi⁵⁶.

Xalqaro hamkorlik masalasini uzoq yillar tadqiq qilgan G'arb olimi E.Milner bu jarayon ekanligini ilgari surib, uch elementdan tashkil topishini ta'kidlaydi:

- hamkor davlatlarning umumiy maqsadi;
- vaziyatdan foydani (manfaatdorlikni) kutish;
- manfaatdorlikni o'zaro xarakterga egaligini ilgari surish.

Olimning fikricha, yuqorida uch elementning reallikka aylanishi esa yaxlit jarayonni qamrab oladi⁵⁷.

Rossiyalik professor P.A. Sigankov hamkorlikni jarayon bilan bog'liqligiga to'xtalib, uni muzokara, kelishuv va unga amal qilishdan iborat yaxlit jarayon, deydi⁵⁸.

⁵⁵ Энциклопедический словарь по психологии и педагогике – М.:Издательский центр ИЭТ 2003б 128 с..

⁵⁶ Milner H. International Theories of Cooperation: Strengths and Weaknesses// world Politics. 1992, .465 p..

⁵⁷ O'sha joyda, 467 b.

⁵⁸ Цыганков П.А. Политическая социология международных отношений. Содержание и форма международного сотрудничество. http://society.iDolbu.ru/tsv.oankov_sociology/ch41_all.html

O‘zbekistonlik olim R.Alimov ham hamkorlikning jarayon ekanligini asoslaydi. U mintaqani o‘rganishga bag‘ishlangan konsepsiyalarda “integratsiya” va “hamkorlik” roli haqida to‘xtalib, ular mohiyatan jarayon ekanligini qayd etadi⁵⁹.

Masalaga falsafiy jihatdan yondashsak, vaziyat deganda ma’lum bir jarayon natijasida vujudga kelgan holat tushuniladi. Jarayon ma’lum tamoyillar asosida davom etayotgan o‘zgarish hisoblanadi. Vaziyat tugallangan, jarayon tugallanmagan, hali davom etadigan holatdir.

Falsafiy lug‘atlarda jarayon muayyan vaqt oralig‘ida bo‘lib o‘tgan hodisaning davomiyligi deb talqin qilinadi⁶⁰. Yoki jarayon – voqealar rivojidagi uzluksizlikni ifodalovchi falsafiy tushuncha sifatida qabul qilinadi⁶¹.

Professor S.Otamuratov “jarayon tabiat, jamiyat va insoniyat hayotida kechadigan voqe va hodisalarning uzluksizligini anglatuvchi tushunchadir. Uning o‘zak mohiyatini ana shu uzluksizlik tashkil qiladi”, degan qarashni ilgari suradi⁶².

Hamkorlikda vaziyat ham belgilovchi omil hisoblanadi. Chunki vaziyatdan kelib chiqib yoki uni shakllantirish uchun hamkorlik amalga oshiriladi. Biroq hamkorlikni ibtidosidan boshlab intihosiga cha bo‘lgan oraliq jarayon bilan bog‘liq. Shunga asoslanib, hamkorlikni jarayon sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagilarga asoslanib, hamkorlikni ikki yoki undan ortiq subjektning umummanfaatdorlik uchun birgalikdagi amaliy faoliyati, deb talqin qilish mumkin.

⁵⁹ Алиев Р.М. Центральная Азия: общность интересов. –Т.: “Шарк” 2005, 43 с.

⁶⁰ Фалсафа энциклопедик луғат. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, давлат илмий нашриёти 2010, 12 б..

⁶¹ Фалсафа қомусий луғат –Т.: Шарк, 2004, 126 б.

⁶² Отамуратов С. Глобаллашув миллий-маънавий хавфсизлик. (сиёсий-фалсафий таҳлил). –Т.: Ўзбекистон, иккинчи нашр 2015, 12 б.

Hamkorlik turli shakllarda, xususan, sohasiga ko‘ra-iqtisodiy, harbiy, madaniy, siyosiy; ishtirokchilariga ko‘ra ikki tomonlama, ko‘p tomonlama; ko‘lamiga ko‘ra—davlatlararo, mintaqaviy, global; daramasiga ko‘ra—faol, sust hamkorlikka ajratiladi.

Mavzumizdan kelib chiqib, mintaqaviy hamkorlik haqida to‘xtalsak. Bizningcha, mintaqaviy hamkorlikni o‘rganishda hamkorlik bilan birga, bu mavzu uchun muhim bo‘lgan kategoriya mintaqasi (region) hisoblanadi. Shundan kelib chiqib “mintaqa” tushunchasiga to‘xtalamiz.

Taniqli nemis olimi Karl Doytch mintaqani turli yo‘nalishda bog‘lanadigan hududiy birlik sifatida talqin qilib, uchta asosiy belgisi qayd etadi:

1. Umumiyligini yaqinligi.
2. Hamkorlikning doimiyligi va intensivligi.
3. Mintaqasi tizimi haqidagi umumiyligini yondashuv⁶³.

Shvetsiyalik professor B.Xettne mintaqani ushbu jihatlari mavjudligini ta’kidlaydi:

- Tabiiy chegaralar bilan cheklangan geografik va ekologik birlik (masalan, Yevropa Atlantikadan -Uralgacha);
- ijtimoiy tizim sifatida ijtimoiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy tarfibotning translokal munosabatlarda aks etishi;
- ichki yaxlitlikning mavjudligi, birdamlik yoki qismlar bilan genetik bog‘liqlikning mavjudligi;
- xalqaro munosabatlarda alohida maqomga egaligi va tan olishi⁶⁴.

Rossiyalik tadqiqotchilar A.A. Sergunin va L.Remkeldalar talqiniga muvofiq, mintaqasi superatama bo‘lib, aholi, hudud, umumiyligini, tabiiy sharoit va muammolarni yechish xarakterini o‘z ichiga oladi⁶⁵.

⁶³ K. Doych. The analysis of international relations. Englewood Cliffs N.J.: Prentice - Hall 1978, 134 p..

⁶⁴ B.Heltne. The future of regionalism: old divides, new frontiers. - Routledge, London and New York, 2008

⁶⁵ Сергунин А.А. Проблемы и возможности регионалистики// Полис. 1994, №5, 149–150 с.

Ko‘rinib turibdiki, mintaqaga uning asosiy belgilaridan kelib chiqib yondashish ko‘proq qo‘llaniladi.

“Mintaqaviy hamkorlik” tushunchasi haqida ham turli qarashlar mavjud. Rossiyalik tadqiqotchi Olga Butorina mintaqaviy hamkorlik to‘grisida “globallashuv sharoitida dunyo stratifikatsiyasi⁶⁶ jarayoniga bir guruh davlatlarning anglangan faol ishtiroki modelini o‘zida aks ettiradi⁶⁷, degan konsepsiyanı ilgari suradi. Ta’rif lo‘nda va ancha mukammal bo‘lib, mintaqaviy hamkorlik aynan globallashuv sharoitida yuz berayotganligini, bu anglangan faoliyat ixtiyoriylik asosida sodir bo‘lishini aytadi. Tadqiqotchi ko‘proq jarayon asosiga e’tiborni qaratadi. Shu bilan birga, bu yondashuvda makon omili aks etmagan. Ya’ni ma’lum bir mintaqada joylashish sharti ko‘rsatilmagan. Bunday yondashuv asosida global hamkorlik bilan mintaqaviy hamkorlikni farqlash qiyin kechadi.

G‘arb tadqiqotchisi E.Xaas bu atamani milliy ko‘lamda harakat qiluvchi davlatlarni o‘ziga torta oladigan yangi siyosiy ta’sir etuvchi markazlarning vujudga kelish jarayoni⁶⁸, deydi. Muallif yondashuvda asosiy e’tiborni jarayon mahsuliga qaratadi va Yevropa Ittifoqi hamkorlik modelidan kelib chiqib yondashishga harakat qiladi. Bugungi kunda nafaqat siyosiy ta’sir markazlari, shuningdek, iqtisodiy ta’sir markazlari ham mintaqaviy hamkorlikni ta’minlab bermoqda. Bu borada Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov to‘gri ta’kidlaganlari-dek, “...barcha ishtirokchi mamlakatlар tomonidan tanlangan va vujudga keltirilgan umumiyl boshqaruvchi tuzilmalar faoliyat olib borayotgan Yevropa Ittifoqi bilan bir qatorda Janubiy Sharqiy Osiyo (ASEAP) va Osiyo-Tinch okeani mintaqasi (ATES) mamlakatlari tajribasi ham mavjud. Biroq ularda milliy davlatlardan yuqori turuvchi Parliamentlar, Vazirlar kengashlari va boshqa birlashtiruvchi tuzilmalar yo‘q⁶⁹.

⁶⁶ Strata (lotin tilidan “stratum”-katlam) - umumiy ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy boshka belgilari bilan umumlashgan guruh.

⁶⁷ <http://www.polit.ru/reseash/2012/04/10/butorinaprint>

⁶⁸ Harrison R. Europe in question: theories of regional international integration London- Georae Allen & Unwin Ltd., 1974, 21 p.

⁶⁹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид,

Rossiyalik tadqiqotchilar N.Livensev va V.Xarlamovlar “min-taqaviy hamkorlik umumiy ko‘rinishda bir qator davlatlarning bos-qichma-bosqich birlashuvi natijasida yangi yaxlit xo‘jalik organizmi –xalqaro mintaqaviy majmua shakllanishi”,⁷⁰ degan fikrni ilgari suradilar. Tadqiqotchilar jarayon mahsuliga e’tibor qaratib, qaysi tamoyillar asosida birlashuviga e’tibor qaratishmaydi. Masalan, imperiyalarda davlatlar kuch asosida bosqichma-bosqich birlashtirilib, yagona xo‘jalik “organizmi” shakllanadi. Vaholanki, mintaqaviy hamkorlik jarayonlarida moyillik va tenglik ustuvorlik kasb etmog‘i, eng muhimi bu jarayon milliy suverenitetga, mustaqillikka daxl qilmasligi lozim.

Rossiya FA Lotin Amerikasi instituti olimlarining tadqiqotlarida mintaqaviy hamkorlik globallashuvning ulkan raqobati davrida mintaqa davlatlari uchun islohotlarni jadallashtiruvchi qo‘sishimcha jarayon va xalqaro munosabatlarga to‘g‘ri yo‘l ochuvchi voqelik⁷¹ sifatida talqin qilinadi. Shunga o‘xshash yondashuvni ko‘plab integratsion birlashmalarning hujjatlarida ham uchratamiz. Masalan, MERKOSUR davlatlari hujjatlarida “Umumiy bozorning tashkil etilishi ulkan iqtisodiy makonda sodir bo‘layotgan iqtisodiy o‘zgarishlarga o‘ziga xos javob bo‘ladi” – deb yozilgan⁷².

Mintaqaviy hamkorlikning bugungi kundagi natijalari ham (mintaqaviy hamkorlikni yuqori cho‘qqisi mintaqaviy integratsiyaning kuchayishi) tushunchaga turli ta’rif berishga sabab bo‘lmoqda. Ya’ni ba’zi olimlar mintaqaviy hamkorlik natijasida ishtirok etuvchi davlatlar o‘rtasida chegaralarning yo‘qolib ketishi tushuniladi desa, boshqa-

барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т.: Ўзбекистон, 1997, 320–6.

⁷⁰ Ливенцев Н.Н., Харламова В.Н. Международная региональная экономическая интеграция. Международные экономические отношения. Учебник.– М.: РОССГЭН, 2010, 323 с.

⁷¹ Лавут А.Д. Развитие региональной интеграции в западном полушарии // Интеграция в западном полушарии и Россия. – М.: Институт Латинской Америки. 2004, 25 с.

⁷² Қаранг: <http://www.gura-mercousur.com>

lari davlatlarning yagona iqtisodiy-siyosiy birlikka jipslashishi sodir bo‘lishini ilgari suradi. Yana bir talqinka ko‘ra, mintaqaviy hamkorlik ishtirok etuvchi subyektlarning o‘zaro iqtisodiy va siyosiy aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan jarayon tushuniladi⁷³.

Ko‘rinib turibdiki, «mintaqaviy hamkorlik» tushunchasiga yagona ta’rif ishlab chiqilmagan. Ammo aksariyat nazariyotchilar mintaqaviy hamkorlik ishtirok etuvchi tomonlar uchun bir qator imkoniyatlarii yaratishini e’tirof etishadi. Shu bilan birga, yuqoridagi fikrlarning mintaqaviy hamkorlikni jarayon ekanligi va ma’lum mintaqada kechishi, ma’lum tamoyillar asosida shakllanishini inobatga olib, mintaqaviy hamkorlik – bu obyektiv zaruriyat natijasida ma’lum bir mintaqada davlatlarining tenglik, ixtiyoriylik, umummiliy manfaatlarning uyg‘unlashuvi asosida birgalikdagi faoliyati, deb ta’rif berish mumkin. Bunda mintaqaviy hamkorlik o‘zagini obyektiv zaruriyatdan boshlanib, ma’lum tamoyillar asosida mintaqaviy integratsiyani shakllantiruvchi yaxlit jarayon tashkil etadi.

Xo‘s, mintaqaviy hamkorlik boshqa turdosh jarayonlardan nimasid bilan farqlanadi yoki uning o‘ziga xos belgilari nimada? Avvalo, bunday hamkorlik tenglik, yaxlitlik manfaatlar uyg‘unligi asosida amalga oshiriladi. Tarixda aynan bir xil modeldag‘i mintaqaviy hamkorlik uchramaydi.

Birinchidan, bu hamkorlikning maqsadi va vazifasidan kelib chiqib, turli modellari va turlari borligini bildirsa, ikkinchidan, jarayon subyektlarining imkoniyatlari, milliy manfaatlari, mintaqalar turlitumanligi va davr talabining o‘zgaruvchanligi bilan bog‘liq masala ham mavjud. Bundan tashqari, jarayonga mintaqaga xos omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Bundan o‘ttiz yil oldin Yevropadagi hamkorlik jarayonlarini o‘rgangan olim V. Baranovskiy nazariy tadqiqotlarda turdosh tu-

⁷³ Барановский В.Г. Политическая интеграция в Западной Европе. Некоторые вопросы теории и практики. –М.: Наука, 1983; Намазова А.С., Эмерсон Б. История европейской интеграции (1945–1994) –М 1995: Обердорф А. Политическое становление Европы - Европейская интеграция: современное состояние и перспективы. – Минск, 2001.

shunchalar bog‘liqligini inobatga olish zarurligini asosli ta’kidlagan edi⁷⁴. Zero, turdosh tushunchalarni qiyosiy tahlili ularning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqib, “mintaqaviy hamkorlik”ning “globallashuv”, “mintaqaviy integratsiya” bilan bog‘liqligi va farqli tomonlari haqida to‘xtalib o‘tish lozim.

8.2. Mintaqaviy hamkorlik va globallashuv

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov globallashuv haqida to‘xtalib, “globallashuv – bu avvalo hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi” ekanligini qayd etadilar⁷⁵. Globallashuv va mintaqaviy hamkorlik haqida tadqiqotchilar tomonidan turli fikrlar bildirilmoqda. Jumladan, M.Lebedeva hamkorlikni globallashuv jarayonining muhim bir qismi ekanligini ta’kidlaydi⁷⁶. Yana bir rosiyalik olim L.E.Grinin ‘Globallashuv – bu mintaqalar va umuman jahoning hamkorligi, yaqinlashuvning natijasidir’⁷⁷, degan fikrni ilgari suradi.

Globallashuv va mintaqaviy hamkorlikning farqli jihatlari mavjud. Birinchidan, globallashuv dunyoni universallashuviga olib borsa, mintaqaviy hamkorlikda mintaqadan tashqaridagi davlatga nisbatan ma’lum cheklovlar qo‘yiladi. Ikkinchidan, mintaqaviy hamkorlik jarayonida tomonlarning manfaatdorligiga amal qilinadi. Ya’ni undan bir tomon emas, balki barcha tomonlar manfaat ko‘radi. Globallashuv jarayonida esa bu amalga oshmaydi. Bundan tashqari, globallashuvda tengsizlik mavjud bo‘lsa, mintaqaviy hamkorlik tenglik, ixtiyorilik tamoyillari asosida rivojlanadi.

⁷⁴ Барановский В.Г. Политическая интеграция в Западной Европе. Некоторые вопросы теории и практики. – М.: Наука, 1983, 125 с.

⁷⁵ Каримов И. Юксак маънавият - енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008, 11-бет.

⁷⁶ Лебедова М.М. Мировая политика. Учебник. – М.: Аспект Пресс. 2003, 122 с.

⁷⁷ Гринин Л.Е. Глобализация и национальный суверенитет. История и современность. – М., 2014, 8–11 с.

Mintaqaviy hamkorlik barqarorlikning samarali vositasi. U mintaqaning rivojlanishiga imkoniyat yaratish bilan birga globallashuvning ijobiliy jihatlaridan to‘la foydalanish, salbiy ta’sirlarini cheklash imkonini beradi. U ishtirokchi davlatlar guruhining tenglik, ixtiyorilik, umummanfaatlar ustuvorligi asosiga quriladi.

Mintaqaviy hamkorlik globallashuvdan farqli ravishda tenglik, ixtiyorilik, eng muhimi, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik asosida shakllanayotganligini alohida qayd etish lozim. Shu nuqtayi nazardan, u insoniyat taraqqiyoti uchun faqat ijobiliy ahamiyat kasb etsa, globallashuvning insoniyat boshiga ne kunlar solishini bugungi kunda uning ayrim qusurlari vujudga kelganligi bilan ham izohlash mumkin. Aniqroq qilib aytganda, globallashuv ko‘proq yetakchi davlatlar manfaatlariga xizmat qilib, davlatlar o‘rtasida tabaqalanishga, keskinlikka, eng yomoni, xalqaro tartibotda ikki qutbli yoki bir qutbli dunyo shakllanishiga xizmat qilsa, mintaqaviy hamkorlik dunyoda kuchlar balansini muvozanatga keltirishga, ko‘p qutbli dunyonи shakllanishiga, davlatlararo tinchlikni ta’milanishiga yordam beradi.

Buni ko‘plab tadqiqotchilar, jumladan, G‘arb olimlari ham e’tirof etishmoqda. Masalan, amerikalik tadqiqotchi K.Doytch mintaqaviy hamkorlikni “davlatlararo tinchlikni ta’milashi mumkin bo‘lgan real imkoniyat”⁷⁸, deb baholaydi. Professor V.Bobkov “O‘zaro hamkorlik unda ishtirok etuvchi subyektlarga shunday moddiy, intellektual va boshqa vositalarga ega bo‘lish imkoniyatini yaratib beradiki, bunday imkoniyatlarga alohida olingan hech bir davlat umuman erisha olmaydi”⁷⁹, degan fikrlarni bildiradi.

Globallashuv insoniyatning xohish va ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan sa’y-harakatlar mevasi bo‘lib, u obyektiv jarayondir. Lekin ana shu jarayondan turli kuchlar, davlatlar o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanib, qolganlarni o‘zlari ortidan ergashtirishga harakat qilmoqdalar. Bu borada rossiyalik olim A.Duginning “hozirgi paytda dun-

⁷⁸ Бобков В. Баланс терпения и нетерпения //Республика. 1998, 1 декабря, 5 с.

⁷⁹ Дугин А. Г. “Философия глобализма” доклад на международной конференции Глобализм и глобальная безопасность. – М., 2001, 56 с.

yoda borayotgan globallashuv jarayonida biz amerikacha jamiyatdan nusxa olingan sivilizatsion modelni boshqa davlatlarga ularning xohishiga qarshi ravishda tiqishtirish va o'mnatiшni ko'rmoqdamiz”⁸⁰, degan fikrlari asosliga o'xshaydi.

Globalashuv jarayoniga doir taddiqotlar olib borayotgan va bir nechta monografiyalar chop ettirgan professor S.Otamuratovning bu masalaga qarashlari diqqatga sazovor. “Globalashuv real jarayon si-fatida bir qator omillar bilan bugun yuksak taraqqiy qilgan mamlakatlarning ustuvorligini ta'minlashga, kam taraqqiy qilgan yoki taraqqiyot yo'liga kirayotgan mamlakatlar va ularda yashayotgan xalqlarning ongi, qalbi va dunyoqarashida “boqimandalik” ruhiyatini rivoj-lantirmoqda. Fikrimizcha, ular quyidagilar orqali yuzaga kelmoqda:

- a) iqtisodiyot omili;
- b) fan-texnika va texnologiya yutuqlarini ommalashtirish;
- d) yuksak taraqqiy qilgan mamlakatlarning qudratli iqtisodiy, intellektual va uddaburonlik salohiyati ustuvorligi asosida vujudga kel-gan “ommaviy madaniyat”ni jahon xalqlari o'rtaSIDA keng yoyish va ular ongiga singdirish borasida olib borayotgan faoliyatlar orqali o'z ifodasini topmoqda”⁸¹.

Yana bir o'zbekistonlik olim N.To'xliyev ham globalashuv va mintaqaviylashuvni solishtirib, “Globalashuv jahon xo'jalik aloqalarining barcha qatnashchilari uchun ularning real salohiyatidan qat'i nazar, o'yin qoidalarini birxillashtirish (unifikatsiyalash)ni taqozo etadi. Mintaqaviylashuv esa qo'shni mamlakatlar, o'rtaSIDagi alohida preferentsial, ya'ni imtiyozli, masalan, boj undirilmaydigan, ko'proq qulaylik tarkibini yaratish tamoyiliga asoslangan bo'lishi mumkin”, degan fikrni ilgari suradi. Olim ikki jarayonning muqim jihatni-unifikatsiya va prefensiya orqali globalashuv va mintaqaviylashuvni mo-hiyatini ochib beradi⁸².

⁸⁰ Лебедева М.М. Мировая политика: проблемы и тенденции развития. Мировая политика и международные отношения на пороге третьего тысячелетия. – М.: МОНФ, 2000, 44 с.

⁸¹ Отамуратов С. Глобаллашув: миллий-маънавий хавфсизлик. (сиёсий-фалсафий таҳлил) –Т.: «Ўзбекистон», иккинчи нашр, 2015, 81–82–б.

⁸² Тўхлиев Н. Осиё тараккиёт модели. – Т.:Ўзбекистон, 2015, 144–б.

Yuqoridagi jarayonlarning rivojlanish tendensiyalarini kuzatadigan bo'lsak, mintaqaviy hamkorlik jarayonida rang-baranglik, xilma-xillik namoyon bo'ladi. Aynan shuning uchun ham yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, bir xil modeldagi mintaqaviy hamkorlik mavjud bo'lmaydi. Bo'lishi ham mumkin emas. Buni quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- a) mintaqalarning taraqqiyot darajalari;
- b) milliy mentalitetdagi turli-tumanlik;
- d) hozirgi paytda jahon miqyosida turli ziddiyatlarning kuchayishi;
- e) mintaqaviy manfaatlarning turli-tumanligi.

Globallashuvda esa umumiylit namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, globallashuv haqida o'rtaga tashlangan ilmiy bashoratlar kishini o'ylantirib, mintaqaviy hamkorlikni obyektiv zaruriyat sifatida anglab yetishga turki beradi. Masalan, dunyoning shakllanish jarayoni ikki yo'ldan borishi mumkinligi haqida tad-qiqotchilar quyidagicha bashorat qiladi:

Birinchisi, yaxshi boshqarilmaydigan, turli kuchlar o'rtasidagi kelishmovchilik yo'li. Bu yo'ldan borish oqibatida insoniyatni dunyoviy halokat kutadi (bugun uning u yoki bu ko'rinishiga guvoh bo'lmoqdamiz);

Ikkinchisi, yangicha dunyoviy tuzilmalarni shakllantira borish orqali inqirozlarni boshqarish taraqqiyot davomiyligini ta'minlash imkonini berishini e'tirof etishadi⁸³. Nazarimizda, mintaqaviy hamkorlik jarayon sifatida yangi tuzilmalarni shakllantirishga keng imkoniyat beradi.

Globallashuv davrida insoniyatning bugungi kungacha erishgan ma'naviy boyligi xavf ostida qolmoqda. Eng xatarlisi, globallashuv-o'ta murakkab hamda notekis jarayon sifatida o'ng'aysizlikni keltirib chiqarib, boshqarib bo'lmaydigan darajaga yetdi.

Globallashuv davlatlararo chegaralarning "yuvilib" ketishiga, transmilliy korporatsiyalar (TMK), turli xil nohukumat tashkilotlarning xalqaro maydonga chiqishiga yo'l ochib bermoqda. Bugungi kun-

⁸³ Дугин А.Г. «Философия глобализма» доклад на международной конференции Глобализм и глобальная безопасность.–М., 2001, 107 с.

da TMKlar xalqaro munosabatlarda mustahkam mavqega ega bo‘lib, son jihatdan ham davlatlardan o‘zib ketdi⁸⁴. Globallashuv natijasida ko‘pchilik mamlakatlar bir yo‘la 100 dan ortiq tashkilotlarda muntazam ishtirok etishga majbur bo‘lmoqdalar. Masalan, Daniya – 164, Frantsiya - 155, Buyuk Britaniya – 140, AQSH – 122, O‘zbekiston – 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlar faoliyatida⁸⁵ muntazam qatnashmoqda.

Fikrimizcha, agar tegishli chora-tadbirlar ko‘rilmasa, kela-jakda davlatlar milliy manfaatlarni himoya qilishda globallashuvning lokomotivlari bo‘lgan TMKlar bilan raqobatlasha olmaydilar. Globallashuv oqibatida siyosiy xavfsizlik uchun javobgar bo‘lmanan kuchlarning mavqeyi oshishi esa, professor T. Jo‘rayev ta’kidlaganidek, tizimbardor tayanchlarning barbod bo‘lishiga olib keladi⁸⁶. Bugungi kunda butun hamjamiyatni tashvishga solayotgan global iqtisodiy inqiroz aynan ana shu tizimbardor tayanchlarning yemirilishidan nishonadir. Bunga yo‘l qo‘ymaslik uchun milliy manfaatlarni uyg‘unlashtira olgan hamkorlik lokomotivlari bo‘lgan mintaqaviy qurilmalarni shakllantirish zarur bo‘ladi.

Bu borada milliy manfaatlar masalasiga ham to‘xtalib o‘tish joiz. Ular obyektiv zaruriyatdir. Aslini olganda, davlatlarning xalqaro maydondagi harakati ham o‘z manfaatlari yuzasidan bir maqsadni amalga oshirish ehtiyoji bilan bogliq. Milliy manfaatlar mavjud ekan, ularni himoya qilish ham muhim. Zero, globallashuvning talabi bo‘lgan barchaning manfaati aynan bir vaqtida va bir masalada bir xilda bo‘lishi mumkin emas, unga intilishning o‘zi yangi muammolarni

⁸⁴ Bryussel ittifoqi xalqaro assotsiatsiyasi tаддиқотчиларининг fikricha, bugungi kunda yer yuzida davlatlar soni 200 dan ortiq bo‘lsa, xalqaro xukumatlararo tashkilotlarning soni dunyoda 500 dan oshgan. O‘tgan asrning 80-yillarda ularning soni 378 tani tashkil etgan. Yoki xalqaro nohukumat tashkilotlar XXI asrga kelib dunyoda 10800 tadan oshgan. (Bunday tashkilotlarga kasaba uyushmalari, transmilliy korgyuratsiyalar va boshqalar kiradi).

⁸⁵ Гаджиев К.С. Введение в геополитику. Изд. 2-е, доп. и перераб. Учебник для вузов. – М.: Логос, 2000, 141 с.

⁸⁶ Жўраев Т. Миллий давлатчилик: хавфсизлик ва барқарорлик. –Т.: Академия, 2007, 17–118 б.

tug‘diradi. Bundan tashqari, globallashuv davlatlar yoki tomonlarining ma’lum masalada manfaatdorligini turlicha bo‘lishiga olib keladi. Chunki o‘yin qoidalarini birxilashtirishdan rivojlangan davlatlar ko‘proq manfaatdor bo‘ladilar. Bunday sharoitda norozilik, manfaatlar qarama-qarshiligi kuchayadi. Natijada insoniyat yangi mojarolar, urushlar girdobiga tushib qolishi mumkin. Bizningcha, mintaqaviy hamkorlik orqali bu muammoning oldini olsa bo‘ladi. Ya’ni mintaqaviy hamkorlik jarayonlari oqibatida davlatlar milliy manfaatlarini uyushgan holda, hamkorlikda har qanday kuch oldida himoya qila oladilar.

Xullas, mintaqaviy hamkorlik jarayonlari globallashuvning ijobiy jihatlarini rivojlantirishga, salbiy jihatlaridan himoyalanishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, davr talabi bo‘lgan xalqaro tizimni isloh qilishga, xalqaro munosabatlarda yangicha tartibotlar shakllanishiga, insoniyat uchun vorisiylikni, taraqqiyot davomiyligini ta’minlashga imkoniyat paydo bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, mintaqaviy hamkorlik umuminsoniy taraqqiyot nuqtayi nazaridan konstruktiv jarayon bo‘lsa, globallashuvning destruktiv jihatlari ham mavjud.

8.3. Mintaqaviy hamkorlik va mintaqaviy integratsiya

Hamkorlikni davlatlar misolida olsak, ular vujudga kelgandan buyon u yoki bu ko‘rinishda hamkorlik qilib kelishgan. Hamkorlikda asosiy e’tibor milliy manfaatlarga qaratiladi, davrning xususiyati, u yuzaga keltiradigan muammolar nuqtayi nazaridan yondashiladi. Davlat hamkorlikdan manfaatdor bo‘lsa, albatta unda ishtirop etadi. Mintaqaviy integratsiyada esa asosan kelajakdagи samara ustuvorlik qiladi. Shuningdek, mintaqaviy hamkorlik bilan mintaqaviy integratsiya uzviy bog‘liq. Bu ikki jarayon uchun davlatlarning taraqqiyot darajalari, siyosiy tuzumining yaqinligi muhim ahamiyatga ega. Bunday omillar bo‘lmasa, ikki jarayon ham samara bermaydi. Deylik, Yaponiya bilan Shimoliy Koreya geografik nuqtayi nazardan bir mintaqada joylashgan, bunda makon omili mavjud bo‘lsa-da, ularning siyosiy tuzumlari va iqtisodiy darajalaridagi farq jarayonning amalga oshishiga to‘sqinlik qiladi.

Mintaqaviy integratsiya hamkorlikni institutsiyalashuvi hamdir. Hamkorlik uchun esa institutsiyalashuv shart emas. Shunga qaramay, har qanday integratsion jarayonlarning ibtidosi aynan hamkorlikdan boshlanadi. Mintaqaviy hamkorlik natijasida integratsiya jarayonlari shakllanadi va rivojlanadi.

Bugungi kunda mintaqaviy integratsiyaning eng katta kamchili-gi – milliy suverenitetga daxl qilishi ko‘pchilik tomonidan tan olinmoqda. Ya’ni aksariyat tadqiqotchilar “mintaqaviy integratsiya” tu-shunchasini tahlil qilishda va o‘rganishda umumiy manfaatlar ustuvorligini ta’minalash maqsadida davlatlar o‘zlarini yaratayotgan yangi institutsional strukturaga o‘z suverenitetlarining bir qismini berish jarayoni” sifatida qarashadi⁸⁷.

Lekin boshqa bir tadqiqotchilar mintaqaviy integratsiya jarayonlari milliy suverenitetga hech qanday daxl qilmasligini ta’kidlaydilar. Jumladan, rossiyalik olim T.V. Bordachyov “Yevropa ittifoqiga kiruvchi davlatlar siyosiy va iqtisodiy sohalarda istisnosiz suverenitet huquqini saqlab qolgan. Milliy mudofaa, tashqi energetika sohasidagi aloqalar, adliya va ichki ishlar, migratsiya siyosati va ta’lim milliy hukumat qo‘lida”⁸⁸, degan fikrlarni qayd etadi. Olim quyidagi sotsiologik tadqiqotlar natijasiga suyanib, o‘z fikrini isbotlashga urinadi. Yevrokomissiyaning sotsiologik xizmat tashkiloti 2011-yil kuzida o‘tkazgan Yevropa davlatlarida jamoatchilik fikrini o‘rganishga doir tadqiqotlarida 42% aholi o‘z davlatlarining fuqarosi ekanligi, hech qachon Yevropa fuqarosi bo‘lmaganliklari, 37% aholi onda-sonda Yevropa fuqaroligini his qilganligini, 7% aholi avvalo Yevropa Ittifoqi fuqarosi ekanligi, 53% yevropalik davlatlarining Yevropa Ittifoqiga a’zoligini qo‘llab-quvvatlashlarini e’tirof etishadi⁸⁹.

Umuman olganda, siyosiy integratsiyaga ustuvorlik berilgan integratsiya jarayonida suverenitetni cheklash mavjud. Chunki integratsiya jarayonlarida ishtirok etuvchi davlat ichki siyosatda ham, tashqi

⁸⁷ Qurang. Corbey D. Dialectical functionalism: stagnation as a booster of European integration // International Organization. 1995. Vol. 49. №26 255 p.

⁸⁸ www.globalaffairs.ru/numbers/24/7045.html

⁸⁹ www.globalaffairs.ru/numbers/24/7045.html

siyosatda ham umummanfaatlarni hisobga olishga majbur bo‘ladi, ikkinchidan, ma’lum bir vakolatlarini mintaqaviy tashkilotga beradi va bu tashkilot davlat ustidan nazorat o‘rnatadi. Masalan, Ukraina muammosi bilan Rossiyaga nisbatan sanksiya qo‘llash masalasi Evro organda ko‘rib chiqilib, shunday qarorga kelindi, a’zo davlatlar esa katta iqtisodiy zarar ko‘rishlariga qaramasdan uni amalga oshirmoqdalar. Balki bu Yevropada tinchlik va taraqqiyot uchun eng samarali yo‘ldir. Aynan bu masala haqida Jon Monnening quyidagi fikrlari diqqatga molik: “Agar mintaqqa davlatlari o‘z milliy suverenitetlarini ustuvor yo‘nalish sifatida qarab rivojlangudek bo‘lishsa, Yevropada hech qachon tinchlik bo‘lmaydi. Chunki bunday rivojlanish davlatlarning ustunlik qilish siyosatiga va iqtisodiy qaramligiga olib keladi. Yevropa davlatlari yakka holda o‘z xalqlari uchun yetarli darajadagi turmush sharoitini yaratib bera olmaydilar”⁹⁰.

Masalaning boshqa tomoni shundaki, integratsion birlashmalarda vujudga kelayotgan turli muammolar yuzasidan munozaralar hamon davom etmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyaning YeIga nisbatan munosabati, YeI kengayishining keyingi taraqqiyotga ta’sir etishi masalalari yoki Gretsianing ittifoq tarkibida qolish yoki qolmasligi masalalarida, u ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, hozirgacha YeI manfaatlari bilan AQSH manfaatlari ko‘pchilik holatlarda muvozanatlashib kelgan bo‘lsa, bugungi kunda bu borada ma’lum muammolar paydo bo‘lmoqda.

Bugungi kunga kelib yetakchi davlatlar mintaqaviy integratsiya subyektlarini (birlashmalarni) tuzish orqali geosiyosiy nuqtayi nazaridan, o‘z mavqelarini mustahkamlab olishga intilishlari diqqatni jalb etadi. Masalan, MERKASURda AQSH manfaatlari ustuvorlik kasb etayotganligi fikrimizni tasdiqlaydi. Boshqacha aytganda, nazarイヤada biz ko‘p ta’kidlagan tenglik va ixtiyorilik amalda hamma vaqt ustuvorlik kasb etmayapti. Rivojlangan davlatlarning mintaqaviy integratsiya niqobida yangi bloklarni shakllantirish ehtimollari ham xatarli tus olayotganligi tashvishlidir.

⁹⁰ Kohl H. Die Europaische Gemeinschaft - Bilans und Perspective// Europe - unzere Zukunft. Herford. 1989 -S.21

Tinchlikni saqlash, xavfsizlikni va manfaatlar muvozanatini ta'minlash, umummilliy manfaatlar uyg'unligiga erishish, hamkorlik natijasida shaxs va jamiyat farovonligini ta'minlash mintaqaviy hamkorlikning asosiy vazifasini tashkil etadi. Bundan tashqari, mintaqaviy hamkorlik jarayonlari umuminsoniy taraqqiyot omili sifatida evolyutsion tarzda rivojlanib bormoqda.

Mintaqaviy hamkorlik jarayonlari rivoji uchun quyidagi shart-sharoitlar muhimdir:

1. Geografik yaqinlik. Ya'ni geografik nuqtayi nazardan bir mintnaqada joylashganlik.

2. Barqaror taraqqiyot. Bunda iqtisodiy, siyosiy barqarorlik va shu asosida taraqqiyot ko'zda tutiladi.

3. Davlatlar siyosiy tizimining mutanosibligi. Davlatlar siyosiy tizimlarining mutanosib bo'lishi, ya'ni har bir tizimning o'z tartibotlari bo'ladiki, ular bir-biriga mos kelmasa, hamkorlik kutilgan samara bermaydi.

4. Hamkorlikni siyosiy elita va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi.

5. Milliy madaniyatlarning o'zaro yaqinligi va tarixiy ildizlarning umumiyligi.

6. Boshqaruv shakli va iqtisodiy tizim o'xshashligi.

7. Harbiy potentsial darajasini yaqinligi va tashqi tahidlarning umumiyligi.

8. Davlatlarning hamkorlik tajribasi.

9. Umumiy muammolarning mavjudligi.

10. Tashabbuskorlik va siyosiy liderlarning unga moyilligi.

Mintaqaviy hamkorlikning mazmun-mohiyatini anglashda uning tamoyillari ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada rossiyalik olima E.Kuznetsova: "1) manfaatlar balansi; 2) o'zaro kelishuvlar tizimiga putur yetkazilgan taqdirda, ittifoqchi davlatlarning aralashuv huquqiga egaligi; 3) ko'ptomonlama harakatda bo'lish⁹¹ni mintaqaviy hamkorlik tamoyillari sifatida ilgari suradi. Bunday yondashuvga qo'shilgan holda, tenglik va ixtiyorilik jarayonning asosiy tamoyili

⁹¹ Кузнецов Е. Размышления // Международная жизнь. №2, 2013, 6–7 с.

deb hisoblaymiz. Aynan ana shu tamoyillar orqali mintaqaviy hamkorlik jarayonlari mevasi bo‘lgan davlatlararo birlashmalar kuchga asoslangan imperiya yoki ittifoqlardan farq qiladi. Shularni inobatga olib, mintaqaviy hamkorlikning asosiy tamoyillariga: a) tenglik; b) ixtiyorilik; d) milliy manfaatlar uyg‘unligi asosida shakllangan umummanfaatlar ustuvorligi; e) o‘zaro ishonch va hurmat; s) milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik; i) ichki ishlarga aralashmaslik tamoyillarini kiritish mumkin.

Tenglik manfaatdorlik bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda ishtirok etuvchilar har qanday umumiyligi xatti-harakatlardan teng manfaatdorligi bilan bog‘liq. Buning murakkabligi shundaki, nafaqat bugungi kundagi teng manfaatdorlik, balki istiqboldagi teng manfaatdorlik ham ta’milanishi muhim.

Ixtiyorilik haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, avvalo hamkorlik qilish yoki qilmaslik masalasida ixtiyorilik bo‘lishi lozim. Buning muhim jihatni shundaki, ixtiyorilik bo‘lgan joyda kuchga hojat qolmaydi. Uning asosida amalga oshirilgan har qanday xatti-harakat majburiylik orqali amalga oshirilganga nisbatan samaraliroq kechadi. Bundan tashqari, u demokratik tamoyillarga ham mos keladi. Shu bilan birga, ixtiyorilikni mas’uliyat bilan chegaralab turish maqsadga muvofiq.

Milliy manfaatlarni uyg‘unlashtirish orqali umummintaqaviy manfaatlarni shakllantirishga amal qilish muhim ahamiyat kasb etib, har qanday hamkorlik jarayoni natijasi ana shu tamoyilga nechog‘lik amal qilinishiga bog‘liq. Bunda nafaqat bugungi kundagi manfaatdorlik, balki istiqboldagi manfaatdorlik ham inobatga olinishi va bosqichma-bosqich uyg‘unlashtirib borilishi ahamiyatlidir.

O‘zaro ishonch va hurmat. Hamkorlik subyektlari zimmalariga olgan vazifani amalga oshirishga yoki istiqbolda hamkorlikdan manfaatdor bo‘lishga ishonishi lozim. Shu bilan birga, o‘zaro hurmat, ayniqsa, siyosiy lider va siyosiy elita o‘rtasida ishonch ham zarur. O‘zaro ishonch va hurmat siyosiy liderning ambitsiyasini oldini oladi.

Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik. Hamkorlikdan asosiy maqsad faravonlikni ta’minalashga qaratiladi. Bunda birlashib, umumiyligi dashmanni izlash yoki urishish emas, balki umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik, do‘stlikka amal qilish muhim omil hisoblanadi.

Rossiyalik tadqiqotchilar Yu.Borko va O.Butorinalar mintaqaviy hamkorlik haqida quyidagi xulosalarini qayd etadilar:

1. Hamkorlik maqsad emas, balki vosita.
2. Hamkorlik davomiylikni talab qiladi.
3. Hamkorlik tenglashtirilgan (adekvat) mexanizmlarga muhtojlik sezadi⁹².

Yuqoridagi tadqiqotchilararning fikriga qo'shilgan holda, shuni qayd etish joizki, hamkorlikdan hamma manfaatdor bo'ladi. Sababi hamkorlikda manfaatlar oson qondiriladi. Hamkorlikdan olingan samaradan hamma faydalananadi. Shu bilan birga, mintaqani umumiyl rivojlanishiga hissa qo'shadilar.

Hamkorlikni tenglashtirilgan (adekvat) mexanizmlarga muhtojlik sezishi hamkorlik jarayonlarida qatnashuvchi davlatlar manfaatlarini, pozitsiyalarini uyg'unlashtirib turish ancha murakkab masala bo'lib, har qanday hodisaga nisbatan mintaqaga manfaatlaridan kelib chiqib teng javob qaytarishni talab qiladi. Uni adekvat mexanizmlar hal qila oladi.

Yana bir e'tiborli masala – mintaqaviy hamkorlikning chegarasidir. Deylik, Yevropa Ittifoqi makon nuqtayi nazaridan ancha kengaydi. Bu mintaqaviy hamkorlik tamoyillariga yoki xalqaro tartibotlarni, tizimbardor tayanchlarni mustahkamligiga nechog'lik ta'sir qiladi? Falsafadagi me'yor kategoriyasi bu masalada qanchalik mos keladi?

Zamon nuqtayi nazaridan tahlil qilsak, mintaqaviy hamkorlik manfaatdorlik vujudga kelishi va hamkorlikni institutsiyalashuvi bilan mintaqaviy integratsiyaga aylanadi (tomonlar manfaat ko'rsa). Albatta, hamkorlik jarayonlarini yakuni haqidagi fikrlarimiz bahsli bo'lishi mumkin. Lekin masalaga siyosat falsafasi jihatidan yondashsak, har qanday jarayonning ibtidosi va intihosi bo'ladi. Boshqacha aytganda, mintaqaviy hamkorlik jarayonlari ibtidosi u yoki bu sohadagi hamkorlikni yo'lga qo'yish bilan boshlansa, uning intihosi mintaqaviy integratsiyaning vujudga kelishiga olib keladi.

⁹² Европейский союз на пороге XXI века. Выбор стратегии развития/
Под ред. Ю.А.Борко и О.В.Бугориной. – М.: Эдиториал УРСС, 2001, 79 с.

Mintaqaviy hamkorlik obyektiv jarayondir. Muammo insoniyat undan o‘z manfaati va taraqqiyoti yo‘lida samarali foydalanishni o‘rganishiga bogliq.

Endilikda xalqlar hamkorligi va hamjihatligi, muammolarni hal qilishi dunyoning taraqqiyotini kafolatlaydi. Shundagina siyosiy makkonda hammaga joy topilib, hech kim o‘zini kamsitilgan, huquqlari cheklangan, deb bilmaydi. Bunday imkoniyatga faqat mintaqaviy hamkorlik orqali erishish mumkin.

Mintaqaviy hamkorlik uchinchi ming yillik xalqaro siyosatida etakchi mavqeni egallaydi. U global taraqqiyot zarurati sifatida shakllanadi. Ana shu haqiqatni o‘z vaqtida tushunib etish va uni rivojlantirish uchun amaliy sa‘y-harakatlarga o‘tish vaqtini yetib keldi.

Uni nazariy jihatdan o‘rganish bugungi kunning eng dolzarb muammosi bo‘lgan insoniyat hayotining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarida qanday o‘zgarishlar kechishini aniqlashda yetakchi omil vazifasini o‘taydi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Integratsiya qanday jarayon?
2. Xalqaro siyosiy mintaqada geografik mintaqadan nimasi bilan farq qiladi?
3. Zamona viy mintaqashunoslik tizimida qanday bo‘limlarni ajratib ko‘rsatish mumkin?
4. Integratsiya borasida qanday yondashuvlar mavjud? *
5. Integratsiyani jadal rivojlanishi qachon boshlandi?
6. Mintaqashunoslik predmeti qaysi davrdan fan sifatida qabul qilingdi?
7. Qaysi davr “Mintaqalar” deb nomlanadi va nima uchun?
8. Mintaqashunoslikning boshqa fanlar bilan o‘zaro qanday aloqadorligi mavjud?
9. Integratsion jarayonning ijobiy tarafi nimadan iborat?
10. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati nimada?
11. Integratsiyani o‘rganishda pozitivistlar va kognitivistlar yondashuvlarida qanday farq bor?

12. “Tashkillashtirilgan integratsiya”dan “notashkiliy integratsiya” ning qanday farqi bor?

13. Yevropa, Osiyo, Afrika va Amerikada borayotgan integratsion jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1.“Janubi-sharqiy Osiyodagi integratsion jarayonlar” mavzusida ma’ruza tayyorlang.

2.“OTOIH forumi va Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari” mavzusida ma’lumotlar tayyorlang.

3. “OTOIHning asosiy maqsad va vazifalari” mavzusida referat tayyorlang.

4. Integratsiya borasidagi ta’riflarni o‘rganib, tahlil eting.

5. Yevropa Ittifoqi doirasida integratsion jarayonlarni mustahkamlash borasida olib borilayotga chora-tadbirlar haqida ma’ruza tayyorlang.

6. Hozirgi davrda mavjud integratsion birlashmalar haqida referat tayyorlang.

7. Markaziy Osiyo integratsiyasining xususiyatlari mavzusida referat tayyorlang.

8. Arab davlatlarida mavjud integratsion birlashmalar haqida referat tayyorlang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Kathy Pain. Changing Urban and Regional Relations in a Globalizing World. – USA, 2014. – 248p.

2. TimoBehr., JuhaJokela. Regionalism and global governance: the emerging agenda. –Notre Europe, 2011. – 67 p.

3. Rouben Azizian, Carleton Cramer. Regionalism, security and cooperation in Oceania. – USA: APCSS, 2015. – 172 p.

Qo‘srimcha adabiyotlar

1. Барыгин И.Н. Международное регионоведение. – СПб.: Питер, 2016, 384 с.

2. Мұхаммадсидиқов М.М. Замонавий халқаро муносабаттарнинг минтақавий жиҳатлари (ўқув қўлланма). –Т.: ТошДШИ, 2013, 182 б.

3.Мұхаммадсидиқов М.М. Хорижий Шарқ ва Ғарб мамлакатларида ижтимоий-сиёсий жараёнлар (ўқув қўлланма). –Т: ТошДШИ, 2013. – 160 б.

4. Muhammadsidiqov M.M. Sharq mamlakatlari xalqaro munosabatlari (o‘quv qo‘llanma). – T.: ToshDSHI, 2017, b.

9-BOB. OSIYO REGIONALIZMINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Darsning maqsadi:

- mintaqaviy integratsion uyushmalarning asosiy ko‘rinishlari, integratsiya va globallashuv jarayoni, uning asosiy jihatlari va yo‘nalishlari haqida tushunchalarni shakllantirish;
- hozirgi davrda mintaqaviylashuvning nazariy masalalariga ilmiy baho berish;
- mazkur bilimlarni mustaqil tahlil qilishga ko‘maklashish; yoshlar o‘rtasida sog‘lom ma’naviy va tarbiyaviy muhitni shakllantirish; talabalarning turli mintaqalardagi mamlakatlarning siyosiy-ijtimoiy jarayonlari borasida tasavvur hosil qilishlariga ko‘maklashish;
- usul va uslublardan foydalanish tajribasini oshirish hamda ilmiy tadqiqot ishlari, axborot-tahliliy yozishmalarini olib borish qobiliyatlarini rivojlantirish;
- talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo‘llashni o‘rgatishdan iborat.

Tushunchalar va tayanch iboralar: *Mintaqa, mintaqaviylashuv, Osiyo, iqtisodiy birlashuv, siyosiy birlashuv, harbiy birlashuv, OTM, jahon hamjamiyati, Yangi industrial mamlakatlar, rivojlangan mamlakatlar, ASEAN , ATES.*

9.1. OTMning xalqaro munosabatlar tizimidagi roli

Iqtisodiy integratsiya mintaqaviylashuv bilan yonma-yon sodir bo‘layotgan tushunchadir. Xalqaro integratsiya jarayonlari o‘tgan asrning 50-yillarida G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida boshlangan bo‘lib, ishlab chiqarish kuchlarini o‘sishi va sifat o‘zgarishlari, xalqaro mehnat taqsimotini rivojlanishi va chuqurlashuvi, kapital va ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi jarayonlari, sanoati rivojlangan mamlakatlarning xalqaro iqtisodiy munosabatlarda baynalmilallashuviga bo‘lgan harakatlari bilan bo‘g‘liqidir.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy sabablari fan-texnika taraqqiyoti bo‘lib, u moddiy, moliyaviy, mehnat kabi ahamiyatli resurslar rivojini, shuningdek, ilmiy-texnikaviy sohada alohida mamlakatlarning birlashib faoliyat yuritishdagi katta bozorlar yuzaga kelishini taqozzo etadi. Iqtisodiy integratsiyaning bosh sabablaridan biri-transmilliy korporatsiyalar, ya’ni yirik xalqaro monopoliyalarning taraqqiyotidir.

Iqtisodiy integratsiyaning katta ahamiyatga ega bo‘lgan sababi—bu siyosiy omildir. Bu omil davatlarning integratsiya yordamida nufuzli siyosiy obro‘ qozonishiga, dunyo siyosiy hamjamiyatida yuqori mavqega ega bo‘lishga intilishidan iboratdir.

Erkin savdo hududi – iqtisodiy integratsiyalarning boshlang‘ich darajasi bo‘lib, u mamlakatlarning soliq to‘lashga maxsus imtiyoz tartibiga amal qiladigan alohida hududdir. Unga kiritilgan tovarlar boj va kvotalar to‘lovidan ozod etiladi va bojxona nazoratidan xoli bo‘ladi.

Bojxona ittifoqi—ikki yoki bir qancha davatlarning bojlar bo‘yicha o‘zaro chegaralarni bekor qilish va yagona boj tarifi joriy etish yuzasidan o‘zaro kelishuvlidir.

Umumiy bozor iqtisodiy integratsiyasining hammadan ko‘proq rivojlangan turi. Integratsiyalashgan mamlakatlar nafaqat tovar va xizmatlar erkin harakati haqida kelishishadi, balki ishlab chiqarish faktorlari—davlatlar o‘rtasida kapital va ishchi kuchi borasida ham almashinuvlar qilishadi.

Iqtisodiy ittifoq—integratsiyaning oliy formasi bo‘lib, bunda qatnashuvchi mamlakatlar o‘z iqtisodiy siyosatlarini, shu‘umidan, pul soliq va ijtimoiy siyosatlarini, shuningdek, savdoga ishchi kuch va sarmoya ko‘chib yurishga nisbat siyosatini muvofiqlashtiradilar. Unda bojxona tariflari, tovar va ishlab chiqarish faktorlari, mikroiqtisodiy siyosat koordinatsiyalari, valyuta, budget, pul sohalarida qonunchilikning unifikatsiyasi ko‘rib chiqiladi.

To‘liq iqtisodiy integratsiya—a‘zo mamlakatlar guruhlari yagona iqtisodiy siyosatni o‘tkazilishida qarab chiqilgan tillari aralashadi. Ular integratsion ittifoq chegarasida huquqiy qonunchilikning unifikatsiyasini talab qiladi.⁹³

⁹³ Ишмухамедов А.Э., Суннатов М.Н., Шибаршова Л.И. Жахон иктисодиётига интеграция. –Т.:ТДИУ, 2004, 67 б.

XX asr oxirlariga kelib integratsiyalar jarayonining asosiy kuchi Osiyo-Tinch okeani hududida birlashdi. Ular o'zlarida mavjud gigant imkoniyat hamda 3,5 mlrd.ga ega bo'lgan aholisi bilan katta hududga ega bo'lishdi. Ushbu hudud hisobiga hozirda 565 turdag'i dunyo yalpi ichki mahsulotlarini ishlab chiqarish va jahon eksporti importining 45% li ulushi to'g'ri kelmoqda.⁹⁴

Osiyo Tinch okeani hududi integratsion jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:⁹⁵

- bu integratsiyaga iqtisodiyoti rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar jalb etiladi;
- integratsiya jarayonlari hududidagi mamlakatlar firma va koorporatsiyalari o'rtaida asosan makroiqtisodiy darajalarning yuqoriligi;
- integratsiya jarayonlarining maxsus alohida hududlarda yuqori darajada vujudga kelishi;
- integratsiya jarayonlari yuqori tayyorgarlikda tashkil etilmagan hududlarni rivojlantirishi;
- mavjud integratsion guruhlarning aniq ajratilmaganligi.

Osiyo-Tinch okeani hududi bir qator subregional birlashmalar, ya'ni Janubi-sharqi Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi (ASEAN). Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati tashkiloti (ATES) – Avstraliya, Yangi Zelandiya erkin savdo hududi, Janubiy Tinch okeani forumi, Tinch okeani iqtisodiy sovetidan tashkil topgan. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mintaqqa va mintaqaviylashuv jarayonini o'rganish iqtisodiy integratsiyani o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Kelajakda asosiy iqtisodiy integratsiya guruhlarining tajriba va yutuqlaridan Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlarining sodir bo'lishida foydalanish mumkin.

Keyingi uch yil ichida Osiyo-Tinch Okeani mintaqasidagi (OTM) kuchlarning o'zaro nisbati va geostrategik vaziyatda jiddiy o'zgarishlar yuz bermoqda. OTMning dunyo siyosati va iqtisodi-

⁹⁴ Маматкулов Х.М. Жаҳон иктисодиёти ва ҳалқаро иктисодий муносабатлар. Ўкув кўлланма. – Т., 2008, 224 б.

⁹⁵ O'sha joyda

yoti konsentratsiyasining markazlaridan biriga aylanganligi ushbu o‘zgarishlarning eng sezilarilaridan biridir. Bu yerda amal qiladigan kuchlar balansi, umuman, dunyodagi geosiyosiy muvozanatning salmoqli elementi bo‘lib bormoqda va uning shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Urushdan keyingi davrda, asosan mustamlaka imperiyalarining barbod bo‘lishi natijasida paydo bo‘lgan yangi davlatlar dunyodagi o‘z o‘rnini izlashdi – ularning bir qismi ikkita ijtimoiy tizimning biri tomoniga o‘tishdi, lekin ko‘pchilik mamlakatlar qo‘silmaslik pozitsiyasini egallashni afzal bilishdi. Bunday siyosat yosh davlatlarga sezilarli siyosiy, harbiy-strategik va iqtisodiy foydalarni berdi. Ular ni ushbu davlatlarning ko‘pchiligi o‘zlarining milliy rivojlanishi va xo‘jaligini tiklash manfaatlari uchun qo‘llashdi.

Bu davlatlar har ikkala tizim o‘rtasida noziklik bilan ish yuritib va ularning har biridan maksimal foydalarni olish bilan o‘z iqtisodiyotini tiklashdi, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot yo‘lidan borishdi, milliy-madaniy o‘ziga xosligini mustahkamlash muammolarini hal etishdi. Ayni shu davrda «Osiyo mo‘jizasi»ning yaratilishi boshlandi: unga ko‘ra, yaqinda mustamlaka va yarim mustamlaka bo‘lgan mamlakatlar gullab-yashnayotgan, dinamik rivojlanayotgan va kelajakka optimizm bilan qaraydigan davlatlarga – yangi industrial mamlakatlarga aylanishdi.

Lekin XX asr oxirida o‘zgarishlar yuz berdi. Sobiq Sovet Ittifoqidagi qayta qurish, «Berlin devori»ning qulashi, so‘ngra SSSRning barbod bo‘lishi dunyoning mafkuraviy jihatdan bir-biriga qaramaqarshi turadigan ikki lagerga bo‘linishiga chek qo‘ydi. O‘z mohiyati ga ko‘ra dunyodagi urushdan keyingi tartibning buzilishi boshlandi. «Sovuq urush» tugadi. Konfrontatsiyadan va o‘tmishdagи ishonchsizlikdan xoli, maksimal keng hamkorlikka va jahondagi hamma mamlakatlarning xalqaro barqarorlik va hammaning farovonligi manfaatlarini ko‘zlab o‘zaro harakat qilishga asoslangan prinsipial yangi tipdagi xalqaro munosabatlarni ko‘rish kabi noyob imkoniyat ochildi.

Jahon hamjamiyati oldida jiddiy masalalar ko‘ndalang bo‘ldi: xalqaro munosabatlarning rivojlanishi qanday yo‘nalishda ketadi va ochilgan imkoniyatlar amaliyotda qanday amalga oshiriladi, turli

davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar qanday tamoyillar asosida shakllantiriladi? Munosabatlar birinchi navbatda Sharq bilan G‘arbning bir-biriga qarama-qarshi turishiga asoslangan ikki qutbli dunyo o‘rniga har biri alohida davlat, mintaqaviy va submintaqaviy tashkilot va birlashmalar roli oshib boradigan, hurmat qilish va aralashmaslik tamoyillari o‘rnatiladigan, hech kim o‘z irodasini boshqalarga tazyiq bilan o‘tkazmaydigan chinakam demokratik, liberal va plyuralistik model paydo qilinadimi?

Hozirgi zamonning ana shunday tub masalalariga javoblarni izlashda OTM davlatlari muhim rol o‘ynashdi. Ularning ko‘pchiligi qadimgi tarix va madaniyat, bir-biri bilan o‘zaro munosabatlarni qu’rishning noyob an’analariiga, murakkab nizoli vaziyatlarni hal qilishda o‘z tajribasiga egadir. Bunda keyingi o‘n yilliklarda ushbu mintaqa mamlakatlarining xalqaro ishlar va umuman jahon xo‘jalik aloqalari-dagi roli va ahamiyati tinmay oshib bordi. OTM to‘g‘risida hozirgi dunyo iqtisodiy rivojlanishining «lokomotivi» sifatida gapira boshlashdi, kelgusidagi yuz yillik haqida esa oldindanoq «Tinch Okeani asri» sifatida so‘z ketmoqda. Buning uchun iqtisodiy va geosiyosiy jihatdan asoslar to‘liq yetarli edi.

OTMdA dunyoning eng qudratli va ta’sirchan davlatlari joylashgan. Ularning uchtasi – BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a’zolari, ikkitasi esa bunday o‘rin da’vogari. Mintaqada uchta yadro quroliga ega davlatlar joylashgan, bir qator mamlakatlar esa yadro qurolini yaratishga qodirligi imkoniyatini isbotlagan.yoki bu yo‘nalishda ish olib borishayapti. Bu mintaqa mamlakatlari iqtisodiyoti eng so‘nggi vaqtgacha dunyodagi eng jadal sur’atlar bilan rivojlanib keladi.

1997–1998-yillarda Janubiy Osiyoga to‘g‘ri kelgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz keltirib chiqargan jiddiy oqibatlarga qaramasdan, umuman, mintaqa mamlakatlari o‘zlarini yana qayta tiklash va jadal xo‘jalik rivojlanishi uchun asosiy obyektiv asoslarini saqlab qola bilishdi. Mintaqadagi barqaror harbiy-siyosiy barqarorlik sharoitida ularda inqiroz oqibatlarini nisbatan tez bartaraf qilish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini qayta tiklash uchun barcha asoslar mavjud.

OTM salohiyati shunda namoyon bo‘ladiki, u o‘zining yanada kengayishi, binobarin, o‘zining hozirgi dunyodagi siyosiy va iqtisodiy mavqeyini oshirishi uchun istiqbollarga egadir. Bunda gap mintaqa ishlariga tobora ko‘proq yangi davlatlarni, avvalo, Lotin Amerikasi, shuningdek, Osiyodagi Tinch Okeaniga bevosita chiqishga ega bo‘limgan, OTMga yaqin mamlakatlarni jalb qilish haqida borayapti.

Markaziy Osiyodagi postsoviet davlatlari, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi xususida shuni aytish mumkinki, ular mustaqillikka erishgan vaqtidan boshlab hozirgi dunyoning qudratli qutblari ta’siri doirasini sezib turishadi. OTMdagi yetakchi mamlakatlarning Markaziy Osiyodagi vaziyatga ta’siri oshib borayapti. Markaziy Osiyodagi beshta respublikaning OTM tomoniga burilishi tezlashmoqda va ularning kelajagi qaysidir ma’noda ularning ushbu mintaqadagi mehnat taqsimotidan qanday o‘rin olishiga bog‘lik bo‘ladi.

Markaziy Osiyodagi barcha davlatlar ham Dunyo okeaniga chiqish yo‘liga ega bo‘limgan mamlakatlarga kiradi. Bunday vaziyatda «Ipak yo‘li XXI asrda» g‘oyasi juda ommaviy tus olayaptiki, uning qayta tiklanishi Markaziy Osiyoning jug‘rofiy izolatsiyasiga barham berish va uni iqtisodiy jihatdan jahonga ochib berishga imkon beradi.

Bularning hammasi OTMdagi strategik vaziyatning rivoji va xalqaro munosabatlar dinamikasi tadqiqotini ilmiy-nazariy va amaliy nuqtayi nazardan dolzarb qiladi. Buning ustiga, O‘zbekiston Respublikasi ushbu mintaqa mamlakatlari bilan samarali savdo-iqtisodiy hamkorlik qilishga tomon amaliy qadamlarni qo‘ymoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, “O‘zbekistonning qulay geosiyosiy holatidan maksimal foydalanish bizning manfaatlarimizga to‘g‘ri keladi. Yevropaga o‘tadigan va Yaqin Sharqdan Osiyo-Tinch Okeani mintaqasiga olib boradigan yo‘llar bizning respublikamizda kesishadi”.

Ana shuni hisobga olib, O‘zbekiston Respublikasi kompleks sharqiy siyosatni ishlab chiqayapti. Mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti bunga asos bo‘ladiki, bu hol uning Osiyo va Tinch Okeani siyosiy sohasida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishiga kafolatdir.

XXI asrda OTM dunyodagi iqtisodiy va siyosiy rivojlanishning yangi asosiy markazlaridan biri bo‘ladi. Yuz yilliklar va ming yilliklar

oralig‘ida xalqaro munosabatlar murakkablashib qoladi. Butun jahon tarixi paradigmasi o‘zgaradi. Sharq iqtisodiy va siyosiy salohiyatiga ko‘ra G‘arbdan qolishmaydi.

Osiyo mamlakatlari jahon siyosatida har doim muhim rol o‘ynab kelgan. Mustamlakachilik bosqinlari paytida bosqinchilar to‘dalari ayni shu yerga, g‘oyat boy bo‘lgan Hindiston va Xitoyga qarab intilishgan. Angliya, Fransiya, Gollandiya, chor Rossiyasi manfaatlari shu yerda to‘qnash bo‘lgan. Tez orada AQSH ham bu kurashga qo‘shilib, Filippindagi qonli janglar bilan imperialistik urushlar asrini boshlab berdi. Harbiy-feodal Yaponiya ham ularga ergashди.

Holbuki, AQSH XX asr boshidan OTMni o‘zining geosiyosiy manfaatlari zonasiga aylantirib, Osiyo va Tinch okeani sohasida bosh subyektlardan biriga aylandi. Vashington o‘zining Sharqi Osiyodagi ta’sir doirasini mustahkamlash va boshqa davlatlar, ayniqsa, Yaponiyaning haddan ortiq katta pozitsiyalarini tutib turishga intilib, OTMdA o‘zaro munosabatlarning yangicha konstruksiyasini shakllantirishga faol kirishdi. Amerika bilan Yaponiya manfaatlarining to‘qnashuvi oxir-oqibatda Yaponiyaning 1941-yil dekabrida Perl-Harborda humum qilishiga olib keldiki, bu Ikkinchiji jahon urushining bir qismiga aylanib ketdi. Yaponiya Tinch okeanidagi urushdagi mag‘lubiyatdan keyin o‘zining Shimoli-sharqi Osiyodagi oldingi ustunlik holatidan mahrum bo‘ldi. Uning tor-mor qilinishi va u tuzgan mustamlakachilik tizimining yemirilishi “kuch vakuumi”ni hosil qildi va mintaqadagi kuchlar nisbatining yangidan bo‘linishiga olib keldi.

Yangicha kuchli va siyosiy paradigmalar shakllanib boshladi, bunda Xitoy muhim rol o‘ynay boshladi. XXR bilan Rossiya o‘rtasidagi sherikchilik munosabatlarining qanday rivojlanishi va bunday sherikchilikka boshqa davlatlar, avvalo, AQSHning qanday munosabatda bo‘lishi ko‘p jihatdan xalqaro munosabatlarning bo‘lg‘usi konfiguratsiyasini belgilab beradi.

Xitoyning AQSH va Yaponiya bilan yaqinlashuvi Uzoq Sharqdagi xalqaro aloqalar tusi va mazmuniga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Yangicha geosiyosiy voqeliklarda AQSH hali ham ilgarigidek mintaqadagi “kuchlar balansi”ning o‘ziga xos tartibga soluvchisi bo‘lishga intilayapti. Shunga qarab Yaponiyaning o‘z rolini juda

oshirishga intilishi va Xitoyning qo'shni mamlakatlar uchun o'ziga tortish markaziga aylanishi amerikalik strateglarga AQSH manfaatlariiga xavf bo'lib ko'rinyapti.

Keyingi yillarda XXR bilan Yaponiya o'rtasida OTMdagi mintaqani hosil qiluvchilik markazi roli uchun yashirin kurash kuzatilayapti. Yaponiya-Xitoy munosabatlari sekin-asta OTMdagi vaziyatni belgilaydigan muhim omil bo'lishi kutilmoqda.

Amerika-Xitoy munosabatlari esa bugungi kunda OTMdagi kuchlar paradigmaside asosiy o'rinni egallaydi. Amerikalik ekspertlarning hisoblashicha, Xitoy yangi kuchli davlat roliga da'vogarlik qilish bilan AQSHga qarshi chiqqandek bo'layapti. Jumladan, AQSH Xitoyning bu mintaqada kuch ishlatalish harakatlari boshlashidan xavfsiraydi. Bunday sharoitda Xitoy AQSH tomonidan amalda "tutib turish" obyektiga aylandi. O'z navbatida, XXRda ham amerikaliklarni Xitoyning iqtisodiy rivojlanishiga to'sqinlik qilishi, uni bo'lib tashlash, jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin olishiga qarshilik qilishga intilyapti, deb hisoblashadi.

Ikki qutbli xalqaro tizimning yo'qolganligi ayrim mamlakatlarning bir paytlar bloklar yetakchilarining qat'iy nazorati ostida bo'lgan Osiyoda mustaqil siyosat yuritishi uchun katta imkoniyatlar ochib berdi. Yangicha vaziyatda mintaqaning Janubiy Koreyadan to ASEAN mamlakatlarigacha bo'lgan davlatlari o'z mustaqilligini jiddiy mustahkamlab, mintaqadagi ishlarda tobora kattaroq rol o'ynashayapti. Shunday qilib, Shimoli-sharqiy Osiyo ya OTM dagi kuchlar balansi umuman dunyoning shu qismidagi "ikkinchi plan-dagi" mamlakatlarning geosiyosiy yo'naliishiga bog'liq bo'ladi. Bu ikki qutbli tizimdan ko'p qutbli tizimga o'tish jarayonini tezlashtirib yuboradi.

Umuman olganda, hozir mintaqada shakllanayotgan tuzilmani ko'p qutbli tizim sifatida tavsiflash mumkin. Bu jarayon uchun AQSH ustunlik holatining biroz cheklanishi, Sobiq SSSRga nisbatan Rossiya ta'sirining sezilarli oshishi, Yaponianing yanada faolroq pozitsiyalarga chiqishi, Xitoyning iqtisodiy, qisman harbiy imkoniyatlarining jadal oshishi, mintaqadagi boshqa mamlakatlar siyosiy imkoniyatlarining mustahkamlanishi, ularning xalqaro ishlarda teng

huquqli munosabatlarga intilishi xosdir. Aftidan bunday tendensiyalar oldimizdagi o'n yillikda hukmron tus oladi.

OTMdagi submintaqalar (Shimoli-sharqiy Osiyo, Hindixitoy, Janubi-sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo) etnomadaniy xususiyatlari, jahon sahnasidagi siyosiy “salmog'i”, siyosiy va iqtisodiy integratsiyalashuvi va integratsion jarayonlarni rivojlantirish uchun imkoniyatlariga ko'ra turlichadir.

Yaponiya, Xitoy, Koreya, Rossiya ish olib boradigan Shimoli-sharqiy Osiyo submintaqasi xalqaro miqyosda ancha “salmoqli”roqdir. AQSH va Kanada submintaqa ishlariga Tinch okeani shimoliy qismi davlatlari sifatida jalb etilgan. O'z navbatida, Janubi-sharqiy Osiyo mintaqasi ASEAN haqidagi amaldagi bitimga ko'ra eng ko'p integratsiyalashgan bo'lib hisoblanadi.

Janubiy Osiyo uni OTMdagi submintaqalar qatoriga kiritish uchun Tinch okeanidan ancha olisda joylashgandek tuyuladi. Biroq Janubiy Osiyo davlatlari va, birinchi navbatda, Hindiston va Pokistonning Shimoli-sharqiy Osiyo va Janubi-sharqiy Osiyo submintaqalaridagi xalqaro munosabatlarga jalb etilganlik darajasi shundayki, bu submintaqalardagi davlatlar o'zining tashqi siyosiy strategiyalarini ishlab chiqishda ular jamuljam holda ko'rib chiqiladi.

Bundan tashqari, yana bir hol bunday yondashuvni tasdiqlaydi: BMTning Hind okeani muammolari bo'yicha maxsus rezolyutsiyasi 70-yillardayoq shunday tushuntirish bergen ediki, Hind okeani davlatlari nafaqat sohilbo'yi mamlakatlari deb hisoblanadi, shu bilan birga okeanga bevosita chiqmaydigan mamlakatlar ham mintaqada yetarlicha siyosiy, iqtisodiy va boshqa manfaatlarga egadir. BMT qabul qilgan universalizm tamoyiliga amal qilib, bunday yondashuvni OTMga ham tegishli deb hisoblash mumkin.

9.2. ASEAN va ATES tavsifi

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi jahon siyosatida tobora ko'proq rol o'ynamoqda, yer yuzi aholisining yarmidan ko'pi yashaydigan ushbu mintaqadagi juda katta xomashyo va kishilik resurslari tobora ko'proq miqyoslarda jahon xo'jaligiga qo'shilib bormoqda. Osiyoda turli ijtimoiy tizimdagи davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning

g‘oyat ulkan loyihalari, shuningdek, Transosiyo transport tizimi-ni yaratish, energetika resurslarini o‘zlashtirish kabi mintaqaviy rejalarни amalga oshirish uchun obyektiv shart-sharoitlar yuzaga keldi.

ASEAN va ATES. Yer yuzining eng yirik qismi sifatidagi OTM hozirgi xalqaro munosabatlarda muhim rol o‘ynamoqda. Ko‘pgina tadqiqotchilar dinamik OTMning XXI asrda jahon iqtisodiy va siyosiy hayoti markazi bo‘lishini allaqachon bashorat qilishgan.

Sharqiy Osiyo mamlakatlarining xalqaro miqyosdagi iqtisodiy va siyosiy ahamiyatining keskin oshishi ularning OTMdagi integratsion jarayonlarga ta’sirining kuchayishiga ham sabab bo‘ldi. Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi tashkil topganiga 32-yil to‘ldi. Hozirgi paytda mintaqadagi o‘nta mamlakat: Bruney, Kom-bodja, Indoneziya Respublikasi, Laos Xalq Demokratik Respublikasi, Malayziya, Filippin Respublikasi, Singapur Respublikasi, Tailand Qirolligi, Vyetnam Sotsiolistik Respublikasi, Myanma ittifoqi ASEAN a’zolari hisoblanadi. Mintaqqa mamlakatlari o‘rtasidagi o‘zaro bir-birini tushunishni yaxshilashga yordam berish, tinchlik, barqarorlikni saqlab qolish, tenglik va o‘zaro foyda tamoyillari asosida madaniy soha va xalq farovonligi sohalaridagi hamkorlikni yaxshilash-tashkilot maqsadlari deb e’lon qilingan.

O‘ttiz yildan ortiqdan muddatdan beri OTM mamlakatlarining akademik, amaliy va siyosiy doiralarida ayrim davrlarda har xil intensivlik darajasi bilan Tinch okeani hamjamiyati deb ataladigan u yoki boshqa shakldagi uyushmani tashkil qilish konsepsiyasini muhokama etib kelinadi. Biroq, nisbatan kompakt, asosan quruqlikda joylashgan va iqtisodiy taraqqiyot darajasi hamda madaniy tavsifnomalariga ko‘ra deyarli bir xil tartibdagi mamlakatlardan iborat G‘arbiy Yevropadan farqli ravishda Tinch okeani basseyni ulkan jug‘rofiy, asosan suvli makonni qamrab olgan. Bunda ushbu hududning chekkalari bo‘ylab o‘zaro bir-biridan iqtisodiy parametrлari, madaniy tarixiy, diniy etnik va boshqa jihatlariga ko‘ra jiddiy farq qiladigan davlatlar joylashgan. Shuning uchun bu yerda davlatlarning siyosiy manfaatlarni aytmaganda ham, iqtisodiy manfaatlarning to‘g‘ri kelishi negizida birlashuvি g‘oyasi uzoq muddatdan beri amalga oshmay kelyapti.

Shu bilan birga, 90-yillarga kelib, Tinch okeani iqtisodiy hamkorligining institusional asoslarini yaratish uchun sekin-asta harakat qilishda mintaqada iqtisodiy integratsiya tendensiyasining o'sishi, shuningdek, "sovuv urush"ning tugallanishi shaklidagi muayyan qulay shart-sharoitlar yetildi. Hozir Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik tashkiloti ATES (AREK) ana shunday imkoniyatga ega.

ATES 1989-yilda Tinch okeani basseynida iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida Avstraliyaning o'sha paytdagi bosh vaziri B.Xouk taklifiga ko'ra tashkil etilgan. Hozirgi paytda 21ta davlat va OTM hududlari ATES ishtirokchilaridir. Avval boshda qatnashchilar 12 ta edi: Avstraliya, Bruney, Kanada, Indoneziya, Yaponiya, Malayziya, Yangi Zelandiya, Filippin, Singapur, Janubiy Koreya, Tailand va AQSH. Keyingi yillarda ularga Xitoy, Gongkong (ATES doirasida u "Gonkong, Xitoy" deyiladi), Tayvan (ATES doirasida u "Xitoy Taypeyi" deyiladi), Meksika, Chili, Papua-Yangi Gvineya, Vyetnam, Peru va Rossiya. Ular hissasiga katta iqtisodiy salohiyat-jahon YalMning 60 %dan ortig'i va jahon eksportining yarmiga yaqini to'g'ri keladi; ATESda jahon aholisining qariyb 2\5 qismi yashaydi.

Avval boshda ATES konferensiyalari uning qatnashchilarini uchun umumiy manfaatga ega iqtisodiy hamkorlik masalalari bo'yicha maslahatlashish joyi bo'lgan. Biroq vaqt o'tishi bilan u OTMdagi erkin savdo, investisiyalar va iqtisodiy hamkorlikka yordam beradigan yetakchi tuzilmaga aylandi, uning konferensiyalari maqomi esa vazirlar darajasidan oliv darajadagi rahbarlar uchrashuvigacha o'sdi.

ATESda uchta yangi ishtirokchining paydo bo'lishi bilan (Rossiyadan tashqari yana Vyetnam va Peru, ular ATESning Malayziya poytaxti Kuala-Lumpurda 1998-yil noyabrda bo'lib o'tgan sammitida tashkilotning to'la huquqli ishtirokchilari deb rasmiy e'lon qilindi) forumning iqtisodiy va siyosiy salohiyati sezilarli o'sdi. ATES min-taqasida BMT xavfsizlik kengashi beshta doimiy a'zosidan uchtasi (AQSH, Xitoy, Rossiya) shuningdek, Yaponiya joylashgan.

Forum faoliyatining asosiy yo'naliishlari ATESning har yilgi sammitlarida va tashqi ishlari vazirlari kengashlarida, shuningdek, ATES

uchun ustuvor faoliyat yo‘nalishlariga boshchilik qiladigan bir qator tarmoq vazirlari (moliya, kishilik resurslarini rivojlantirish, energetika vazirlari va boshqa ayrimlari) uchrashuvlari jarayonida belgilanadi. Forumning amaliy faoliyati ishchi guruhlari va qo‘mitalari va ATESning boshqa ayrim bo‘linmalari orqali amalga oshiriladi.

ATES ishchi guruhlari va qo‘mitalari amaliy faolligining asosiy mazmuni shundan iboratki, ular ATES mamlakatlari sammiti jarayonida qabul qilinadigan qarorlar va hujjatlar asosida ish yuritishadi va o‘z vakolatlari doirasida yaqin istiqbol uchun hamkorlikning asosiy aniq yo‘nalishlarini belgilashadi. ATES Kotibiyati va ishchi guruhi (qo‘mitasi) rahbariyati ular faoliyatining bunday yo‘nalishlarini ishlab chiqishadi; ular taklif qiladigan tavsiyalar ishchi guruh (qo‘mita) lari majlislarida ATESga a’zo bo‘lgan barcha mamlakatlar delegatsiyalari, sharhlovchilar va mehmonlar ishtirokida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Jahon xaritasida Shimoli-sharqiy Osiyo davlatlarining siyosiy-geografik holatini tavsiflab bering.
2. OTOM davlatlari tashqi siyosat konsepsiysi asosiy o‘lchamlari tushunchasiga ta’rif bering.
3. JShO davlatlari xavfsizlik tizimi masalalari haqida aytib bering.
4. JShO davlatlarining AQSH va Yevropa davlatlari bilan munosabatlari nimadan iborat deb o‘ylaysiz?
5. Bugungi kunda AQSHning OTOM siyosati qanday?
6. Uzoq Sharq davlatlarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga tavsif bering.
7. ASEANning bugungi kuni va istiqbollari haqida ma’lumot bering.
8. Yaponiyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga umumiyl tavsif bering.
9. Koreyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga umumiyl tavsif bering.
10. “Hozirgi davrda OTOM muammolari” mavzusida prezentsiya tayyorlang.

11. “JShO davlatlarida islom omili” mavzusini muhokama qiling.
12. Yevropa Ittifoqining JShO davlatlari munosabatlari haqida ma'lumot bering.

Mustaqil ish savollari:

1. Siyosiy xarita yordamida Uzoq Sharq davlatlarini siyosiy, iqtisodiy - ijtimoiy va geografik holatini gapirib bering.
2. AQSHning Uzoq Sharqdagi siyosatini xarita yordamida aytib bering.
3. Osiyo mamlakatlarining hozirgi siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini internet tizimlari orqali mustaqil o'rganing.
4. Yaponianing xalqaro munosabatlardagi o'rmini yoritib bering.
5. Avstraliya tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini tavsiflab bering.
6. Zamonaviy bosqichda Koreya yarimoroli davlatlarida yuz berayotgan rivojlanish jarayonlariga tavsif bering.
7. “OTOM - Yevropa munosabatlari” mavzusida ma'ruza tayyorlang.
8. Yevropa Ittifoqi tashqi siyosatida ASEAN davlatlari to'g'risida ma'lumotlar to'plang.
9. Xitoy tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini yoritib bering.
10. Yaponiya tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari haqida gapirib bering.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati **Asosiy adabiyotlar**

1. Kathy Pain. Changing Urban and Regional Relations in a Globalizing World. – USA, 2014. – 248p.
2. TimoBehr., JuhaJokela. Regionalism and global governance: the emerging agenda. –Notre Europe, 2011. – 67 p.
3. Rouben Azizian, Carleton Cramer. Regionalism, security and cooperation in Oceania. – USA: APCSS, 2015. – 172 p.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Барыгин И. Н. Международное регионоведение. – СПб.: Питер, 2016, 384 с.
2. Мұхаммадсидиков М.М. Замонавий халқаро муносабаттарнинг минтақавий жиҳатлари (ўқув қўлланма). –Т: ТошДШИ, 2013, 182 б.
- 3.Мұхаммадсидиков М.М. Хорижий Шарқ ва Ғарб мамлакатларида ижтимоий-сиёсий жараёнлар (ўқув қўлланма). –Т: ТошДШИ, 2013, 160 б.
4. Muhammadsidiqov M.M. Sharq mamlakatlari xalqaro muno-sabatlari (o'quv qo'llanma). – T: ToshDSHI, 2017, 240 b.

10-BOB. YAQIN SHARQ MINTAQASI DAVLATLARI JAHON SIYOSATIDA

Darsning maqsadi:

- talabalarning Yaqin Sharq mintaqasi davlatlaridagi siyosiy jaronlar borasida tasavvur hosil qilishlariga ko‘maklashish;
- talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo‘llashni o‘rgatish;
- talabalarga Yaqin Sharq mintaqasi davlatlarining xalqaro munosabatlar tizimidagi o‘rni borasidagi to‘la ma’lumotlarni yetka-zish hamda ushbu jarayonlarning o‘ziga xos jihatlari bilan ularni tanishtirib borish;
- talabalarda davlatni har tomonlama rivojlantirish jarayonida o‘ta muhim, o‘ziga xos rol o‘ynovchi tashqi siyosat va uning maqsadlarini amalga oshirishda muhim omil hisoblangan xalqaro muzokaralar bo‘yicha nazariy bilim va amaliy mahoratni shakllantirish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: *Fors ko‘rfazi, Yaqin Sharq, Xormuz bo‘g‘izi, FKADHK, “jahoniy davlat”, “mintaqaviy davlat”, “odatdag‘i davlatlar”, “Qaynoq nuqta”, Arab-Isroil mojarosi.*

10.1. Yaqin Sharq mintaqasining o‘ziga xos xususiyatlari

Bugungi kunda ko‘pchilik davlatlar tashqi siyosiy strategiyalarida energetik resurslar xavfsizligi, energetika infrastrukturasi rivojlantirish va umumiyligi energetika tizimini shakllantirish masalalari asosiy geosiyosiy omillar sifatida e’tirof etilmoqda. Xusan, Fors ko‘rfazi mintaqasi xavfsizligida energetik xavfsizlikka nisbatan yangicha yondashuvlarning yuzaga kelishi natijasida mintaqqa davlatlari siyosatida an’anaviy ustuvorlikka ega bo‘lgan neft-gaz siyosatiga nisbatan munosabat yanada markazlashtirilmoqda.

Yaqin Sharq – Osiyo, Afrika va Yevropaning kesishgan mintaqasi-da joylashgan. Bundan tashqari, geosiyosiy ahamiyati jihatidan Yaqin Sharq, Kavkaz va Markaziy Osiyo bilan birgalikda chegaradosh sifa-

tida qaralib, geostrategik va geosiyosiy imperializmدا, shu jumladan, AQSH gegemonlik loyihasida juda muhim o‘rin egallaydi.

Yaqin Sharq mintaqasi jahoning muhim transport koridori hisoblanadi. Aynan shu yerda Atlantika va Hind okeanini bir-biriga bog‘laydigan muhim geostrategik ahamiyatga ega bo‘lgan Suvaysh kanali joylashgan hamda shu mintaqaga davlatlari qulay dengiz yo‘llariga chiqish imkoniyatiga ega, bu xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi rolini oshirish va ishtirokini kengaytirishda zaruriy omillaridan biridir.

Yaqin Sharq dunyo aholisining deyarli yarmi e‘tiqod qiladigan uch eng yirik jahon dinlari: Islom, Yaxudiy va Xristian dinlarining kelib chiqish markazi hisoblanadi.

Yaqin Sharq jahon neft zaxirasining 61,7%iga va tabiiy gaz zaxirasining 40,6%iga egalik qiladi. Mintaqadagi ikki davlatda esa dunyo neft zaxirasining 35%i jamlangan: Saudiya Arabistonida 26%, Eronda 9%. AQSH Energetika Departamenti tahliliga ko‘ra, jahonda energetika mahsulotiga bo‘lgan talab 1993- va 2015-yil oralig‘ida 50%ga ortadi. Bu esa mintaqaga davlatlarining jahon iqtisodiyotida va siyosatida ta’siri oshishiga olib kelmoqda. Xususan, bir qator manbalarga ko‘ra, 2003-yilgacha faqatgina Saudiya Arabistoni tomonidan AQSHga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kiritilgan investisiya miqdori 4000 mlrd. dollar atrofida bo‘lgan. Lekin shu bilan bir qatorda, mazkur energetika zaxiralari mintaqaga nisbatan yirik davlatlarning qiziqlishi hamda ta’sirini ortishiga va bevosita mintaqaga davlatlari ichki ishlariiga aralashishga sabab bo‘lmoqda.

Bu mintaqadagi neft tarixi 1914–1918-yillar “Buyuk urush” nomi bilan mashhur bo‘lgan urush davomida Britaniya Harbiy dengiz floti tuzish bilan bog‘liq. Britaniya imperiyasi bu yerda harbiy kemalar uchun energiya zaxiralari qazib olishni maqsad qilgan. Shundan buyon Yaqin Sharqning katta energetika zaxiralari doimo sobiq va hozirgi yetakchi davlatlarni: Fransiya, B.Britaniya, AQSH va sobiq Sovet Ittifoqini jalb etib kelgan. Neft kashf etilishi sababli mintaqada diniy nizolar va boy resurslar hamda unumtdor yerlar uchun kurash boshlandi.

Bundan tashqari, Arab dunyosi jahon siyosiy va iqtisodiy barqarorligini ta'minlashdagi rolini yaqqol namoyish etadi. Arab dunyosi mamlakatlari yakdilligining dunyo miqyosidagi siyosiy va iqtisodiy ahamiyati shunda namoyon bo'ladiki, u jahon neft bozoridagi vaziyatga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishga qodirdir. Birinchi marta bu 1973–1974-yillarda “energetik tanglik” davrida namoyish etildi. Oktabr urushi (1973) chog'ida G'arb mamlakatlari Isroilni qo'llab-quvvatlaganiga javoban OPEK mamlakatlari jahon bozoriga neft yetkazib berishni to'xtatib qo'ydilar. Bundan ko'rindaniki, arab olaming siyosiy va iqtisodiy ta'sir ko'rsatish imkoniyati hozirgi kunda bir qator yirik davlatlarning milliy manfaatlari ijrosidagi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, zamonaviy davrda hech bir davlat mustaqil o'z energetik ehtiyojlari va imkoniyatlarini yuzaga chiqara olmaydi. Ayniqsa, jahon siyosatida energiya taqchilligi va xavfsizligi masalalari global muammo sifatida ko'rileyotgan bir davrda mintaqalar va davlatlarning bir-biriga energetik bog'liqlik darajasi yanada ortdi⁹⁶. Shu bois, hozirgi vaqtida energetika siyosati bir qator davlatlarning, xususan, jahonning yirik davlatlari tashqi siyosiy faoliyatining ustuvor yo'naliishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Bunday fenomen bir qancha omillar bilan tushuntirilishi mumkin. Jumladan, jahon energetika bozori subyektlarining o'z energetik xavfsizligini ta'minlashga bo'lgan ehtiyoji, energetika sohasidagi samarali biznes manfaatlari, neft-gaz xomashyosini qazib olish, qayta jashlash, transportirovka qilish va boshqalar. Shuni ta'kidlash joizki, zamonaviy dunyoda energetika jahon iqtisodiyotining dinamik rivojidagi eng asosiy unsur bo'lishi bilan birga, umumiy xalqaro munosabatlar tizimiga ta'sir ko'rsatuvchi birlamchi omillardan biri sifatida yuzaga chiqdi. Bundan tashqari, dunyo miqyosida energetik bog'liqlik va energiyaning birlamchi manbalari iste'moli hajmi oshib borayotganligi mintaqada xavfsizlikka nisbatan yangi tahdidlar ko'laming kengayishi xavfini tug'diradi. Shuning uchun “Arabiston otiligi” davlatlari oldida min-

⁹⁶ Гладкий Ю.Н., ЧистобаевА.И. Регионоведение. -М.:Гардарики, 2003, 56 с.

taqaviy energetik xavfsizlikni ta'minlash masalasi har qachongidanda dolzarbdir.

“Arabiston oltigli” davlatlarining ulkan energetik imkoniyatlari jahonning yirik davlatlari e'tiborini tortmasdan qolmaydi. Ayniqsa, global energetik iste'mol darajasining kun sayin oshib borayotganligi, neft va gaz zaxiralarining tobora kamayib borishi, bundan tashqari, muqobil energiya manbalarini yaratish harakatlari unchilik ham kutilgan natija bermayotganligi energetik raqobatning kuchayishiga sabab bo'ldi. Ma'lumki, jahon energetik ehtiyojlarining asosiy qismi neft va gazga boy mintaqalar hisobiga qondirilib kelinmoqda.

Bugungi kunda FKADHK davlatlarining siyosiy va iqtisodiy xavfsizligiga eng katta tahdid Eronning yadroviy dasturi borasidagi siyosatidir. Jahon hamjamiyatining Eronga nisbatan keskin siyosiy va iqtisodiy bosimlari Kengash davlatlarining jiddiy xavotiriga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari, Iroqdagi vaziyatning to'liq izga solinmaganligi Kengash davlatlarining istiqbolli iqtisodiy loyihalari amaliyotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ma'lumki, Iroqda jahon neft zaxiralarining 11 % i joylashgan. Bu ko'rsatkich mintaqaviy energetik loyihalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tobora diniy nizolarning avj olayotganligi, sunniy va shia mazhabi o'rtaсидаги doimiy raqobat muhiti, natijada mintaqaga nisbatan butun bir terrorizm o'chog'i sifatida qaralishi, islom dini va madaniyatiga nisbatan radikal qarashlarning kuchayishi neft va gaz sohasiga xorigiy investitsiyalarning jalb qilinishi va istiqbolli bozorlarni egallashga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Qudratli davlatlarning mintaqadagi siyosati bevosita neft va gaz resurslarini qo'lga kiritish bilan bog'liq ekanligi bugungi kunda hech kimga sir emas. Bu borada Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi mulohazalari muhim ahamiyatga ega: "...kimda-kim neft va gaz zaxiralariga hukmronlik qilsa, dunyoga hukmron bo'lishi mumkin degan qarashlar kuchayib bormoqda. Va aksincha – kimdaki shunday resurslar bo'lmasa, neft-gaz, umuman, uglevodorod xomashyosiga ega boshqa davlatlarga nisbatan turli harakatlar ham sodir bo'layapti. Chunki qudratli davlatlar yaxshi biladiki, mana shunday boylik kimning qo'lida bo'lsa, u boshqalarni o'z ta'siriga olishning kaliti, vositasi bo'lib xizmat qiladi".

Jahon miqyosida energetik iste'mol darajasining oshib borayotganligi, xususan, Osiyo segmenti ulushining ortishi mintaqada keskin siyosiy raqobat muhitini yanada keskinlashtirishi mumkin. Energoresurslar iste'moli dunyo miqyosida 2030-yilgacha 60 % ga oshishi bashorat qilinmoqda. Bu jarayon ham bevosita Eron bilan bog'liq. Bugungi kunda Xitoy, Hindiston, Pokiston, Yaponiya kabi davlatlarning energetik ehtiyojlari kundan-kunga ortib bormoqda. Bu davlatlar mintaqadagi energetik raqobatda ishtirok etishdan va manfaatlari tashqi energetik siyosatdan manfaatdordir. Jumladan, Eron gazining Xitoygacha tortilishi, Eron-Pokiston-Hindiston quvuri borasidagi munozaralar Kengash davlatlari tashqi energetik siyosatida alohida e'tirofga sabab bo'lmoqda. Chunki Eron FKADHK davlatlarining asosiy energetik raqobatchisiga aylanishi mumkin.

Fors ko'rfazi xavfsizligi, FKADHK davlatlari energetik xavfsizligi masalalari Kengash davlatlari tashqi siyosatida asosiy ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Jahon miqyosida neft va gazga bo'lgan talabning oshishi va ko'pchilik davlatlarning taraqqiyoti ushbu resurslarga bog'liq ekanligi jahon siyosatida va umuman, zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida FKADHK davlatlari roli oshib borayotganligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, 1970-yillarning boshida Misr prezidenti Anvar Sadatning neft va siyosatning bir xil ma'no kasb etishini ta'kidlaganligi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmadni. Neftdan siyosiy bosim sifatida foydalanish va energetik resurslarning siyosiylashtirilishi tendensiyalari bugungi kunda ham kuzatilmoque.

Umumlashtirib aytadigan bo'lsak, Yaqin Sharq mintaqasi jahon hamjamiyatida o'zining geografik joylashuvi, tabiiy resurslarga boyligi, qulay geoiqtisodiy sharoitlarga egaligi va uch yirik dinning kelib chiqish markazi ekanligi bilan muhim o'rinnegallab kelmoqda. Mazkur omillar bir tomondan mintaqaga davlatlarining xalqaro maydonda iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan rolining oshishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan mintaqaning dunyoda yirik davlatlar manfaatlari to'qnashuv markaziga aylanib qolishiga sabab bo'lmoqda.

10.2. Yaqin Sharqdagi so‘nggi siyosiy jarayonlar

Yaqin Sharqda strategik muvozanatning shakllanishida davlatlararo munosabatlар bir qator tomondan o‘rganilgan. Xususan, Rossiyadagi nodavlat Strategik bohalash va istiqlolni belgilash markazi eksperti L.E.Popova tahlilicha, Yaqin Sharqda davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarning murakkabligiga tarixiy, siyosiy, diniy, ijtimoiy, etnik, geografik va iqtisodiy xususiyatlarga ega omillar ta’sir o‘tkazadi va vaziyatni murakkablashtirmoqda.

1. Tarixiy omil bevosita Yaqin Sharqning mustamlakachilik tarixiga bog‘liq. Buning natijasida Usmoniy imperiyasi parchalanganidan keyin va mandat ostida bir qator davlatlarning mustaqillikka erishishi natijasida bir qator jiddiy hududiy muammolar yuzaga keldi. Kurdlar masalasi, Falastin davlatini tashkil etish masalasi va boshq.

2. Mintaqa davlar o‘rtasidagi mintaqaviy yetakchilik uchun kurash. Yaqin Sharqda bir qator davlatlar o‘rtasida jiddiy ravishda yetakchlik uchun raqobat yuz bermoqda. Buni turli davrlarda turli davlatlar o‘rtasida yuz bergenligini kuzatish mumkin. Da’vogar diniy davlatlar (Saudiya Arabiston, Eron), dunyoviy davlatlar (Suriya, Isroil, Misr, Turkiya).

3. Yetakchi davlatlarning geosiyosiy manfaatlari va ularning mintaqaviy jarayonlarga ta’siri. “Sovuq urush” davrida Yaqin Sharq ikki lagerga ajralib qolgandi, undan keyingi davrda AQSHning mintaqadagi ustunligi kuzatildi, natijada mintaqada muvozanat buzilishiga, beqarorlikka, xalqaro terrorizmning kuchayishiga va boshqalarga olib keldi.

4. Yaqin Sharqda shia va sunniylar o‘rtasidagi qarama-qarshilikning mavjudligi;

5. Mintaqada transchegaraviy daryolar va suv resurslarining taqsimoti yuzasidan murakkab vaziyatning shakllanishi: Iordan daryosi bo‘yicha Suriya va Isroil o‘rtasida, Dijla va Furot daryolari bo‘yicha Suriya va Turkiya o‘rtasida.

6. Demografik vaziyat. Mintaqada bolalar ulushi yuqori bo‘lib, u aholining davlatlarda qariyb 20–40%ini tashkil etadi. Shuningdek, yoshlarning aholining katta qismini tashkil etishi turli tahdidlardan ularning himoyalanganlik muammosini vujudga keltiradi.

7. Mintaqaning turli davlatlarida terroristik tashkilotlarning faoliyi va ularga nisbatan yordam ko'rsatilayotganligi. Bugungi kunda ular Yaman, Suriya, Iroq va Liviyyada hukumatga qarshi jiddiy kurash olib borishmoqda

Yuqoridagi omillardan kelib chiqqan holda, bugungi kunda Yaqin Sharqda ro'y berayotgan siyosiy voqeliklar va kuchlar konfiguratsiyasidagi tez-tez o'zgarishlar mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda mintaqaning istiqbolini bashorat etish bir qadar mu'rakkabliklarga sabab bo'lmoqda. Shu bois, mintaqada geostrategik muvozanatning ta'minlanishida quyidagi asosiy tendensiyalarni hisobga olish zarur:

- “Arab bahori”ning ta'siri mintaqada to‘liq bartaraf etilmaganligi: Sinay yarim orolidagi beqarorliklar, Yaman va Suriya inqirozi, turli radikal kuchlarning faoliyati saqlanib qolishi; ijtimoiy-iqtisodiy muammolar;

- Yaqin Sharqda din omilining davlatlar ichki va tashqi siyosatiga ta'sirining kuchli ekanligi. Namoyon bo‘lish shakllari – a) diniy va dunyoviy (sekulyar) boshqaruv o‘rtasidagi kurash Misr, ma’lum ma’noda Suriya; b) islom diniidagi sunniy va shia oqimlari o‘rtasidagi diniy-mafkuraviy raqobat o‘rtasidagi kurash, Eron-Saudiya Arabiston munosabati; d) diniy ekstremistik va terroristik tashkilotlarning faollashuvi va ularni chetdan qo‘llab-quvvatlash – ISHID, “Jabhat an-Nusra”, “Axror ash-Shom”, XAMAS, Xizbulloh va boshq.

“Arab bahori”dan keyingi eng muhim amaliy natijalardan biri islom rolining va diniy harakatlarning avj olganligini kuzatishimiz mumkin. Bunda ikki holat ko‘zga tashlanadi:

Birinchidan, Misrdagi singari diniy ekstremistik tashkilotlar va hukumat qo‘sishnlari o‘rtasidagi kurash emas, aksincha, diniy va dunyoviy boshqaruv tarafdorlari o‘rtasida kurash yuz berdi. Bir qator G‘arb va milliy ekspertlar tomonidan inqilobiy chiqishlarda diniy tashkilotlarning faol ishtroki kutilgan bo‘lsa-da, lekin asosiy qarshilik kuchlari sifatida yosh misrlik sekulyarlar chiqishdi. Chiqishlarning kulminatsion nuqtasi 2013-yil Tahrir maydonidagi mashhur juma namozi vaqtida sodir bo‘lib, bunda duoni amalga oshirayotgan musulmonlarni politsiyadan qibtiy xristianlar himoya qilgan bo‘lsa, xris-

tianlarning yakshanba kunidagi duosini amalga oshirayotganlarida esa ularni musulmonlar himoya qilishgan. 2013-yil 3-iyulda M.Mursi prezidentlik lavozimidan chetlashtirilib, namoyishni bostirishda qurolli kuchlarni qo'llaganlikda ayblanib qamoqqa olindi. Natijada Misrning islomiy-boshqaruv shaklidagi hukumatiga qarshi millionlab norozilarning namoyishlari oqibatida ro'y bergan so'nggi harbiy davlat to'ntarishi dunyoviy (sekulyar) konstitutsionalizmni saqlab qolish imkonini berdi.

Ikkinchidan, islam dinining ikki oqimi sunniylar va shialar o'rtasida kurash kuchaydi, ya'ni Saudiya Arabistonni Qirolligi va Eron hamda ular tarafdorlari o'rtasidagi defakto kurash, 1979-yilgi Erondagi inqilobdan keyin Fors ko'rfazi davlatlariga nisbatan "shia ekspansiyasi" xavfi vujudga keldi. Tabiiyki, Saudiya Arabistonni tomonidan bunga muntazam to'sqinlik qilib kelinadi. Yaqin Sharqda shialar uchta davlat aholisining katta qismini tashkil etadi: Eron (80%), Iroq (60%) va Baxrayn (taxmanan 60%), shuningdek, Livan, Saudiya Arabistonni, Yaman, BAAda yirik shialar jamiyatlari mavjud.

Rossiyalik sharqshunos tadqiqotchi Boris Dolgov tahliliga ko'ra, Fors ko'rfazi arab monarxiyalari Liviya va Suriyada turli diniy radikal harakatlarni qo'llab-quvvatlamoqda. Taxminan Suriyada Saudiya Arabistonni 40 mingga yaqin muxolifat va radikal kuchlarni Pokiston lagerlari orqali tayyorlagani ayrim manbalarda keltiriladi.

Yaqin Sharqdagi terroristik tashkilotlardan biri "Iroq va Shom islom davlati" (IShID)dir. 2006-yil oktabrda Iroqda Al-Qoida terroristik guruhining bo'linmalaridan hisoblangan «Islomiy davlat» nomli guruh vujudga keldi. «Islomiy davlat» guruhi Suriyada «Jabhatun-Nusra» ekstremistik guruhi bilan qo'shilib, (IShID) terroristik guruhini tashkil etadi. Abu Bakr Bag'dodiy "xalifa" deb e'lon qilinadi.

2006-yil dekabrida Al-Qoida guruhining rahbari Ayman al-Zavohiri tomonidan bu ikki guruhning birlashishlari bekor qilinishi haqida buyruq beriladi. Ammo Abu Bakr Bag'dodiy ushbu jarayonni davom ettirib, IShID guruhini, ya'ni "Iroq va Shom islomiy davlati"ni

tashkil etdi. Bu guruh tashkil etilgandan so‘ng, Suriya va Iroq mamlakatlarida terroristik amaliyotlarni amalga oshirishni, qon to‘kish, qotilliklar, aholi yashaydigan uy-joylarni vayronalarga va xarobalariga aylantirishni o‘z oldiga maqsad qilib oldi. Hozirda ushbu fojeali va qo‘rinchli amaliyotlarni vahshiylarcha amalga oshirishmoqda.

IShID qurollangan terroristik guruh bo‘lib, bu guruh salafiylik jihodi, ya’ni ekstremistik g‘oyalar va qarashlar bilan yo‘g‘rilgandir. IShID guruhi asoschilarining maqsadlari «Islomiy xalifalik va shariat ijrosi» nomini qaytadan tiklashdir. Ushbu maqsadlariga yetishlari uchun o‘zlariga Iroq va Suriya yurtlarini tanlab olib, ushbu mamlakatni terroristik amaliyot o‘tkazadigan maydonga aylantirishdi.

Bugungi kunda ba’zilar ularning tahdidi tufayli, ayrimlar esa turli aldonlar sababidan ularning so‘zlariga ishonib, guruh faoliyatlarini qo‘llab-quvvatlamoqdalar. Xususan, yoshlarimizni ularning g‘arazli g‘oyalaridan asramog‘imiz va ularning kirdikorlarini fosh qilishimiz muhim ishlardan hisoblanadi. Hozirda IShID poytaxti Raqqa shahri hisoblangan davlat sifat tuzilmani tashkil etib, keng ko‘lamli harbiy va mafkuraviy kurashni amalga oshirmoqda. Hozirda tashkilot 7–8 million aholi yashaydigan hudud ustidan nazorat o‘rnatgan.

• Qurolli nizolarning davom etayotganligi va qochoqlar muammosi– Yaman va Suriyadagi inqirozlar.

Yamanda Eron tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan xusiyalar (“Ansor Alloh”) guruhi 2014–2015-yillarda asta sekin Yaman o‘z ta’sir doiralarini kengaytirishga erishdilar. 2015-yil 21-mart kuni Xusiyarning Oliy inqilobi kengashi Yamanda hukumat ag‘darilganini e‘lon qildi. Xusiyarning bunday harakatiga qarshi Saudiya Arabiston chegara tomon o‘z qo‘sishinlarini joylashtirdi. Xusiyalar yetakchisi Muhammad al-Xuti Saudiya Arabiston tomonidan amalga oshiriladigan har qarday agressiyaga javob qaytarish bilan ogohlantirildi.

2015-yil 25-mart kuni Yaman prezidenti Abd Rabbux Mansur Xodi Saudiya Arabistonidan mamlakatga qo‘sishin olib kirishini so‘rab murojaat qildi. Jami o‘nta davlatdan iborat koalitsiya tashkil etildi. Saudiya Arabiston 100 ta harbiy samolyot va 150 ming qo‘sishin ajratgan bo‘lsa, Birlashgan Arab Amirliklari (30 ta), Kuvayt (15

ta), Baxrayn (15 ta), Qatar (10 ta), Iordaniya (6 ta) harbiy samolyot) ajrattdi. Misr va Pokiston ham koalitsiyaga jalb etildi. Shuningdek Marokash, Iordaniya, Sudan samolyotlari ham harbiy operatsiyalarida ishtirok etdi. Harbiy operatsiya “*Decisive Storm*” deb nomlandi. 2016-yil 11-apreldan boshlab, tinchlik sulxi amal qilinmoqda.

- Mintaqada tashqi kuchlarning faollahuvi, an'anaviy aktor sifatida AQSHning mavjudligi, Suriya masalasida Rossiyaning aralashuvi va Xitoyning ilk bora 2016-yil martdan Suriya bo'yicha maxsus va-kilining joriy etilishi, Britaniya va Fransiyaning turli tashabbuslari (Liviya, Suriya bo'yicha).

AQSHlik siyosatshunos G.Kissenjer e'tiroficha, tashqi kuchlar bugungi kunda Yaqin Sharq mintaqasi o'z strategiyalarini yoki “Sovuq urush” yoki undan keyingi davrdagidek aniq shakllantirib olishlari kerak. “Sovuq urush” davomida mintaqa yetakchi kuchlarning to‘g'ridan-to‘g'ri musobaqasi bo‘ladigan yagona mintaqa emas edi. NATO-Varshava o'rtasidagi kelishmovchiliklar, Korea va Vyetnam urushlari, Ikkinchili alyans dunyo tinchligiga xavf tug'diruvchi mar-kazlar edi. 1990-yillardan keyin Rossiya, Xitoy, Amerika Qo'shma Shtatlari va ko'plab Yevropa xalqlari Yaqin Sharqqa nisbatan zero-sum prinsipi asosida yondashishdi.

Yaqin Sharq mintaqasi AQSH tashqi siyosati strategik ahamiyat kasb etuvchi mintaqalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda AQSHning demokratlashtirish va xalqaro terrorizmga qarshi kurash siyosatining aksariyat qismi mazkur mintaqada amalga oshirilayotganini kuzatishimiz mumkin. Buning geografik va strategik jihatdan Yaqin Sharq chegarasini aniqlab olish dolzarb sanaladi. AQSHning mintaqadagi manfaatlari shakllanishi Ikkinchili jahon urushidan so'ng faollasha boshladi va mintaqada bir qator geoijtisodiy va geosiyo-siy manfaatlar majmuasi mavjud bo'lib, ularni ta'minlash maqsadida bir qator strategiyalarni amalga oshirib kelayotganligini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, AQSHni Yaqin Sharqning asosiy ta'sir zonasini sifatida baholashi bir tomonidan Yaqin Sharq mintaqasining geosiyo-siy holati, uning geostrategik jihatlariga ham bog'liqdir.

2001-yil 11-sentabr voqealaridan so'ng, AQSHning Yaqin Sharqdagi siyosatining faollahganini, demokratlashtirish jarayonlarini

jadallashtirishga intilishi sezilarli davrajada oshganligini kuzatish mumkin. Bu o'rinda AQSH tashqi siyosatida asosiy jihat sifatida quydagilarni keltirish mumkin:

birinchidan, Yaqin Sharqdagi milliy manfaatlarni ta'minlashni yanada kuchaytirish;

ikkinchidan, arab-musulmon olamiga demokratiyani olib kirish, demokratik institularning shakllantirishga ko'maklashish;

uchinchidan, Isroil xavfsizligini ta'minlash, xavfsizlik tizimini qayta ko'rib chiqish. Asosan Eron va Iraq doirasida;

to'rtinchidan, mintaqada ommaviy qirg'in qurollarining yoyilishi-ga yo'l qo'ymaslik va terrorizmga qarshi kurashish;

beshinchidan, Isroil-Falastin masalasini tinchlik muzokaralar yo'li bilan hal etishga urinish.

Bundan tashqari, taniqli siyosatshunos Genri Kissendjera fikriga ko'ra, butun Yaqin Sharqda amerkacha mehanizim ta'siri quydagicha 3 ta asosda ko'rildi: 1) hududiy kuchlar muvozana-tini tutib turish; 2) neftni muayyan tartibda yetkazib berishni ta'minlash; 3) Amerikaga tahdid solayotgan musulmon guruhlarini tor - mor etish.

AQSH Yaqin Sharqda bevosita eng yaqin ittifoqdoshlari Buyuk Britaniya va Fransiya bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi. So'nggi tendensiyalar shuni ko'rsatadiki, bir qator masalalarda tomonlarning o'zaro qarashlari mos tushmoqda. Masalan, Yaman masalasida AQSH va Yevropadagi hamkorlar Saudiya Arabistonini qo'llab-quvvatlashdi. Shuningdek, ISHIDga qarshi AQSH boshchiligidagi koalitsiyaga Buyuk Britaniya 2014-yilda kuzda qo'shilgan bo'lsa, Fransianing qo'shilishi 2015-yil kuziga to'g'ri keldi. Bundan tashqari, 2016-yil 13-aprelda Suriyada parlament saylovleri o'tkazildi va bu AQSH, Buyuk Britaniya va Fransiya tomonidan haqiqiy emas deb topilib, saylovlar faqat Suriyaning yangi konstitutsiyasi qabul qilingandan keyingina o'tkazilishi mumkin deb hisoblashmoqda.

Bundan tashqari 2016-yil 29-fevralda NATO va Kuvayt o'rtasida amirlik hududidan tashkilotning qo'shinlari va texnikalarini transit qilish borasida shartnoma imzolandi. Mazkur shartnoma arab monarxiyalari ichida birinchi hisoblanadi. 2016-yil 6-martda esa

Fransiya va Misr O'tra Yer dengizida "Ramzes-2016" harbiy o'quv mashg'ulotlarini boshlashdi.

Yaqin Sharqning Rossiya tashqi siyosatidagi ahamiyati, mintaqadagi manfaatlari va olib borayotgan siyosatini umumlashtirgan holda, AQSH Xeritej Jamg'armasi (The Heritage Foundation)ning taniqli eksperti A.Koen ta'kidlaganidek, Rossiyaning Yaqin Sharq siyosati borasida quyidagicha xulosa qilish mumkin:

Birinchidan, Yaqin Sharq monarxiyalari va Erondagagi islom dini yetakchilarini qabul qilishi bilan Rossiyaning G'arbning xalqaro siyosiy vaziyatidan ajralishini ko'rsatadi. Shuningdek, Rossiya G'arbning Yaqin Sharqdagagi demokratiya va inson huquqlari borasidagi yondashuvlarini rad etdi.

Ikkinchidan, Rossiya Yaqin Sharqda, avvalo, Britaniya, so'ngra AQSH mavjudligiga qarshilik qiluvchi sobiq ittifoq modelidan bormoqda.

Uchinchidan, Rossiya rahbarlari mamlakatda musulmon diniga e'tiqod qiluvchi aholi orasida tug'ilish nisbatining ortishi va aksincha, slavyan xristiyanlari soni kamayib borishidan havotirda. Ularning Yaqin Sharq davlatlari tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga yo'l qo'ymaslik Kremlning Yaqin Sharq siyosati kun tartibidan muhim o'rinni olgan deyish mumkin.

To'rtinchidan, OPEKdan tashqari, Rossiya eng yirik gaz va neft ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi davlat hisoblanadi. Jahon energiya bozorida narxlarning muvozanatini barqarorlashtirishda mintaqadavlatlar bilan OPEK doirasida hamkorlikni mustahkamlash muhim ahamiyatga ega.

Beshinchidan, Yaqin Sharq nizolarga boy hudud bo'lib, bu Rossiya uchun quroq bozori geografiyasini va eksport hajmini yanada oshirishga xizmat qilishi mumkin. Rossiya quroq va yadroviy reaktorlarini Germaniyaning XIX asrda temir yo'l qurishi loyihasi singari Yaqin Sharqdagagi ta'sir etish vositalaridan biriga aylanishi tarafidordir, deb xulosa qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Yaqin Sharqda strategik muvozanatning shakllanishi mintaqaning geosiyosiy holati, mintqa davlatlarining o'z xavfsizlik muhitlarini qay darajada anglay olishlari hamda min-

taqa doirasidagi va tashqarisidagi yetakchi davlatlar bilan qanday siyosat olib borishlariga bog‘liq. Shuningdek mintaqalari orasida nizolarga qarshi birgalikda kurashish uchun mufoviqlashtirish markazlari mavjud bo‘lsa-da, mintaqada to‘liq tinchlikni ta’minlab bo‘lmaydi.

Nazorat savol va topshiriqlar

1. Jahon xaritasida Arab davlatlarining siyosiy-geografik holatini tavsiflab bering.
2. Arab davlatlari tashqi siyosat konsepsiysi asosiy o‘lchamlari tushunchasiga ta’rif bering.
3. Fors ko‘rfazi arab davlatlari xavfsizlik tizimi masalalari haqida aytib bering.
4. Saudiya Arabiston Podshohligining AQSH va Yevropa davlatlari bilan munosabatlari nimadan iborat ?
5. Bugungi kunda AQSHning Iroqdagi harbiy amaliyotlariga SAP va boshqa arab davlatlarining munosabatlari qanday?
6. FKADH davlatlarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga tavsif bering.
7. Fors ko‘rfazi arab davlatlari hamkorlik kengashidan “Fors ko‘rfazi arab davlatlari Ittifoqi”ga aylanish istiqbollari haqida ma’lumot bering.
8. Saudiya Arabistonidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga umumiy tavsif bering.
9. Yamanning FKADHKga a’zoligi muammolari nimadan iborat ?
10. “Hozirgi davrda SAP” mavzusida prezentsiya tayyorlang.
11. “FKADHK davlatlarida islom omili” mavzusini muhokama eting.
12. Eron Islom Respublikasining FKADHK davlatlari bilan o‘zaro munosabatlari haqida ma’lumot bering.
13. Fors ko‘rfazi davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga tavsif bering.
14. BAAning jahon hamjamiyatidagi o‘rniga baho bering.
15. Zamonaviy bosqichda Saudiya Arabiston – Eron munosabatlari qanday?

Mustaqil ish savollari

1. Zamonaviy bosqichda Yaqin Sharq davlatlarida yuz berayotgan rivojlanish jarayonlariga tavsif bering.
2. “FKADHK - Yevropa Ittifoqi davlatlari munosabatlari” mavzusida nutq tayyorlang.
3. Yevropa Ittifoqi tashqi siyosatida Yaqin Sharq davlatlari to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plang.
4. SAP tashqi siyosatida Yaqin Sharq muammosini yoritib bering.
5. Qatar tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlari.
6. Quvaytning ADLdagи siyosati.
7. “Yaqin Sharq davlatlari va jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi” mavzusida doklad tayyorlang.
8. Qirol Salmon bin Abdulaziz davrida SAPdagи ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.
9. XXI asrda Arab Davlatlari Ligasi: yutuq va muammolari mavzusida prezentatsiya tayyorlang.
10. AQSH tashqi siyosatida Yaqin Sharq davlatlari.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Kathy Pain. Changing Urban and Regional Relations in a Globalizing World. – USA, 2014. – 248p.
2. TimoBehr., JuhaJokela. Regionalism and global governance: the emerging agenda. –Notre Europe, 2011. – 67 p.
3. Rouben Azizian, Carleton Cramer. Regionalism, security and cooperation in Oceania. – USA: APCSS, 2015. – 172 p.

Qo‘srimcha adabiyotlar

- 1.Барыгин И. Н. Международное регионоведение. – СПб.: Питер,2016, 384 с.
2. Мұхаммадсидиков М.М. Замонавий халқаро муносабаттарнинг минтақавий жиҳатлари (ўқув қўлланма) –Т.: ТошДШИ, 2013, 182 б.

3.Мұхаммадсидиқов М.М. Хорижий Шарқ ва Ғарб мamlakatlariда ижтимоий-сиёсий жараёнлар (ўқув қўлланма). –Т: ТошДШИ, 2013, 160 б.

4. Muhammadsidiqov M.M. Sharq mamlakatlari xalqaro munosabatlari (o‘quv qo‘llanma). – T.: ToshDSHI, 2017, 240 b.

11-BOB. AFRIKA MINTAQASINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Darsning maqsadi:

- talabalarda Afrika mintaqasining xususiyatlari to‘g‘risida tushuncha shakllantirish;
- talabalarda Afrika mintaqasidagi siyosiy vaziyat yuzasidan tushunchalarni shakllantirish;
- yoshlar orasida sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirish;
- talabalar Afrika davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar borasida tasavvur hosil qilishlariga ko‘maklashish;
- talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo‘llashni o‘rgatish;
- talabalarga Afrika davlatlarida ijtimoiy-siyosiy jarayonlari borasidagi to‘la ma’lumotlarni yetkazish hamda ushbu jarayonlarning o‘ziga xos jihatlarini singdirish;
- talabalarda davlatni har tomonlama rivojlantirish jarayonida o‘ta muhim, o‘ziga xos rol o‘ynovchi tashqi siyosat va uning maqsadlarini amalga oshirishda muhim omil hisoblangan xalqaro muzokalar bo‘yicha nazariy bilim va amaliy mahoratni shakllantirish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: *Afrika Ittifoqi, Afrika Birligi Tashkiloti, xalqaro nizolar, hududiy mojarolar, NEPAD, Addis-Abeba, Gambiya, Zair, Kod-d’Iuar, Niger, Ruanda, Serra-Leone, Durban.*

11.1. Afrika mintaqasining o‘ziga xos xususiyatlari

Hozirgi vaqtida Afrika jahon hamjamiyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur “uyg‘onayotgan qit‘a” oldida bir qator murakkab geosiyosiy muammolar mavjud bo‘lib, ularning ayrimlari uzoq, ko‘p asrli tarixga ega, masalan, mustamlakachilik, ish savdosi va hokazo. Ayrimlari yaqinda paydo bo‘ldi yoki kuchayib ketdi va bu jarayon nisbatan kichik davrni o‘z ichiga oladi, chunki SSSRning parchalanib ketishi bilan jahon geosiyosiy kuchlarining muvozanati o‘zgardi, bu esa shak-shubhasiz, mazkur qit‘adagi hayotning ijti-

moiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy sohalarida namoyon bo'ldi. Afrika xalqlari nisbatan kechroq siyosiy mustaqillikka erishishdi, biroq iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ularning ko'pchiligi hamon haqiqiy ijobiy o'zgarishlarni his etishganlaricha yo'q.

Afrika mamlakatlari mustamlakachilik zulmidan xalos bo'lgach, ularning ko'pchiligidagi G'arb, xususan, AQSHning ijtimoiy institutlari, huquq etalonlari oriyentatsiyasi va vesternizatsiya (g'arblashtirish) konsepsiysi qo'llab-quvvatlanmadidi. Biroq bir vaqtning o'zida Afrikaning Yevrosiyoga, xususan Sobiq Sovet Ittifoqiga bo'lgan geosiyosiy moyillik g'oyasi ham keng taraqqiy etmadidi.

Afrika – sayyoraning eng nizoli geosiyosiy nuqtasi degan nom ay-niqla XX asrning so'nggi choragida tobora mustahkamlandi. So'nggi o'n yil mobaynida qit'ada 35 ta yirik qurolli nizolar sodir bo'lganligi qayd etilgan bo'lib, ularda o'n milliondan ortiq kishi vafot etgan, shulardan 90 foizini – shahar aholisi tashkil etadi. Jahondagi qochoqlar sonining qariyb yarmi, (turli baholarga ko'ra – 7 mln. kishidan 10 mln. kishigacha) hamda ko'chirilgan shaxslarning 60 foizi (qariyb 20 mln. kishi) aynan shu qit'ada yashaydi. Jahon miqyosida bolalar o'limi ko'rsatkichi qit'ada eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi: yiliga 8 mln. kishi⁹⁷.

Bu turli konfliktogen, ya'ni ixtilofli omillar: etnik va qabilaviy qarama-qarshiliklar, konfessional kelishmovchiliklar, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy xarakterdagи ziddiyatlar va boshqalarning murakkab chigallashuvi bilan izohlanadi. Ayniqla G'arbda, ba'zida Afrikaning rivojlanishini siyqa chizmaga keltingan va bu muammoni sezilarli darrada ko'pgina ishlar soddalashtiradi. Bu haqda S.Xantington shunday yozadi: "Siyosatga massanening kirib kelishi keskinlikning yuzaga kelтирди, бу esa siyosiy beqarorlik natijasida rivojlanish uchun xavf-xatar tug'dirishi mumkin".

Afrika geosiyosiy holatining tahlili mavjud bo'lgan biror-bir chuqur izlanmalar (ishlar) SSSR, Rossiya, G'arb mamlakatlari, Afrikaning o'zidagi ilmiy adabiyotlarda deyarli mavjud emas. Geosiyosat va siyosatshunoslikning alohida yo'naliishlarini anglab yetishga bo'lgan intilishlar mavjud:

⁹⁷ Российские стратегические исследования. – М., 2002, 118 с.

- XX asrning oxirlarida Afrika mamlakatlarining ijtimoiy-siyosiy rivojlanish yo'llarini tanlash muammolarini o'rganish;
- qit'a hayotida diktatorlik tartibi va armiyaning roli;
- diniy omilning ma'naviy-siyosiy roli;
- madaniyat va jamiyat – an'anaviylik va zamonaviylik sintezi;
- XXI asrda Afrikaning geosiyosiy rivojlanish istiqbollari.

XX asrning 90-yillari boshida Namibiyada “Afrika mustaqilligining 30-yilligi: yakunlar va istiqbollar” nomli konferensiya o'tkazilib, unda umumlashtiruvchi xulosa sifatida 30-yillik mustaqillik qit'aga na demokratiya, na taraqqiyot keltirgani, balki iqtisodiy va siyosiy tanglikni yanada chuqurlashtirib yuborgani, ya'ni mazkur “orol” geosiyosiy jihatdan G'arbiy Yevropa mamlakatlari va AQSHga bog'lanib qolgani aytib o'tildi. SSSR va sotsialistik lager mamlakatlari tugatilganidan so'ng yuzaga kelgan yangi geosiyosiy holat, jahon kuchlar balansidagi (muvozanat) geosiyosiy bo'linishga qo'shimcha salbiy ta'sir qoldirdi.

Hozirgi zamон Afrika mamlakatlari turli ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishga ega. Shu bilan birga, ijtimoiy yo'naltirilganlik va ijtimoiy rivojlanish darajasiga bog'liq bo'Imagan holda, asriy qoloqlikni tugatish, o'zining ijtimoiy suvereniteti, iqtisodiy mustaqilligi, ijtimoiy jarayonlarini mustahkamlash, yer osti, inson va moliyaviy resurslariga egalik qilish uchun kurash Afrika mamlakatlarining umumiylar xarakterli jihatni hisoblanadi.

Afrika yuzlab yillar mobaynida fuqarolik urushlari va harbiy nizolarga aylanib ketadigan etnik qarama-qarshiliklarni boshidan kechirib kelmoqda.

Ulardan eng qirg'inligi 1994-yilda Ruandada boshlandi va qariyb ikki yil davom etdi. Hokimiyat qo'l ostida bo'lgan, radikal kayfiyat-dagi xutu xalqi vakillaridan tashkil topgan hukumat tutsi “dushman” xalqining ommaviy yo'q qilinishini tashkil etgan holda, milliy masalani butunlay “yopish”ga qaror qildi hamda 1 mln. dan ortiq kishini qirib tashladи⁹⁸. “Buni faqat irqchilarning fashistlar Germaniya-

⁹⁸ Мұхаммадсидиков М.М. Африка – геостратегик аҳамиятига молик китъя // Шарқшунослик (ТошДШИ). 2007, № 2, 109 б.

sidagi yoki “qizil kxmerlar”ning Kambodjadagi xatti-harakatlari bilan taqqoslash mumkin”, – deydi rossiyalik siyosatshunos Nartov⁹⁹.

2003-yilning iyul oyi o‘rtalaridan boshlab, olmos, temir rудаси, каучукка boy bo‘lgan G‘arbiy Afrika mamlakati hisoblangan Liberiyada har kuni yuzlab kishilarning hayotiga zomin bo‘lgan fuqarolar urushi boshlandi. Qo‘zg‘olonchilar va prezident qo‘s Shinlari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar mamlakat poytaxti – Monroviyada yuz berdi. Biroq mahalliy nizolar Markaziy va Sharqiy Afrika mamlakatlari–Angola, Efiopiya, Sudan, Kongo, Nigeriya, Zimbabve, Somali, Mozambik, Serra-Leone, Chadda hali-hanuz tinchiganicha yo‘q.

Chad Respublikasidagi fuqarolar urushi, qo‘sni Sudandagi kabi, 1960-yillardan boshlab qisqa tanaffuslar bilan davom etib kelmoqda. Isyonchilar erkin ravishda bir mamlakatdan boshqasiga ko‘chib yurishmoqda. Ikkala mamlakatdagi ko‘pgina qo‘zg‘olonchilarga qayerda urush qilishning farqi yo‘q. Ular uchun ushbu hudud avlod-ajdodlarinikidir. Ularga pul, suv, oziq-ovqat, mollar uchun yaylov, qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirish uchun yaroqli yer lozim. Bundan tashqari, Chadning janubiy tumanlari va Sudanda neft topildi. Mamlakatga keladigan valyuta tushumlarining ushbu yagona manbai so‘nggi vaqtida keskinlikning qo‘s himcha omiliga aylandi.

Afrikada separatizmning asosiy o‘choqlari aniqlangan neft zaxiralari mavjud hududlarga to‘g‘ri keladi. Mazkur energiya tashuvchisiga boy bo‘lgan Eritreya Efiopiyadan ajralib chiqdi. Nigeriyada dengizga quyiladigan joyda mahalliy qabilalar neft platformalariga hujumlar uyuştirishmoqda va qora oltinni qazib olishdan olinadigan daromadning nazoratini talab qilishmoqda.

Sanab o‘tilgan hamda boshqa ijtimoiy “yaralar” qurollanish va harbiy nizolar borasidagi poygani keskinlashtirdi. Masalan, qit‘a mamlakatlariga yillik xorijiy yordam 11 milliard AQSH dollarini tashkil etsa, qurollanish va harbiylarni saqlash xarajatlari esa 12 milliard AQSH dollaridan oshib ketadi. Aslida, harbiy to‘qnashuvlar va hatto urushlar deyarli to‘xtamayotgan Efiopiya, Angola, Zair milliy halokat

⁹⁹ Нартов Н.А., Нартов В.Н. Геополитика. – М.: ЮНИТИ-ДАНА: Единство, 2007, 527 с.

chegarasida turishibdi. Shunday qilib, Efiopiya va Eritreya bir-birliga qarshilik ko'rsatayotgan bo'lsalar, UNITA harbiy guruhi Angolada suv va havo chegaralarini o'z ichiga olgan holda, hududning sezilarli qismini nazorat qilmoqda. Harbiy to'qnashuvlar Mozambik, Sudan, Somali va boshqa ba'zi mamlakatlarda sodir bo'lmoqda. Milliy iqtisodiyotlarning zaifligi to'qnashuvlarning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Zairlik, professor Jorj Nzongola Ntalajaning so'zlariga qaraganda, AQSH, Fransiya va Belgiya Zair iqtisodiyoti tanazzulining aybdorlari bo'lib, uning fikriga ko'ra, mazkur qudratli mamlakatlar ushbu mamlakatda "xalq manfaatlariga qaraganda, faqat shaxsiy boyish to'g'risida ko'proq g'amxo'rlik qilgan boshqaruvchi qo'g'irchoq to'dalarning manfaatlari doirasida" harakat qilishgan¹⁰⁰.

G'arb mamlakatlarining "tinchlik o'rnatuvchi" kuchlari fuqarolar urushining avj olishiga o'z "hissa"larini qo'shishmoqda. Masa-lan, Chadda "asosan qo'zg'olonlar bo'yicha ogohlantiruvchi zARBalar beruvchi jangovor texnika, vertolyotlar, samolyotlarga ega xorijiy legiondagi 1,5 mingga yaqin fransuz soldatlari" joylashgan.

Shu va boshqa sabablar tufayli, ko'pgina amerikalik yetakchilar Fransiya sobiq ichki ishlar vaziri N.Sarkozining Senegal, Mali va boshqa mamlakatlarga bo'lgan tashrifini xusumatli tarzda kutib olishdi. Parlament deputatlari Malida uni "toza suvning ig'vegari" sifatida baholab, "tashrifning bekor qilinishi"ni talab qilishdi. Senegalning sobiq prezidenti Abdulay Vad "Fransiyaning Afrika siyosati"ni qattiq tanqid ostiga oldi.

Shimoli-sharqiy Afrika mintaqasining geostrategik mavqeyi uning xalqaro dengiz kommunikatsiyasini bog'lab turgan Qizil dengiz sohillarida joylashganligi bilan belgilanadi. Qizil dengiz Shimoldan Su-vaysh va Aqaba portlaridan Janubdag'i Bab al-mandab bo'g'ozigacha cho'ziladi¹⁰¹. Bab al-mandab bo'g'ozi Qizil dengizning janubiy darvozasi va bu bo'g'oz Qizil dengizning janubdag'i eng tor nuqtasi

¹⁰⁰ Смиридовна С. Крепнущий голос Франкфонии // Ж. Азия и Африка сегодня. 2003, №5, 31 с.

¹⁰¹ The World Book Encyclopedia. Chicago, London, Sydney, Toronto. – United States of America, 1994. Vol. 16, 191 p.

hisoblanib, juda muhim strategik mavqega ega. Mazkur bo‘g‘oz jannubdan Adan ko‘rfazi bilan so‘ngra Hind okeani bilan bog‘lanadi. Bab al-mandab – Qizil dengiz – Suvaysh yo‘li Arabiston yarim oroli va Fors ko‘rfazi neftini G‘arbiy Osiyo, G‘arbiy Yevropa va Amerika qit’asiga eksport qilish uchun xalqaro dengiz qatnovini amalga oshiruvchi asosiy yo‘l hisoblanadi. Ana shu vaziyat mazkur mintaqaning strategik ahamiyatini belgilovchi omillardan sanaladi. Har kuni ushbu bo‘g‘ozdan o‘nlab neft tankerlari, savdo va harbiy kemalar qatnaydi. Shu bilan birga, Qizil dengiz, Arab Mashrig‘i va Mag‘ribini bog‘lab turuvchi eng qulay va qisqa dengiz yo‘lidir. Bab al-mandab bo‘g‘oziga kirib-chiqayotgan barcha kemalar Yaman, Jibuti va Somali qirg‘oqlaridan albatta o‘tadi. Shuning uchun bu mintaqaning xalqaro ahamiyati ham katta.

Jahon mamlakatlarining kundalik faoliyatlarida ham xalqaro savdo-sotiqlik, eksport-import ishlarini amalga oshiruvchi kemalari va harbiy dengiz kuchlarini Suvaysh-Qizil dengiz yo‘nalishi bo‘ylab harakatlanishida mazkur dengiz va kanaldan unumli foydalanadilar. Ushbu dengiz kommunikatsiya yo‘li Shimoli-sharqiy Afrika mintaqasidagi Sudan, Jibuti, Eritreya va Efiopiya kabi davlatlar uchun yagona dengiz yo‘li, shuningdek, MAR, Yaman Respublikasi va Isroil uchun muhim dengiz yo‘li bo‘lib xizmat qiladi.

Albatta, ushbu mintaqalarda joylashgan orollar ham mazkur ikki mintaqaga egalik qilishda muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun, hozirgi vaqtida Isroil davlati Eritreya orqali Qizil dengiz mintaqasidagi muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan Xanish orollariga o‘z ta’sirini o‘tkazishga intilmoqda.

Mintaqa xalqlari qadimdan savdo-sotiqlik bilan shug‘ullanganliklari sababli bu mintaqaga Osiyo bilan Yevropani bog‘lab turuvchi dengiz transport yo‘liga aylandi.

XX asrning 50-yillaridan boshlab, Suvaysh kanali Fors ko‘rfazidan Yevropa va Shimoliy Amerikaga neft transportirovkasini amalga oshiriladigan dengiz kommunikatsiyasining asosiy qismlaridan hisoblanadi.

Ma’lumki, hozirgi vaqtida mintaqaga xavfsizligini ta’minlash–mintaqaga davlatlari oldida turgan dolzarb masala hisoblanadi. Ammo

buyuk davlatlar neftga bo‘lgan o‘z ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, mintaqqa davlatlariga ta’sir ko‘rsatishning turli vositalaridan foydalanishga harakat qiladilar. Shu sababli, buyuk davlatlar manfaatlarining neft tankerlari harakatlanadigan hudud, ya’ni mintaqqa xavfsizligiga bog‘liqligi natijasida uning ahamiyati yana ham ortishi mumkin. Massalan, ikkinchi Fors ko‘rfazi urushi paytida (1998–1999-yillar) neft eksport qiluvchi arab mamlakatlari o‘z neftini himoya qilish, uning xavfsizligini ta’minalash hamda importyor davlatlarga yetkazib berishga qodir emasliklari namoyon bo‘ldi. O‘z navbatida G‘arb mamlakatlari, ya’ni neft iste’molchilari uni himoya etishga qodir ekanliklarini ko‘rsatdilar.

Mintaqaning strategik ahamiyati ko‘p jihatdan neft omiliga bog‘liq bo‘lib, FKADHK mamlakatlarida ishlab chiqariladigan nefstning ko‘p qismi Fors ko‘rfazidan Xormuz bo‘g‘ozni orqali Ummon ko‘rfaziga va undan Adan ko‘rfaziga, u yerdan Suvaysh kanali bilan O‘rta Yer dengizi va Yevropaga yetib boradi. Shuning uchun, Qizil dengiz yo‘l xarajatlarini arzon tushishi va vaqtadan yutish jihatidan juda muhim o‘rin tutadi.

Suvaysh dengiz yo‘li harbiy-strategik jihatdan katta ahamiyatga egadir. 1990–1991-yillarda Quvaytni Iroq bosqinidan ozod etish operatsiyalari davomida va keyinchalik Afg‘onistonidagi xalqaro terrorizm bazalariga qarshi aksilterror kuchlarning mintaqaga olib kirilishi hamda 2003-yilning boshida AQSH va Buyuk Britaniya boshchiligidagi ittifoqdosh kuchlarning Iroqdagi Saddam Xusayn tuzumini ag‘darib tashlash maqsadida olib borgan harbiy operatsiyalari davomida AQSH, Yevropa va jahonning bir qancha mamlakatlaridan harbiy kuchlar, harbiy texnika va turli uskunalar asosan Atlantika okeani – O‘rta Yer dengizi – Suvaysh kanali orqali Hind okeani va Fors ko‘rfaziga olib o‘tildi. Harbiy kuchlarni Iroqqa safarbar qilishda, urushdan so‘ng vaziyatni barqarorlashtirish va tinchlik o‘rnatish hamda Suvaysh yo‘nalishi bo‘ylab Fors ko‘rfazi sari Iroq xalqiga insonparvarlik yordamini ko‘rsatish uchun zaruriy ashyolar ortilgan kemalar harakatlanishini ta’minalash maqsadida hozirgi vaqtda ham Qizil dengizdan keng foydalanimoqda. Albatta, kemalar qatnovidan Shimoli-sharqiy Afrikada joylashgan barcha davlatlar manfaatdordir.

Xulosa qilib aytganda, Afrika nizolari qit'ani beqaror vaziyatda ushlab turibdi. Nizolar kelib chiqish omillari turli xil bo'lib, bizning fikrimizcha, asosiy dominant iqtisodiy-ijtimoiy qoloqlik ekanligi ma'lum bo'lmoqda. Qit'a davlatlarining past sur'atlarda rivojlanish jarayoni uzoq vaqt saqlanib qolishi mumkin. Bu esa, qit'adagi vaziyatni yanada uzoqroqqa suradi. Muammolarni global darajadagi ta'siri oshmasligi uchun nizolarni xalqaro miqyosda hal qilish lozim. Bu – dunyo yetakchi davlatlarining bir maqsad yo'lida birlashtirishga ham bog'liqdir.

11.2. Afrika qit'asi mojarolarining genezisi va qit'adagi gumanitar muammolar

Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi dunyoda tinchlikni, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, insoniyatga bo'ladigan har qanday tahdid va chaqiriqlarga qarshi hamjihatlik asosida kurashishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi.

Shu bois, Afrikadagi nizo va qarama-qarshiliklar nafaqat Afrika qit'asini, balki dunyo xavfsizligini ta'minlashga o'z ta'sirini ko'rsatayotganligi, butun dunyo hamjamiyati oldida turgan dolzarb muammolardan biridir.

Afrika nizolarining klassifikatsiyasini o'rganish va tahlil qilish ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki bu qit'ada insoniyat oldida turgan barcha global muammolar o'z ko'rinishiga ega. Shuning uchun ularni tashqi va ichki nizolarga bo'lgan holda o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Tashqi nizolarga qit'adagi davlatlarning bir-biri bilan nizolari, hududiy mojaro va bahslarini kiritishimiz mumkin.

Afrika qit'asida, XX asrning oxiri XXI asr boshlarida yuz bergen voqealar va siyosiy jarayonlar nafaqat qit'adagi davlatlarni, balki butun dunyo jamoatchiligi diqqat-e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi. Afrika qit'asi yer yuzi maydonining 6 foizini tashkil etib, Yevrosiyo qit'asidan so'ng ikkinchi o'rinni egal-laydi. Afrikaning umumiyligi maydoni 29,2 mln. km² bo'lib, yer yuzidagi quruqlikning 20,4 foizini tashkil etadi¹⁰². Afrika qit'asi aholisi soni

¹⁰² Мухаммадсидиков М.М. Африка–конфликтная геополитическая

1 milliardga yaqin bo‘lib, qit’alar orasida yuqori o‘rinni egallaydi. Afrika qit’asida 55 ta davlat mavjud va ulardan 5 tasi tan olinmagan davlatlar va 5 tasi tobe hududlar (orollar) hisoblanadi.

Xalqaro hamjamiyatning tarkibiy qismi bo‘lgan Afrika qit’asi turli ko‘rinishdagi bir necha asr tarixga ega geosiyosiy muammolar-dan, masalan, mustamlakachilik, qulchilik va boshqalar mintaqadagi barqarorlikni yo‘lga qo‘yish uchun asosiy tahdid solgan omillardan biri sifatida namoyon bo‘lgan. SSSRning parchalanishi bilan dunyo-dagi geosiyosiy kuchlar balansi birmuncha o‘zgarib, Afrika qit’asida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalar o‘zgarishlarga uchradi.

Hozirgi vaqtida Afrika qit’asi olimlar tomonidan geosiyosiy nizo-lar maydoni sifatida ta’kidlanmoqda. Chunki so‘nggi 400-yil ichida qit’adagi barqarorlik darajasi juda ham past ko‘rsatkichlarni namoyon etib, buni qit’adagi 10 mln.ga yaqin tinch aholining qirilib ketishiga olib kelgan 35 ta katta harbiy nizolar bilan ta’kidlash mumkin. Dun-yodagi qochoqlardan taxminan 7 – 10 millioni qit’adagi aholi soniga to‘g‘ri keladi va qit’ aholisining taxminan 60 foizini ko‘chib kelgan muhojirlar tashkil etadi.

Afrika qit’asining AQSH va G‘arbiy Yevropa davlatlaridan, trans-milliy korporatsiyalar va xalqaro moliyaviy markazlardan siyosiy va iqtisodiy tobeklik darajasining yuqoriligi, doimo global ijtimoiy muammolar: ochlik, qashshoqlik, savodsizlik, xalqlarning siyosiy va umumiyl madaniyatining pastligi, kuchli siyosiy va iqtisodiy inqiroz, xalqlar va dinlar o‘rtasidagi tushunmovchiliklar kelib chiqishiga olib kelmoqda.

Zamonaviy Afrika siyosiy planda asosan, avtoritar tuzumdag‘i davlatlardan tashkil topgan. Avtoritar tuzumdag‘i davlatlarning paydo bo‘lishiga asosiy sabab sifatida kapitalizm va sotsializm tizimlarining qit’adagi ta’sirini kuchaytirish uchun olib borgan harakatlari tushuni-ladi. O‘ttiz yil mobaynida bu ikki tizim uchun Afrika kurash maydoni bo‘lib keldi. Bu tizimlar Afrika qit’asi davlatlaridagi diktatorlarni o‘z manfaatlariga erishish yo‘lida moliyaviy tomonidan ta’minlab

kelgan. Avtoritar tuzumdagи xalqlar diktatorlarga bo‘ysunib, siyosat va geosiyosatning subyekti emas, balki obyekti sifatida namoyon bo‘lganlar. Aynan mana shu sabablar 1960-yildan so‘ng Afrikadagi beqarorlikni yuzaga keltirdi va buning natijasida qit’ada 100 ga yaqin harbiy to‘ntarishlar bo‘lib o‘tdi.

Afrika qit’asi geosiyosiy holatini o‘zgartiruvchi yana bir omil—bu turli xalqlar o‘rtasidagi munosabatlar hisoblanadi. Afrikaning etnik tarkibi – rang-barang xalqlar va qabilalar mozaikasiga o‘xshab ketadi. Qit’ada taxminan 50 ta millat va elatlar, ming xil tilda so‘zlashuvchi 3 mingga yaqin qabilalar istiqomat qiladilar.

Afrika davlatlarining ko‘pchiligi tabiiy geografik chegaralarga bo‘linib, aniq demarkatsiya qilinmagan. Afrika qit’asi davlatlarining chegaralaridan 44 foizi meridian va parallel bo‘yicha chegaralangan, 30 foizi to‘g‘ridan-to‘g‘ri va yoysimon shaklda belgilangan. Hududlarning bunday tarzda bo‘linishi xalqlar o‘rtasidagi nizolar va urushlar asosi hisoblanadi.

Afrika qit’asidagi barqarorlikning ta’milanishi, bugun nafaqat qit’da davlatlari, balki butun dunyo uchun asosiy muammolardan biri bo‘lib qoldi. Xususan, Afrika qit’asidagi barqarorlikni ta’minalashda tahdid solayotgan bir necha omillarni ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro nizolar;
- fuqarolar urushi;
- xavfsizlik darajasining pastligi va jinoyatchilikning yuqoriligi;
- davlat chegarasidan yashirinchha, boj to‘lamasdan mol o‘tkazish (kontrabanda bilan shug‘ullanish);
- ekologik jinoyatchilik;
- noqonuniy qurollar savdosi bilan shug‘ullanish;
- terrorizm;
- qaroqchilik va neftni bunkerlash;
- noqonuniy narkotik moddalari savdosi bilan shug‘ullanish.

Bu omillarning har biri qit’adagi davlatlarning o‘zaro nizolariga ham olib kelmoqda. Omillarni tahlil qiladigan bo‘lsak, masalan, davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro nizolar asosan qabilalar orasidagi jangovor kuchlarga asoslanadi. Bunday holatlarda ko‘pgina hukumatlar qabilalardagi ko‘ngilli lashkarlarini proksi sifatida jo‘natadilar yoki

hukumatlar qo‘zg‘alonchilarga qarshi kuchli operatsiyalar o‘tkazib, qo‘zg‘alonchilarning harakatlarini kuch bilan bosib, fuqarolik bazarlarini hukumatlarni qo‘llab-quvvatlashga chorlaydilar. Bunday holatlarga Darfurdagagi Janjavid va 1998-yildagi Efiopiya va Eritreya o‘rtasidagi chegaraviy urushlarni misol qilishimiz mumkin.

“Afrikadagi fuqarolar urushi o‘zining shavqatsizligi bilan mashhur. Shuningdek, ularning etnik, hududiy va diniy jihatlardan tashkiliy ko‘rinishlarining murakkabligi o‘ziga xos ahamiyatga ega. Fuqarolar hukumatlar va nohukumatlardagi qo‘zg‘alonlar uchun qo‘llab-quvvatlovchi kuch sifatida xizmat qiladi”¹⁰³. Fuqarolar urushini olib borishida har ikki tomon maqsadlari biri-biriga qarama-qarshi bo‘ladi. Afrikadagi ko‘pgina fuqarolar urushining qo‘zg‘alonchilar uchun manfaatini ko‘radigan bo‘lsak, ular asosan, tuzumlar aldov yoki maj-burlash yo‘llari orqali erishgan boyliklar, mol-mulk va chorva mollarini qaytarish uchun tuzumga qarshi chiqadilar. Hukumatlar esa fuqarolarga nisbatan “kollektiv jazolash” strategiyasini qo‘llash orqali qo‘zg‘alon yetakchilarini o‘z vaxshiyiliklari uchun javobgarlikka tortishga urinadi.

Fuqarolar urushining tashkil etilishida albatta, tashqi kuchlarni ham hisobga olish lozim. Qit’aning resurslarga boy ekanligi tashqi kuchlarni o‘ziga jalb etadi. Masalan, tashqi kuchlar u yoki bu davlat o‘rtasida nizolarni uyushtirish orqali faol ishtirokchilarni ta’sir darajasini pasaytirish yo‘li bilan resurslarga ega bo‘lgan holatlari ham kuzatiladi.

Afrikada kontrabanda va odam savdosi bilan shug‘ullanuvchi uyushgan jinoyatchilikning bir necha ko‘rinishlari mavjud. BMTning narkotik moddalari va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi (YUNODK) ning ma’lumotlariga ko‘ra, “Afrika davlatlari orasida Nigeriya, Gana va Marokash kontrabanda va odam savdosi bilan shug‘ullanishda asosiy generatorlar vazifasini o‘tab kelmoqda. Bu davlatlar odam savdosi va kontrabanda orqali yiliga taxminan 32 milliard AQSH dollari miqdorida foyda ko‘radilar. Bunday holda Sharqiy va Janubiy

¹⁰³ Mark Duffield, Development, Security and Unending War: Governing the World of Peoples. – London: Polity Press, 2007, 67 p.

Afrika tranzit yo‘li vazifasini o‘tab, odam savdosi va kontrabanda ope-ratsiyalari Osiyoda o‘tqazilayotganligi kuzatilmoxda”¹⁰⁴. Shuningdek, Adan Ko‘rfazi Somali va Yaman tranzit yo‘llari orqali yosh ayollar va erkaklar, ya’ni ishchi migrantlar odam savdosi qurbanlari bo‘ladilar. BMTning qochoqlar ishi bilan shug‘ullanuvchi Yuqori komissariyat Boshqarmasining ma’lumotlariga ko‘ra, “ushbu yo‘nalish bo‘yicha bir oy mobaynida 100 ga yaqin odam noqonuniy migratsiya qilish orqali nobud bo‘ladi”¹⁰⁵.

Afrikaning ko‘pgina davlatlari uchun o‘g‘rilik asosiy muam-mo hisoblanadi. Boy fuqarolarga tajovuz qilish, ularning bolalarini o‘g‘irlash ko‘plab uyushgan jinoyatchi guruhlar uchun odatiy hol hisoblanadi. Janubiy Afrika, Nigeriya va Keniyada sindikatlar gu-ruhi tashkil etilgan bo‘lib, ular o‘zlarini maxsus odam o‘g‘irlaydigan guruh sifatida namoyish etadi. Afrikadagi shunga o‘xshash guruuhlar-dan Niger daryosi deltasidagi MYeND va Saxiliyadagi AKIM Ma-lining shimoliy qismlarida odam o‘g‘irlash va odam savdosi bilan shug‘ullanadilar.

Noqonuniy quroq savdosining ko‘payganligi Afrikada fuqaro-lar urushi va qabilalar o‘rtasidagi nizolarni kelib chiqishiga sabab bo‘lgan omillardan biri hisoblanadi. Afrikadagi noqonuniy quroq sotish va noqonuniy qurollar sonining ortishi, sovuq urush davrida AQSH va sobiq Sovet Ittifoqi tomonidan Afrikaga yo‘naltirilgan edi. Bu esa hozirgi vaqtida xalqaro embargoning buzilishiga sababchi bo‘layapti. BMTning ma’lumotlariga ko‘ra, “dunyodagi noqonuniy qurollarning 100 millionga yaqini Afrikada tarqatilib, bu dunyoning umumiyoq ko‘rsatkichlaridan 20 foizini tashkil etadi”¹⁰⁶.

¹⁰⁴ UNODC, Trafficking in Persons: Global Patterns. – Vienna: UNODC, 2006. – P. 85. Also see United States Department of State, Trafficking in Persons Report 2009 , Washington, DC, June 2009; and UNODC, Organized Crime and Irregular Migration from Africa to Europe (Vienna: UNODC, July 2006).

¹⁰⁵ Караг‘: Peter Woodward. The horn of Africa: State politics and international relations. – London-New York: Tauris Academic Studies, 2007.

¹⁰⁶ African Union, «Small Arms and Light Weapons,» available at <www.africa-union.org/root/au/AUC/Departments/PSC/Small_Arms.htm>.

Noqonuniy qurollar savdosi uchinchi taraf tomonidan tashkil etilgan chegara hududlaridagi urushlarda Afrika davlatlari hukumatlari ko‘pgina hollarda yashirin tarzda qo‘zg‘alonchilar guruhlarini quro bilan ta’minlaydi. Bunday hollarda, ko‘pgina Afrika davlatlarining harbiylari ikkinchi darajaga tushib qolishi holatlari ham kuzatilgan. “Hozirgi vaqtida noqonuniy qurol savdosi bilan shug‘ullanuvchi sharqiy yevropalik Viktor But Afrikadagi har xil guruhlarni qurollar bilan ta’minlaydi”¹⁰⁷. Qurollarning tarqalib ketishiga yana bir sabab–bu Afrika hukumatlari omborlaridan qurollar va o‘q-dorilarning hududiy bozorlarga tarqalib ketishidir. Qurollar sonining ortib ketishi Afrika davlatlarida turli xil tajovuzkor guruhlar, terroristik aktlar sodir etilishiga olib kelmoqda.

Afrika terrorizmga qarshi kurashishda qit’alar orasida faol harakat qilmoqda. Hozirgi vaqtida terroristik guruhlar orasida “Al-Qoida” (EAAQ), AKIM, “Al-Shabab”, “Salafiy jihodchilar va targ‘ibotchilar guruhi” va boshqalar mavjud. Afrika musulmonlarining fikriga ko‘ra, “Al-Qoida” terroristik guruhi Afrika qit’asidagi xalqaro kuchlarning musulmon davlatlari, asosan, Somali va Sudandagi tinch holatni ta’minalashi uchun qilinayotgan faoliyatiga qarshi harakatlar qilish, neft qazib olinadigan, ayniqsa, Nigeriyadagi neft qazib olinadigan hududlarda beqarorlikni vujudga keltirish, bu bilan jahon iqtisodiga ta’sir o‘tkazish va G‘arb bilan aloqalar o‘rnatayotgan hukumatlarga zarar yetkazish kabilidan manfaatdor hisoblanadi. “Al-Qoida” guruhining Afrikadagi bir necha islom jangovorlari guruhlari bilan aloqalari mavjud. Masalan, AKIM guruhining yangi tarkibi hisoblangan Jazoir va Malining shimalidagi harakatlar, Somalining janubiy qismidagi “Al-Shabab” harakati shular jumlasidandir.

“Al-Qoida” harakati Janubiy Afrikada ko‘plab sayyoohlar, hukumat vakillari va boshqalarni asirga olganlar. Ularning evaziga katta miqdorda pul yoki xorijdagi qamoqlardagi o‘zlarining odamlarini ozod qilishni talab qilganlar. Shuningdek, bu harakat o‘z guruhdoshlari orasidan bir nechasini o‘ldirishgan. Masalan, 1998-yil Nayrobidagi

¹⁰⁷ Douglas Farah, Merchant of Death: Money, Guns, Planes and the Man Who Makes War Possible. – Hoboken, NJ: John Wiley, 2007.

portlatishlarga aloqasi bo‘lgan Axmad Xalfan Jiylanini Pokistonda qo‘lga olib o‘ldirishgani yoki yana bir misol 2005-yil Londondagi portlatishlarga aloqasi bo‘lgan Xorun Rashid Asvatni qatl etganlari buning yaqqol misolidir. AQSH hukumatining ta’kidlashicha, so‘nggi paytlarda Janubiy Afrikada ikkita katta oila mavjud bo‘lib, aynan ular “Al-Qoida”ni moliyaviy tomondan ta’minlab turadi, degan taxminlar ham mavjud. Shuningdek, bu guruh Janubiy Afrikadagi JCh-2010 ga oshkoraliqka ega bo‘lish maqsadida tajovuz qilgan degan gumonlar ham mavjud. Shimoliy va G‘arbiy Afrikada AKIM asosiy terroristik tahdid hisoblanadi. AKIM harakati 2007-yilda “Salafiy jihodchilar va targ‘ibotchilar guruhi” “Al-Qoida” terroristik guruhiga sodiqligi to‘g‘risida qasamyod qilganidan so‘ng tashkil etilgan bo‘lib, shu yilning dekabr oyida Jazoirdagi BMT bo‘limlaridan birida portlash uyuşhtiriladi. AKIM ning asosiy maqsadi—bu Mag‘rib va Saxiliyaning viloyatlarida transmilliy ko‘chib o‘tish faoliyatini amalga oshirishdir. Ya’ni ushbu hududlarda dastlabki islam jangovorchilarini va jamoatchilagini joylashtirish hamda Liviya islam jangovor guruhi, Marokash islam jangovor guruhi, Tunis islam fronti, Mavritaniya targ‘ibotchi va jihodchilar guruhi ham shular jumlasidandir. Hozirgi vaqtida AKIM asosan o‘zining terroristik harakatlarini Saxiliya va Mavritaniyada olib bormoqda. AKIMning asosiy batalyonlari Muxtar Bilmuxtar va Abdul Xamid abu Zaid hisoblanadilar. G‘arbiy Afrika da AKIMning Nigeriyadagi “Boko Haram” jangovorchilar guruhiga qo‘silishi mumkinligi to‘g‘risida xavfsirashlar mavjud.

Afrikadagi hududiy mojarolarni tahlil qilgan holda shuni aytish mumkinki, mojarolar asosan xalqlar va qabilalar joylashuvining hududiy jihatdan noto‘g‘ri taqsimlanganidan kelib chiqmoqda. Gap shundaki, 1885-yil Berlin Konferensiyasida buyuk mustamlakachi davlatlar Afrika hududini bo‘lishib olgan edi. Natijada, o‘zaro bog‘liq bo‘limgan mintaqa va xalqlar birlashtirilgan, tarixan shakllanib kelgan umumiyl davlat va qiroliklar esa bir necha qismlarga bo‘lib tashlangan. XX asrning 60-yillariga kelib, yosh mustaqil davlatlar oldida milliy birlikni tashkil qilish va yaxlit hududga ega bo‘lish muammo-lari kelib chiqsa boshladi¹⁰⁸.

¹⁰⁸ Актуальные проблемы межафриканских отношений. – М., 1983, 178 с.

Hozirgi vaqtga kelib, bu hududiy mojarolar Afrikaning bir necha davlatlari o'rtasida, jumladan, Kamerun va Nigeriya, Chad va Liviya, Efiopiya va Somali, Malaviy va Tanzaniya davlatlari o'rtasida saqlanib qolmoqda. Shuningdek, Qomar orollari davlati Mayotta orolini Fransiyadan qaytarib olishga harakat qilmoqda. Bundan tashqari, Afrika davlatlari o'rtasida chegaralari demarkatsiya qilinmagan hududlar uchun ham babs va munozaralar mavjud. Ayniqsa, daryo bo'ylab o'tgan chegaralar umuman belgilanmagan. Masalan, Benin-Niger, KotD'Ivuar-Zair davlatlari orasida ikki va o'ndan ortiq hududiy maydonlar qaysi davlatga tegishliligi aniq belgilab qo'yilmagan. Bu kabi hududiy mojaro va bahslar o'z yechimini topmayotganligi qit'aning boshqa mojarolari bilan uyg'unlashib ketmoqda.

Agar davlatlar o'rtasidagi mojarolarni tashqi ziddiyatlarga kirit-sak, ichki ziddiyat va qarama-qarshiliklarga bir davlat doirasidagi fuqarolar huquqini buzulishi, resurslar va hokimiyat uchun siyosiy lider va partiya, turli xil siyosiy kuchlar, shuningdek, milliy, etnik va diniy birlashma va guruhlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni keltirish mumkin.

Afrikaning 29 davlatida 1989-yilgacha bir partiyali tizim bo'lgan bo'lsa, 90-yillar boshida ko'ppartiyali tizimga 45 davlat o'tdi. Ko'ppartiyali tizimga o'tish Afrikadagi nizolarni barqarorlashtirma-di, chunki partiyanlar qabila va etnik mansublik asosida tashkil etilib, har bir partiya hokimiyat uchun shavqatsiz kurashadigan siyosiy li-derlar qo'l ostiga o'tdi.

Nigeriyalik professor A. Adededji Afrika mojarolarining kelib chiqish sabablarini o'rganib, "7 D's" atamasini kiritadi. Unga ko'ra, yetti omil: qurg'oqchilik, cho'llanish, demografiya, qaramlik, mu-vozanatsizlik, beqarorlik va qarzdorlik¹⁰⁹ mojarolarning sababidir. Darhaqiqat, oxirgi paytlarda nizolar tabiiy resurslar uchun bo'lib, Afrikaning ko'pgina davlatlarini xavf ostiga solmoqda. Ayniqsa, qurg'oqchilik mintaqaviy muammolarni keltirib chiqarishga olib kelishi mumkin.

¹⁰⁹ Baynham S. Conflict in the 20 th centery. Afrika from 1945. -- L.- NY-Toronto-Sydney, 1987, 45 p.

BMTning 1999-yil oxirlarida nashr qilingan rivojlanish dasturida, Afrikada yaqin 25-yilda nizolar “eng qimmatbaho tovar” – suv uchun bo‘lishi bosharot qilingan. Bu nizolar bir qancha davlatlar hududidan o‘tadigan daryo va ko‘llar mintaqasida vujudga kelishi mumkin. Ichimlik suvi yetishmasligi, har ikkinchi afrikalikni ichimlik suvisiz yashashiga olib keladi. Natijada, “qaynoq nuqtalar”ni Niger, Volta, Zambezi daryolari sari yetaklaydi.

Shuningdek, Pol Kole ham Afrika nizolarini “resurslar uchun urush” deb nomlagan edi. Uning ta’kidlashicha, Afrikadagi deyarli barcha yuqori darajadagi urushlar 1965-yildan boshlanib, siyosiy kurashdan ko‘ra, iqtisodiy ochko‘zlikka asoslangan edi¹¹⁰.

Afrika davlatlarining katta qismi dunyo xo‘jaligidan chekkada joylashganligi ham bu davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir qilmoqda.

XXI asr boshlariga kelib, Tropik Afrikaning 51% aholisi qashshoq bo‘lib, dunyo kambag‘allarining 24,3% ini tashkil qildi¹¹¹.

Tropik Afrika davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayotini tiklashga ta’sir o‘tkazayotgan yana bir omil – aholining demografik o‘sishidir. Olimlarning fikricha, Afrikada demografik o‘sish darajasi har yili 2–2,5%ni tashkil etadi. Bu holat rivojlangan davlatlarda (dunyo YAIM 75% beradigan) 0,3%ni tashkil qiladi. Ko‘rinib turibdiki, Afrika aholisining o‘sish sur’ati juda sezilarlidir. Iqtisodiyotga nomutanosib demografiyaning o‘sishi, mintaqada kambag‘al, och va bilimsiz aholini ko‘payishiga, shuningdek, shimol va janub o‘rtasidagi farqning oshishiga olib kelmoqda¹¹². Bu holat qishloq aholisini shaharga migratsiyasini oshishi va natijada kelgindi guruhlar bilan shaharliklar o‘rtasida qarama-qarshiliklarni vujudga keltirishi mumkin.

Boshqa mintaqalarga qaraganda Afrikada separatizm juda avjiga chiqqan bo‘lib, ular ma’lum etnikka mansub bo‘lgan guruhlar o‘rtasida

¹¹⁰ Карап: Collier P. Doing Well out of War. – Wash. World Bank. 2002.

¹¹¹ World Bank. World Development Report 2000. – Wash. 2001, 24 p.

¹¹² Абрамова И.А. Демографическая ситуация в странах Африки: новые тенденции. Конференция африканистов. Безопасность Африки: внутренний и внешний аспекты. – М. 2005, 68 с.

resurslarini talashishga qaratilgan. Bu holat, afrikalik liderlarning tushunishicha, davlatning hududiy yaxlitligini ta'minlashga ta'sir qilib, ayirmachilar tomonidan o'z o'lklalarida monopoliyaga erishish va resurslardan foydalanishda hukumat boshqaruvidan mustaqil bo'lishga intilmoqdalar. Bu kabi holatlar Senegal davlatining asosiy guruch yetishtiradigan mintaqasi Kazamansda, Zairning mis muddasiga boy Shaba o'lkasida, Angolaning neft va olmosga boy hududlarida sodir bo'lmoqda. 1967-yil Nigeriyaning neftga boy Biafroy mintaqasi davlatdan ajralib chiqishga urunishi natijasida, fuqarolar va markaziy hukumat qo'shinlari o'rtasida fojeali to'qnashuv bo'lib o'tdi. Bu kabi nizolar Sudanning Darfur o'lkasida ham ro'y berib, neft uchun kurashga asoslanmoqda.

Bundan tashqari, Afrikaning ba'zi davlatlarida etnik guruhlar o'rtasida hokimiyat uchun kurash ketmoqda. Masalan, Burundi va Ruanda davlatlarida ikki millat: xutu va tutsi millatlari o'rtasida qarama-qarshiliklar mavjud bo'lib, bir necha bor bu ikki millat o'rtasida qonli to'qnashuvlar yuz bergan.

1962-yil Ruanda o'z mustaqilligini e'lon qilgandan so'ng, hukumat mamlakatning 85% aholisini tashkil qiladigan xutu millati dan tashkil topadi. Bundan norozi bo'lgan tutsilar hukumatga qarshi chiqadi. Natijada, 1990-yil hukumat tutsilarga qarshi repressiyani boshlab yuboradi va 1994-yilda bu ochiqchasiga genotsidga aylanib 700–800 mingga yaqin tutsi o'ldirib yuboriladi. Bu fuqarolar urushi da Pol Kagamoy boshchiligidagi ruandalik vatanparvarlar g'alaba qozonib, amalda hukumatga tutsi millati keladi.

Burundi davlatida ham xutu aholisi ko'p bo'lsa-da, mustaqillikni e'lon qilganidan so'ng, hukumat tutsilar qo'liga o'tadi. Bu holatdan endilikda xutu millati norozi bo'ladi. Mamlakat Prezidenti Pera Buyoya harakati tufayli, 1993-yil xutu aholisidan qonunan saylangan prezidentga hukumatni topshirishi bilan qurolli to'qnashuv to'xtatiladi. Ammo bu bilan etnik mojaro to'xtab qolmadi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, na tutsi va na xutu millatlari o'zaro tuzilgan "etnik shartnoma" qonun-qoidalariga amal qilishga harakat qilmayapti. Chunki tutsi aholisi ozchiligi evaziga demokratik saylovlardan natijasida hukumatga xutularni kelishi yoki hukumatni

bo‘linishidan qo‘rqayotgan bo‘lsa, xutular, bizning fikrimizcha, hukumat hozirgacha tutsilar qo‘lida qolayotganligidan va xutularni markazdan uzoqlashtirayotganligidan xavfsiramoqda.

Nizolarning eng muhim omillaridan biri bu diniy qarama-qarshiliklardir. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish lozimki, Afrika aholisining 42% i musulmonlar, 22%i xristianlar, 36%i mahalliy an’anaviy dinlarga e’tiqod qiluvchilardir. Diniy qarama-qarshiliklarning kuchayishiga og‘ir iqtisodiy vaziyat sabab bo‘lib, ko‘pgina davlatlarda hukumatga qarshi diniy tashkilotlar tuzila boshladi. Masalan, Sudanda “Sudan xalq ozodlik armiyasi” tuzilib, u davlatni shariat asosida boshqarishni talab qilib chiqadi. Mamlakat Prezidenti Nimeyri 1983-yil davlat mafkurasi va qonuni shariat asosida boshqarilishini e’lon qilishi ham vaziyatni o‘zgartirmadi. Hozirgi vaqtida ham Sudan ichki xavfsizligini ta’minlashda diniy qarama-qarshilik katta ta’sir ko‘rsatmoqda.

Chad va Efiopiyada fuqarolar urushi Sudan muammosiga o‘xshashdir. Misol uchun, Efiopiya musulmonlar istiqomat qiladigan Eritreya uchun 30-yil urush olib bordi. Lekin eritreyaliklarning qat’iyatliligi evaziga 1993-yil Eritreya o‘z mustaqilligini e’lon qildi.

Xristian va musulmon din vakillarining to‘qnashuvi ayniqsa Nigeriyada avjiga chiqqan. 2000-yil fevral oyida Kadun viloyatida bu ikki din vakillari o‘rtasida qonli to‘qnashuv bo‘lib, har ikki tomonidan 400 ga yaqin kishi halok bo‘ldi. 2006-yilda esa bu to‘qnashuv yanada alanga olib, masjid-madrasalar va cherkovlarga o‘t qo‘yildi. Mamlakat Prezidenti O.Obasanjo vaziyatni yumshatish uchun shariat asosida boshqarilishini (ba’zi shtatlarda) ma’lum chegaralangan holda bo‘lishiga va’da berdi. Ammo vaziyat hozirgacha ijobiy holatga o‘tgani yo‘q.

Umuman olganda, Nigeriyada nafaqat xristianlar va musulmonlar bir-biriga qarshi kurashgan, balki bu kabi dinlarning boshqa oqimlari ham o‘z dushmanlarini o‘zga din vakili sifatida ko‘rib, kurash olib borishgan¹¹³.

¹¹³ Мухаммадсидиков М.М. Африка–конфликтная геополитическая сфера планеты // Международный научный журнал. Наука. Образование. Техника. Кыргызско-узбекский университет. Ош. Кыргызская Республика. 2009, № 2 (30), 37–39 б.

Bu kabi Afrikadagi muammolar qit'aning xavfsizligini ta'minlashga katta ta'sir qilib, bir davlatdagi mojaror boshqa davlatga o'tib ketayotganligini ko'rsatadi. Masalan, Nigeriyadagi mojaror qo'shni hududlarga o'tib ketgan. Shuningdek, Ruandardagi fuqarolar urushi natijasida xutu qabilasi vakillari Kongo Demokratik Respublikasiga qocha boshlaydi. Kongo davlatining hukumati bu qochoqlarga qarshi o'z harbiylarini yuborish orqali ularni o'z hududlariga kirishini ta'qiqlab qo'yadi.

Bundan tashqari, ba'zi Afrika davlatlarida ham ichki, ham tashqi muammolari mavjud. Masalan, Nigeriyada diniy qarama-qarshilik bo'lsa, tashqi mojarosi Kamerun bilan hududi nizosi mavjud. Ichki qarama-qarshilikning kuchayishi Kamerun davlatining ham xavfsizligiga tahdid bo'lishi mumkin.

Ko'rinish turibdiki, Afrika nizolari qit'a bo'ylab yoyilishi, nafaqat qit'ani, balki dunyo xavfsizligiga tahdiddir. Ko'pgina ekspertlarning fikricha, Tropik Afrikaning ko'pgina davlatlaridagi bunday tartibsizlik va qoloqlik, qashshoqlarning Shimoliy Afrikadagi davlatlarga ko'chishi va u yerdag'i vaziyatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bundan tashqari, janub-shimol (ya'ni rivojlangan davlatlar) o'rtasidagi nisbatning keskin ortishi, shimolning janubga o'z ko'magini berishga majbur qiladi.

Shuning uchun, BMT va AI tashkilotlari bu nizolarni oldini olishga kirishmoqda. Albatta, bu tez bo'ladigan jarayon emas, chunki qit'adagi davlatlarning manfaatlarini birlashtirish va har bir davlatning o'z ichki muammolarini xalqaro gumanitar yordamlar bilan hal etish lozim.

1. Qit'adagi mojarolarni bartaraf qilish masalasini bir yoki bir necha davlatlar kuchi bilan hal qilib bo'lmaydi. Bu masala jahon hamjamiyatining birlashgan kuchini talab qiladi. Davlat hokimiyatining kuchsizlanishi hamda etnik ozchilikka nisbatan tazyiq, diniy murosasizlik, resurslarni noto'g'ri taqsimlash va ijtimoiy adolatsizlik kabi mojarolarning tub sabablarini yo'qotish bo'yicha jahon hamjamiyatining faol harakatini jalb qilish kerak. Jahon hamjamiyati mojarolarning oldini olishni samarali qo'llab-quvvatlashi, shuningdek, mojarodan keyingi tiklanish jihatlariga ko'proq e'tibor qaratishi lozim.

2. Afrikaning xavfsizlik sohasidagi keskin vaziyatdan chiqib keta olishi hamda buning natijasida siyosiy va ijtimoiy barqarorlikka erisha olishi, iqtisodiy rivojlanish yo‘lida va globalizatsiya jarayonida teng huquqli ravishda ishtirok etishga ildam qadam qo‘ya olishi jahon hamjamiyatining izchil urinishlariga bog‘liq.

3. Mojrolarning oldini olish hamda ularni hal qilishda min-taqaviy tashkilotlar muhim rol o‘ynaydi. G‘arbiy Afrika davlatlarining iqtisodiy birlashmasi, Janubiy Afrika mamlakatlarining Afrika taraqqiyot birlashmasi, hukumatlararo taraqqiyot tashkiloti Afrikadagi mojarolarni hal qilishda faol ishtirok etadi, bular tinchlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha operatsiyalarga muhim qo‘shimcha hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar va topshiriqlar

1. Juhon xaritasida Afrika davlatlarining siyosiy-geografik holatini tavsiflab bering.

2. Arab Mag‘ribi davlatlari tashqi siyosat konsepsiyasi asosiy o‘lchamlari tushunchasiga ta’rif bering.

3. Afrika Ittifoqi davlatlari xavfsizlik tizimi masalalari haqida aytilib bering.

4. Afrika davlatlarining AQSH va Yevropa davlatlari bilan munosabatlari nimadan iborat deb o‘ylaysiz ?

5. Bugungi kunda AQSHning Afrikadagi siyosatiga Fransiya va boshqa Yevropa davlatlarining munosabatlari qanday?

6. Shimoliy Afrika davlatlarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga tavsif bering.

7. Afrika Birligi tashkilotidan Afrika Ittifoqiga aylanish istiqbol-lari haqida ma’lumot bering.

8. Marokashdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga umumiy tavsif bering.

9. Marokashning Afrika Ittifoqiga a’zoligi muammolari nimadan iborat?

10. “Hozirgi davrda G‘arbiy Saxro muammosi” mavzusida prezentsiya tayyorlang.

11. “Arab Mag‘ribi davlatlarida islom omili” mavzusini muhokama eting.

12. Yevropa Ittifoqining AMT davlatlari munosabatlari haqida ma'lumot bering.

13. Shimoli-sharqiy Afrika davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy jara-yonlarga tavsif bering.

14. Livyaning jahon hamjamiyatidagi o'rniga baho bering.

15. Zamonaviy bosqichda Marokash – Jazoir munosabatlari qanday?

Mustaqil ish savollari

1. Siyosiy xarita yordamida Afrika davlatlarini siyosiy, iqtisodiy - ijtimoiy va geografik holatini gapirib bering.

2. Frantsianing Afrikadagi siyosatini xarita yordamida aytib bering.

3. Afrika mamlakatlarining hozirgi siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini internet tizimlari orqali mustaqil o'rGANING.

4. Nigeriyaning xalqaro munosabatlardagi o'rmini yoritib bering.

5. JAR tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini tavsiflab bering.

6. Zamonaviy bosqichda Shimoliy Afrika davlatlarida yuz berayotgan rivojlanish jarayonlariga tavsif bering.

7. "Afrika Ittifoqi – Yevropa munosabatlari" mavzusida ma'ruza tayyorlang.

8. Yevropa Ittifoqi tashqi siyosatida Arab Mag'ribi davlatlari to'g'risida ma'lumotlar to'plang.

9. Misr tashqi siyosatida Yaqin Sharq muamosini yorihib bering.

10. Jazoir tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari.

11. JARning Afrika Ittifoqidagi siyosati.

12. "Afrika davlatlari va jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi" mavzusida ma'ruza tayyorlang.

13. "Rangli inqiloblar"dan so'ng Shimoliy Afrika davlatlarida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.

14. XXI asrda Afrika Ittifoqi: yutuq va muammolari mavzusida prezentatsiya tayyorlang.

15. AQSH tashqi siyosatida Afrika davlatlari.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Kathy Pain. Changing Urban and Regional Relations in a Globalizing World. – USA, 2014. – 248p.
2. TimoBehr., JuhaJokela. Regionalism and global governance: the emerging agenda. –Notre Europe, 2011. – 67 p.
3. Rouben Azizian, Carleton Cramer. Regionalism, security and cooperation in Oceania. – USA: APCSS, 2015. – 172 p.

Qo‘sishimcha adabiyotlar

1. Барыгин И. Н. Международное регионоведение. – СПб.: Питер, 2016, 384 с.
2. Мухаммадсидиқов М.М. Замонавий халқаро муносабатларнинг минтақавий жиҳатлари (ўқув қўлланма). –Т: ТошДШИ, 2013, 182 б.
3. Мухаммадсидиқов М.М. Хорижий Шарқ ва Фарб мамлакатларида ижтимоий-сиёсий жараёнлар (ўқув қўлланма). –Т: ТошДШИ, 2013, 160 б.
4. Muhammadsidiqov M.M. Sharq mamlakatlari xalqaro munosabatlari (o‘quv qo‘llanma). – T.: ToshDSHI, 2017, 240 b.

12-BOB. AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI TASHQI SIYOSATINING MINTAQAVIY JIHATLARI

Dars maqsadi:

- talabalar AQSHning zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi-dagi o'rni borasida tasavvur hosil qilishlariga ko'maklashish;
- nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo'llashni o'rgatish;
- talabalarga AQSH tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari borasida to'la ma'lumotlarni yetkazish hamda ushbu jarayonlarning o'ziga xos jihatlarini singdirish.

Tayanch iboralar va tushunchalar: “*Monro doktrinasi*», *Ruzvelt Korollari* (*Gunboat Diplomacy*), “*Izolyatsionizm*” (*Isolationism*) doktrinasi, *siyosati*” (*Good Neighbor Policy*), 1941-yil, “*To 'rt erkinlik*” doktrinasi (*Four Freedoms Doctrine*), *New World Order* (*Reagan Doctrine*), *ANZYUS* ittifoqi.

12.1. AQSH tashqi siyosiy konsepsiya va doktrinalari

AQSH bugungi kunda dunyoning eng qudratli davlatlaridan biri. Bu qudratga erishishda AQSH diplomatiyasi, uzoqni ko'zlovchi tashqi siyosat strategiyasi va konsepsyalarining ahamiyati katta.

AQSH tashqi siyosati kuchli diplomatiya olib borish, xorijiy davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy, harbiy va boshqa sohalarda turli aloqalarni o'rnatish, xalqaro bozorda savdo-sotiq masalalarida yetakchi davlatga aylanish, shuningdek, xalqaro doirada harbiy mojarolarni oldini olish kabi vazifalarni bajaradi.

AQSH tashqi siyosatini olib borishda Prezident va uning ijro etuvchi hukumati hamda AQSH Kongressi katta ahamiyat kasb etadi. Kongressdagi tashqi siyosat qo'mitasi va AQSH davlat departamentining vazifasi davlatning tashqi siyosat masalalari yuzasidan strategiya, konsepsiylar ishlab chiqish, maslahatlar berish, chet davlatlarda AQSH manfaatlarini himoya qilishdir.

AQSH milliy manfaatlariga quyidalarni kiritish mumkin:

- Milliy xavfsizlik;
- Xalqaro tinchlikni saqlash;
- Adolatli demokratiyani dunyo bo‘ylab yoyish:
- Savdo-iqtisodiy manfaatlar:
- Manfaatli ko‘mak berish.

Prezident va Kongress o‘rtasida Davlat Departamenti boshlig‘i, ya’ni davlat kotibi tashqi siyosiy masalalarda Prezidentga ko‘mak beradi. U AQSHning manfaatlarini va qarashlarini tashqi davlatlarda ifoda etadi. Davlat departamenti tomonidan Kongressda chet davlatlariga elchilar, konsullar va maslahatchilar tayinlanadi.

Ularning asosiy vazifasi muvaffaqiyatli diplomatiya yuritish hisoblanadi. Chet davlatlari bilan bo‘ladigan aloqalardan diplomatlarning nufuzi katta. 180 dan ortiq davlatda 1000 dan ortiq dimlomatlar bugungi kunda o‘z faoliyatlarini va AQSH manfaatlarini himoya qilib kelmoqda.

AQSH tashqi siyosatida xalqaro shartnomalar o‘rnini yuqori bo‘lib, avvaliga ularga Prezident imzo qo‘yadi va Senat tomonidan tasdiqlanadi. Asosiy xalqaro shartnomalar asosida harbiy, iqtisodiy va tinchlik masalalari yuzasidan kelishuvga erishiladi.

Tashqi siyosatda yana bir katta ahamiyatga ega bo‘lgan jahbalar dan biri-bu AQSHning chet el davlatlariga xalqaro ko‘mamlari hisoblanadi. 2016-yilga ko‘ra AQSH 35 milliard 170 million dollarni bu ko‘mak uchun sarfladi. Bu mablag‘ning ko‘p qismini Afg‘oniston va Yaqin Sharq mintaqasiga sarfladi.

Tarixiy jihatdan AQSH o‘z tashqi siyosatida juda ko‘plab doktrina va strategiyalarni ishlab chiqishga ulgulgan. Shulardan 1823-yilda e’lon qilingan “Monro doktrinasi”ga ko‘ra, g‘arbiy yarim sharda AQSH hukmron bo‘lishi va uchinchi davlatni bu yerga kiritmasligi haqidagi g‘oyalar paydo bo‘ldi. Bir qancha vaqt o‘tib biz bu siyosatning qanchalik puxta amalga oshirilganligini guvohi bo‘ldik. AQSH gegemonligi, B.Adams va Z.Bjezinskiy aytganidek, barcha sohalarga kirib bordi va dunyoda yetakchi o‘rin egalladi.

AQSH o‘zining g‘oyaviy va konseptual tashqi siyosati bilan faxrlansa arziydi. Ikki partiyaviy tizimda bir-biriga qarama-qarshi chiquv-

chi partiylar tashqi siyosatda doimo yagona fikrda, ya’ni Amerika Qo’shma Shtatlarining milliy manfaatlari asosida qaror qabul qilishadi.

Mintaqaviy jihatdan har biri Prezidentning almashinuvida tashqi siyosatga bo‘lgan munosabatlar ham o‘zgaradi. Katta J.Bush davrida “Yangi dunyo tartiboti” nomli doktrinasida “Reygan doktrinasi”dagi ba’zi o‘xshashliklarni kuzatish mumkin. B.Klinton prezidentlik vaqtida sobiq Sovet Ittifoqidan keyingi dunyoni to‘ldirish g‘oyalari keng tarqaldi. Demokratiyani sharqiy davlatlarga yoyish an’anasi boshlandi. Avvaliga yumshoq siyosat yuritgan kichik J.Bush 2000-yil 11-sentabr voqealaridan so‘ng, tom ma’noda o‘zgardi. Afg‘oniston, Yaqin Sharq davlatlariga ekspansiyalar uyuşhtirildi.

2009-yil 20-yanvardan AQSH davlat tepasiga B.Obama boshchiligidagi demokratlar ma’muriyatining kelishi kelgusida mamlakat tashqi siyosatida milliy manfaatlarni ta’minlashning yangi medologiyasini ishlab chiqilishi bilan xarakterlanadi. AQSH davlat tepasiga ikki partiya vakillari kelishidan qat’i nazar, milliy manfaatlarning uyg‘unligiga sodiq qolgan holda qo’llanilayotgan vositalardagi an’anaviylik xususiyati saqlanib qoliniladi. Boshqacha aytganda, ikki partiya tashqi siyosati rotatsiya xarakteriga ega bo‘lib, asosiy maqsad jahonda anti-amerikanizmning kuchayishiga yo‘l qo‘ymagan holda gegemonlikni saqlab qolishdir. Shu nuqtayi nazardan demokratlar ko‘pgina hollarda “tinchlik” siyosatini ilgari surib, respublikachilar davrida yuzaga kelgan keskin vaziyatlarni diplomatik yo‘l bilan yumshatishga e’tibor qaratishadi. Siyosiy jarayonlarni kuzatadigan bo‘lsak, respublikachilardan bo‘lgan J.U.Bush tashqi siyosati o‘zining dastlabki davridan 11 sentabr voqealari, Afg‘onistonga qo‘sishin kiritish, Iroq muammo-sini vujudga keltirgan bo‘lsa, B.Obama tashqi siyosati, davlat kotibi ta’kidlaganidek, “aqli kuchga” (“smart power”)ga asoslanishini e’lon qildi. Prezident B.Obamaning saylov oldi kampaniyasidagi shiori “o‘zgarishlarga muxtojmiz” (“we need change”), Iroq muammo-sini hal etish, Afg‘onistondan 16 oy ichida qo‘sishnlarni olib ketish, Guantanoma qamoqxonasini tugatish va’dasi tashqi siyosatning dastlabki ko‘rsatkichi edi. Buning mohiyati shuki, B.Obamaning tashqi siyosiy vazifasi – Respublikachilar davrida yuzaga kelgan keskinlikni diplomatik vositalar orqali bartaraf etishdir. Albatta, bu AQSH siyosiy

elitasining tashqi siyosat borasida katta tajriba va puxta ishlab chiqilgan strategiyaga ega ekanligining isbotidir.

Rus olimi A.G.Gadjiyev ta'kidlaganidek, hokimiyatga B.Obamaning kelishi bilan AQSH global miqyosdagi geostrategik paradigmalariga bir qator o'zgartirishlar olib kirildi:

birinchidan, Respublikachilar davrida putur yetgan AQSHning jahondagi mavqeyini tiklash;

ikkinchidan, do'stlar, sheriklar va raqiblari bilan o'zaro hurmatga asoslangan muloqotni boshlash;

uchinchidan, sherikchilikni yuzaga keltirish uchun birgalikda faoliyat boshlash.

Obama hokimiyati saylov oldi dasturlarining bir qanchasini bajarmedi. 2012-yildan 2016-yilgacha bo'lgan ikkinchi prezidentlik davrida ham o'z tashqi siyosatida bir qancha o'zgarishlarni amalga oshira olmadi. Lekin Obama diplomatiyasining ham bir qancha yutuqlari mavjud. 2014-yil 15-iyul imzolangan Eron yadro dasturini cheklash bo'yicha shartnoma tufayli Sharq davlatlarining Obama humumatiga bo'lgan ishonchi ortdi. Rossiya bilan iliq munosabatlarning o'rnatilishiga qarshi bo'lgan Ukraina inqirozi davrida ham Obama og'ir-vazmin ekanligini namoyon qildi.

2017-yil boshidan hokimiyatga kelgan milliarder prizident Donald Tramp o'zining keskin tashqi siyosat olib borishi bilan dunyo siyosatchilari orasida keskin tanqid qilina boshlandi. Bunga uning yaqin Sharq, Yevropa va Uzoq Sharqdagi davlatlari bilan olib borayotgan siyosati yaqqol misoldir. Shimoliy Koreya bilan keskinlikning kuchayishi dunyo hamjamyatiga katta xavf bo'lgan yadro urushuning boshlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Tashqi siyosatning zamonaviy vazifalaridan kelib chiqqan holda yangi ma'muriyat jadal ravishda bir qator AQSH mavqeyini ko'tarishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Yaqin Sharq. Mintaqada AQSH ustunligini saqlab qolish, musulmon davlatlar bilan murosa yo'li asosida mamlakat manfaatlariga nisbatan ehtimoliy tahdidlarni bartaraf etish va an'anaviy ittifoqdoshi Isroiilning xavfsizligini ta'minlash B.Obamaning Yaqin Sharq siyosati asosini tashkil etadi, deyish mumkin. So'nggi yillarda AQSH-

ning ochiqdan-ochiq Isroilga yon bosishi, Iroqqa qo'shin kiritishi, Afg'oniston, Sudan va Eronga nisbatan siyosatida bir tomonlama-likning kuchaygani AQSH va musulmon olamida munosabatlar so-vushi kuzatilgan. Mazkur jarayonlar davomiyligi saqlanib qolinsa, AQSHning gegemonlik g'oyalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Natijada, AQSH siyosatchilari Yaqin Sharqda murosa zarurligini va musulmon olamiga AQSH siyosati xolislikka asoslanganini isbotlash maqsadida, B.Obama prezidentlik davrining ikkinchi kuni sobiq senatori Jorj Mitchelni Yaqin Sharq buyicha maxsus elchi lavozimiga tayinladi.

Isroil-Falastin masalasi. Yangi hukumatning mintaqqa siyosatida-gi asosiy vazifalardan biri – Isroil xavfsizligini ta'minlash, tanlangan uslub – diplomatik vositadir. Xususan, AQSH Davlat kotibi R. Tillerson Isroil o'z xavfsizligini ta'minlash huquqiga to'liq ega ekanligini, Tramp ma'muriyati Isroilni XAMAS raketa hujumidan himoyalanishi qo'llab-quvvatlashini va XAMASni Isroilga qarshilik qilishni to'xtatish va uni tan olishga chaqirishini ta'kidlagan. Shuningdek, Quddus shahrida Isroil tomonidan qurilayotgan aholi yashash punktlari masalasidagi nizo yuzasidan ikki davlat rahbarlarining ilk rasmiy uchrashuvida biror bir jiddiy taklif ilgari surilmadi. Demak, yahudiy lobbilari kuchli ta'sirida shakllangan D.Tramp ma'muriyatining Isroil-Falastin borasidagi siyosatining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, AQSH tinchlik muzokaralarida vositachilikni amalga oshirishi, turli konsepsiyalarni ilgari surgan holda jiddiy yechimni ta'minlay olmaydi, deyish mumkin.

Iraq masalasida. D.Tramp Yaqin Sharq siyosatida muvafaqqiyatini ta'minlaydigan omil Iraq muammosining hal etilishi va u yerdagi terroristik guruhlarga faol qarshilik ko'rsatishdir. Bundan tashqari , Arab dunyosi bilan hamkorlikni kengaytirish imkoniyati hamdir. Shu maqsadda 2017-yil may oyida Arab davlatlari va Amerika Qo'shma Shtatlari ishtirokidagi katta sammitda erishilgan katta-katta miqdordagi shartnomalar imzolandi. Bu bir tomondan yangi hukumatning tashqi siyosati diplomatik vositalarga tayanganini amalda isbotlasa, boshqa tomondan AQSHning Iroqdagagi "Islom davlati" terroristlari muammosini hal etishi, Isroilga nisbatan xavfining kamayganligi

va Iroqda o‘zga diniy oqimlarga hokimiyatga kelish imkoniyatining teng yaratib berilganligi bilan izohlash mumkin. Bu esa S.Xusayn kabi AQSH manfaatlariga zid faoliyat yurituvchi hukumat keladigan bo‘lsa, harbiy vositalarsiz jamiyatni bo‘lib tashlash imkoniyatini ta’minlashga xizmat qilishi mumkin.

Eron masalasi. D.Tramp tashqi siyosatining e’tiborligi jihatlari dan biri Erondir. AQSH prezidenti Eronga nisbatan keskin choralar ko‘rish siyosatini e’lon qilgan. Obama hukumati davrida erishilgan kelishuvlar natijasida Eronga nisbatan sanksiyalarining yumshatilishi yana to‘xtab qoldi. Eron bilan muzokaralarining aksariyati ijobjiy yakun topmayapti. BMT turli sanksiyalar joriy etish to‘g‘risidagi rezolyutsiya qabul qilish tarafdozlari nisbatan faollashgan. Ta’kidlash joizki, Eronning yadro va uzoq masofaga uchuvchi raketalarini rivojlantirish dasturidan voz kechmasligi va ularga egalik qilishga urinishi, rus general-polkovnik Leonid Ivashov ta’kidlaganidek, Eronga nisbatan AQSH va Isroil tomonidan harbiy faoliyat ehtimollik darajasini keskin oshirmoqda.

AQSH armiyasi Markaziy boshqarmasi rahbari D.Petruyes ma’lumotiga ko‘ra, 2016-yil yanvar oyida Patriot havo hujumidan mudofaa tizimi Quvayt, Qatar, BAA hududlariga o‘rnatalgan. Buning ustiga zenit raketasi bilan qurollangan uch AQSH dengiz harbiy kematlari O‘rta yer dengizi mintaqasiga joylashtirilgan.

Bugungi kunda dunyodagi strategik hududlarning ulkan qismida musulmon davlatlari joylashgan: Atlantika okeani (Marokash)dan Tinch okeani (Indoneziya, Malayziya)gacha. AQSHning so‘nggi yillardagi Eron, Iroq, Afg‘oniston, Sudan, Suriya singari davlatlariga nisbatan agressiv siyosati G‘arb va musulmon sivilizatsiyalarida keskinlik chiziqlarini ortishiga olib keldi. Musulmon jamiyatlarida AQSHga nisbatan qarashlar o‘zgara boshladi. 2009-yil 4-iyunda Qohira Universitetida so‘zlagan nutqida Prezident B.Obama birgalikda hal qilinishi zarur bo‘lgan masalalarni sanab o‘tdi:

1. ekstremizmnинг har qanday ko‘rinishini birgalikda tugatish;
2. isroilliklar, falastinliklar va arab dunyosidagi vaziyatni qayta ko‘rib chiqish;

3. yadro qurollari bo'yicha davlatlarning huquq va majburiyatlariga taalluqli masalalarni hal etish;
4. demokratiyani rivojlantirish;
5. din erkinligi;
6. xotin-qizlar huquqlari;
7. iqtisodiy rivojlanish va imkoniyatlar to'g'risida.

Albatta, qo'yilgan masalalarning aksariyatini hal etilishi uzoq vaqt va qarashlarda uyg'unlikni talab etadi, shunday bo'lsada, musulmon olami bilan ziddiyatlarni minimum holatda saqlab turish D.Tramp davrida ijobiy natija hisoblanadi.

12.2. Markaziy va Janubiy Osiyo.

AQSH tashqi siyosatida markaziy o'rinni egallagan masalalar dan biri Afg'onistonidir. Bu Markaziy Osiyo uchun "katta o'yin" makhoni hisoblangan Afg'onistonda AQSHning uzoq muddatli faoliyatini kam qurbanlar hisobiga ta'minlash—D.Tramp tashqi siyosatining maqsadlaridandir. Afg'onistonning geostrategik joylashuvi: neft va transport koridori ekanligi, Yaqin Sharqqa chegaradoshligi, Eronni nazoratda tutish, Pokiston va Hindiston yadroviy salohiyati ustidan nazorat, Rossiya, Xitoy siyosatini kuzatib borish imkonini taqdim etadi. Shu sabab AQSHning Afg'onistondagi operatsiyasi siyosiy xato emas, aslida yutuqlari jumlasidandir.

AQSH tashqi siyosat strategiyasiga ko'ra, Pokistonga yiliga 1,5 mlrd. umumiylis hisobda 7,5 mlrd. yordam ko'rsatishni belgilagan. Afg'onistonga esa qo'shimcha 17 ming askar yuborish belgilandi.

Bundan tashqari, Afg'oniston—Pokiston chegarasida "Qayta tiklash imkoniyatlar zonasasi"ni rivojlantirish loyihasi ham kiritildi. Unga ko'ra, AQSH hukumati pushtunlardan iborat 50 ming qo'shinga ega "Pushtun qabilalari chegara korpusi"ni shakllantirishga e'tibor qaratgan. Ushbu korpus toliblar ekvivalenti sifatida AQSHning mintaqadagi manfaatlariga xizmat qilishi kerak, ularning tashkiliy jihatni va maqomi to'liq belgilanmaguncha AQSH tashqi siyosati yutug'i sifatida qo'lga kiritilgan Afg'onistonda o'z qo'shinini saqlab turdi.

12.3. Rossiya, NATO va Ommaviy qirg‘in qurollari (OQQ)

Respublikachilar tashqi siyosiy tamoyillariga tayanadigan bo‘lsa, Yevroatlantika xavfsizligi, NATOning Sharqqa kengayishi borasida Rossiya bilan yuzaga kelgan tanglik diplomatik yo‘llar bilan hal qilinishi belgilangan.

I. Yadroviy qurollar masalasidagi shartnomaning yangi variantini imzolash. 2009-yil 5-dekabrdra “Strategik hujumkor qurollar” (SNV 1) bo‘yicha shartnomaning amal qilish muddati tugadi. Ushbu shartnomani yangi ko‘rinishini tuzish ikki davlat manfaatlariga xizmat qilib, 2010-yil aprelda Chexiyaning Praga shahrida ushbu turdag'i yangi shartnoma imzolandi. AQSH Davlat departamenti siyosiy masalalar bo‘yicha kotib muovini U.Bernsning 2009-yil 27–28-aprel Butunjahon Rossiya Forumida B.Obama ma’muriyati uran boyitish dasturlarini rad etuvchi mamlakatlar uchun Rossiyaning Xalqaro yadro issiqlik markazini tashkil etish loyihasini qo‘llab-quvvatlashini bildirgan.

Bundan tashqari, AQSH jahondagi yadroviy qurollanishning jadal tendensiyasini va uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish borasida yangi strategiyasini ishlab chiqdi. Ushbu strategiya bilan jahon hamjamiyatini B.Obama 2009-yil 5-aprelda Pragada so‘zlagan nutqida tanishtirdi. Prezident amalga oshiriladigan yadroviy tahdidni bartaraf etishning quyidagi bosqichlarini ko‘rsatib berdi:

birinchidan, AQSH yadroviy qurollardan xoli dunyoni vujudga keltirishga intilishi va bu yo‘lda “sovuv urush”dan qolgan fikrlashdan voz kechgan holda AQSH milliy xavfisizlik strategiyalarida yadroviy qurol rolini pasaytirish va yangi strategik qurollarni qisqartirish shartnomasi borasida Rossiya bilan muzokaralarini boshlash;

ikkinchidan, yadroviy qurolni tarqatmaslik to‘g‘risidagi shartnomani asos qilib olgan holda hamkorlikni mustahkamlash;

uchinchidan, terroristlarning hech qachon yadroviy qurolga ega bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik. Ushbu strategiya asosida OQQga noqonuniy egalikni tugatish va mavjud qurollar salohiyatini qisqartirish borasidagi siyosati “global zero” nomini oldi.

2017-yilda D.Tramp prezidentlik vakolatlariga kirishgandan so'ng, ko'pchilik kutgan va taxmin qilgan Rossiya bilan iliqlashish siyosatini olib bormadi. Xalqaro doirada Ukraina, Suriya, Shimoliy Koreya borasidagi fikrlar xilma-xilligi ikki davlat o'rtasidagi diplomatik inqirozni ham boshlab berdi. Rossiyaga qo'llanilgan sanksiyalarini D.Tramp hukumati yanada keskinlashtirishga harakat qilmoqda.

2. NATO va Rossiya hamkorligini kuchaytirish, Yevroatlantik xavfsizlik tizimida Rossiya bilan hamkorlik qilish. AQSH tashqi siyosatidagi strategiyasi o'zgaruvchan, milliy manfaatlari mos ravishda turli vositalarning qo'llanilishini 2010-yil 28-mart kuni NATO Bosh kotibi A.F.Ruamussen tomonidan hamkorlikda RQMT (PRO) tashkil etish masalasidagi taklifi bilan Rossiya davlati rahbariga murojaatidan ham kuzatish mumkin. Dastavval Rossiya tomonidan ushbu taklif 2000-yillarda AQSH rahbariyatiga taklif etilgan edi. 2009-yil 17-sentabrda Pentagon rahbari R.Geyts RQMTni yaratish borasida AQSH rejasiga o'zgartirishlar kiritilganini e'lon qildi. AQSH Yevropaga RQMTni joylashtirishni rad etmagan holda uning muddatini 2015-yilgacha surdi, tizim to'la shaklda to'rt bosqichda 2020-yilgacha amalga oshirilishi ta'kidlandi. Demokratlarning ushbu siyosati Rossiya bilan munosabatlarni yumshatish va shu orqali Yevropada pozitsiyasini yanada mustahkamlashdan iboratdir. Istiqbolda AQSH o'zning Rossiya bilan RQMTdagi hamkorligi B.Obama ma'muriyati tashqi siyosatining jahon hamjamiyati tomonidan qanday qabul qilinishi, samaradorligiga bog'liq. Agar "tinchlantiruvchi" siyosat qo'lga kiritilgan imkoniyatlarni saqlab qololmasa, keyingi ma'muriyatlar tashqi siyosatida harbiy vositalarning ta'siri ortadi, deyish mumkin.

2017-yilda Boltiq dengizi bo'ylab NATO qo'shinlarining harbiyo'quv mashg'ulotlarining amalga oshirishi, shu qatorda Rossiya havo kuchlarining Yevropa davlatlari ustidan razvedka ishlarining olib borilishi natijasida NATO va Rossiya munosabatlari keskinlashmoqda.

Umumlashtirgan holda, AQSHning global tashqi siyosatini tadqiq etgan holda zamonaviy davrda mamlakat tashqi siyosiy qarorlarining qabul qilinishi va jahondagi rolini aniqlab berishga asos bo'lgan holatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Tashqi siyosat AQSHning global yetakchiliginin mustahkamlashga yo'naltirilgan.

2. AQSH global tahdidlarga qarshi o'zga davlatlar bilan hamkorlik asosida kurashishni ko'zlagan. Amerika global tahdidilarni yolg'iz bartaraf eta olmaganligi singari, Vashington e'tiroficha, boshqa davlatlar ham ushbu muammolarni AQSH ishtirokisiz hal eta olmaydilar;

3. Oq Uy ma'muriyatining hozirgi tashqi siyosati "aqli kuch"ga asoslangan bo'lib, davlat ixtiyoridagi jamiki vasitalar majmuasini qo'llashni taklif etadi. Shuningdek, "aqli kuch" tashqi siyosatda diplomatiya afzalliklarni tan olgan holda, harbiy kuch yoki bir tomonlama faoliyatni ustun qo'ymaydi.

4. AQSH BMT va o'zga xalqaro institutlar mexanizmlaridan maksimal darajada foydalanishni ko'zlagan deyish mumkin.

Shunday ekan, "Amerika o'ziga xosligi" va "jahonda ma'naviy yetakchilikka" intilishi AQSH tashqi siyosatining mafkuraviy asosini tashkil etadi. Shu bois, yangi ma'muriyat oldingi ma'muriyatdan farq qilmaydi. Faqatgina ushbu o'ziga xoslikni amalga oshirish vositasi o'zgargan. Kuch siyosati ikkinchi planga ko'chgan, uning o'mini esa diplomatiya va ishonch, uzoq muddatli ittifoqchilik egallagan.

12.4. AQSH tashqi siyosatida Yaqin Sharq mintaqasining o'rni

AQSH tashqi siyosatida Yaqin Sharq mintaqasining ahamiyati yanada oshib borayotgan bir davrda tashqi siyosiy qarorlar qabul qilish va strategiyalarini ishlab chiqish jarayonlarida neokonservativ g'oyalarning ustuvorlikka ega. bo'lishi, Yaqin Sharq bo'yicha zamonaviy geostrategiyalarining yo'nalishlarini belgilashda neokonservativ g'oyalar ta'sirining oshishi va amaliyotining mustahkamla-nishiga imkon yaratmoqda. AQSHning Yaqin Sharqdagi geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlardan kelib chiqqan holda zamonaviy bosqichdagi AQSH nekonservativizmining Yaqin Sharqdagi geostrategiyalarining geoiqtisodiy manfaatlari va terrorizm, Iroq, Eron, Isroil xavfsizligi kabi konseptual yo'nalishlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

AQSH neokonservativizmining Yaqin Sharqdagi geostratejiyalarining geoijtisodiy manfaatlari borasidagi vazifalari bir vaqtning o‘zida siyosiy va xavfsizlik vazifalari bilan chambarchas bog‘liqdir. E’tibor beradigan bo‘lsak, neokonservator nazariyotchilar tomonidan asoslangan iqtisodiy manfaatlari ijrosi oxirgi Respublikachilar hukumati davrida deyarli amalga oshirildi.

AQSH o‘zining barcha mintaqalardagi geoijtisodiy manfaatlarini harbiy kuch yordamida va mintaqalardagi jarayonlarga siyosiy aralashuv orqali amalga oshirishga harakat qiladi. Ko‘pchilik mutaxassislar e’tirofiga ko‘ra, bunga yaqqol misol sifatida AQSHning oxirgi Iroqqa nisbatan harbiy operatsiyasini keltirish mumkin. Ko‘pchilik mutaxassislar tomonidan Iraq liderini ag‘darishga asosiy ichki undovlardan biri-bu Iraq nefti bo‘lganligi ta’kidlanayotganligi ham AQSH neokonservatorlari oldida turgan asosiy vazifa-iqtisodiy barqarorlik uchun imkoniyatlar izlash ekanligini tushunish mumkin. Bundan tashqari, Bahrayn, BAA Saudia Arabistoni neft mintaqalariga bo‘lgan tahdidni bartaraf etish va mintaqqa davlatlari iqtisodiyotiga faol aralashuvga (asosan dunyo neft narxi ustidan nazorat qilish) chek qo‘yish ham asosiy masalalardan biri bo‘lib keladi.

2000-yildan keyingi voqealar rivojiga e’tibor bersak, yangi hukumatning kelishi, hukumat a’zolari va asosiy tashqi siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlaridagi ishtirokchilarning neokonservativ kayfiyatdagi komandaning tuzulishi bilan Iraq tuzumini ag‘darish maqsadlarini oqlovchi axborot urushlari avj oldirila boshlangan edi. Bundan tashqari, shu kabi maqsadlarni qo‘llab - quvvatlovchi davlatlar kaolitsiyasiga bo‘lgan intilish ham kuchaygan edi. 2001-yil aprelda Bush hukumatiga Ommaviy siyosat institutidan J.A. Beykerning “energetik xavfsizlik” dokladi taqdim etildi. Taniqli neokonservator Beyker katta J.Bush hukumati davrida davlat kotibi bo‘lib xizmat qilgan edi. Dokladda ta’kidlanishicha: «Iraq AQSHning Yaqin Sharqdagi ittifoqchilariga nisbatan beqarorlashtiruvchi ta’sirini o‘tkazishda davom etmoqda. Bundan tashqari, xalqaro va dunyo tartibotiga va Yaqin Sharqdan dunyo bozoriga neft yetkazib berish jarayonlariga tahdid solmoqda. AQSH bevosita Iroqning bugungi harbiy, energetik va siyosiy-diplomatik holatini siyosiy tahlil etishi lozim. Bu kabi

fikrlarni AQSH olimlaridan biri M.Klerning “Manbalar uchun kurash” kitobida ta’kidlagan quyidagi jumlalar bilan to‘ldirish mumkin: «Iraq ustidan nazorat neftni kuch sifatida e’tirof etishga olib keladi. Fors ko‘rfazi ustidan nazorat Yevropa, Yaponiya va Xitoy ustidan nazorat qilishga va neft jo‘mraklarini o‘z qo‘limizda qolishiga imkoniyatni beradi». Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, mintaqadagi iqtisodiy manfaatlarning naqadar dolzarb ekanligi 2001-yil 20-sentabrdagi PNACning Bushga yo‘llagan maktubi mazmunidan ham yaqqol seziladi. Masalan, unda hatto, 11-sentabrdagi terroristik hurujlarga Iroqning to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqasi to‘g‘risida dalillar topilmagan holatda ham Iroqdagi S.Husayn tuzumini ag‘darish kerakligi ochiq-dan-ochiq e’tirof etilmoqda.

Afg‘onistonidan keyin Yaqin Sharqda tartib o‘rnatish vaqtin kelganligi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri harbiy aralashuvlarni qo‘llash lozimligini ko‘pchilik AQSH siyosiy elita vakillari ta’kidlasha boshlashdi. Muayyan ijtimoiy guruhlar – siyosiy elita doimo mamlakat hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi siyosiy qarorlarni ochiq va yopiq ravishda qabul qilishda yetakchi o‘rinni saqlab qolishga harakat qilishlarini ta’kidlash o‘rinli. Ular davlat va kishilar nomidan “hayotiy muhim milliy manfaatlar”ni shakllantiradilar, mamlakat milliy xavfsizligini ta’minalashda mas’ul hisoblanadilar. Shu bois, har bir davlat ichki va tashqi siyosatini o‘rganishda, uni tahlil etishda qaysi ijtimoiy guruh hukmron mavqelarni egallab turganliklarini inobatga olish kerak bo‘ladi. AQSH siyosiy elitasi ko‘pchiliginи neokonservatorlar tashkil etib, bu davrda hukumatdagi muhim boshqaruv martabalariga ham ko‘tarilgan edi.

Neokonservatorlardan P.Vulfovis Iroqqa qarshi qurolli harakatlarни 11-sentabrdan to‘rt kun o‘tiboq, hech qanday asoslarni keltirma-gan holda yoqlab chiqqan edi. Vulfovis Iroq haqida faqatgina kitoblar orqali tanishgan bo‘lsa-da, uni Iroq 1979-yildayoq tashvishlantira boshlaganini ta’kidlaydi. Shuni ta’kidlash kerakki, neokonservatorlarning o‘n yillar davomidagi muhokamalarida Iroq, Eron, Suriya kabi davlatlar yetakchi o‘rin egallagan bir vaqtida, 11-sentabr voqealari bu davlatlarga nisbatan keskin siyosatning kuchayishiga sabab bo‘lolmaydi.

Yaqin Sharq bo'yicha amerikalik ekspert J.Kempning ta'kidlashicha, Bush hukumati 2002-yil boshlaridayoq Afg'onistondan keyingi harbiy harakatlar obyekti Iroq bo'lishi haqida va 2005-yilgacha S.Husayn tuzumi ag'darilishi to'g'risida qaror qabul qilib bo'lingan. Garchi AQSH energetika resurslari importining 17,6 foizi Yaqin Sharq mintaqasiga va 41,3 foizi Kanada, Meksika va Venesuela hissasiga to'g'ri kelsa-da, Federal rezerv sistemasining sobiq rahbari Alan Grinspen (Alan Greyenspan) va senator Jon Makkeyn (John McCain) tan olishicha, Iroq urushi neft tufayli boshlandi. Grinspen o'z memuarlarida yozishicha "Iroq urushi asosan neft tufayli olib borilgan". Ushbu holatni Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi so'zlari bilan ifodalash mumkin: "...kimda-kim neft va gaz zaxiralariga hukmronlik qilsa, dunyoga hukmron bo'lishi mumkin degan qarashlar kuchayib bormoqda. Va aksincha – kimdaki shunday resurslar bo'lmasa, neft-gaz, umuman, uglevodorod xomashyosiga ega boshqa davlatlarga nisbatan turli harakatlar ham sodir bo'layapti. Chunki qudratli davlatlar yaxshi biladiki, mana shunday boylik kimning qo'lida bo'lsa, u boshqalarni o'z ta'siriga olishning kaliti, vositali bo'lib xizmat qiladi".

Hukumatdagi neokonservatorlar o'zlarining konseptual prinsiplarida avvalo o'z siyosiy maqsadlarini oldindan tayyorlashlari, keyin esa ularni amalga oshirish uchun yetarli fakt va dalillar qidirishga harakat qilayotganligini ta'kidlash kerak.

2003-yil martdagagi Iroqqa boshlangan harbiy harakatlarning birinchi yutuqlari kutulgandek boshlangan bo'lsa-da, operatsiyaning ikkinchi qismi, ya'ni Iroq xavfsizligini ta'minlash, neft qazish va tashish xavfsizligi hamda uning ustidan nazorat, konfessiyaviy muvozanat kabi masalalarda ijobjiy natijalarga erishilmayotganligini kuzatish mumkin.

Iroq muammosining kuch bilan hal etilishini ham neokonservatorlar, ham demokrat liberallar birdek yoqlaganligini I.Shumilin quyidagicha izohlaydi: «Bunday umumxalq konsensusi uchun Iroq tuzumi quyidagi tahdidlarni keltirardi: a) AQSH xavfsizligiga; b) AQSHning Yaqin Sharqdagi manfaatlariga (Falastin – Isroil mafrasining istiqbolli hal etilishi, Fors ko'rfazi monarxiyaviy tuzumlar

barqarorligi). Bundan tashqari, AQSHning Iroq ustidan nazorati Suriya va Eron uchun tashqi qurshovga olinish quroli bo‘lishi mumkin. Iroqda Amerika harbiy kuchlarining mavjudligi bu davlatlar tuzumlari uchun muhim bosim o‘tkazish richagi bo‘lishi mumkin». Rossiyalik tadqiqotchi A.Arbatovning fikricha, Vashingtonning asosiy maqsadi mintaqada AQSH uchun ustun bo‘lgan amerikaparast tuzumni va Eronqa qarshi mintaqaviy harbiy-siyosiy kuchni tashkil etish edi. Bundan tashqari, AQSH Saudiya Arabistoniga qaramliligini kamaytirish va OPEKni kuchsizlantirishni maqsad qilgan edi. S.Husayn tuzumida OQQ yo‘q ekanligi tushuntirilayotgan bir davrda Bush hukumati Iroq urushini oqlashga harakat qila boshladi va erkinlik, demokratiya uchun kurash terrorizmga qarshi kurash urushida asosiy quroq sifatida qo‘yila boshlandi. Lekin demokratiya to‘g‘risidagi id-daolar AQSH gegemonligini keng yoyishning niqobi sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘tgan o‘n yillikdagi hech bir voqeа, 11-sentabr voqealaridan tashqari, AQSHning dunyodagi mavqeyiga salbiy natijalar olib kelmadи. Ko‘pchilikning Iroqdagи holati-chi degan fikriga kelsak, AQSHning Yaqin Sharqdagi va boshqa joylardagi harbiy harakatlari natijalari strategik konfiguratsiyaning fundamental o‘zgarishlariga sabab bo‘lmadi, deya ta’kidlaydi R.Kagan.

AQSHning Yaqin Sharqdagi geostrategiyasining yana bir muhim yo‘nalishi—mintaqadagi manfaatlari xavfsizligiga bo‘ladigan tahdidlarni bartaraf etish muammosidir. Bu bevosita terrorizm, yadroviy tahdidlar bilan bog‘liq .

2000-yildagi saylov kampaniyalari davomida J.Bush AQSHning boshqa davlatlarning milliy davlatchilik qurish jarayonida ishtirok etishini va qo‘llab-quvvatlashini ta’kidlab o‘tdi. O‘sha vaqtida AQSH tashqi siyosati masalalari bo‘yicha bosh maslahatchi lavozimida bo‘lgan K.Rays (2000-yilda milliy xavfsizlik bo‘yicha maslahatchi lavozimiga o‘tgan) yangi respublikachilar ma’muriyatining xavfsizlik doirasidagi muhim vazifalarini belgilab o‘tgan edi: “Vazminlik siyosati (deterrence), Amerika manfaatlarining muhofazasi uchun kuchlarni shakllantirish, erkin savdo va iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash, ittifoqchilar bilan munosabatlarni mustahkamlash, dunyoning yirik davlatlari bilan har tomonlama aloqalarni rivojlantirish

(Rossiya va Xitoy misolida) va ommaviy qirg‘in qurollarini yaratishga qodir davlatlarga nisbatan qat’iy choralar ko‘rish”.

Neokonservatorlar nuqtayi nazariga ko‘ra, yadroviy qurolga ega bo‘lishdan ko‘ra unga ega bo‘lgan tuzumning demokratik ekanligi va AQSHga nisbatan do‘stona xarakterga ega ekanligi muhimdir. Shuning uchun tuzumni o‘zgartirish zaruratini taqozo etadi. Demokratiyanı o‘rnatish maqsadida tuzumni o‘zgartirish, neokonservatorlar fikricha, terrorizm tahdidini bartaraf etishning universal vositasidir.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Zamonaviy dunyoda AQSHning yuksalishida geografik omilning roli qanday?
2. Zamonaviy bosqichda AQSHning asosiy tashqi siyosiy yo‘nalishi qanday?
3. “AQSH va zamonaviy dunyo tartiboti” mavzusini muhokama qiling.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. “AQSHning siyosiy institutlari va siyosiy amaliyotiga tarixning tasiri” mavzusida doklad tayyorlang.
2. “AQSHda ijtimoiy siyosat nimaga yo‘naltirilgan?” mavzusida xabar tayyorlang.
3. “AQSH va jahon moliyaviy inqirozi” mavzusida doklad tayyorlang.
4. “2006-yilgi Milliy xavfsizlik strategiyasining asosiy tutgan o‘rni nimada?” mavzusida prezentatsiya tayyorlang.
5. “Donald Tramp—AQSHning 45-prezidenti” mavzusida prezentatsiya tayyorlang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati Asosiy adabiyotlar

1. Kathy Pain. Changing Urban and Regional Relations in a Globalizing World. – USA, 2014, 48 p.
2. Timo Behr., Juha Jokela. Regionalism and global governance: the emerging agenda. –Notre Europe, 2011, 67 p.

3. Rouben Azizian, Carleton Cramer. Regionalism, security and cooperation in Oceania. – USA: APCSS, 2015, 172 p.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Барыгин И. Н. Международное регионоведение. – СПб.: Питер, 2016, 384 с.
2. Мухаммадсидиков М.М. Замонавий халқаро муносабатларнинг минтақавий жиҳатлари (ўқув қўлланма). –Т.: ТошДШИ, 2013, 182 б.
3. Мухаммадсидиков М.М. Хорижий Шарқ ва Ғарб мамлакатларида ижтимоий-сиёсий жараёнлар (ўқув қўлланма) . –T: ТошДШИ, 2013, 160 б.
4. Muhammadsidiqov M.M. Sharq mamlakatlari xalqaro munosabatlari (o‘quv qo‘llanma). – T.: ToshDSHI, 2017, 240 b.

13-BOB. ROSSIYA TASHQI SIYOSATINING MINTAQAVIY JIHATLARI

Darsning maqsadi:

- talabalarda Rossiya tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha tushunchani shakllantirish;
- talabalarda Rossiya tashqi siyosatining asosiy doktrinalari yuzasidan tushunchalarni shakllantirish;
- yoshlar orasida sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: *Mintaqa, mintaqashunoslik, xalqaro mintaqashunoslik, mintaqaviy siyosat, doktrina, Rossiya, Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo, globallashuv, integratsiya, makromintaqa, mikro-mintaqa, hudud, mintaqaviy munosabatlar.*

13.1. Rossiya tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlari

Rossiya Federatsiyasi jahon siyosatida yetakchi kuch markazlari dan biri bo‘lib, rus olimlarining ta’kidlashlaricha, “buyuk davlat” sifatida Rossiya 250-yillik tarixga ega. Shu jihatdan jahonda yangi siyosiy tartibotning shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsata olish potensialiga egadir. Bu, eng avvalo, xalqaro munosabatlarda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Rossiyaning tashqi siyosiy resurslari bilan belgilanadi. Ushbu resurslar tarkibiga, rus olimi G.A. Drobot e’tirof etganidek, geografik, demografik, iqtisodiy va harbiy resurslarni kiritish mumkin. Bu resurslar moddiy xarakterga ega bo‘lib, nomoddiy resurslar siyosiy, ijtimoiy, mafkuraviy, madaniy, informatsion va ilmiy-texnikaviy resurslardan iborat¹¹⁴.

Qisqacha Rossiya Federatsiyasining tashqi siyosiy resurslari to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, Rossiya geografik jihatdan dunyodagi eng katta hududga ega – 17.125.191 km kv. Bu yer sharidagi quruqlikning 1/8 qismini tashkil etadi. Jahonning strategik jihatdan muhim ahamiyat kasb etgan Yaqin Sharq, Yevropa, Markaziy Osiyo, Uzoq Sharq

¹¹⁴ Великие державы в мировой политике: США http://www.worldspol.socio.msu.ru/programmi/Velikie_derwavy_v_mirovoy_politike_SSA.doc

mintaqalari bilan tutash chegaralarga ega va ko‘plab dengizga chiqish portlari mavjud. Sharq va G‘arb davlatlarini bir-biri bilan bog‘lab turish vazifalaridan birini bajaradi.

Rossiyaning demografik holatiga ko‘ra, aholisi 2016-yil iyuldagi ma’lumotlarga binoan 146,702,096 ni tashkil etib¹¹⁵, bu jihatda jahonda to‘qqizinchi o‘rinda turadi. Biroq aholi o‘sishi yildan-yilga kamayib bormoqda, bu ko‘rsatkich 2008-yilda – 0,474%ga teng bo‘lgan.

Iqtisodiy potensialiga ko‘ra, Rossiya tez taraqqiy etib borayotgan davlatlardan biridir. YalM 2007-yilda 129 mlrd.dollarni tashkil etgan. Asosiy eksport hamkorlari Niderlandiya - 12.2%, Italiya - 7.8%, Germaniya - 7.5%, Turkiya - 5.2%, Belorusiya - 5%, Ukraina - 4.7%, Xitoy - 4.5% (2007) va import hamkorlari Germaniya - 13.3%, Xitoy - 12.2%, Ukraina - 6.7%, Yaponiya -6.4%, AQSH - 4.8%, Belorusiya - 4.4%, Janubiy Koreya - 4.4%, (2007)¹¹⁶. Shuningdek, Rossiyaning iqtisodiy jihatdan jadal suratda o‘sishiga uning ulkan boyliklarga ega ekanligi, xususan, energetikaga talab va bahosining oshib borishi-dir. Bugungi kunda mamlakat neft zaxirasi 60 mlrd. barrel tabiiy gaz zaxirasi esa 47,57 trln. kub m. (2008-yil 1-yanvar). Juhon jamiyati neft eksportining 15%i Rossiya hissasiga to‘g‘ri keladi va bu jihatdan Saudiya Arabistonidan (16,1%) so‘ng ikkinchi o‘rinni egallaydi. Biroq ta’kidlash joizki, Rossiya eksporti va YalMning katta qismi xomashyo daromatiga to‘g‘ri kelishi, Rossiya FA xalqaro xavfsizlik Markazi direktori A.Arbatov ta’kidlaganidek, uning jahon siyosiy maydonida barqaror rolini ta’minalashga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin¹¹⁷. Ayniqsa, bugungi jahon iqtisodiy inqirozi va neft narxining keskin tushib ketgan davrida.

Tashqi va xavfsizlik siyosatida hal qiluvchi omil bo‘lgan Rossiya harbiy potensialiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu borada Rossiya jahonda ikki harbiy qudratli davlatlardan biridir. Hozirgi davrda jahondagi yadroviy qurol zaxirasining 95%i AQSH va Rossiyaga tegishlidir.

¹¹⁵ Central Intelligence Agency - <https://www.cia.gov/library/publications/the-world-factbook/geos/rs.html> - 18 December 2008.

¹¹⁶ O‘sha joyda.

¹¹⁷ Интервью с А.Абратов. Россия хочет изменить мировой порядок // <http://www.carnegie.ru/ru/pubs/media/78622.htm> - 17.07.2008

Garchi sobiq Ittifoq parchalangandan so‘ng harbiy xarajatlar qisqarganiga qaramay, 2016-yilda harbiy xarajatlar 87,8 mlrd. dollarni tashkil etgan, bu jahondagi shu sohadagi umumiy xarajatlarning 3%ni tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha dunyoda yettinchi o‘rinda turadi. Stokholm xalqaro tinchlikni tadqiq etish instituti (SIPRI) ning 2016-yilgi dokladiga binoan jahon quroq yaroq bozorida Rossiya ulushi 25%ni tashkil etgan (AQSH-31%). 2003-2007-yil umumiy yetkazib berilgan qurollarning 45%ni Xitoy, 22%ni Hindiston, 5%ni Venesuela va 4%ni Jazoir hissasiga to‘g‘ri kelgan¹¹⁸.

Rossiya Federatsiyasi jahon siyosatida yetakchi kuch markazlari dan biri hisoblanadi. XX asrning so‘nggi o‘n yilligi va XXI asrning boshlaridagi jahon siyosiy maydonidagi keskin o‘zgarishlar, ya’ni ikki qutbli dunyo tartibotining barham topishi, sobiq SSSR va Varshava Sharhnomasining parchalanishi, global xarakterdagi muammolarning vujudga kelishi, xalqaro munosabatlar tizimidagi yangi yetakchilikka davogar kuch markazlarining shakllanishi, Rossiya tashqi siyosatini qayta ko‘rib chiqish va zamonaviy davr talablariga moslashtirish zarurati tug‘ildi. Bu esa tashqi siyosatning yangi huquqiy asoslari yaratilishiga asos bo‘ldi.

Har bir davlatning tashqi siyosati ikki omil asosida shakllanadi. Birinchisi, xalqaro arenadagi, ayniqsa, shu davlatning strategik manfaatlari to‘qnashgan hududlarda siyosiy, iqtisodiy va harbiy sharoitga tegishlidir. Ikkinci guruh omillar juda muhim bo‘lgan ichki harakatlanuvchi kuchlar va dalillar sifatida namoyon bo‘lib, davlatning milliy chegaralaridan tashqaridagi faoliyatiga sabab bo‘ladi.

Rossiya tashqi siyosatining huquqiy asoslari sifatida xalqaro ko‘p va ikki tomonlama sharhnomalardan tashqari quyidagi huquqiy-hujjatlarni keltirish mumkin:

- Rossiya Federatsiyasi konstitutsiyasi (1993-yil 12-dekabr);
- Rossiya Federatsiyasining 1993-, 2000-, 2008-, 2013-, 2016-yillarda qabul qilingan tashqi siyosiy konsepsiyalari;
- Rossiya Federatsiyasining 1997-, 2000-, 2015-yillarda qabul qilingan milliy xavfsizlik konsepsiyalari;

¹¹⁸ <http://www.top.rbc.ru/economics/10/06/2008/181393.shtml>

- Rossiya Federatsiyasi harbiy doktrinasi;
- 2020-yilgacha davrdagi Rossiya Federatsiyasi dengiz doktrinasi (2004-yil 20-yanvar);
- Rossiya Federatsiyasi axborot xavfsizligi doktrinasi (2000-yil 18-avgust);
- Xalqaro ilmiy-texnikaviy hamkorlik sohasida Rossiya Federatsiyasi davlat siyosati konsepsiyalari;
- Rossiya Federatsiyasi ekologik doktrinasi;
- Rossiya Federatsiyasi davlat milliy siyosati konsepsiysi va boshqa hujjatlar.

Avvalgi tashqi siyosat konsepsiyalaridan farqli o‘laroq, 2016-yil 30-noyabrda Rossiya Prezidenti V. Putin tomonidan tasdiqlangan “Tashqi siyosat Konsepsiysi” dunyo hamjamiyatida kuzatilayotgan yangi tendensiyalarni o‘z ichiga qamrab olgan. Yangi-yangi sohalardagi ustuvor yo‘nalishlar belgilangan. Masalan, yangi konsepsiya 108 ta banddan iborat bo‘lib, hozirgi davrdagi Rossiya tashqi siyosatida xalqaro huquqiy munosabatlarning ustunligi, xalqaro xavfsizlikni ta’minlash, xalqaro iqtisodiy va ekologik hamkorlik, inson huquqlari va xalqaro gumanitar yordam ko‘rsatish, axborot xavfsizligini ta’minlash kabi yo‘nalishlar belgilangan. Shuningdek, mintaqaviy va xalqaro aloqalarga urg‘u berilgan. Yangi jahon tuzilmasini tashkil etish. Bu sistema jahon hamjamiyatining har bir a’zosiga siyosiy, iqtisodiy, harbiy, informatsion, gumanitar va boshqa sohalarda ishonchli va tenglik tamoyiliga asoslangan xavfsizlikni ta’minlashga da’vat qilishdan iborat. Uning bosh instrumenti etib ko‘p tomonlama diplomatiya belgilangan. BMT xalqaro munosabatlarni boshqarish va tartibga solishdagi rolini oshirishga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

1. Xalqaro munosabatlarda huquq ustuvorligini ta’minlash;
2. Xalqaro xavfsizlikni mustahkamlash;
3. Xalqaro iqtisodiy va ekologik hamkorlikni kuchaytirish;
4. Xalqaro gumanitar hamkorlik va inson huquqlari ustuvorligini ta’minlash;
5. Tashqi siyosiy faoliyatni axborot bilan ta’minlash.

Shuningdek, ushbu konsepsiyada Rossiya Federatsiyasi tashqi siyosatining mintaqaviy ustuvor yo‘nalishlari borasida ham to‘xtalib o‘tilgan. Ular orasida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- MDH davlatlari bilan ikki va ko‘p tomonlama aloqalarni mustahkamlash (shuningdek, Yevrosiyo, KXShT va ShHTdoirasida);
- Qora dengiz va Kaspiy dengizi qirg‘og‘idagi davlatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish;
- Yevropa yo‘nalishi – shuningdek, YeXHT va Yevropa Kengashi doirasidagi aloqalar;
- Yevropa Ittifoqi bilan har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish. Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Ispaniya, Finlandiya, Gretsya, Niderlandiya, Norvegiya va boshqa bir qator G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan o‘zaro foydali ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirish;
- Arktika va Yevropa Artika mintaqasida Shimoliy Yevropa bilan qo‘shma loyihalarni amalga oshirish;
- AQSH, NATO va Rossiya Kengashi doirasida munosabatlarni rivojlantirish;
- ATR mamlakatlari, ASYeAN, Xitoy va Hindiston bilan kelgusi hamkorlikni rivojlantirish;
- Yaqin Sharq, musulmon mamlakatlari, Afrika va Lotin Amerikasi davlatlari bilan o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish¹¹⁹.

Rus olimi G.A. Drobot 1990-yildan zamonaviy Rossiya tashqi siyosatini uch bosqichga bo‘lgan:

Birinchi bosqich. Rossiya tashqi siyosatining bu bosqichi 1980-yil oxiri “sovuq urush” barham topishi, “Varshava Shartnomasi tashkilotining tugashi, Sovet Ittifoqining parchalanishi bilan boshlangan. Bir necha yillar davomida, ya’ni 1990-yilning ikkinchi yarmiga qadar demokratik tuzumga o‘tish rivojlandi. Rossiyada ham liberal xarakterga ega davlat rahbari B. Yelsin va tashqi ishlar vaziri A. Kozirev davrida

¹¹⁹ Концепция внешней политики Российской Федерации <http://www.mid.ru/ns.osndoc.nsf/0e9272befa34209743256c630042d1aa/d48737161a0bc944c32574870048d8f7?OpenDocument>

G‘arb bilan, xususan, AQSH bilan do‘stona aloqalar ikki yo‘nalishda: iqtisodiy va harbiy-siyosiy yo‘nalishda rivojlandi. 1992-yil boshida Rossiya AQSH bilan aloqalarda ochiqlikni namoyon qildi. Prezident B.Yelsin rasmiy ravishda mamlakatning yadroviy qurollari AQSH hududiga yo‘naltirilmasligini bildirdi¹²⁰. Rossiya iqtisodiy islohotlar uchun 1990-yilda G‘arbnинг katta moliyaviy yordamidan foydalandi. Natijada barcha muhim xalqaro masalalar, jumladan, qurollanish bo‘yicha muzokaralarda tashqi siyosati ta’siriga barham berildi.

Bugungi kun bilan solishtiradigan bo‘lsak, Rossiyaning tashqi siyosatga ajratayotgan xarajati nisbatan past ko‘rsatkichda qolmoqda. Tashqi siyosatga AQSH – 300 mlrd. dollar, Yaponiya – 50 mlrd. atrofida, Angliya 40 mlrd.ga yaqin, Rossiya esa – atigi 8 mlrd. dollar sarflaydi¹²¹.

Ikkinch bosqich. Rossiya tashqi siyosatining ikkinchi bosqichi o‘tgan asrning so‘ngida boshlandi. Bunga sabab NATOning Sharqqa kengayishi, birinchi muzokaralarning boshlanishi va Alyansning Yugoslaviya (1999) ga qilgan operatsiyasi bilan bog‘liq. Bu Rossiya tashqi siyosati uchun jiddiy zarba edi.

Shuni aytish kerakki, 1996-yil oxiridan boshlab Rossiya siyosatdagi bosh muammo NATOning Sharqqa kengayishi bo‘ldi. NATO-ga Sobiq sovet mamlakatlarini qabul qilishining birinchi to‘lqini 1997-yilning iyul oyida NATO Madrid shahrida bo‘lib o‘tgan ken-gashda Polsha, Vengriya, Chexiyani qabul qilishi borasida qaror qabul qilinganligi bilan boshlandi va bu jarayon 1999-yilda nihoyasiga yetdi. Bu mamlakatlardagi qayta qurollanish va harbiy infrastrukturani tiklash uchun 10 – 15 mlrd. dollar ajratilishi ham Rossiya tashqi siyosatida muhim ahamiyat kasb etdi.

Rossiya tashqi siyosatining yangi davri boshlanishini aniqlab bergen omillardan biri AQSHning 1990–2000-yillarda xalqaro mu-

¹²⁰ Козленько В.М., Екимасова Н.С. История международных отношений и внешней политике России. – М: АСПЕНТ ПРЕСС, 2006, 311 с.

¹²¹ Дробот Г.А. Великие державы в мировой политике: Россия.

nosabatlardagi rolini o‘zgarganligi va yagona yetakchi pozitsiyasini egallashga urinish bilan xarakterlanadi. Rossiyaning o‘z muammo-lari doirasida qolganligi, Yevropa Ittifoqi va Yaponianing AQSH bilan birgaligi Amerikaning dunyoda gegemonlikka intilishiga olib keldi. “Shu davrdan boshlab, AQSH “O‘z yo‘lidan yurish”ni sinab ko‘rmoqda, qolgan davlatlar u bilan hisoblashishi zarur”, – degan fikrni bildirgan edi G.A.Drobot.

Rossiya tashqi siyosatining ikkinchi davri boshlanishi amaliyotda Rossiya Prezidenti sifatida 2000-yilda V. Putinning saylanishi bilan bog‘liq. Uning tashqi siyosatini buyuk davlatchilik tamoyiliga asoslangan deyish mumkin va ikki muhim tarkibiy qismni ko‘rsatib o‘tish maqsadga muvofiq:

birinchidan, Rossiya tashqi siyosiyo yo‘nalishini qayta tashkil qilish, shuningdek, zamonaviy dunyoda zamonaviy kuch markazlarning katta qismi bilan, shu jumladan, AQSH, YLI, Xitoy, Hindiston, Lotin Amerikasi davlatlari va Yaqin Sharq bilan siyosiy, iqtisodiy, harbiy va boshqa sohalarda aloqalarni qo‘llab-quvvatlash;

ikkinchidan, jahonda AQSH yetakchiligiga yo‘l qo‘ymaslik siyosatidan borish, 1990-yil oxiridan, tashqi ishlar vaziri E.Trima Universiteti professori M.N.Katsning ta’kidlashicha, Prezident V.Putinning tashqi siyosati AQSH “gegemoniyasi” va “bir qutbli dunyo” g‘oyasi ta’sirini kamaytirishga qaratilgan. Shu bilan birga, ko‘p qutbli dunyo tartibotida Rossiya yirik qudratli davlatga aylanishga urinmoqda. E. Primakov bilan Rossiyaning buyuk davlat maqomini saqlashga kelishi holda, V. Putin G‘arb tomonidan bo‘ladigan tahdidlar ta’sirini kamaytirishga e’tibor qaratdi. Shu bilan birga, u e’tiborni Yevropa davlatlari va AQSH bilan hamkorlikni rivojlantirishga qaratdi.

V. Putin Rossiyani Osiyo davlati emas, balki Yevropa davlati sifatida qolishiga erishdi. Bu boradagi ko‘plab qiyinchiliklarga qaramasdan, President o‘zining ikkinchi prezidentlik davrida (2004–2008 y.) Rossiyani Yevropa davlati sifatida qolishini ta’minashni davom ettirdi. Professor S.N. Kortunovning fikricha, Rossiyaning yaqin kelajakdagi muhim milliy va uzoq muddatli manfaatlari – G‘arbgaga maksimal

darajada siyosiy va iqtisodiy jihatdan yaqinlashish va yagona yevropalik maqomini shakllantirishdan iborat.

Uchinchi bosqich. Rossiya tashqi siyosatining uchinchi bosqichini Prezident V. Putinning 2007-yil fevralda Myunhen shahrida bo‘lib o‘tgan xavfsizlik bo‘yicha konferensiyada chiqishi bilan bog‘lash mumkin. Bu davrning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

1. AQSH “dunyo”ga bir nizo ketidan boshqasini olib kelayotgan tashqi siyosatini keskin tanqid qilish. So‘z bu borada, eng avvalo, Iroq muammosi, Eronga urush bilan tanqid qilish haqida bormoqda.

2. Yevropa yo‘nalishida Rossiya Yevropada odatiy qurolli kuch to‘g‘risidagi Shartnoma (DOVSE) ni ishtirokchilar tomonidan amaliy sust ketayotganlikda ayblaydi. 2007-yil dekabrda DOVSE da ishtirok etishga moretoriy e’lon qildi. Bundan tashqari, Rossiya Yevropada energetik xavfsizlik bo‘yicha o‘zining siyosatini qat’iy belgilab oldi. Shuningdek, YeXHT va MDH hududida Rossiya manfaatlariga qarshi “demokratlashtirishni” qo‘llab-quvvatlash orqali faoliyat olib borayotganligi uchun pulini to‘xtatishni e’lon qildi.

3. Yaqin Sharqda Rossiya Falastindagi G‘arb tomonidan terrorchi tashkilot sifatida e’lon qilingan yetakchi XAMAS tashkiloti bilan rasmiy munosabatlar o‘rnatdi. Markaziy Osiyoda Rossiya tinchlik yo‘lida Eron bilan yadroviy texnologiya borasida aloqalarni qo‘llab-quvvatladi¹²².

Hozirgi davr. V. Putinning 2012-yildan hozirgi kunga qadar prezidentlik lavozimi davrida Rossiya o‘z nufuzini qayta tiklashga erisha oldi. Bu davrda jahon siyosatida juda katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

Iqtisodiy jihatdan ortda qolishiga qaramay, harbiy salohiyatni tiklash va rivojlantirib borishga e’tibor qaratdi. Harbiy harajatlarni yildan-yilga ko‘paytirib borish, armiyani zamonaviy quroslashalar bilan ta’minlashni bosqichma-bosqich olib borish strategiyalari e’lon qilindi. Hozirgi davrda Rossiya o‘z harbiy harajatlari uchun 87 mlrd. AQSH dollari sarflamoqda.

¹²²

Мухаев Р.Т. Политология. – М.: Приор, 2002, 386 с.

Ukraina inqirozi tufayli yuzaga kelgan ikki davlat o'rtasidagi keskinlik natijasida iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqalarga putur yetdi. 2014-yilda Qrimning Rossiyaga qo'shilishi Putin diplomatiyasining eng katta yutuqlaridan biri bo'ldi.

Suriya inqirozida esa Bashar Asad hukumatining qo'llanilishi orqali yuzaga kelishi mumkun bo'lgan falokatli fuqorolar urushi oldini olinmoqda va mintaqadagi terroristik kuchlarga samarali qarshi kurashilmoqda. 2017-yil holatiga ko'ra, Suriya hududining 90%i terrorchilardan ozod qilindi. Buning natijasida jahon hamjamyatining Rossiyaga bo'lgan ishonchi ortmoqda.

13.2. Rossiyaning Markaziy Osiyo mintaqasidagi o'rni

Jahondagi yetakchi davlatlar manfaatlarining Markaziy Osiyoda tutashganligi natijasida geosiyosiy jarayonlar chigallashib bormoqda. Rossiyalik siyosatshunoslar Markaziy Osiyo mintaqasida geosiyosiy ishtirokchilar raqobatining yanada kuchayishi mumkunligi va unda Rossiya manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillarni tadqiq etadilar.

Ma'lumki, Rossiya Federatsiyasining tashqi siyosati Rossiya Federatsiyasi tashqi siyosati konsepsiyasiga va Konstitutsiyasining tashqi siyosatini belgilovchi qonunlarga asoslanadi va unda Rossiya Federatsiyasi tashqi siyosati asosiy yo'nalishlari belgilab qo'yilgan.

Markaziy Osiyo MDH hududi doirasida Rossiya tashqi siyosatida muhim ahamiyat kasb etadi. Rossiyalik ekspert V. Naumkin: «Hozirgi kunda Markaziy Osiyo – Rossiyaga, umuman, Yevrosiyoga oldindan kutilganiga nisbatan ko'proq ta'sir ko'rsatuvchi mintaqqa hisoblanaadi», –degan fikrni bildiradi. Shu jihatdan, mintaqqa Rossiya uchun geosiyosiy va geostrategik hududlarga, ya'ni Kaspiy dengiziga, O'rta va Yaqin Sharqqa, Janubiy va Janubi-sharqiy Osiyoga chiqishda muhim platsdarm hisoblanadi.

Rossiyaning Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan (shu jumladan, MDH davlatlariga ham) siyosatini 3 davrga ajratish mumkin:

Birinchi davr – 1991-yildan 1994-yilgacha. Bu davr Rossiyaning birinchi prezidenti B. Yelsin o‘z hokimiyatini mustahkamlagani bilan izohlanadi.

Ikkinci davr – 1994-yildan 1999-yilgacha. Rossiya «yo‘qotgan makon»ni qaytarish ilinjida olib borgan faoliyati xususiyatlanadi.

Uchinchi davr – 1999-yildan to hozirgi paytgacha. Bunda terrorizmga qarshi kurash va AQSH harbiy kontingentining Markaziy Osiyo mintaqasi hamda kavkazorti respublikalariga kirib kelishi bilan xususiyatlanadi. 2000-yil Putin va uning guruhini hokimiyat tebasiga kelishi Rossiya Federatsiyasi taraqqiyotida anchagina sezilarli voqeа bo‘ldi. Rossiya tashqi siyosat strategiyasi mamlakatni zamonaviy xalqaro munosabatlar va global iqtisodiyotning markazlaridan biri sifatida tobora aniq yo‘nalishlarini kasb eta boshladi.

Rossiya parlament Federatsiya Kengashi raisi S. Mironov (2012) «Markaziy Osiyo Rossiya Federatsiyasining hayotiy manfaatlari hududi bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi» deb ta’kidlaydi¹²³. Rossiyaning mintaqadagi manfaatlari tadqiqotchilar tomonidan turlicha izohlanadi. Rossiyaning Markaziy Osiyodagi manfaatlarini rus siyosatshunosi V. Tretyakov nisbatan quyidagicha keltiradi¹²⁴:

1. Mintaqada muayyan mas’uliyatsiz siyosiy kuchlarning hukmronligiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida ushbu mintaqaning barcha hududlarida Rossiya ta’sirini to‘liq tiklanishiga erishish.
2. Bevosita Rossiya chegaralari tutashib, ketadigan hududlarda hamda mintaqadagi vaziyat izdan chiqarishi mumkin bo‘lgan ichki mintaqaviy nizolarga yo‘l qo‘ymaslik.
3. Mintaqadagi tuzumlarning inqirozga yuz tutishi, ichki yoki tashqi kuchlar tomonidan ag‘darilishiga yo‘l qo‘ymaslik.
4. Rossiyaning mintaqadagi iqtisodiy mavqeyini mustahkamlash va istiqbolda bu hududda rus valyuta zonasini shakllantirish.
5. Afg‘oniston hududining bir qismini nazorat qilayotgan AQSH

¹²³ Interim Report. «The Comission on America’s National Interests and Russia». – September 2003. –<http://www.nixoncenter.org/>

¹²⁴ <http://www.geopolitika.lt/?artc=510//> Видение внешней политики России. Матас Якайтис. 2006.04.07.

va NATO narkotrafik masalasini hal etolmayotganini e'tiborga olib, uni to'liq to'xtatish yoki qisqartirish¹²⁵.

Shuningdek, yana bir rus siyosatshunosi D.Trofimov Rossiyaning mintaqadagi manfaatlarni quyidagicha izohlaydi:

1. Mintaqa davlatlari bilan hamkorlikda barqarorlikni mustahkamlash.

2. Mintaqada strategik ahamiyatga ega bo'lgan afg'on-islom omiliga qarshi kurashish.

3. NATOning Sharqqa intilishini to'xtatish.

4. Xitoy, Hindiston, Eron kabi mamlakatlar bilan sheriklik munosabatlarini ta'minlash maqsadida Markaziy Osiyo hududi orqali yuklarni to'siqsiz tranzit qilish huquqini rivojlantirish.

Rossiya Markaziy Osiyo mintaqasiga o'zining janubiy hududlari uchun «qalqon (bufer) hudud» sifatida qaraydi.

Rossiya mintaqadagi o'z manfaatlari xavfsizligini ta'minlashda AQSH va boshqa yirik derjavalar ta'sirini kuchsizlantirishda faol harakat qilmoqda.

Bugungi kunda Rossiyaning Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O'zbekiston bilan aloqalari tobora keng rivojlanib bormoqda. Ikki davlat o'rtasidagi savdo hajmi 4mlrd.dollardan ga teng bo'lib, bu ko'rsatkich yiliga jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Ikki davlat o'rtasidagi o'zaro hamkorlik huquqiy asoslari sifatida 1992-yil 30-mayda imzolangan O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi davlatlararo munosabatlar, do'stlik va hamkorlik asoslari to'g'risidagi shartnoma, 2005-yil 16-iyunda O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi strategik hamkorlik to'g'risidagi shartnoma, 2005-yil 14-noyabrdagi ikki davlat o'rtasidagi ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomalarni keltirish mumkin. Bu esa, O'zbekiston-Rossiya tashqi siyosating muhim yo'nalishi sifatida qolishini anglatadi¹²⁶. 2013-yilning

¹²⁵ Жўраев С. Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсати ва дипломатияси. – Т.: Akademiya, 2007, 80 б.

¹²⁶ Ўзбекистон Россия: ҳамкорликнинг барқарор ривожи // Халқ сўзи.

14–15-aprel kunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Rossiya Federatsiyasiga rasmiy tashrifi bo‘lib o‘tdi. Tashrif doirasida 2013–2017-yillarga mo‘ljallangan iqtisodiy hamkorlik to‘g‘risidagi hukumatlararo Dastur qabul qilindi. 2010-yil 12–13-noyabr kunlari O‘zbekistonga Rossiyaning Federatsiya Kengashi Raisi V.Matviyenko tashrif buyurdi. Tashrif doirasida V.Matviyenko O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining raisi I.Sobirov va Qonunchilik palatasi spikeri D.Toshmuhamedovalar bilan muzokaralar o‘tkazdi.

2014-yilning 10-dekabrida Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V.Putinning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi bo‘lib o‘tdi. Rossiya Federatsiyasi bilan ikki tomonlama savdo-iqtisodiy munosabatlar jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdo hamkorlari orasida Rossiya Federatsiyasi birinchi o‘rinda turadi. 2016-yil yakunlariga ko‘ra, ikki davlat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash 4,2 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. 2017-yil 5–6-aprel kunlari Presidentimiz Shavkat Mirziyoyev davlat tashrifi bilan Moskavada bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasiga davlat tashrifi yakunlari bo‘yicha qator hujjatlar imzolandi. Muzokaralar yakunida siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, harbiy-texnikaviy, migratsiya sohalari, shuningdek, min-taqalararo hamkorlik, turizm va sog‘liqni saqlashga oid umumiyligi qiy-mati 16 milliard dollar bo‘lgan 55 ta hujjat imzolandi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, 1990-yillarda dunyodagi ikki qutbli tizimning parchalanishi, Rossiya tashqi siyosatida yangi davrni ochilishiga olib keldi. Bu davrda Rossiya tashqi siyosatining huquqiy asoslarini va ustuvor yo‘nalishlarini belgilab beruvchi “Rossiya Federatsiyasining tashqi siyosiy konsepsiysi”, “Rossiya Federatsiyasi milliy xafsizlik konsepsiysi”, “Rossiya Federatsiyasi harbiy Doktrinasi”, “Rossiyaning Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi ishtirokchi davlatlari bilan strategik Kursi” kabi bir qator hujjatlar qabul qilindi. Shuningdek, XXI asrda Rossiyaning jahondagi mavjud va shakllanib kelayotgan kuch markazlari bilan iqtisodiy, siyosiy, harbiy, ilmiy-

texnikaviy va madaniy sohalarda aloqalari kuchaydi, tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida MDH davlatlari, jumladan, Markaziy Osiyo davlatlari bilan teng huquqli munosabatlari mustahkamlandi, jahondagi muammolarni hal qilishdagi roli oshdi. Bularning barchasi Rossiyaning ko‘p qutbli dunyo tartibotining shakllanishida yetakchi aktor bo‘lib qolishini ko‘rsatadi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Rossiya Federatsiyasining mintaqaviy siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Rossiya Federatsiyasining Markaziy Osiyoga nisbatan mintaqaviy siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari.
3. Rossiya Federatsiyasining Yaqin Sharqqa nisbatan mintaqaviy siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari.

Mustaqil ish topshiriqlari

1. “Qozog‘iston, Rossiya va Belorus ittifoqi” mavzusida prezentatsiya tayyorlang.
2. “MDH davlatlari hamkorligining asosiy yo‘nalishlari” mavzusida referat tayyorlang.
3. “ShHT” mavzusida ma’ruza tayyorlang.
4. “ShHTning Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan harakatlari” mavzusida referat tayyorlang.
5. Rossiya Federatsiyasi mintaqaviy siyosatining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganing va shu asosda referat tayyorlang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Kathy Pain. Changing Urban and Regional Relations in a Globalizing World. – USA, 2014, 248p.
2. TimoBehr., JuhaJokela. Regionalism and global governance: the emerging agenda. –Notre Europe, 2011, 7 p.
3. Rouben Azizian, Carleton Cramer. Regionalism, security and cooperation in Oceania. – USA: APCSS, 2015, 172 p.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Барыгин И. Н. Международное регионоведение. – СПб.: Питер, 2016, 384 с.
2. Мухаммадсidiқov M.M. Замонавий халқаро муносабатларнинг минтақавий жиҳатлари (ўкув қўлланма). –Т.: ТошДШИ, 2013, 182 б.
3. Мухаммадсidiқov M.M. Хорижий Шарқ ва Ғарб мамлакатларида ижтимоий-сиёсий жараёнлар (ўкув қўлланма). –Т.: ТошДШИ, 2013, 160 б.
4. Muhammadsidiqov M.M. Sharq mamlakatlari xalqaro munosabatlari (o'quv qo'llanma). – T.: ToshDSHI, 2017, 240 b.

14-BOB. XALQARO MUNOSABATLARDA OSIYO TINCH OKEANI MINTAQASI DAVLATLARI

Dars maqsadi:

- mazkur ma’ruzani o‘qitishdan ko‘zlangan maqsad talabalarning Osiyo Tinch okeani mintaqasi davlatlarining zamonaviy xalqaro munosabatlardagi o‘rnii haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish;
- talabalar jahon mamlakatlaridagi, xususan, OTOM siyosiy jarayonlar borasida tasavvur hosil qilishlariga ko‘maklashish;
- magistrant va talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishi hamda amaliyotda ularni qo‘llashni o‘rgatish;
- magistrant va talabalarga OTOMdagи siyosiy jarayonlar bora-sidagi to‘la ma’lumotlarni yetkazish hamda ushbu jarayonlarning o‘ziga xos jihatlari bilan ularni tanishtirib borish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: ASEAN va OTOM, Janubi-sharqiy Osiyo, Vyetnam, Laos, Myanma, Kambodja, Tailand, Malayziya, Indoneziya, Filippin, Singapur, Bruney.

14.1. OTOM davlatlari va ularning siyosiy xususiyatlari

Jahonda jo‘g‘rofiy o‘lchamlari va davlat chegarasi bilan aniq belgilanadigan “tabiiy” mintaqalar ko‘p emas. Aksariyat mintaqalar jahon davlatlari va mintaqaviy davlatlarning manfaatlariga qarab o‘zgarib turadi. Ular jumlasiga bir-biridan jiddiy siyosiy, iqtisodiy, madaniy-sivilizatsion farqlar bilan ajralib turuvchi davlatlarni bir-lashtirgan *Osiyo-Tinch okeani mintaqasi* ham kiradi. Tinch okeani havzasiga kirish belgisiga ko‘ra, mamlakatlarning mazkur mintaqaga kiritilishi mintaqani shakllantirishga nisbatan sof iqtisodiy yondashuvni aks ettiradi. Bunda asosiy urg‘u savdo, investitsiyalar va boshqa sohalarda Tinch okeani havzasida joylashgan mamlakatlar o‘rtasidagi aloqalarga beriladi. Bu holda Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga Sharqiy, Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari, shuningdek, AQSH, Kanada, Avstraliya va boshqalar kiradi.

Ayrim tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, Osiyo-Tinch okeani mintaqasini mustaqil mintaqaga sifatida ajratish jahon xalqaro munosabatlar tizimi-

dagi vaziyatni buzadi. Shu bois, ular Osiyo-Tinch okeani mintaqasi tushunchasidan voz kechish va baholar berishni uning submintaqalari darajasida amalga oshirishni taklif qiladi. Ba’zi tadqiqotchilar mintaqani universal geosiyosiy va geoiqtisodiy asosda tuzadi va jahondagi jarayonlarning qarshi oqimlari to’rt “eski” mintaqasi – Markaziy, Janubiy, Shimoli-sharqiylar va Janubi-sharqiylar Osiyonidagi jipslashtirishini, bu esa Sharqiy Yevrosiyo makonida yangi geosiyosiy mintaqaviy kompleks – Katta Sharqiy Osiyo paydo bo‘lishiga imkoniyat yaratishini qayd etadi. Bu yerda gap uning g‘arbiy chegarasida Xitoy ta’sirining mustahkamlanishi, ASEAN mamlakatlari bilan integratsiya jarayonlariga XXR va Yaponianing qo’shilishi, Hindiston iqtisodiy va harbiy-siyosiy mavqeyining kuchayishi, Markaziy Osiyoda AQSHning faollashuvi singari jarayonlar haqida boradi.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlarining o‘zaro foydali hamkorligi manfaatlarida Tinch okeani iqtisodiy uyushmasini tashkil etish g‘oyasi havoda 60-yillardan beri kezib yurar edi. “Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi” (OTOIH) hukumatlararo forumining paydo bo‘lishiga asosan yirik biznesning harakatlari va 1980-yilda ta’sis etilgan Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik kengashining faoliyati zamin yaratdi. Mazkur xalqaro nohukumat tashkiloti doirasida Osiyo-Tinch okeani mintaqasida iqtisodiy hamkorlik masalalari bo‘yicha muloqotga ishtirokchi-mamlakatlarning hukumat, amaliy va ilmiy davralarning vakillaridan tarkib toptirilgan milliy qo‘mitalari jalb qilindi. Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik kengashining institutsional mexanizmlari va ko‘p tomonlama xalqaro tajribasidan OTOIHni tuzishda keng foydalanildi.

OTOIH forumi, bir tomonidan, Osiyo mintaqasida globallashuv jarayonining in’ikosiga, boshqa tomonidan esa, Qo’shma Shtatlar tomonidan ittifoqchilar – Yaponiya va Avstraliya ko‘magida ro‘yobga chiqarilgan Tinch okeani regionalizmi g‘oyasining amaliy ifodasiga aylandi. Yaponiya va Avstraliyaning bu boradagi harakatlariga boshqa mintaqalarda savdo bloklarining tashkil topishi, shuningdek, jadal sur’atlarda rivojlanayotgan Janubi-sharqiylar Osiyo mintaqasi bilan aloqalarni mustahkamlashga intilish turtki berdi. Umuman olganda, OTOIH forumi asoschilari unda umumiyo bozorni yaratish yo‘lida faol

harakatlanayotgan Yevropaning “qudrati”ga qarshilik ko‘rsatish vositasini ko‘rdilar. Shimoliy Amerikadan tashqarida joylashgan mamlakatlar uchun esa, bu mazkur qit’ada proteksionizmning kuchayishi ehtimolidan himoyalanishga urinish edi.

Shunday qilib, OTOIHning tashkil etilishi asosan iqtisodiy omillar bilan belgilanar edi. Ammo keyinchalik mazkur Forum faoliyati siyosiy xususiyat kasb etib bordi. Avstraliya, Bruney, Indoneziya, Kanada, Koreya Respublikasi, Malayziya, Yangi Zelandiya, Singapur, AQSH, Tailand, Filippin va Yaponiya OTOIH muassisalariga aylandi.

Mazkur davlatlar tashqi ishlar, iqtisodiyot va savdo vazirlarining birinchi uchrashuvni 1989-yil noyabrda Kanberra shahrida (Avstraliya) bo‘lib o’tdi. Keyinchalik tashkilotga 9 mamlakat: XXR, Gonkong, Tayvan, Meksika, Papua-Yangi Gvineya, Chili, Peru, Rossiya va Vyetnam qo‘sildi. OTOIHning jadal rivojlanishi uning faoliyati globallashuv jarayonlariga, regionalizm mezonlariga va a’zodavlatlarning rivojlanish ehtiyojlariga mos kelishidan darak berar edi. Atigi to‘rt yil ichida bu hukumatlararo tashkilot vazirlar darajasidagi konferentsiyadan Osiyo-Tinch okeani mintaqasi yetakchi davlatlarning rahbarlari ishtirokida har yili o’tkaziladigan sammitlar darajasiga ko‘tarildi. 1993-yil Siyetlda o’tkazilgan birinchi sammit AQSH Prezidenti B.Klinton tashabbusi bilan tashkil etildi.

Hozirgi vaqtida OTOIH forumining 21 ishtirokchisi jahon YAM ning 55% (18 trillion dollar)ni, jahon savdosining 54% (5,2 trillion dollar)ni beradi, ular hududida yer kurrasi aholisining 40% dan ortig‘i (2,5 milliarddan ziyod kishi) yashaydi. Konsultativ maqomga egaligiga qaramay, bu hukumatlararo tashkilot mintaqada savdo, investitsiya va moliya faoliyati qoidalari va me’yorlarini ishlab chiqadi, butun dunyoda kuzatilayotgan davlatlar xo‘jalik faoliyatining internatsionallashuvni jarayonini aks ettiradi.

O‘z ishida OTOIH ikki asosiy prinsipga: “*ochiq regionalizm*” va “*kelishilgan bir tomonlama choralar*”ga asoslanadi.

Birinchi prinsipning mohiyati shu bilan belgilanadiki, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi doirasida hamkorlikni rivojlantirish hamda tovarlar, pul va inson oqimlari harakatiga cheklashlarni bekor qilish Butunjahon savdo tashkiloti prinsiplariga rioya qilish va mazkur tashkilot

a'zolari hisoblanmaydigan davlatlarga nisbatan proteksionizmdan voz kechishga asoslanadi. Mazkur davlatlar bunday hamkorlikning barcha afzalliklaridan o'zarolik asosida foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ikkinchi prinsip ishtirokchilarga savdo va moliyaviy liberallashtirshning o'zi uchun maqbul bo'lgan sur'atlarini tanlash imkonini beradi. Natijada hukumatlararo tashkilotning internatsionallashuv yo'lida harakatlanish tezligi shu nuqtayi nazardan nisbatan qoloq ishtirokchi mamlakatlarning imkoniyatlari va ehtiyojlari bilan belgilanadi va qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun yuqori darajada institusionallashuv talab etilmaydi. Ayni shu sababli OTOIH Kotibiyati katta emas va unga konsensus asosida qabul qilinadigan qarorlarni bajarishni tashkilot a'zolaridan talab qilish vakolati berilmagan.

OTOIHda qarorlar qabul qilish tartibi qirq yildan ortiq tarixga ega bo'lgan eng samarali hukumatlararo tashkilotlardan biri – ASEAN tajribasini hisobga olgan holda tasdiqlangan. Osiyocha yondashuv yoki "ASEAN yo'li", bir tomondan, Osiyo hukumatlararo tashkilotlarining "yashovchanligi"ni ta'mnladi, boshqa tomondan esa, ular samaradorlik darajasining pastligiga sabab bo'ldi. Shu tufayli ham tashkilot faoliyatining me'yordi OTOIH ishtirokchilarining barchasini qanoatlantiradi deb aytish mushkul va vaqtiga qilish bilan ular mazkur me'yordi qayta ko'rishni talab qiladi.

"ASEAN yo'li" xulq-atvor me'yordi zamirida indoneziyaliklarining ikki prinsipi: muloqot – "mushavarax" va murosai madora – "mufvkat" yotadi. A.Acharya "ASEAN yo'li"ni "bosqichma-bosqichlikka, norasmiylikka, murosai madoraga, shaxsiy siyosiy aloqalarga, muzokaralar olib borishning nokonfrontatsion uslubiga, jarayonning natijaga qaraganda muhimligiga asoslangan mintaqaviy o'zaro aloqlar va hamkorlik jarayoni"¹²⁷ sifatida tavsiflaydi. Mahalliy elitalar uchun muloqot jarayonida "obro'sizlanish" imkoniyatini deyarli ististno etuvchi mazkur muloqot shakli kuchli raqobat va aniq yuridik

¹²⁷ Acharya A. Culture, Security, Multilateralism: The "ASEAN Way" and Regional Order // Culture and Security: Multilateralism, Arms Control and Security Building / Ed. By K. Krause. – L.: Frank Cass, 1999, 78 p.

asos bilan tavsiflanuvchi G‘arb modelidan butunlay farq qiladi. “ASEAN yo‘li” uchun tashkilot a’zolarining ichki ishlariga aralashmaslik printsipi birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. U davlat suverenitetining daxlsizligini so‘zsiz tan olishga asoslanadi.

O‘z tuzilishiga ko‘ra, OTOIH – muayyan qoidalarga muvofiq ishlaydigan forumlar birlashmasi. Oliy organ qarorlari ijro etish uchun majburiy emas. Oliy organ ikki “palata”: vazirlar (tashqi ishlar va savdo vazirlari) uchrashuvi va liderlar (davlat va hukumat rahbarlari) ning norasmiy sammitidan iborat. Sammit qaysi mamlakat hududida o‘tkazilsa, shu mamlakat yil mobaynida forumga raislik qiladi. U sammitni tashkil etish xarajatlarini o‘z bo‘yniga oladi va o‘z raislik muddati (bir yil) uchun OTOIH ishining mavzularini belgilaydi. Sammit natijalariga ko‘ra, deklaratsiyalar qabul qilinadi va ularda o‘tgan yil uchun tashkilot ishining yakunlari ko‘rib chiqiladi, ishtirokchilarning mintaqa yoki jahon iqtisodiyoti voqealari xususidagi nuqtayi nazari va forum strategiyasi ta’riflanadi.

Katta mansabdor shaxslar uchrashuvi – vazifasi liderlar va vazirlar qabul qilgan qarorlarni amalga oshirish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirishdan iborat bo‘lgan organ; u oliy organ bilan OTOIH tarkibiy bo‘linmalari maqomiga ega bo‘lgan forumlar o‘rtasida bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida ham amal qiladi. Tuzilmaning muhim elementi Amaliy maslahat kengashi bo‘lib, u har bir davlatdan uchtadan vakil kiruvchi mustaqil biznes-forumni o‘zida ifodalaydi.

OTOIH organlari forumlar deb ataladi. Ular jumlasiga uch qo‘mita (savdo va investitsiyalar bo‘yicha, iqtisodiy, budget va boshqaruv bo‘yicha) va 11 ishchi guruh kiradi.

OTOIH Kotibiyyati Singapurda joylashgan va vazifalarini joriy yilda raislik qiluvchi mamlakat vakili bajaradigan ijrochi direktor, ijrochi direktor o‘rinbosari (OTOIHda kelasi yili raislik qiladigan mamlakat vakili), professional xodimlar shtati (forumning har bir ishtirokchisi amaldorlari) va mahalliy texnik xodimlardan iborat.

1994–1995-yillar OTOIH faolligi o‘z cho‘qqisiga etgan davr hisoblanadi. Bu davrda vazifalar belgilandi va mintaqada erkin savdo va investitsiyalarni shakllantirish borasidagi harakatlar rejasini e’lon qilindi. Bogor deklaratsiyasi (1994-y.)ga muvofiq, erkin savdo zonasini

tashkil etish iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar uchun 2010-yilgacha, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun esa – 2020-yilgacha bo‘lgan davr uchun nazarda tutildi. 1995-yilda qabul qilingan Osaka harakatlar dasturida hukumatlararo tashkilot faoliyatining prinsiplari mustahkamlandi va Osiyo-Tinch okeani mintaqasida iqtisodiy hamkorlikning uch asosiy yo‘nalishi belgilandi: savdo va investitsion liberallashtirish, savdo va investitsiyalarga ko‘maklashish, iqtisodiy va texnik hamkorlik.

Shunga qaramay, OTOIH negizida keng ko‘lamli integratsion guruhni shakllantirish imkoniyatlari muayyan emas va bu asosan anglosakson va rivojlanayotgan Osiyo davlatlari manfaatlarining muvofiq emasligi bilan belgilanadi. Chunonchi, AQSH savdo va moliyaviy oqimlarni tez va to‘liq liberallashtirishdan, Sharqiy Osiyo mamlakatlari bozorlarining ochilishidan manfaatdor. Shu sababli Washington OTOIHning institutsionallashuv darajasini oshirishni va qabul qilinayotgan qarolarning majburiyligi prinsipini joriy etishni talab qilmoqda. Bunda AQSHni Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya va boshqa bir qator davlatlar qo‘llab-quvvatlamoqda. O‘z navbatida, ASEAN mamlakatlari, Yaponiya va Janubiy Koreya bu jarayonning ixtiyoriy xususiyatini himoya qilmoqda¹²⁸. Janubi-sharqiy Osiyorining rivojlanayotgan mamlakatlari OTOIH uchun bиринчи о‘ringa savdo va kapitalni liberallashtirishni emas, balki savdoga ko‘maklashish hamda iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlikni qo‘ymoqda.

Pekinga kelsak, u ham OTOIH, ham Kengash faoliyatida faol ishtirok etmoqda. Chunonchi, XXR Kengashning har yili o‘tkaziladigan yig‘ilishini Pekinda tashkil etish (1990-y.) va OTOIH sammitini Shanxayda o‘tkazish (2001-y.) tashhabbusi bilan chiqdi, bu anjumanlarda mazkur tashkilot a’zolari sifatida Tayvan va Gonkong vakillari ishtirok etdi. Umuman olganda, Xitoy OTOIH ishiga eng avvalo iqtisodiy va texnik hamkorlik, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish singari yo‘nalishlarda salmoqli hissa qo‘shmoqda.

¹²⁸ Yaponiya va Janubiy Koreya OTOIH bu yo‘lda ildam harakatlanishidan manfaatdor emas, chunki bu ularni sanoat va qishloq xo‘jaligining siyosiy ta’sirchan tarmoqlarini tashqi raqobat uchun ochishga majbur etishi mumkin.

Osiyo moliyaviy inqirozi avjga chiqqan palla – 1998-yilda Kuala-Lumpur shahrida (Malayziya) o‘tkazilgan sammitda OTOIH doira-sidagi iqtisodiy va moliyaviy integratsiyaga majburiy tus berish haqida takliflar yangradi. Ammo inqiroz bartaraf etilishiga qarab ular shu jumladan Yaponiya pozitsiyasi tufayli o‘z rivojini topmadı. Tokio vakillari “Tarmoqlarni ilk ixtiyoriy liberallashtirish” dasturining amal qilish doirasiga kiruvchi ro‘yxatga baliqchilik va o‘rmon sanoati mahsulotlarining kiritilishiga qarshilik ko‘rsatdi. Bu borada Yaponiya bilan til topa olmagan AQSH tez orada asosiy e’tiborni Osiyo-Tinch okeani mintaqasida savdoni liberallashtirishning eng muhim yo‘nalishi sifatida Xitoyning BSTga qo‘shilish shartlarini kelishishga qaratdi.

Tarmoqlarni ilk ixtiyoriy liberallashtirish mavzusi BSTga muhokama uchun berildi. Bu OTOIH savdo sohasida muzokaralar olib borishga tayyor emasligidan va mazkur hukumatlararo tashkilot inqirozidan darak berar edi. Tarmoqlarni ilk ixtiyoriy liberallashtirish tashabbusining barbod bo‘lishi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar taklif qilgan umummintaqaviy erkin savdo zonasini jadal sur’atlarda tashkil etish konsepsiysi forumning rivojlanayotgan mamlakatlardan iborat a‘zolari tomonidan qo‘llab-quvvatlanmaganini ko‘rsatdi.

Osiyo moliya inqirozi sharoitida “ochiq regionalizm” prinsipiiga tayanish ham jabr ko‘rgan mamlakatlarga yordam bermadi. OTOIH, bir tomondan, mintaqadan tashqaridagi kuchlarning salbiy ta’siri oqibatlarini yumshata olmadi, boshqa tomondan esa, ko‘p miqdorda valyuta zaxiralariga ega bo‘lgan Osiyo davlatlarini mintaqa bo‘yicha qo‘snilariiga tezkorlik bilan yordam ko‘rsatishga majbur etuvchi mexanizmlarni yaratishga ojizlik qildi. Natijada global moliyaviy arxitekturani o‘zgartirish va Osiyodan tashqaridagi aktorlarga qarshilik ko‘rsatishga qodir bo‘lgan Osiyo institutsional mexanizmlarini (yagona valyuta, Osiyo valyuta jamg‘armasi va sh.k.) yaratish g‘oyalari keng qo‘llab-quvvatlandi. Mintaqaviy va submintaqaviy integratsiyani rivojlantirishga doir yangi g‘oyalar va konsepsiyalarni topish yo‘lidagi izlanishlar faollahdi. 1997-yilda “ASEAN+3” (ASEAN mamlakatlari, Xitoy, Yaponiya, Koreya Respublikasi) paydo bo‘ldi.

Umuman olganda, OTOIH faoliyatida 1990-yillarning oxiridan e'tiboran kuzatila boshlagan inqiroz asta-sekin Osiyo-Tinch okeani mintaqasining dekonstruksiya qilinishiga olib keldi. Bunga mazkur mintaqqa mamlakatlari o'rtasida tarixiy va madaniy aloqlarning yo'qligi, norasmiy regionallashuv jarayonlari rivojlanmagani ham imkoniyat yaratdi. Amerika yoki aytaylik, Avstraliyaga xos bo'lган zehniyat Sharqiy Osiyoga xos bo'lган zehniyatdan ancha farq qiladi, shu bois, umumiylintaqaviy tafakkurning mavjudligi to'g'risida so'z yuritish o'rinni bo'lmaydi.

Shu bilan bir vaqtida, aynan ishtirokchilarning rang-barangligi va a'zolikka nisbatan keng yondashuv OTOIHning Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi ulkan rolini belgiladi: har yili o'tkaziladigan sammitlar jahon davlatlari va mintaqaviy davlatlar – AQSH, Yaponiya, Xitoy, Rossiya, shuningdek, Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari, Tayvan va boshqalarning liderlarini bir joyda to'playdi. Sammitlar ularga ikki tomonlama va mintaqaviy munosabatlar masalalarini muhokama qi-lish uchun "bir chekkada" uchrashish imkoniyatini ham yaratadi. Natijada OTOIH sammitlarining kun tartibi unga iqtisodiy muammolaridan tashqari xavfsizlik sohasida hamkorlik masalalarining kiritilishi hisobiga sezilarli darajada kengaydi. Chunonchi, 1999-yil Oklend (Yangi Zelandiya)da o'tkazilgan sammitda BMT qo'shinlarini Sharqiy Timorga yuborish to'g'risidagi qaror, tezkorlik bilan kelishildi, 2001-yil Shanxay (Xitoy)da bo'lib o'tgan sammitda terrorizmni qoralovchi rezolyutsiya qabul qilindi, bir qator sammitlarda Koreya yarim orolining xavfsizligi muammolari muhokama qilindi.

1990-yillarning oxirida BST formatida va makro-mintaqaviy darrera (OTOIH)da savdoni liberallashtirish g'oyasini ilgari surishda mavjud jiddiy muammolar Osiyo-Tinch okeani mintaqasida ikki tomonlama savdo bitimlarining jadal o'sishiga olib keldi. Dastavval bu sohada Singapur peshqadamlik qildi – rivojlangan qishloq xo'jalik sektorining yo'qligi muzokaralarda uni qulay hamkorga aylantirar edi. Bu jarayonga AQSH ham asta-sekin qo'shildi. Tinch okeani havzasidagi mamlakatlari o'rtasida ikki tomonlama savdo bitimlari tuzishga Vashington Osiyo-Tinch okeani mintaqasida o'z ta'siri doirasini kengaytirish vositasi sifatida qaradi. O'z navbatida, Xitoy

ASEAN mamlakatlari bilan erkin savdo to‘g‘risida bitimlar tuzish orqali Janubi-sharqiy Osiyoda o‘z mavqeyini sezilarli darajada mustahkamladi.

1997–1998-yillar moliyaviy inqirozi barham topganidan so‘ng, Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari uchun siyosiy-iqtisodiy faoliyatda urg‘u savdodan moliyaviy oqimlarga ko‘chdi va mazkur omil o‘z-o‘zidan “ASEAN+3” tashkiloti faoliyatida birinchi darajali ahamiyat kasb etdi. Ammo bu jiddiy omil OTOIH faoliyatida o‘z aksini topmadi, AQSH esa moliyaviy inqirozni bartaraf etish va mintaqada o‘z tashqi siyosiy maqsadlarini amalga oshirish uchun boshqa me-xanizmlarni qo‘llashni ma’qul deb topdi.

Qayd etilgan salbiy omillarning muhimligini tan olgan holda, bu yerda OTOIHning institutsional yashovchanligidan darak beruvchi ikki jihatni qayd etib o‘tish mumkin.

Birinchidan, Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari ikki tomonlama bitimlarni o‘z qo‘snilari bilangina emas, balki Osiyo-Tinch okeani mintaqasining boshqa qismlaridagi (masalan, Shimoliy va Janubiy Amerikadagi) davlatlar bilan ham tuzishi tendensiyasi saqlanib qolayotir, demak, o‘z a’zolariga avvalgidek foyda keltirmoqda.

Ikkinchidan, Janubi-sharqiy Osyoning yangi integratsion tuzilmalarida AQSH uchun o‘rin hozircha topilgani yo‘q, shu bois OTOIH ning Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari bilan muloqotni quvvatlash vositasi sifatidagi roli Qo‘shma Shtatlar uchun kelajakda oshishi mumkin.

A.Torkunov qayd etishicha, “so‘nggi yillarda OTOIH Osiyo-Tinch okeani mintaqasida erkin savdo va investitsiyalar ko‘p tomonlama ochiq tizimini yaratishni muvofiqlashtiruvchi organga aylandi”.

Ayni vaqtda, ko‘pgina, birinchi navbatda rivojlanayotgan mamlakatlар vakillarining fikriga ko‘ra, OTOIH o‘z tabiatiga ko‘ra, savdo, investitsiyalar, iqtisodiy va texnik hamkorlikning dolzarb muammolari bo‘yicha muloqot doirasidan chetga chiqish uchun mo‘ljallanmagan. Ular OTOIHni mintaqaga mamlakatlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini uyg‘unlashtirishga qaratilgan hukumatlararo tashkilot sifatida saqlab qolish foydali bo‘ladi, deb hisoblaydi. 2001-yilgi Shanxay sammitidan boshlab, iqtisodiy va texnik hamkorlik dasturi (EKOTEK)

OTOIH uchun birinchi darajali ahamiyat kasb etishi lozim, degan fikr tarafdarlari soni ko‘payib bormoqda.

Kelajakda hukumatlararo tashkilot faoliyatining asosiy yo‘nalishlari – savdo va investitsiyalarni liberallashtirish hamda EKOTEK dasturlari o‘rtasida muvozanatni saqlash muammosi bo‘yicha kelishmovchiliklar saqlanib qolishini kutish mumkin. So‘nggi yillarda OTOIH sammitlari jarayonida ularni o‘tkazuvchi mamlakatlar ishtirokchilar e’tiborini savdoni yanada liberallashtirish muammolariga emas, balki qo‘shma tashabbuslarga, shu jumladan, ekologik xususiyatga ega bo‘lgan tashabbuslarga va EKOTEK dasturlarini amalga oshirishga nisbatan yangicha yondashuvlarga qaratishga harakat qilmoqdalar. So‘nggi zikr etilgan dasturlar kiritilgan mablag‘lar hajmiga ko‘ra katta emas, lekin rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy va texnikaviy rivojlanishida muhim rol o‘ynashga qodir. Masalan, Avstraliya OTOIH uchun nisbatan yangi muammo – dunyo miqyosida iqlim o‘zgarishi va “sof rivojlanish” muammosini 2007-yildagi faoliyatning asosiy yo‘nalishlari deb e’lon qildi. Shu bilan bir vaqtida OTOIHning 2007-yil sentabrda bo‘lib o‘tgan 15-sammitining yakunlovchi Deklaratsiyasida BSTning qishloq xo‘jalik mahsuloti bilan savdoni liberallashtirishni nazarda tutuvchi Doxa raundi qo‘llab-quvvatlandi.

2008-yilda sammitni Peru tashkil etdi. Uning OTOIHdagi raisligi “Osiyo-Tinch okeani mintaqasini rivojlantirish manfaatlarida yangi vazifalarni hal qilish sari” shiori ostida kechdi. Rivojlangan va rivojlanayotgan iqtisodiyotlar o‘rtasidagi farqni qisqartirish bosh vazifaga aylandi. Asosiy e’tibor globallashuvning ijtimoiy jihatlariga, Osiyo-Tinch okeani mintaqasida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni, shu jumladan, xususiy sektorning korporativ javobgarligini oshirish hisobiga ta’minalashga qaratildi. OTOIHning 2008-yil 22–23 noyabr kunlari Lima shahrida bo‘lib o‘tgan sammitida iqtisodiyot, shaxsiy xavfsizlik, atrof-muhit sohasidagi mintaqaviy muammolar ayni shu nuqtayi nazardan muhokama qilindi. Sammitning yakunlovchi deklaratsiyasida quyidagilar OTOIH faoliyatining yetakchi yo‘nalishlari deb e’tirof etildi: mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani rag‘batlantirish; investitsiyalar va savdo sohasida davlatning rolida tarkibiy o‘zgarish

yasash; oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash; korporatsiyalarning ij-timoiy javobgarligini kuchaytirish; korrupsiya, terrorizmga qarshi kurashish; tabiiy ofatlar va dunyo miqyosida iqlim o'zgarishiga birgalikda qarshi turish.

Sammit ishtirokchilari yakunlovchi deklaratsiyadan tashqari global iqtisodiyot hamda jahon moliyaviy inqiroziga qarshi kurashish muammolari bo'yicha maxsus bayonot qabul qildi. Bu hujjatda ular davlatlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan inqiroz 2010-yilning o'rtalarigacha bartaraf etilishiga ishonch bildirdi. Shunga qaramay, inqiroz sharoitida OTOIH mamlakatlarida iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi muqarrar deb e'tirof etildi. Sammit ishtirokchilari "yigimalik" liderlarining 2008-yil 15 noyabrdagi Vashington deklaratsiyasida ifodalangan moliyaviy bozorlarni isloh qilish bo'yicha harakatlar rejasini qo'llab-quvvatladi, shuningdek, inqirozdan ayniqsa ko'p jabr ko'rgan davlatlarga moliyaviy yordam ko'rsatishda Xalqaro valyuta jamg'armasi, Juhon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa moliya institutlarining o'rni va ahamiyatini ta'kidladi.

Ishtirokchi-mamlakatlar investitsiyalar, tovarlar va xizmatlar savdosini uchun yangi to'siqlar, eksportga qo'shimcha cheklashlar joriy etishdan, shuningdek, BST qoidalari bilan mos kelmaydigan har qanday qadamlar tashlashdan kamida bir yil mobaynida o'zini tiyish majburiyatini oldi. Bundan tashqari, sammit BST Doxa raundini samarali yakunlashga qaratilgan chora-tadbirlarni qo'llab-quvvatladi va Bogor deklaratsiyasining Osiyo-Tinch okeani mintaqasida erkin savdo va investitsiyalar zonasini yaratish bo'yicha istiqbolli maqsadlariga sodiq ekanini tasdiqladi.

Sammitning yakunlovchi deklaratsiyasida ishtirokchilarining tashkilot institutsional tuzilmasini mustahkamlashga intilishi e'lon qilindi. OTOIH Kotibiyati tarkibida strategik rejalshtirish bo'limi ta'sis etildi, OTOIH Kotibiyatining ijrochi direktorini qayd etilgan muddatga tayinlash to'g'risidagi masalani yechishda erishilgan taraqqiyot ma'qullandi.

2009-yil forum doirasida hamkorlikning yigirma yillik yubileyi kunlarida Singapurda chaqirilgan sammit jahon moliyaviy inqirozi sharoitida o'tdi. Yangi tendensiyalar va muammolarni hisobga ol-

gan holda OTOIH kun tartibi kengaytirildi, chuqurlashtirildi va keng ko'lamlili xususiyat kasb etdi. Forum ishtirokchilari iqtisodiy sog'lomlashuv uchun zamin yaratgan inqirozga qarshi faol choralar ko'rilganiga qaramay, bu sog'lomlashuv mustahkam poydevorga hozircha ega emasligini qayd etdi.

Sammit yakunlari bo'yicha OTOIH davlat va hukumat rahbarlari deklaratsiya, shuningdek, sammit yakunlarini ixcham shaklda aks etiruvchi qo'shma bayonot, qabul qildi.

2010-yilgi sammit shu yil 7–14-noyabrda Yokogama shahrida (Yaponiya) o'tkazildi va unda 2015-yilgacha Rivojlanish strategiyasi qabul qilindi.

2011-yilgi sammit 7–14-noyabrda Gonolulu shahri (AQSH)da o'tkazildi va "Yaxlit mintaqaviy iqtisodiyot yo'lida" shiori ostida o'tdi.

2012-yilgi sammit Vladivostok shahri (Rossiya)da o'tdi.

2013-yilgi sammit Bali shahri (Indoneziya) da o'tdi.

2014-yilgi sammit Pekin shahri (Xitoy) da o'tdi.

2015-yilgi sammit Manila shahri (Filippin) da o'tdi.

2016-yilgi sammit Lima shahri (Peru) da o'tdi.

2017-yilgi sammit Danang shahri (Vyetnam) da o'tdi.

Umuman olganda, OTOIH faoliyatida 1990-yillarning oxiridan e'tiboran kuzatila boshlangan inqiroz asta-sekin Osiyo-Tinch okeani mintaqasining dekonstruksiya qilinishiga olib keldi. Bunga mazkur mintaqaga mamlakatlari o'rtaida tarixiy va madaniy aloqalarning yo'qligi, norasmiy regionallashuv jarayonlari rivojlanmagani ham imkoniyat yaratdi. Amerika yoki aytaylik, Avstraliyaga xos bo'lgan zehniyat Sharqiy Osiyoga xos bo'lgan zehniyatdan ancha farq qiladi, shu bois, umumiy mintaqaviy tafakkurning mavjudligi to'g'risida so'z yuritish o'rinali bo'lmaydi.

Bir tomonidan, bugungi kunda integratsion tuzilmalarning sifat va miqdor jihatidan murakkablashuvi yuz bermoqda. Boshqa tomonidan, mavjud formatlar (ularning orasida OTOIH ham bor) o'rtaida muayyan farq paydo bo'lmoqda. OTOIH o'z faoliyatining qaysidir jihatlarida eskirgan va yangilashni talab qiladi, degan fikrlar ilgari surilmoqda.

OTM ning asosiy xususiyati sifatida yadroviy salohiyati alohida baholanadi. Yaponiya yadroviy qurollarni yaratish bo'yicha ilmiy-Texnikaviy imkoniyatlarga ega. Xitoyning yadroviy salohiyati nafaqat AQSH va Rossiya darajasida, balki undan ham o'tishi mumkin. Janubiy-sharqiy Osiyo davlatlarining harbiy xarajatlari davlat budgetining 20%ini tashkil qiladi. Mintaqa qurobasi Yaqin Sharqdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Mintaqa davlatlarining umumiy harbiy budgeti 90 mlrd.ni tashkil qiladi.

OTMdakka Xalqaro tashkilotlar Yevropaga qaraganda sust bo'lishiga qaramay, submintaqaviy mexanizmning shakllanish jarayoni jadal rivojlanmoqda.

Yaponiya, Xitoy, AQSH, Rossiya geosiyosiy manfaatlarining to'qnashgan mintaqasidir va shubhasiz ko'p qutbli tizimni shakllantiradi. Bu mintaqada nafaqat iqtisodiy, siyosiy, diplomatik, balki davlatlarning milliy manfaatlarini ta'minlaydigan maydondir.

AQSH tarixan harbiy-siyosiy manfaatlari sifatida strategik mintaqadegi hisoblab kelgan. AQSH tashqi siyosatining asosiy yo'naliishlari xavfsizlikni ta'minlash sifatida namoyon bo'ladi. Bu tizim AQSHning yetakchilik roliga asoslanadi. AQSH har doimgidek Xitoyning iqtisodiy-harbiy sohasining rivojlanishidan xavotirda. Xitoyning ichki siyosiy barqarorligi va iqtisodiy rivojlanishi Osiyo-Tinch okeani mintaqasida ta'sir doirasini belgilamoqda. Oxirgi paytlarda Xitoy AQSHning mahsulotlarini nafaqat OTMdakka, balki AQSH bozoridan ham siqib chiqarmoqda. XX asrda Yaponiya va AQSH mahsulotlari raqobatda bo'lgan bo'lsa, endilikda bunga Xitoy ham qo'shildi. OTMdakka Xitoy milliy manfaatlarini o'zida mujassamlashtirgan «Xitoysentrizm» mafkurasini XXI asrning o'rtalarigacha rivojlantirish ko'zda tutilgan. Uning asosiy mintaqadagi milliy manfaatlari quyidagilardan iborat:

1. Global va mintaqaviy darajadagi xalqaro munosabatlarni va ilmiy texnologiyalar sohalarini egallash.
2. Hududiy birlashishini amalga oshirish (Tayvan, Gongkong, Makao).
3. OTMdakka xarbiy siyosiy ta'sirini kuchaytirish.
4. AQSH, Yaponiya, Rossiya bilan samarali iqtisodiy siyosiy, harbiy hamkorlik tizimini shakllantirish.

5. OTM da investitsiya bozorini egallash.

Xitoy o‘z strategiyasining 2-bosqichi–harbiy islohotlar olib borib, AQSH dan o‘zib ketish hisoblanadi. Xitoy 2030–2040 Yaponiyaga ta’sir qilish, OTM ning Shimoli-sharqiy qismidan AQSHning harbiy bazalarini chiqarib yuborish, iqtisodiy va demografik ekspansiyasini ta’minlashdan iborat.

14.2. OTOM davlatlarining mintaqaviy jarayonlardagi siyosati

Bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun Xitoy hудди, shuningdek, Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari va Yaponiya bilan bog‘laydigan magistral yo‘lining qurilishi va uning ishga tushirilishi ulkan ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osipyodagi xalqaro munosabatlarda ham Yaponiya va Xitoyning faoliyati alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, savdo-iqtisodiy sohasidagi hamkorligi eng muhim ahamiyatga ega. Boshqa Markaziy Osiyo davlatlari kabi O‘zbekiston ham Dunyo okeaniga chiqish imkoniyatini qidirmoqda. Bunday vaziyatda «Ipak Yo‘li» g‘oyasini ilgari surish ikki tomonlama munosabatlarda samarali natija beradi. O‘zbekiston bu davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirishda amaliy qadam tashlamoqda. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov «Bizning maqsadimiz O‘zbekistonning eng qulay geosiyosiy holatidan maksimal tarzda foydalanishdir. Yevropa, Yaqin Sharq va Osiyo-Tinch okeani mintaqasidan keladigan yo‘llar O‘zbekistonda kesishadi»¹²⁹.

«Buyuk Ipak yo‘li»ni tiklash buyicha TRASEKA dasturi Yevropani ulkan Tinch okeani va Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari bilan bog‘laydigan eng yaqin yo‘ldir. Bu esa o‘z navbatida, millatlararo va davlatlararo muamolarni hal etishning yana bir samarali yo‘lidir. Bu transport magistrali Farg‘ona vodiysini Xitoyning sharqiy viloyatlari bilan bog‘lab, ko‘prik vazifasini o‘taydi.

14.3. ASEAN

Hozirgi nazariy tadqiqotlarda regionallashuvning ikki asosiy turi farqlanadi. Birinchi tip mintaqaviy davlatlarning paydo bo‘lishi va

¹²⁹ Каримов И.А. Ўзбекистон – XXI бўсағасида: ҳавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараккиёт кафолатлари. –Т., 1997, 296 б.

faol yuksalishi hamda buning natijasi o‘laroq, mintaqaviy muhitni o‘z manfaatlarida tashkillashtirishga, ya’ni uncha yirik bo‘lmagan mintaqaviy davlatlar bilan mintaqaviy davlatning siyosiy va iqtisodiy vazifalariga mos keluvchi munosabatlarni kelishuvlar yoki norasmiy amaliyotlar vositasida o‘rnatishga ularning intilishi bilan bog‘liq.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasida mintaqaviy va submintaqaviy darajadagi savdo-iqtisodiy tashkilotlari faoliyat ko‘rsatadi. Submintaqaviy tashkilotlar jumlasiga Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari uyushmasi – ASEAN ham kiradi. Osiyo-Tinch okeani mintaqasida integratsiya jarayoni ayni shu tashkilotdan boshlangan.

ASEAN siyosiy, iqtisodiy va madaniy mintaqaviy hukumatlararo tashkilot hisoblanadi. U o‘z saflarida JShOda joylashgan mamlakatlarni birlashtirgan. Uni bevosita tashkil etgan davlatlar Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tailand va Filippin hisoblanadi. ASEAN tarkibiga quyidagi davlatlar kiradi: Indoneziya, Malayziya, Singapur, Filippin (1967-y.), Bruney (1984-y.), Vyetnam (1995-y.), Laos (1997-y.), Myanma (1997-y.), Kambodja (1998-y.). ASEAN a’zolari egal-lagan umumiyl maydon 4,5 mln. kv. km.ga teng. Mazkur hududda 592 mln. kishidan iborat aholi yashaydi. Uyushma a’zolari 14 rasmiy tilda so‘zlashadi, kamida 7 dingga e’tiqod qiladi.

Janubi-sharqiy Osiyoda umummintaqaviy integratsion gurujni tuzish g‘oyasi taniqli yapon tahlilchisi K.Kodzima Sharqiy Osiyo erkin savdo zonasini konsepsiyasini ta’riflab bergen 1960-yillarning o‘rtalarida ilgari surilgan. 1970-yillarda Tinch okeani mintaqasini shakllantirish konsepsiysi paydo bo‘lgan. XX asr 80-yillarining oxiri 90-yillari boshida Janubi-sharqiy Osiyoda Avstraliya va Yangi Zelandiya ham qo‘shilgan “yena” integratsion guruhini shakllantirish imkoniyatlari muhokama qilingan. Bu ssenariy “yena valyutasi” doirasida faoliyat ko‘rsatuvchi Osiyo mamlakatlari blokining vujudga kelishimi nazarda tutadi. Bunda uning asosiy harakatlantiruvchi kuchi siyosat emas, balki iqtisod, ya’ni mazkur blokni shakllantiruvchi keng savdo-investitsiya oqimlari hisoblanishi ko‘zda tutiladi. Yaponiya bu yerda bosh o‘yinchi hisoblanadi (masalan, G‘arbiy yarim sharda AQSH singari). Bu ssenariy jahonda uch blokning mavjudligidan kelib chiqadi: shulardan biri – Yaponiya atrofida birlashgan mam-

lakatlardan iborat bo‘lgan, Shimoliy Amerika va Yevropa bloklari bilan raqobatlashadigan blok.

O‘z milliy mustaqilligi va suverenitetini himoya qilib, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari 1967-yilda Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari uyushmasi (ASEAN)ga birlashdi. ASEAN Bangkok deklaratsiyasida qayd etilishicha, mazkur birlashishning maqsadi mintaqada jadal iqtisodiy va madaniy rivojlanish, ijtimoiy taraqqiyot, tinchlik va barqarorlikni saqlashni ta’minlovchi tashkilotni tuzishdan iborat. Mintaqalari tomonidan tuzilgan ASEAN tashkiloti Janubi-sharqiy Osiyoda mintaqalari doirasida davlatlararo munosabatlar uchun zamin yaratdi. Xalqaro voqealarni baholashda kelishmovchiliklar mavjudligiga qaramay, ASEAN davlatlari tashkilotning mavjudlik davri mobaynida jahonda yuz berayotgan siyosiy jarayonlarga nisbatan umumiy nuqtayi nazarni shakllantirishga muvaffaq bo‘ldi. Bu jarayonda Yevropa bilan o‘zaro munosabatlarni chetga surish va Yaponiya bilan yaqinlashish birinchi darajali ahamiyat kasb etdi. Mazkur yaqinlashish eng avvalo iqtisodiy aloqalarning rivojlanishida, shuningdek, ushbu mintaqada AQSH ta’sirining cheklanishida namoyon bo‘ldi.

ASEAN doirasida integratsiya jarayoni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Preferensial savdo zonasini tashkil etish to‘g‘risidagi bitimga (1977-y.) muvofiq ishtirokchi-mamlakatlarga savdoga oid imtiyozlar berish;
- AFTA (ASEAN Free Trade Arrangement) bitimiga muvofiq erkin savdo zonasini tashkil etish. Bitim 2002-yil 1-yanvardan kuchga kirgan;
- ASEAN sanoat sohasida hamkorlik sxemalari;
- ASEAN investitsiyalar zonasi (AIA) to‘g‘risidagi hadli bitimiga muvofiq kapitalning harakatini liberallashtirish.

1980-yillarning oxirida Malayziya siyosiy lideri M.Moxammad “Look East” degan nom ostida “Osiyonli osiyolashtirish” konsepsiyasini taklif qildi. Bu konsepsiya binoan Osiyonning rivojlanayotgan mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishning yapon modelini qabul qilishi, Yaponiya esa mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikning markaziga aylal-

nishi lozim edi. Shu o'rinda R.Akamatsu tomonidan ishlab chiqilgan "uchayotgan yovvoyi g'ozlar galalari" (wild flying geese) yoki "quvib yetuvchi rivojlanish" konsepsiyasini qayd etish mumkin. Yaponiyada e'zozlanadigan mazkur obraz Janubi-sharqiy Osiyoning shakllanish va sanoatlashish jarayoninigina emas, balki mamlakatlar o'rtasidagi kuchlar nisbatini ham namoyish etadi. Konsepsiaga ko'ra, gala (Janubi-sharqiy Osiyo) boshida boshlovchi (Yaponiya) uchadi, unga qolgan g'ozlar (Osiyo mamlakatlari – Singapur, Gonkong, Koreya Respublikasi, Tayvan, Malayziya, Tailand, Filippin, Indoneziya va boshqalar) ergashadi.

Janubi-sharqiy Osiyo, shuningdek, mazkur mintaqqa mamlakatlari so'nggi o'n yilliklar mobaynida tashqi siyosat sohasidagi tad-qiqotlarning muhim obyektiga aylandi. Bu, eng avvalo, jahon siyosati va iqtisodiy tizimida mazkur mintaqqa va bosh mintaqaviy markaz ASEANning ahamiyati oshgani bilan belgilanadi. 1980–90-yillarda mintaqaning yetakchi mamlakatlari – Indoneziya, Malayziya, Singapur va Tailand YaIM hajmini har yili o'rta hisobda 7% gacha ko'paytirish va o'n yillik ichida uni ikki baravar oshirish yo'li bilan iqtisodiy sakrashni amalga oshirdi. 2000-yilda jahon umumiy YaIM da Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarining ulushi 3,9% ni tashkil etdi. Mintaqadagi aksariyat mamlakatlarning jami ichki mahsuloti miqdori 2–3 baravar o'sdi. Ayni vaqtida, 4,5 ming kv. km. maydonni egallagan Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarida jahon aholisining taxminan 8,3%i (500 mln. kishi) yashaydi, ularning yillik jami milliy mahsuloti miqdori qariyb 800 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadi. 2003-yilda ASEAN aholisining jon boshiga YaIM miqdori 1266 AQSH dollarini tashkil qildi.

Shunga qaramay, Osiyoda 1997-yilda yuz bergen iqtisodiy inqiroz Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarining zaif jihatlarini namoyish etdi. Moliyaviy inqirozning oldini olish imkonini beruvchi vositalar ularda mavjud emasligi ayon bo'lib qoldi. Inqirozning mintaqqa mamlakatlariga ta'siri mintaqaviy aloqalarning siyosiy jihatdan nozik tizimi buzilishi xavfini paydo qildi.

Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari innovatsion rivojlanish modeliga amal qiladi. Mazkur model iqtisodiy o'sish uchun yangi imkonini

yatlar yaratishni, eksportga xos ashyo ishlab chiqarishdan voz kechishni, axborot-kommunikatsiya sohasidagi yutuqlardan foydalanishni, jahon darajasidagi infratuzilmani davlatning faol ishtirokida amalga joriy etishni, Janubi-sharqiy Osiyoda integratsiya jarayonlарини jadallashtirish va chuqurlashtirish uchun yangi shart-sharoitlar yaratishni nazarda tutadi.

Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari jadal sur'atlarda rivojlanishi ASEAN doirasida yevroga o'xhash yagona valyutani joriy etish imkoniyatlari bilan integratsiya jarayonini olg'a siljitisht uchun zamin yaratdi. Yevropa komissiyasi iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining rahbari K.Regling fikriga ko'ra, "hozirgi vaqtida Osiyoda, shu jumladan, Janubi-sharqiy Osiyoda yuz berayotgan iqtisodiy jarayonlar Yevropa qit'asida birlashtirish va yagona valyutani joriy etishdan oldingi yillarda sodir bo'lgan jarayonlarga ko'p jihatdan o'xhash. Mintaqa mamlakatlariga xos bo'lgan makroiqtisodiy barqarorlik, moliya vazirlari va Osiyodagi yetakchi banklar rahbarlarining yaqin hamkorligi bunga misol bo'lishi mumkin"¹³⁰. Bizningcha, Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarda yagona valyuta joriy etilishi mumkin, lekin bunga hali ancha vaqt bor. Ayni vaqtida shu narsa ayonki, Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari integratsiyaning mavjud samarali modellaridan nusxa ko'chirish niyatida emas, lekin o'z mintaqasining xususiyatlari, ishlab chiqarish va iqtisodiy tizimlarning rivojlanish darajasi, shuningdek, davlatlarning maqsad va vazifalari bilan to'qnashmaydigan elementlarni ular tanlab oladi.

ASEAN tashkil topgan paytdan boshlab keskin muammolarga duch keldi: uyushma a'zolari harakatlarining kelishilmaganligi, ular o'rtasidagi ishonchsizlik, mamlakatlarning rivojlanish darajasi va tarixiy shart-sharoitlaridagi farqlar salbiy ta'sir ko'rsatdi. Siyosiy kelishmovchiliklar va millatchilik omillari "yagonalik rang-baranglikda" degan shior ostida milliy manfaatlarning ustunligiga asoslangan o'zaro aloqa jarayoniga, umumiyl sa'y-harakatlar bilan o'zaro ishonch muhitini yaratishga, integratsiyani chuqurlashtirishga, "kommunizm xuruji"ni qaytarishni tashkil etishga turtki berdi.

¹³⁰ Чекушкин А. Куала-Лумпур. – РИА Новости. 15 июля 2005 г.

ASEAN doirasida xavfsizlik borasida hamkorlikning asosiy yo‘nalishi terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurashishga qaratilgan. Shu bilan bir vaqtida, u o‘zgarayotgan vaziyatga mos ravishda rivojlanadi. Hozirgi vaqtida xavfsizlik borasida hamkorlik sohasida ASEAN uch muhim yo‘nalishni belgilagan: 1) terrorizmga, 2) giyohvandlikka, 3) transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish.

Terrorizmga qarshi kurashish ASEAN uchun azaldan muhim. Qolgan ikki yo‘nalish ilgari surilganiga ancha vaqt bo‘lgan, lekin ular yuqorida ko‘rsatilgan darajaga yaqinda ko‘tarilgan. Bu ASEAN doirasida xavfsizlik borasidagi hamkorlikning yangi tendensiyasidir.

XXI talablariga javob berib, ASEAN mamlakatlari innovatsion rivojlanish yo‘liga kirmoqdalar. Mazkur yo‘lning zarurligi integratsion o‘zaro aloqani, eng avvalo, mintaqaviy integratsiyani kuchaytirishni, chet el mamlakatlari bilan ishlab chiqarish-texnologik kooperatsiyaga nisbatan yangicha yondashuvlarni talab qiluvchi global ishlab chiqarishga samarali qo‘shilishga intilish bilan belgilanadi.

Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari kapitalni samarali joylashtirishga, investitsiyalarning samaradorlik darajasini oshirishga intilish jarayonida jahoning turli moliya tizimlari o‘rtasida o‘zaro aloqani kuchaytirishga alohida e’tiborni qaratadi.

Mintaqaviy aloqalarni mintaqada doirasidagi yoki global aloqalardan ustun qo‘yish moliyaviy integratsiya ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bu yerda Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida jiddiy farq mavjudligini ham hisobga olish zarur. Ayrim mamlakatlarda, masalan, Filippinda tashqi moliyaviy majburiyatlar hajmining kattaligi rasmiy darajada mablag‘larni jalb qilish natijasi hisoblansa, boshqa mamlakatlarda, aytaylik, Singapur va Gonkongda bu majburiyatlar mazkur mamlakatlarning mintaqaviy moliyaviy markazlar sifatidagi rolini va ular global moliya bozoriga qo‘shilishda eng yuqori darajaga yetganini aks ettiradi.

Mintaqaviy tashkilot sifatidagi ASEANning samaradorligi to‘g‘risidagi masalani tahlil qilayotganda, ichki mintaqaviy omillardan tashqari, uyushma oldiga alohida tashqi siyosiy maqsadlarni qo‘ygan va qo‘yayotgan keng xalqaro konteksti hamda Janubi-shar-

qiy Osiyo geosiyosiy va geostrategik holatining xususiyatlarini ham inobatga olish zarur.

Ularning orasida yirik davlatlar (AQSH, Xitoy, Hindiston, Yaponiya)ning mintaqadagi roli va manfaatlarini muvozanatga solish, Sharqiy Osiyodagi makroregionallashuv jarayonlarida ishtirok etish va ma'lum darajada ularni boshqarish imkoniyatiga ega bo'lish bor. 1990-yillarning ikkinchi yarmida ASEANning Rossiya bilan hamkorlik doirasi kengaygani asosan Janubi-sharqiy Osiyoda Xitoy, Yaponiya, Hindiston va AQSHning rolini muvozanatga solish zaruriyatini bilan belgilangan edi.

Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, ASEAN Sharqiy Osiyodagi regionallashuv jarayonlarida yagona o'yinchi sifatida ish ko'rishga va ASEANning xavfsizlik bo'yicha Mintaqaviy forumi faoliyatiga qarorlar qabul qilishning uyushma ruhi bilan mos keluvchi konseptual prinsipini joriy etishga muvaffaq bo'ldi. Mazkur forum hozirgi vaqtda Osiyo-Tinch okeani mintaqasida xavfsizlik va preventiv diplomatiya muammolari bo'yicha siyosiy muloqotni keng ishtirokchilar, shu jumladan, AQSH, Rossiya, Xitoy, Hindiston, Yaponiya va YeIni jalb qilgan holda amalga oshirayotgan birdan-bir tashkilot bo'lib qolayotir.

Ayni vaqtda, ASEAN va ARF faoliyati mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq vazifalarni hal qilishda kutilgan samarani bermadi va ular asosan ko'p sonli ishtirokchilar bilan xalqaro maslahatlashuvlar uchun forum rolini bajardi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari va mintaqadan tashqaridagi davlatlar o'zaro aloqalarining ikki tomonlama va uch tomonlama formatlari xavfsizlik muammolarini yechish nuqtayi nazaridan avvalgidek ko'proq darajada samarali bo'lib qolayotir.

ASEANni kengaytirish (beshtadan o'ntagacha davlatga) dastlabki jarayoni har bir mamlakat o'zining aniq maqsadlarini ko'zlagan, eng avvalo, davlatlar siyosatda mafkuraviy yondashuvlarni yumshatishga tayyor bo'lgan sharoitlarda yuz berdi. Shu davrda munosabatlarda muayyan "ilmiliqlik" paydo bo'lgandek taassurot tug'ildi, lekin bu xom xayol ekani tez orada ayon bo'ldi.

Yuzaga kelgan siyosiy va iqtisodiy sharoitlarda Sharqiy Hindixitoy davlatlari ASEAN doirasida, umuman olganda, samarali rivojlanayotgan qo'shni mamlakatlarga qarab mo'ljal olish zarur degan xulosaga keldi. 1987-yil dekabrda bo'lib o'tgan ASEANning oliy darajadagi uchinchi uchrashuvida Qo'shma bayonot imzolandi va u ASEANning mintaqada birlik va hamkorlikni mustahkamlashni davom ettirish ahdini tasdiqladi. Sharqiy Hindixitoy mamlakatlari tashqi siyosatda mafkuraviy mo'ljallardan voz kechgani va ASEAN bilan hamkorlikni o'z iqtisodiy siyosati doirasida ham rivojlantira boshlagani, bizningcha, muhim ahamiyat kasb etdi. ASEANga qo'shilish ularga xalqaro maydonda o'z manfaatlarini himoya qilish imkonini berdi.

ASEAN ular uchun inson huquqlari va tuzumlarning avtoritarligi to'g'risidagi masalalar bo'yicha AQSH va G'arbning boshqa mamlakatlari tanqididan o'ziga xos "panoh"ga aylanishi, shuningdek, iqtisodiy yordam kamaygan yoki to'xtatilgan holda donor vazifasini bajarishi lozim edi.

Sharqiy Osiyo integratsiyasining o'sish jarayonida kengayish va torayish sikllarining o'rin almashishini (ayniqsa, 1990–2000-yillarda) Sharqiy Osiyo regionalizmida ikki omil – ASEAN va u bilan bog'liq formatlardan iborat Osiyo omili hamda OTOIH forumida mujassamlashgan Tinch okeani omili o'rtaqidagi raqobat bilan izohlash mumkin. Birinchi omil asosan, Osiyo doirasida asta-sekin, tanlab va cheklangan tarzda yaqinlashish g'oyasini ifodalaydi. Ikkinci omil Osiyodan tashqaridagi mamlakatlar ishtirokida keng integratsiyani nazarda tutadi. Bu jarayonlar sirtdan 1950–1970-yillarda G'arbiy Yevropada kontinental va yevroatlantik integratsiya g'oyalarining o'zaro raqobatlashuvini eslatadi. G'arbiy Yevropada bo'lganidek, Sharqiy Osiyoda ham tegishli raqobatdosh g'oyalar bir-biri bilan to'qnashgani yo'q, balki bir-biriga ta'sir ko'rsatgan holda rivojlandi.

1970-yillarda jahoning yetakchi davlatlari, eng avvalo, Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi ilg'or davlatlar bilan ASEAN muloqotlari tizimi yaratildi. Muloqot bo'yicha keng ko'lamli hamkorlar qatoriga 9 mamlakat (Avstraliya, Hindiston, Kanada, Xitoy, Yangi Zelandiya, Koreya Respublikasi, Rossiya, AQSH, Yaponiya), shuningdek, **YeI** va BMT Taraqqiyot dasturi kiradi. Muloqot tarzidagi o'zaro aloqa

Hamkorlik qo'shma qo'mitalari yordamida amalga oshiriladi. Mazzur hamkorlik Sharq "uchligi" (Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya) bilan ASEANning chuqurlashtirilgan o'zaro aloqasi mexanizmini yaratish uchun asos bo'lib xizmat qildi. "10-3" formatidagi bu mexanizm 2000-yilda rasmiylashtirilgan bo'lib, ASEAN uchrashuvlari bilan bir qatorda "o'n uchlik" va "10-1" formatida sammitlar o'tkazishni nazarida tutadi.

Hozirgi vaqtida ASEANga a'zo mamlakatlarning ayrimlarida Vashington tomonidan ilgari surilgan Tinch okeanidagi mintaqalararo hamkorlik konsepsiyasiga qiziqish paydo bo'ldi.

Shuni qayd etish lozimki, Seul, Tokio va Pekinning Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan integratsion aloqalarining rivojlanishi "ASEAN plus uch" muloqoti doirasida amalga oshmoqda. Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari Yaponianing tashqi iqtisodiy aloqalari da muhim o'rin egallaydi. Janubi-sharqiy Osiyoda erkin savdo zonasining paydo bo'lishi hududida 2 mldr. aholi yashaydigan mamlakatlar umumiyo bozorining shakllanishiga olib kelgan bo'lur edi. 1996-yilda yana bir xalqaro tashkilot – ASEM tuzildi. U o'z saflarida ASEAN a'zolari, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya va YeIni birlashtirdi.

"ASEAN plus uch" (ASEAN, Xitoy, Yaponiya va Janubiy Koreya) hukumatlararo forumi tutash mintaqalardagi mamlakatlar keng ishtiroy etuvchi Sharqiy Osiyo iqtisodiy integratsiya uchun o'zakka aylanmoqda. Hozirgi bosqichda mazkur forum doirasida hamkorlik shartnomaviy-huquqiy bazasining tabiatiga ko'ra ajralib turadi. U murakkab, individual-guruhli xususiyat kasb etadi. Bu ASEAN mamlakatlari "10-1" formatida kollektiv subyekt sifatida bitimlar tuzishini anglatadi. Shu sababli "o'nlik" doirasida integratsiya sur'atlari va sifati mintaqqa miqyosidagi integratsiyadan ildamroq rivojlanishi lozim.

"ASEAN plus uch" forumining Sharqiy Osiyoda regionalizmni rivojlantiruvchi yetakchi institut sifatidagi roliga birinchi navbatda Yaponiya e'tiroz bildiradi. 2004-yil forumning Ventyandagi sammitida Malayzii bosh vaziri Abdulla Badaviy 2005-yilda Kuala-Lumpur shahrida Sharqiy Osioning birinchi sammitini o'tkazishni taklif qildi. Bu taklif Xitoy bosh vaziri Ven Tszyabao tomonidan ma'qullandi.

Yangi sammit “ASEAN plyus uch” formatidagi uchrashuvlar o‘rnini egallashi va Osiyoda integratsiya uchun keng yo‘l ochishi nazarda tutildi. Badaviyning taklifiga boshqa ishtirokchilar ham qo‘sildi, lekin yangi tashkilot tarkibi to‘g‘risida masala qizg‘in bahs-munozaraga sabab bo‘ldi. Tashkilotga tegishlicha mumkin qadar yopiq va ochiq tus berishni taklif qilgan Pekin va Tokio munozaraning qarama-qarshi qutblaridan o‘rin oldi.

Xitoyning kuchayishidan hayiqish bir qator davlatlarning harakatlari modelini belgiladi. Ular 2005-yil dekabrda Kuala-Lumpur shahrida bo‘lib o‘tgan Sharqiy Osiyo inauguratsion sammitida uning tarkibiga “ASEAN plyus uch” forumining 13 davlatidan tashqari Hindiston, Avstraliya va Yangi Zelandiyanı kiritishni talab qildi. Sammit yakunlari bo‘yicha bergen bayonotida Maxatir a’zolik yuzasidan qabul qilingan qaror uning mintaqqa haqida tasavvurini aks ettirmasligini, Rossiya va Shimoliy Koreya mazkur sammitda ishtirok etish uchun Avstraliya va Yangi Zelandiya qaraganda ko‘proq huquqqa ega ekanini qayd etdi.

Bu qaror ASEAN mamlakatlari bo‘lg‘usi uyushmaning o‘zagi rolini o‘ynashi uchun ham xizmat qildi. Inauguratsion sammitda sinashta model qo‘llanildi. 1997-yilgi ASEAN sammitiga Yaponiya bilan bir qatorda, XXR va Koreya Respublikasi ham taklif qilingan, shu tariqa Tokioning haddan tashqari kuchayishiga yo‘l qo‘yilmagan edi. 2005-yilda ayni shu mexanizmdan foydalanildi: Malayziya ilgari surgan va Xitoy qo‘llab-quvvatlagan taklif qabul qilindi, lekin JShO mamlakatlari Pekinning ustunligiga yo‘l qo‘ymaslik uchun tashkilot tarkibini kengaytirdi. Pekin yangi uch a’zoning qabul qilinishi bilan murosa qilishga majbur bo‘ldi va sammit o‘tkazilishi arafasida XXR tashqi ishlari vazirligi Sharqiy Osiyo hamjamiyatini shakllantirishda bosh rolni yangi tashkil etilayotgan sammit emas, balki “ASEAN plyus uch” forumi o‘ynashi haqidagi taklif bilan chiqdi. Bu qoida 2005-yilgi “ASEAN plyus uch” forumi sammitining Deklaratsiyasida qayd etildi.

Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasining sammiti uyushmaning oliy organi hisoblanadi. U tashkil topgan 1967-yildan buyon 15 ta sammit o‘tkazildi.

Regionalizmning raqobatdosh modeli sifatida Sharqiy Osiyo sammintining tashkil etilishi keyingi ikki yil mobaynida “ASEAN plus uch” forumining rivojlanish jarayonini biroz susaytirdi. Uyushma-ning integratsiyalashuviga ko‘maklashish borasidagi harakatlar bilan bir qatorda, ASEAN oldida yangi vazifa – Sharqiy Osiyo yoki Osiyo-Tinch okeani mintaqasi formatidagi mintaqaviy integratsiyaga ko‘maklashish turibdi.

ASEANQ+6 (ASEAN plus Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, shuningdek, Hindiston, Avstraliya va Yangi Zelandiya) doirasida ham o‘zaro hamkorlik amalgalashuviga oshirilmoqda.

Xitoy va ASEAN erkin savdo zonasini tashkil etish bo‘yicha mu-zokaralarga 2002-yilda kirishdi; 2004-yilda tomonlar tovarlar savdosini to‘g‘risidagi bitimni, 2007-yilda – xizmatlar savdosini to‘g‘risidagi bitimni imzoladi; hozirgi vaqtida investitsiyalar to‘g‘risida bitim ham tuzilgan. ASEAN bozoriga bosqichma-bosqich qo‘shilish jarayonini mintaqal mamlakatlarining eng yirik savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biri – Hindiston ham boshladi.

Mazkur hamkorlik tashabbuschilar fikriga ko‘ra, yangi ahslashuvlar ishtirokchi davlatlar o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni yangi darajaga ko‘taradi, Janubi-sharqiy Osiyoda va butun dunyoda iqtisodiyotni tiklash va rivojlantirish ishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Bitimlar amalda ishlayotganini Xitoy va ASEAN o‘zaro investitsiyalari misolida kuzatish mumkin: ular erkin savdo zonasini tashkil etish jarayonining faollashuviga qarab o‘sib bormoqda.

Shunday qilib, ASEAN faoliyatining ichki va tashqi ko‘rsatkichlarini baholash, uyushma o‘z faoliyatida muayyan yutuqlarga erishgan, lekin ular hali integratsiya yo‘lida Yevropa erishgan yutuqlar darajasida emas, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Shu narsa diqqatga sazovorki, Janubi-sharqiy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik modeli funksional integratsiyaga emas, balki eng avvalo umumiyligini qadriyatlar (bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik va suverenitetni hurmat qilish)ni shakllantirish va saqlash vazifasini hal qilishga qaratilgan.

ASEAN faoliyati siyosiy va iqtisodiy xususiyatga ega bo‘lgan turli omillarni o‘z ichiga oluvchi Sharqiy Osiyo regionalizmining muhim jihatiga aylandi.

Quyidagilar Osiyodagi integratsiyaning markazga intiluvchi kuchlari hisoblanadi: jahon savdo yo‘llari chorrahasida strategik jihatdan muhim geografik o‘rinni egallaganlik; bozor iqtisodiyotini tashkil etishning chet el kapitalini kiritish va eksportga yo‘naltirilgan restrukturizatsiya qilingan iqtisodiyotni nazarda tutuvchi liberal modeliga o‘tish.

Integratsiyaga monelik qilayotgan markazdan qochma kuchlar jumlasiga iqtisodiyotning rivojlanish darajasidagi, siyosiy tizimdagи, diniy va madaniy an’analardagi farqlarni, shuningdek, davlatlarning orollar bo‘ylab tarqoq joylashganini kiritish mumkin.

Hozirgi bosqichda yaqin kelajakda ASEAN uchun xavfsizlik sohasida asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin bo‘lgan bir qator omillarni qayd etish mumkin. Bu yerda gap eng avvalo ASEAN faoliyati jaryonida ishlab chiqilgan normalar va prinsiplar haqida boradi: ko‘p tomonlama diplomatiyaga nisbatan o‘z yondashuvi; uyushmaning asosiy hujjatlarida mustahkamlangan bazaviy prinsiplar; ASEANning o‘ziga xos timsollarini – murosayu madora prinsipi hamda nuqtayi nazarlarni kelishish va konfliktli vaziyatlarni hal qilish norasmiy mehanizmlarini nazarda tutuvchi “ASEAN ruhi” va “ASEAN yo‘li”ni yaratganlik; mintaqaviy muammolarni mintaqaning o‘zi doirasida hal qilish niyatining mavjudligi.

ASEAN xavfsizlik organlarini shakllantirishga ko‘maklashishi va tashqi tahdidiga nisbatan o‘ziga xos muqobilga aylanishi mumkin bo‘lgan tashqi muhit omillari sifatida Xitoy keng ko‘lamli rivojlanayotgan sharoitda uyushmaning Osiyo-Tinch okeani mintaqasida o‘zining mustaqil mavqeyini saqlab qolish va mintaqaviy ishlarda ta’sir mexanizmlari o‘ziga biriktirilishiga erishish yo‘lidagi intilishlarini qayd etish mumkin (o‘zaro aloqalarning yuqorida ko‘rsatilgan formatlarini yaratish sabablarini ayni shu omillar bilan tushuntirish mumkin bo‘lsa kerak).

14.4. OTOM xalqaro munosabatlarda

Ulkan Osiyo-Tinch okeani mintaqasi Shimoli-sharqiy va Janubisharqiy Osiyonni, Avstraliyani, Janubiy Koreyani, Yangi Zelandiyani, Butun Koreyani, AQSH va Kanadani o‘z ichiga oladi. Ulkan hudud, zamonaviy iqtisodiy qudrat, salohiyatli resurslar bazasi bu mintaqani butun dunyo bilan bog‘lovchi qulay dengiz yo‘llari o‘zi haqida aytib turibdi. O‘zbekiston uchun nima muhim? Bizning OTOMga e’tiborimizni qaratishimizning asosiy omillari ichida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish lozim:

Birinchidan, OTOM “jahon iqtisodiyotining tezlashtiruvchi mashina”si bo‘ldi. Mintaqqa iqtisodiy o‘sishda ishlab chiqarishga ilmiy texnologiyalarni kiritishda yetakchi pozitsiyani ushlab turibdi. Bashoratlarga ko‘ra, hatto butun dunyoda iqtisodiy o‘sishning pasayishi kuzatilayotgan paytda mintaqqa taraqqiyoti darajasida yetakchilikni saqlab qoladi. Mintaqaning xalqaro siyosatdagi ta’siri ham sezilarli darajada o‘syapti. OTOMdagи iqtisodiy holatni aniqlashtirishga berilmay, faqatgina bir narsani ta’kidlaymiz: bu yerda kuzatilayotgan etnomadaniy va shu kabi davlatlar taraqqiyot darajasining notengligiga qaramay, ularning birlashtiruvchi iqtisodiy taraqqiyot yo‘lidagi maslahatlashuv tendensiyasi kuchaymoqda.

Integrasion jarayonlar rivojlanmoqda. Muhim mintaqaviy meʼxanizmlar faoliyat yuritmoqda. Jumladan, Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi ittifoqi, Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik forumi va boshqalar. Mintaqqa quyidagi falsafa asosida yashayapti: iqtisod – siyosatning salohiyati va xavfsizlikning asosiy shartidir. OTOMning rolini kuchayishi harbiy kuch omilining pasayishi, iqtisodiyotning yetakchiligi, geosiyosatdan geoijtisodiyotga yo‘naltirilish, siyosiy regionalizmga o‘tish kabi tendensiyalarga xizmat qiladi. O‘zbekiston tashqi siyosat samarali bo‘lishi uchun OTOMni kuchini va ahamiyatini hisobga olishi kerak.

Ikkinchidan, O‘zbekiston geografik jihatdan Osiyo markazida joylashgan. Va birinchi navbatda shundan kelib chiqish kerak. Tarixan hozirgi O‘zbekiston hududi eng qadimgi savdo yo‘llari “Ipak yo‘li” o‘tgan joy bo‘lgan, faol tashqi aloqalar va turli madaniyatlarni o‘zaro boyitish jarayonlari olib borilgan. O‘zbekiston mintaqaviy mamlakat

hisoblanadi va u dengizga chiqish yo'llariga ega bo'lishi lozim. Bu muammoning nazariy yechimi bir nechta: Afg'oniston orqali Pokiston Hind okeaniga chiqish mumkin; Turkmaniston, Eron orqali Fors ko'rfaziga chiqish mumkin; yana bir yo'l – Qozog'iston, Xitoy orqali Tinch okeaniga chiqish yo'lidir.

Afg'onistondagi voqealar va bu davlatda yaqin kelajakda tinchlik o'rnatilishi haqida gapirish shart emas.

Shia mazhabiga e'tiqod qiluvchi Eron hamda sunniy Turkiya o'rtasidagi murakkab munosabatlar va ularning hududi orqali o'tuvchi yo'l yopilib qolmasligiga hech kim kafolat bermaydi.

Ko'rinib turganidek, nisbatan barqaror yo'l Tinch okeaniga chiqish yo'lidir. SSRI davrida Tinch okeani mintaqasining roli pasaysa-da, Baykal Amur magistralini qurilishi ittifoq hukumatini bu mintaqaga ko'proq e'tibor qaratganini ko'rsatadi. Shuni ta'kidlash lozimki, Rossiya hozirgi paytda O'zbekiston tashqi iqtisodiy strategiyasini OTOM bilan yaqinlashish foydasiga ko'rib chiqmoqda. Qora dengiz va Boltiq dengizidagi portlarning yo'qotilishi natijasida Rossiya uchun Tinch okeani portlarining ahamiyati oshdi. Rossiyaning Yevropa qismini Sibir va Uzoq Sharq resurslariga ehtiyoji oshmoqda. Buning hammasi Sibir va Uzoq Sharqni OTOM mintaqaviy-iqtisodiy kompleksiga integratsiyasi zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shuningdek, OTOM mamlakatlari ham Rossiya bilan hamkorlik aloqalaridan manfaatdor.

Uchinchidan, ruhiyat va tafakkur shakli – bular O'zbekistonni uning Sharqiy Osiyodagi hamkorlari bilan bog'laydi. Bu o'zaro foydali iqtisodiy aloqalarning o'rnatilishini osonlashtiradi, chunki iqtisodiyot sohasidagi o'zaro hamkorlikning shartlaridan biri madaniy-diniy jabhadagi o'zaro aloqalarni mustahkamlash hisoblanadi. Mamlakat xalqi boshqa davlatda sodir bo'layotgan jarayonlar haqida qanchalik xabardor qilinsa, shuncha ko'proq ishbilarmon odamlarimiz bir-birinikiga borishadi, tadbirkorlarimizning hamkorligi samarador va bir-birini tushunishlari osonroq bo'ladi.

To'rtinchidan, bu mintaqqa dunyo siyosatining tutashgan qismi hisoblanadi. Bu yerda ko'pgina davlatlar, jumladan, AQSH, Rossiya, Hindiston, Xitoy va shu kabi davlatlarning manfaatlari to'qnashadi. Bu davlatlar o'z navbatida ushbu mintaqada sodir bo'layotgan

ko‘pgina jarayonlarga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bugungi kunda Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarining butun tarix davomida eng yirik mintaqaviy moliyaviy va iqtisodiy inqirozni muvaffaqiyatli yengib o‘tgan davlatlar sifatidagi xalqaro ahamiyati barqaror va sezilarli oshmoqda. O‘zbekiston kabi intensiv texnologik va informatsion taraqqiyot asosida barqaror iqtisodiy o‘sishga qiziqqan mamlakatlar “Osiyo yo‘lbarslari” tajribasini iloji boricha tezroq tushunib olishlari zarur.

Bugun O‘zbekiston – bu faqatgina kapital kiritish uchun ulkan tabiiy xomashyo, bepoyon bozor emas. Mamlakatimiz ulkan intellektual, diniy va madaniy salohiyatga egadir. Bularning barchasi qulay geografik joylashuv bilan birga, dunyoda yangi siyosiy va iqtisodiy tartib shakllanayotgan paytda katta geosiyosiy va geostrategik qiziqish uyg‘otmasligi mumkin emas.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, hozirda insoniyatning tabiiy resurslarga ehtiyoj sezayotgan paytda O‘zbekiston tabiiy boyliklarga ega bo‘lib qolmoqda. Kirib kelayotgan “texnologik urush” davrida O‘zbekiston ilg‘or texnika va texnologiya borasida ulkan salohiyatga ega rivojlangan mamlakatlardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston – so‘nmas ijodiy kuch va tunganmas ruhiyatli xalqqa ega mamlakatdir.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Jahon xaritasida Shimoli-sharqiy Osiyo davlatlarining siyosiy-geografik holatini tavsiflab bering.
2. OTOM davlatlari tashqi siyosat konsepsiyasini asosiy o‘lchamlari tushunchasiga ta’rif bering.
3. JShO davlatlari xavfsizlik tizimi masalalari haqida aytib bering.
4. JShO davlatlarining AQSH va Yevropa davlatlari bilan munosabatlari nimadan iborat deb o‘ylaysiz?
5. Bugungi kunda AQSHning OTOM siyosati qanday?
6. Uzoq Sharq davlatlarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga tavsif bering.
7. ASEANning bugungi kuni va istiqbollari haqida ma’lumot bering.
8. Yaponiyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga umumiyligi tavsif bering.

9. Koreyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga umumiyl tavsif bering
10. "Hozirgi davrda OTOM muammolari" mavzusida prezentatsiya tayyorlang.
11. "JShO davlatlarida islom omili" mavzusini muhokama eting.
12. Yevropa Ittifoqining JShO davlatlari munosabatlari haqida ma'lumot bering.
13. Shimoli-sharqiy Osiyo davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga tavsif bering.
14. Indoneziyaning jahon hamjamiyatidagi o'rniga baho bering.
15. Zamonaviy bosqichda KXDR – Koreya Respublikasi munosabatlari qanday?

Mustaqil ish savollari

1. Siyosiy xarita yordamida Uzoq Sharq davlatlarini siyosiy, iqtisodiy - ijtimoiy va geografik holatini gapirib bering.
2. AQSHning Uzoq Sharqdagi siyosatini xarita yordamida aytib bering.
3. Osiyo mamlakatlarining hozirgi siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini internet tizimlari orqali mustaqil o'rganigan.
4. Yaponiyaning xalqaro munosabatlardagi o'rnini yoritib bering.
5. Avstraliya tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini tavsiflab bering.
6. Zamonaviy bosqichda Koreya yarimoroli davlatlarida yuz berayotgan rivojlanish jarayonlariga tavsif bering.
7. "OTOM - Yevropa munosabatlari" mavzusida ma'ruza tayyorlang.
8. Yevropa Ittifoqi tashqi siyosatida ASEAN davlatlari to'g'risida ma'lumotlar to'plang.
9. Xitoy tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini yoritib bering.
10. Yaponiya tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari haqida gapiring.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Kathy Pain. Changing Urban and Regional Relations in a Globalizing World. – USA, 2014, 248 p.

2. TimoBehr., JuhaJokela. Regionalism and global governance: the emerging agenda. –Notre Europe, 2011, 67 p.
3. Rouben Azizian, Carleton Cramer. Regionalism, security and cooperation in Oceania. – USA: APCSS, 2015, 172 p.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Барыгин И. Н. Международное регионоведение. – СПб.: Питер,2016, 384 с.
2. Мухаммадсидиков М.М. Замонавий халқаро муносабатларнинг минтақавий жиҳатлари (ўкув қўлланма). –Т.: ТошДШИ, 2013, 182 б.
3. Мухаммадсидиков М.М. Хорижий Шарқ ва Ғарб мамлакатларида ижтимоий-сиёсий жараёнлар (ўкув қўлланма). –Т.: ТошДШИ, 2013, 160 б.
4. Muhammadsidiqov M.M. Sharq mamlakatlari xalqaro munosabatlari (o‘quv qo‘llanma). – T.: ToshDSHI, 2017, 240 b.

15-BOB. XITOY XALQ RESPUBLIKASI VA OSIYO REGIONALIZMI

Dars maqsadi:

- mazkur ma’ruzani o‘qitishdan ko‘zlangan maqsad talabalarning Osiyo davlatlarining zamонавиј xalqaro munosabatlardagi o‘rni haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish;
- talabalar jahon mamlakatlaridagi, xususan, XXR va uning Osiyodagi siyosati borasida tasavvur hosil qilishlariga ko‘maklashish;
- magistrant va talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo‘llashni o‘rgatish;
- magistrant va talabalarga Osiyo regionalizmi borasidagi to‘la ma’lumotlarni yetkazish hamda ushbu jarayonlarning o‘ziga xos jihatlari bilan ularni tanishtirib borish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: *Xitoy va Tayvan, Xitoy ekspansiyasi, Shimoliy Koreya yadro quroli muammosi, Yevroсиyo mintaqasi “uchligi”, ShHT.*

15.1. Osiyo regionalizmining xususiyatlari

XXI asr boshlarida Afg‘oniston va Iroq tufayli Fors ko‘rfazi davlatlari atrofida kechayotgan siyosiy o‘yinlar, nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasi, balki Yevrosiyoning uch buyuk, ya’ni Rossiya, XXR va Hindiston davlatlarining o‘z tashqi siyosati bilan bog‘liq “strategik manfaatlari”ni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

AQSH ta’sirida G‘arb va Yaponiya davlatlarining bu mintaqalarda davlatlariga o‘zaro munosabati esa ziddiyatlarning tub negizini belgilamoqda. Yevroсиyo mintaqasi “uchligi”ni tashkil qilayotgan Rossiya, Xitoy, Hindiston va AQSHning o‘zaro ichki munosabatlari aloqadorligi va ularning dunyo siyosatiga ta’siri masalasi diqqatni jalb etmoqda. XXR va Hindiston misolida ko‘riladigan bo‘lsa, dunyo yer yuzi aholisining asosiy qismi aynan ana shu mamlakatda yashamoqda. Agarda bu davlatlarga qiyosan, AQSHni qo‘shib hisoblaganda, Okean orti Amerika mintaqasi aholisi sakkiz yuz millionni tashkil qilib,

shundan ikki yuz million kishi ishsizdir. Hindiston, Rossiya, AQSHda ham ishsizlik muammosi mavjud.

Rossiya, XXR hamda Hindiston ham o‘zlarining yadroviy qurollariiga ega, bu jihatlari bilan dunyo siyosatiga bevosita ta’sirini o‘tkaza oladigan, mintaqqa xavfsizligi va barqarorligini kafolatlashda turli xavflarga qarshi tura oladigan, ulkan harbiy salohiyatga ega davlatlardir.

Jug‘rofiy joylashuviga ko‘ra, “uchlik halqasi”ni tashkil etayotgan Rossiya, XXR va Hindiston davlatlari o‘zaro tabiiy boy mam-lakatlar sirasiga kiradi. XXRning Sinszyan – uyg‘ur milliy avtonom rayoni geografik nuqtayi nazardan bu uchlikning manfaatlarini uyg‘unlashtiruvchi strategik makon bo‘lib qolmoqda. Bu “uchbur-chak” davlatlarning dunyo maydonida o‘ziga xos o‘rin tutayotganligini ham amalda ko‘zdan qochirmaslik kerak. Birinchidan, dengiz yo‘llari orqali bevosita dunyo bozorlariga chiqishda qulay imkoniyatlariiga ega, ikkinchidan, hududiy bir-biriga bog‘langan ulkan makonlar, uchinchidan, bu “uchlik”larning mintaqaga kirgan Markaziy Osiyo davlatlari ijtimoiy taraqqiyotiga amalda ta’sir o‘tkazishi bilan xarak-terlanmoqda. Markaziy Osiyoning mintaqaviy dengiz yo‘llaridan uzoqligi esa, ularning qo‘shni davlatlar bilan faol siyosat yurgizishi, oxir-oqibat “uchlik” davlatlarga bevosita chiqish zaruriyatini taqozo etmoqda. Bu ko‘proq O‘zbekistonga xos xususiyat sifatida, mazkur vaziyatda O‘zbekistonning ShHT davlatlari ichida faol tashqi siyosat olib borish zaruratini keltirib chiqarmoqda. “Jahon kommunika-tsion tarmoqlarining tez sur’atlarda rivojlanib borishi natijasida ya-gona bir davlat faoliyati bevosita mintaqqa siyosati bilan uyg‘unlashib bormoqda. Bu borada Markaziy Osiyo makoni uchun Rossiya, Xitoy va Hindiston davlatlari bilan munosabatlarni har qachongidan ko‘ra yanada yaxshilash strategik vazifalaridan bo‘lib qolish ehtimoldan xoli emas. Buning asosiy sababi esa, “Markaziy Osiyo mintaqasi o‘ziga xos geosiyosiy tashqi chegaralarga ega”ligi, ya’ni “bu holat ikki omil – Rossiya va Xitoy o‘rtasida “sinqilib qolganlik” va janubda islom olami bilan belgilanishi” mumkinligi masalasidir.

Ammo, xalqaro maydonda jarayonlar qanday kechishidan qat’i nazar, Markaziy Osiyo respublikalarining Rossiya yoki XXR imkonи-

yatlaridan foydalangan holda jahon bozorlariga chiqish hozirga qadar muammoligicha qolmoqda. Bu esa ba’zi holatlarda mintaqqa davlatlarni janubda islom davlatlari bilan faol tashqi – iqtisodiy munosabatlarni olib borish zaruratini paydo qildi. Buning oqibatida “Yevrosiyo mintaqasining tarkibiy qismlaridan bo‘lib qolayotgan Markaziy Osiyo bozorlarida o‘zaro raqobat kuchaymoqda”.

XX-XXI asr geosiyosiy o‘zgarishlarini NATOning bugungi faoliyatjisiz tasavvur qilish qiyin. Bu asosan, tashkilotning sharqqa tomon siljishi bilan xarakterlanadi.

XX-XXI asrlar kesishuvida geosiyosiy o‘zgarishlar va mintaqada xavfsizlik, barqarorlik va taraqqiyotni ta’minalash muammolari xususida gap ketar ekan, bu o‘rinda “dunyoning globallashuvi” bilan bog‘liq bo‘lgan holatlarini ham ko‘zdan qochirmaslik kerak bo‘ladi. ShHT ham bugunga kelib globallashuv g‘oyalarni ro‘yobga chiqarish uchun xizmat qiluvchi hamda g‘oyalarni tashuvchi yirik tashkilotlardan bo‘lib qolmoqda.

Rossiya va XXR xalqaro munosabatlarda o‘z tashqi strategik manfaatlari bilan bog‘liq jihatlarga diqqat jalb etilsa, bu borada ularda o‘zaro manfaatlarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, Yevrosiyo xavfsizligi va barqarorligini ta’minalashda XXR mintaqada Rossiya kabi keng imkoniyatlarga ega emas. Xitoy buni yaxshi tushunadi. va o‘z tashqi siyosatida muammoning ana shu jihatlariga ko‘proq diqqatni qaratadi. Xususan, ShHT doirasida ana shu siyosiy mezonga amal qilish ustuvorlik kasb etmoqda, deyish mumkin. Xitoy va Rossianing strategik manfaatlarida bir-birini hurmat qilish g‘oyasi ular munosabatlarining barqarorligini ta’milamoqda. Yevrosiyo mintaqasida Xitoy va Rossianing o‘ziga xos yana bir jihat, “Xitoyning Yevrosiyo mintaqasida ulkan energiya resurslaridan foydalanuvchi davlat ekanligi bo‘lsa”, aksincha “Rossianing energiyani ishlab chiqaruvchi ulkan davlat bo‘lib qolayotganligidir”. Demakki, bu jabhalarda “Rossiya va Xitoy o‘zaro biri-birini to‘ldiruvchi davlatlar” bo‘lib, ana shu sohalarni rivojlantirish masalasi ham kela-jakda ular munosabatlarini yaqinlashtiruvchi omildir.

Yevrosiyo g‘oyasi targ‘ibotchilarining fikricha, Rossiya geografik joylashuviga ko‘ra, ham Yevropa, ham Sharq mintaqasiga kirgan-

ligi, uning Yevropaga bo‘lgan munosabatini belgilamoqda. Rossiya-ning bosib o‘tgan keyingi uch yuz yillik ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti, madaniyati-tarixining yuksalishida Yevropa madaniyati samarali ta’sirini o‘tkazganligini va bu omillarning hozir ham Rossiya ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida ta’siri kuchli bo‘layotganligini ko‘zdan qochirmaslik kerak. Sobiq Ittifoq parchalangandan keyingi Rossiya-ning xalqaro maydonda siyosiy, iqtisodiy, madaniy ta’siri sezilarli kamaygan bo‘lsa-da, ammo Rossiya Yevrosiyo geoetnik makonida Yevropa bilan Sharqni ijtimoiy-siyosiy jabhalarda bir-birini bog‘lovchi ko‘prik bo‘lib kelgan va kelajakda ham shunday bo‘lib qoladi. Rossiya energetika bo‘yicha buyuk davlat bo‘lib qolmoqda. Rossianing tabiiy gazi o‘tgan asr 70-yillari boshlaridanoq Yevrosiyo, qolaversa, dunyo geosiyosatida muhim o‘rin tutib kelgan.

Rossiya tashqi faoliyatida xalqaro maydonda ta’sir kuchi o‘sib borayotgan XXR bilan ikki va ko‘p tomonlama hamkorlik qilish o‘z davrining eng oqilona yo‘llaridan bo‘lib qolmoqda. Rossiya va XXR hamkorligi doirasida hududiy muammolarini hal etish sabablari ana shu jarayonlar bilan ham bog‘liq.

Keyingi paytlarda Tayvan masalasida, Xitoy va Yaponiya, Shimoliy Koreya yadro quroli muammolarini bartaraf etishda Xitoy va AQSH munosabatlarida hamon kelishmovchiliklar saqlanib qolmoqda. AQSHning Xitoy omili bilan bog‘liq ana shu jihatlari kelajakda Rossiyaga yon bosishiga olib kelishi mumkinligi haqidagi farazlar amalda yo‘q emas. Ammo bu farazlar haqiqatga qanchalar mos yoki mos emasligini hayotning o‘zi ko‘rsatib bormoqda. Bunga ishonch hosil qilish uchun esa NATOning Sharqqa tomon cho‘zilishi AQSHning Markaziy Osiyoda o‘tkazib kelayotgan siyosiy tafsilotlarga nazar tashlashining o‘zi kifoya. Shuningdek, ayrim Rossiya mutaxassislarining fikriga ko‘ra, Rossianing “Shanxay hamkorlik tashkiloti” doirasida XXR bilan o‘zaro hamkorlikda, Sibirning bo‘z yerlarini o‘zlashtirish, qolaversa, iqtisodiy makonlar barpo etish-tashqi siyosatining yo‘nalishlarini belgilamoqda. Rossiya ham, XXR ham ikki tomonlama mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirish afzalliklarini ana shu yo‘l orqali ko‘rmoqda. Qolaversa, o‘tgan davr ichida bu qarashlar o‘zini amalda oqlamoqda. Bu g‘oyalar turli xil kasbdagi rus

olimlari ichida mantiqiy munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Ba’zi rosiyalik mutaxassislarining fikricha, Sibir bo‘z yerlarini o‘zlashtirish maqsadida xitoyliklarning Rossiyada ko‘payib borishi holati kelajorda Rossianing milliy manfaatlari va xavfsizligiga jiddiy tahdidlarni kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin. Noqonuniy migratsiya esa buning asosiy omili bo‘lib qolmoqda. Uzoq Sharqning janubida jamoatchilik fikri bo‘yicha olib borilgan monitoring natijalari asosida xulosa qilinadigan bo‘lsa, Uzoq Sharq xalqining 50% dan ortig‘i Xitoy ekspansiyasi fenomeni borligini ta’kidlagan.

XX-XXI asrlar geosiyosiy o‘zgarishlar davrida manfaatlarni ro‘yobga chiqarishda mintaqqa tabiiy boyliklari ham asosiy omillardan bo‘lib qolmoqda.

15.2. Xitoy Xalq Respublikasining milliy rivojlanish strategiyasi va uning asosiy yo‘nalishlari

XXR Osiyo qit’asining sharqiy qismida, Tinch okeanining g‘arbiy qirg‘og‘ida joylashgan Osiyodagi eng katta davlat. Hududining kattaligi bo‘yicha jahonda Rossiya va Kanadadan keyingi uchinchi o‘rinda. Mamlakat hududining 2/3 qismini tog‘lar tashkil qiladi.

So‘nggi 25-yil davomida XXR islohot va ochiqlik tamoyiliga qat’iy amal qilib kelmoqda. Bozor iqtisodiyoti tizimini shakllantirish; ochiq turdag'iqtisodiyotning yuzaga kelishi; ishlab chiqarish kuchlari va mamlakatning umumiy qudratining sezilarli rivojlanishi; ijtimoiy masalalarning keng ko‘lamda hal qilinishi shular jumlesiñadir.

XXRda amalga oshirilayotgan siyosiy va iqtisodiy islohotlar quyidagi xususiyatlarga ega. Birinchidan, Xitoy Xalq Respublikasi Sovet Ittifoqi parokandalikka uchraganidan so‘ng, boshqa davatlarga nisbatan sotsialistik g‘oyalarni uloqtirib tashlagani yo‘q, balki iqtisodiy munosabatlar tizimini qayta ishlab chiqishga kirishdi. Lekin XXR rahbariyati orasida ushbu islohotlar sotsialistik mafkuraga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, deb hisoblaydiganlari ham bor.

Masalaning ikkinchi tomoni, ayrim siyosatshunoslar aksariyat ochiq iqtisodiy hududlar janubda joylashganligini aytib, mamlakatda iqtisodiy islohotlar nomutanosib ravishda, ya’ni shimoliy qismga kam e’tibor qaratilishini ta’kidlaydilar.

Masalaning uchinchi tomoni, mamlakat ichidagi milliy muxtoriyatlarning mustaqillikka bo‘lgan intilishlari va norozilik chiqishlari- dir. Bu norozilik kayfiyatlari mamlakat barqarorligiga ta’sir ko‘rsatib, iqtisodiyotga og‘ir yuk bo‘lishi tabiiy.

To‘rtinchidan, mamlakat iqtisodiyotiga jahonning turli mintaqalarida istiqomat qiluvchi xitoyliklar – xua chyaolar XXRga investisiyalarning 60%ni kiritayotganlarini kuzatishimiz mumkin.

Beshinchidan, Xitoyda islohotlarning borishida shu davlatga nisbatan AQSH va Rossiya munosabatlari ham ahamiyatga molik. Zero, AQSH—XXR munosabatlarida iqtisodiy jabha asosiy masaladir. XXRda amalga oshirilayotgan iqtisodiy liberalizatsiya Amerika iqtisodiyotiga ma’lum ma’noda salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Misol sifatida Xitoyda aqliy mehnat mahsulotlarini noqonuniy o‘zlashtirilishi natijasida amerikaliklar bir necha o‘n million dollar miqdorida zarar ko‘rmoqdalar. Bu hol esa AQSH Kongressida bir necha marotaba XXRga nisbatan iqtisodiy jazo qo‘llash, ya’ni Xitoy bilan iqtisodiy aloqalarni uzish masalalari muhokama qilinganligini ko‘rshimiz mumkin.

Shu bilan birga, XXRda milliarddan ortiq kishining istiqomat qiliishi, ishlab chiqarish kuchlarining yetarli va ravon darajada rivojlanmaganligi sababli iqtisodiy bazaning kuchsizligi, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan atrof-muhit va tabiiy resurslar o‘rtasida jiddiy nomuvofiqliklar kabi muammolar ham mavjud. Jon boshiga yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichi 1000 AQSH dollariga yetgan bo‘lishiga qaramasdan, Xitoy Xalq Respublikasi jahon jerarxiyasida birinchi yuz davlatdan keyingi o‘rinda turibdi.

XXR bugunda aholi soniga ko‘ra dunyoda birinchi o‘rinda turadi. Tug‘ilishning cheklanganlik siyosatini olib borilishiga qaramay, mutaxassislarning fikricha, 2010-yilning o‘rtalariga kelib Xitoy aholisi 1,4 mlrd. kishini tashkil etdi. Xitoyda kishi boshiga ekin ekiladigan yer 0,15 gektarga to‘g‘ri keladi.

XXR umumiy valyuta zaxirasi 1995-yilda 51,6 mlrd. AQSH doll. ni tashkil etgan bo‘lsa, 1999-yilda bu ko‘rsatkichi 150 mlrd. AQSH doll.dan oshib ketdi. XXRning asosiy savdo sheriklari AQSH, Yevropa va Osiyo mamlakatlari hisoblanadi. 2008-yilda Xitoya kiritilgan mahsulotlar qiymati 550 milliard dollarni tashkil etgan.

O'tgan bir yil asnosida Xitoy neft bozorining kattaligi jihatidan jahonda ikkinchi o'ringa chiqdi. Bu yo'lda u Yaponiyani ortda qoldirdi. Hozirda XXRdan neft iste'moli bo'yicha birgina mamlakat oldinda bo'lib, u ham bo'lsa Amerika Qo'shma Shtatlaridir.

2004-2007-yillar davomida Xu Szintao Xitoy Xalq Respublikasining xomashyoga bo'lган ehtiyojlarini qondirish yo'llarini ochish maqsadida yer yuzi bo'ylab safar qildi.

Kembrij energiya tadqiqotlar uyushmasi vakili Jim Burxard fikriga ko'ra, Xitoyning neftga talabi misli ko'rilmagan darajada oshgan va barcha alomatlar bu ehtiyojning o'sishda davom etajagini ko'rsatmoqda. «O'tgan 2004-yilni oladigan bo'lsak, bu talab 17 foizga oshdi. Dunyoning boshqa burchaklarida esa, ayni ko'rsatkich 3 foiz atrofida bo'ldi. Xullas, Xitoy Xalq Respublikasi tez sur'atlar bilan yirik neft iste'molichisiga aylanmoqda».

Ammo bu faqat neft degani emas. Juhon Bankining Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasi bo'yicha bosh iqtisodchisi Xomi Xarasning fikricha, Xitoy hozirda har xil turdag'i ehtiyoj talab mahsulotlar importi bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Uning fikricha: «15-yil muqaddam Tyananmen maydonidagi norozilik namoyishi paytida Xitoyning tashqi dunyodan qo'rqishiga arzigulik sababi bor edi. O'sha paytlarda Xitoy unga zarba berishga qaratilgan va kommunistik tuzumni tormor etish harakatlarining boshida AQSHni ko'rardi. Ammo o'tgan yaqin yillar ichida XXR tashqi siyosatining ahamiyatga molik tomoni shundaki, ular tezlik bilan bu kabi siyosiy xavotirlarga o'rashib qolmaslik kerakligini, iqtisodiyot muhimroq ekanini anglab yetdilar».

Shu bilan birga, Xomi Xaras, Xitoyning taraqqiy etishi-manzaatli aylanma savdo aloqalarining paydo bo'lishiga, Sharqiy Osiyo iqtisodiyotining tez sur'atlar bilan o'sishiga va butun Osiyo bo'ylab qashshoqlik darajasining sezilarli darajada pasayishiga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Xitoy Xalq Respublikasining iqtisodiy jihatdan o'sib borishi qator mutaxassislar tomonidan o'rganilib, ushbu omil XXRning tashqi siyosatida, birinchi navbatda, AQSH bilan munosabatlariada qay darajada o'z ifodasini topishi mumkin, degan savol ustida tadqiqotlar olib bormoqdalar.

Pekindagi Iqtisodchilar byurosi rahbari, professor Jeyms Maylsning fikriga ko'ra, Xitoyning Amerikaga munosabati anchayin murakkab bo'lib, uni murosasiz va adovatli deb bo'lmaydi.

Uning fikricha, «Xitoydagi siyosiy ob-havoni belgilovchi asosiy nazar Amerikaning qudrati Xitoy iqtisodiy manfaatlari uchun foydali, degan jumlaga jam bo'ladi. Amerikaning jahon sahnasida politsiyachi rolini o'ynash harakatlari, tabiiyki, Pekining jig'iga tegadi, ammo, alal oqibat, Amerika o'z harakatlari bilan Xitoyning xavfsizlik muammolarini bartaraf etishga xizmat qiladi. Xitoyning xomashyoga bo'lgan ehtiyoji qondirilishi uchun, deylik, dengiz yo'llari barqaror bo'lishi kerak va toki dengiz yo'llaridan u o'z hududiga xomashyolarni keltira bilarkan, menimcha, Pekin Amerikaning bu qudrati bilan kelishishga tayyor».

XXRning xalqaro maydonda olib borayotgan faoliyati ham diqqatga sazovor. Ma'lumki, XXRga nisbatan qiziqish jahon hamjamiyatida ortib bormoqda. Misol sifatida, 1998-yilda AQSHning o'sha paytdagi prezidenti B.Klinton, Buyuk Britaniya Bosh vaziri Toni Bler, Yevropa qo'mitasi sobiq raisi Jak Santer kabi davlat arboblarining Xitoy Xalq Respublikasiga tashriflarini hamda, o'z navbatida, XXR mamlakat va partiya rahbariyati a'zolarining Rossiya, Yaponiya, Amerika va Afrika qit'asidagi mamlakatlariga tashriflarini ko'rishimiz mumkin.

1998-yil 25-iyundan 3-iyulgacha AQSHning o'sha paytdagi prezidenti B.Klinton Xitoy Xalq Respublikasiga tashrif buyuradi. Tashrif chog'ida o'tkazilgan muzokalaralarda yadro qurolining tarqalishi, jinoyatchilikka qarshi kurash, energetik va ekologik masalalar, fan va texnologiya, iqtisodiyot masalalari bo'yicha fikr almashdilar. Tashrif chog'ida, shuningdek, Shimoliy va Janubiy Koreya munosabatlarini tinch yo'l bilan hal etish xususida hamfikr ekanliklarini bildirgan edilar. Shunga qaramay, ikki davlat munosabatlarida ziddiyatli holatlar ham yo'q emas. Bunday omillar sirasiga Osiyo-Tinch okeani mintaqasi xavfsizligi, inson huquqlari masalasi, Tayvan muammosi, intellektual mulkni noqonuniy o'zlashtirish kabi masalalarni kiritishimiz mumkin. Tashrif chog'ida Tayvan masalasiga oid «To'rtinchi kommyunike» «to'liq ishlab chiqilmagan»ligi sababli AQSH prezidenti tarafidan imzolanmaganligini aytish joiz.

Ma'lumki, birinchi kommyunike 1972-yilda XXRning AQSH tarafidan tan olinganligi, ikkinchi kommyunike 1978-yilda AQSH elchixonasining Taypeyidan Pekinga ko'chirilishi va Tayvanni BMT a'zoligidan chiqarish, uchinchi kommyunike 1982-yilda imzolangan bo'lib, Tayvanga AQSH tarafidan ko'rsatilayotgan harbiy yordam miqdorini bosqichma-bosqich kamaytirish nazarda tutilgan. Shu sababli, yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, mazkur masala bora-sida ikki davlat manfaatlari bir-biriga zid bo'lganligi uchun, Tayvan muammosi ma'lum vaqtgacha ochiq qolishini taxmin qilish mumkin.

Jorjtaun Universiteti tashqi aloqalar maktabi professori Robert Satter Tayvan masalasini sharhlar ekan:

«XXR Tayvanni mustaqillik tomon yurishini oldini olish uchun harbiy kuchga suyanadi. Agar Tayvan mustaqillik e'lon qilish tarad-dudida muayyan chora-tadbirlarni amalga oshirsa va bu borada Xitoy hukumatiga bo'ysunmasligini aniq ma'lum qiladigan bo'lsa, Xitoy Xalq Respublikasi mazkur muammoning oldini olish maqsadida qurolli kuchlarni harakatga keltirishi ham mumkin. Bu esa o'z navbatida, XXRning AQSH bilan to'qnashuviga ham olib kelishi mumkin», - degan fikrni ilgari suradi.

Xitoy Xalq Respublikasining iqtisodiy jihatdan o'sib borishi uning harbiy kuch-qudratini oshirishga xizmat qilishi ham mumkin.

Ma'lumki, Xitoy Xalq Respublikasi hukumati 2005-yilda mammalakat harbiy xarajatlarini 12.6 foiz, taxminan 30 milliard dollarga ko'paytirishni bildirdi. Hukumat matbuot vakili Szyan Enjuqing ayti-shicha, qo'shimcha xarajatlar oyliklarni to'lash, harbiy mashg'ulotlar o'tkazish va armiyani zamonaviy qurollar bilan ta'minlashga yordam beradi. Harbiy xarajatlarni oshirish taklifi Parlament sessiyasiga tasdiqlash uchun taqdim etildi.

XXR tarafidan harbiy texnikalarni sotib olish tashqi siyosiy yo'nalishlardan kelib chiqqan bo'lib, qisqa fursatlarda harbiy salohiyatini jahonning yetakchi davlatlari darajasiga yetkazishni maqsad qilib qo'yanligidan dalolat beradi.

Bu borada XXR Rossiyan dan harbiy qurol-yarog', zamonaviy texnologiyalarni sotib olishga intilmoqda. Ma'lumki, XXR Rossiyan dan 10 ta havoda samolyotlarni yoqilg'i bilan ta'minlaydigan Il-

78 rusumdagι samolyot, S-300 PMU-1 zenit qurilmasini hamda aniq nishonga uruvchi «Tor-M1» raketalarini sotib olgan. Shuningdek, XXR Rossiyadan 877EKМ va 636 (Kilo-class) rusumidagi to‘rtta dizel-elektrik suvosti kemasini hamda «Sovremenniy» turkumida-
gi bir nechta esmineslar sotib olgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, Rossiya 2004-yilda XXRga ikki milliard dollardan ortiq qiymatda harbiy texnika sotgan.

2004-yil 13-dekabr kuni Pekinda Rossiya va Xitoy o‘rtasida harbiy hamkorlik bo‘yicha tuzilgan hukumatlararo qo‘mitasining navbatdagi majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda ikki davlat o‘rtasida harbiy soha-
dagi hamkorlikni yanada kengaytirish bilan bog‘liq qator masalalar muhokama etildi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugun O‘zbekiston XXRga oziq-
ovqat mahsulotlari, paxta tolasi, momiq, nokimyo va kimyo mahsu-
lotlari, mineral o‘g‘itlar eksport qilayotgan bo‘lsa, u yerdan qahva,
choy, plastmassa va undan tayyorlangan buyumlar, mexanik va elek-
tron jihozlar, kir yuvish vositalari va boshqa turli xil xalq iste’mol
mollarini keltirmoqda.

15.3. Xitoy Xalq Respublikasining tashqi siyosiy maqsadlari

Xitoy Xalq Respublikasi, garchi u BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a’zosi bo‘lsa-da, rivojlanayotgan davlatlar sirasiga kiradi va tabiiyki, birinchi navbatda sarmoya chiqarishga emas, aksincha, kiritishga intiladi. Mamlakatda dunyoning yetakchi firma va kompaniyalari bilan ko‘plab qo‘shma korxonalar tuzilgan yoki yaqin hamkorlik o‘rnatalgan. Qariyb barcha sohaga xorijdan ilg‘or texnologiya jalb qilinmoqda. XXR o‘zining 1,25 mlrd.liк nufusi bilangina emas, iqtisodiy qudrati bilan ham e’tiborli. So‘nggi yillarda mamlakatda iqtisodiy o‘sish yiliga 8–10 foizni tashkil qilmoqda. Dunyo bo‘yicha sarmoyaning qariyb 20–22 foizi XXRga kiritilmoqda. Bu juda katta ko‘rsatkichdir. Biroq XXRning o‘zi hozircha xorijga sarmoya chiqarish uchun unchalik katta imkoniyatga ega emas. Ayni holatni O‘zbekistonda ham kuzatish mumkin.

1964–1986-yillarda jahon taraqqiyoti muammolariga Xitoyning yangi konseptual yondashuvi shakllandi. Xalqaro ahvolni tahlil etish-

da ko'pqutblilik yondashuvi qo'llaniladi. 1988-yil may oyida XXR ning o'sha paytdagi tashqi ishlar vaziri Syan Sichen Pekin rasmiy qarashlarini konsepsiya shaklda ifoda etdi. Unda XXRning Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan siyosatining asoslari ishlab chiqilgan.

So'nggi 50-yil mobaynida XXR tashqi siyosati sobiq SSSRga yo'naltirilgan «bir vektorlik»dan jahondagi yetakchi davlatlarga nisbatan «ochiq eshiklar siyosati»gacha bo'lган yo'lни bosib o'tdi.

XXR mustaqillikni qo'lga kiritgach, tashqi siyosati oldiga o'z mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, o'zini tan olgan barcha davlatlar bilan keng qamrovli aloqalar o'rnatish va Tayvanni jahon hamjamiyatidan ayirish maqsadini qo'ydi. Shunga tayangan holda Xitoy Xalq Respublikasi bilan diplomatik aloqlarni o'rnatish istagi bo'lган mamlakatlar oldiga quyidagi 3 shart qo'yish belgilab olindi:

Birinchidan, Tayvan bilan aloqlarni uzish va XXR hukumatini yagona Xitoy hukumati, Tayvan esa XXR tarkibida ekanligini tan olish.

Ikkinchidan, XXRga do'stona munosabatda bo'lish va BMTda o'zining qonuniy o'mini egallashda ko'mak berish.

Uchinchidan, Xitoy Xalq Respublikasiga samimiy ehtiromni muzokalarlar o'tkazish orqali ifoda etish.

Bugungi kunda XXR oldida turgan muhim masalalardan biri – Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama aloqlarni shakllantirish, o'z milliy va davlat xavfsizligini ta'minlashdan iborat. Markaziy Osiyo mintaqasidagi muhim omillardan biri – mintaqadagi yadro qurollining mavjudligi edi.

Markaziy Osiyo mintaqasi Pekin tomonidan XXR uchun hayotiy muhim mintqa sifatida qaralmoqda. Xitoylik tadqiqotchilarining fikricha, Markaziy Osiyo davlatlari o'z xavfsizliklarini Xitoy Xalq Respublikasi yordami va qo'llab-quvvatlashisiz ta'minlay olmaydilar.

Xitoylik mutaxassislar XXRning Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan pozitsiyasini quyidagicha ifodalaydilar:

Birinchidan, Markaziy Osiyo Rossiya monopoliyasidan chiqib, XXR va jahoning boshqa mamlakatlariga ochildi. Bu bilan uzoq muddat davom etgan Rossiyaning XXRga nisbatan bosimining yo'qolishiga olib keldi.

Ikkinchidan, XXR va Yevropani bog‘lovchi «Ikkinchi temir yo‘l ko‘prigi»ni o‘tkazish imkoniyati tug‘ildi. Bu holat XXRning Yevropaga xomashyo va Xitoy eksport mollarini olib o‘tishda Rossiyaga bog‘liqlikdan ozod etdi. Eron temir yo‘llarini Mashxad – Seraks – Tejen qismida Transosiyo magistrali bilan bog‘lanish XXRga Shaxaydan shimalroqda joylashgan Lyanyungan portidan Stambulgacha bo‘lgan yo‘lda tovar yetkazish vaqtini 25–30%ga tejashga imkon beradi.

Uchinchidan, Markaziy Osiyo hududi XXR uchun Yevropa va Janubiy Osiyo mamlakatlari, Yaqin Sharqqa ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan qulay koridor bo‘lib qoldi.

XXRning Rossiya bilan chegarasi nisbatan ahamiyatsiz, munozarasiz va xavfsiz bo‘lib qoldi. Eng muhimi, xitoylik siyosatshunoslarning fikricha, ikki mamlakat o‘rtasida Xitoya tahdid solmaydigan – Mongoliya, Qozog‘iston, Qирг‘изистон, O‘zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston kabi davlatlardan iborat «bufer hudud»ning paydo bo‘lganligidir.

XXRning hisoblashicha, Janubi-sharqiy Osiyo mintaqasida nisbatan tinchlik va barqarorlik hukm surmoqda. Biroq uning o‘zgaruvchanligi bir qator muammo va mojaroni keltirib chiqarmoqda. Ular orasida quyidagi mojarolarni ko‘rsatish mumkin: Koreya Yarim orolidagi vaziyatni, Sharqiy va Janubiy Xitoy dengizlaridagi hududiy bahslar yoki bu mintaqadagi qurollanish poygasi. Yana bu ro‘yxatga Pekin bir qancha iqtisodiy qarama-qarshilikni qo‘shtirish mumkin. Bu esa “nizoli hudud”ning kengayishiga olib kelishi mumkin. Yaqin vaqtlar surilib, o‘rniga iqtisodiy xavfsizlik, iqtisodiy qarama-qarshilik yuzaga keladi. Buni AQSH va Yaponiya o‘rtasida ko‘rish mumkin. Uning kelajagi xatarli bo‘lgani uchun bu mintaqqa xavfsizligini ta’minlash muhim masaladir.

Xitoy manbalarida bunday qarama-qarshilik juda ham katta ahamiyat kasb etishi ta’kidlangan. Ularni ko‘rsatishicha, bunday holat mazkur mintaqadagi davlatlarni birlashtirish o‘rniga bo‘lib yuboradi.

Buning ustiga Sharqiy Osiyo mintaqasida diniy qarama-qarshiliklarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. Bu nafaqat davlatlar o‘rtasida, balki, Xitoy tahlilchilarining fikriga ko‘ra, Xitoy ichkarisida

ham yuz berishi mumkin. Masalan, Tibet avtonom rayonidagi buddist ayirmachilari harakati. Xitoy ekspertlari Sharqiy Osiyo mintaqasidagi xavfsizlik masalasini hal qilish haqida o'ylar ekan, 4 asosiy derjavalar ni ham hisobga oladi. Bularga AQSH, Xitoy, Yaponiya va Rossiya kiradi.

Xitoy va Yaponiya rivojlanish pallasida Rossiya sobiq Ittifoq parchalanganidan so'ng "mintaqqa derjavasiga aylanib qolgan bo'lsa, AQSH "buyuk Derjava"ga aylandi. Shuning uchun aynan AQSH bu mintaqada XXR hamma manfaatlarini hisobga olgan holda harakat qilishi kerak. Sshuning uchun iqtisod, siyosat, xavfsizlik sohasida AQSH Pekinning keng qamrovli tashqi siyosatiga alohida e'tibor bermoqda. Xitoy va AQSH olimlari shu narsani e'tirof etishadiki, AQSH va Xitoyning Sharqiy Osiyodagi qarashlari bir-biriga mos kelsa-da, biroq ular o'rtasida keng qamrovli muammolarga nisbatan farqlar mavjud. Biroq AQSHning bu mintaqadagi siyosati Xitoyni ancha xavfsiratib qo'yan. Bu, ayniqsa, AQSHning Xitoy ichki siyosatiga aralashishida namoyon bo'ladi. AQSH asosan, Xitoyning inson huquqlarini buzishi, Osiyo-Tinch Okeani mintaqasida o'z harbiy qudratini oshirishga intilishi, Yaponiya va Avstraliya bilan harbiy aloqalarning mustahkamlanishidan norozi. Shu sababli AQSH doim Xitoy ishiga aralashgan va Tayvanni ko'p bora qo'llab-quvvatlagan.

Pekin oddiygina qilib aytganda, AQSHdan "ustunlik"ka erishish uchun unga qarshi chiqqani yo'q. Balki u AQSHning harbiy ustunligiga qarshi kurashmoqda. Shuning uchun Sharqiy Osiyo amerikallarga muhtoj emas. Bu pozitsiya birinchi bor Xitoy tashqi ishlar vazirligi tomonidan 1997-yil aprelda Vashingtonning Osiyoda 100 ming harbiy xizmatchilarini saqlab turish kerakligini tasdiqlashiga javoban rasmiy ravishda e'lon qilindi.

Janubiy Osiyoda Xitoy 60-yillardan boshlab Pokiston bilan aloqalarni mustahkamlashni qo'llab-quvvatlay boshladи. Chunki, Xitoy Pokiston orqali O'rta Sharqqa kirish imkoniyatlarini qo'lga kiritdi. U yerda Xitoy 70-yillardan iqtisodiy hamkorlik tashkiloti a'zolari bilan aloqalarni mustahkamlay boshladи. Bu Bog'dod pakti SENTO o'rnidagi tashkilot edi. U, ayniqsa, Turkiya, Eron va Pokiston bilan aloqalarni mustahkamladi. 1992-yilda Iqtisodiy

hamkorlik tashkili (EKO)ga 5 ta Markaziy Osiyo Respublikasi va Afg'oniston qo'shildi.

Xitoyning bir-biriga yaqin bo'lgan mintaqalardagi davlatlar bilan aloqalarining mustahkamlanishi, Xitoy uchun dunyo "okeani"dagi geosiyosiy "shelfidir.

Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari hududiy-akvatoriyasi bilan bog'liq muammolar, birinchi navbatda, mintaqadagi yetakchi tashilot sanalgan ASEAN oldiga ularni iloji boricha qurolli tortishuvlar darajasiga ko'tarilmay turib bartaraf etishdek muhim vazifani qo'yadi. Buning uchun, eng avvalo, tashkilot muhim iqtisodiy hamkor sanaluvchi Xitoy bilan murosaga borishi va bu jarayonda iloji boricha boshqa qudratli mamlakat aralashuviga yo'l qo'ymasligi kerak bo'ladi. Chunki 1970-yillarda Sharqiy Timorni Indoneziya tarkibidan mustaqil qilish jarayonida sobiq SSSR bilan hamkorlikdagi Xitoy va AQSH manfaatlarining to'qnashuvi natijasida mintaqadagi vaziyat tarang holatga kelib qolgan edi. Ayrim siyosiy va ijtimoiy jihatdan demokratik bo'lgan mamlakatlarni hisobga olmaganda, deyarli barcha mintaqadagi davlatlari harbiy tuzumga asoslangan hukumat boshqaruvi ostida bo'lib kelgan. Vyetnamdagi kommunistik hukumat, Indoneziyada 1975-yildan 1998-yilgacha hukumat tepasida bo'lgan Suxarto harbiy hukumati, Tailandda bir necha yillardan buyon davom etib keelayotgan siyosiy inqiroz va Myanmadagi harbiy xunta faoliyatlarini yuqorida ta'kidlab o'tgan voqealar natijasida sodir bo'lgan, deya bemalol aytishimiz mumkin. Shu sababli ham, ASEAN bu kabi holatlar yana qayta takrorlanmasligini ta'minlashi uchun eng avvalo mintaqada yirik davlatlar tomonidan amalga oshiriladigan siyosiy o'yinlardan himoyalanishga harakat qilishi kerak bo'ladi.

Umuman aytganda, XXR mustaqillikni qo'lga kiritgach yuqorida ta'kidlaganidek, tashqi siyosati oldiga o'z mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, o'zini tan olgan barcha davlatlar bilan keng qamrovli aloqalar o'rnatish va Tayvanni jahon hamjamiatidan ayirish ni maqsad etib belgiladi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Xalqaro munosabatlarda Xitoy Xalq Respublikasining ATRdagi roli.
2. Mintaqada XXR ning tashqi siyosati.
3. XXR va Yaponiyaning o‘zaro munosabatlarining kelajagi qanday?
4. Osiyo mintaqashunosligining asosiy konsepsiyalari.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. “Xitoy-Amerika munosabatlari yangi bosqichda” mavzusida ma’ruza tayyorlang.
2. “XXR tashqi siyosiy yo‘nalishining asosiy kursi” mavzusida maqola tayyorlang.
3. “XXR ning hududiy nizolari” mavzusida prezentsiya tayyorlang.
4. “XXR ning Markaziy Osiyodagi manfaatlari” mavzusida prezentsiya tayyorlang.
5. 1997–1998-yillardagi iqtisodiy inqirozni tariflab bering.
6. “Janubi-sharqiy Osiyodagi integrasion jarayonlar” mavzusida ma’ruza tayyorlang.
7. “ATES forumi va Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari” mavzusida xabarlar tayyorlang.
8. “Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari va ATR” mavzusida prezentsiya tayyorlang.
9. “ATESnинг asosiy maqsad va vazifalari” mavzusida referat tayyorlang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati Asosiy adabiyotlar

1. Kathy Pain. Changing Urban and Regional Relations in a Globalizing World. – USA, 2014, 248p.
2. TimoBehr., JuhaJokela. Regionalism and global governance: the emerging agenda. –Notre Europe, 2011, 67 p.
3. Rouben Azizian, Carleton Cramer. Regionalism, security and cooperation in Oceania. – USA: APCSS, 2015, 172 p.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Барыгин И. Н. Международное регионоведение. – СПб.: Питер, 2016. – 384 с.
2. Мұхаммадсидиков М.М. Замонавий халқаро муносабаттарнинг минтақавий жиҳатлари (ўкув қўлланма). –Т.: ТошДШИ, 2013, 182 б.
3. Мұхаммадсидиков М.М. Хорижий Шарқ ва Ғарб мамлакатларида ижтимоий-сиёсий жараёнлар (ўкув қўлланма). –Т.: ТошДШИ, 2013, 160 б.
4. Muhammadsidiqov M.M. Sharq mamlakatlari xalqaro munosabatlari (o'quv qo'llanma). – T.: ToshDSHI, 2017, 240 b.

16-BOB. SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI

Dars maqsadi:

- Shanxay hamkorlik tashkiloti va uning o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirish;
- integratsion va globallashuv jarayonida Shanxay hamkorlik tashkilotining faoliyatini o‘rgatish;
- mazkur bilimlarni mustaqil tahlil qilishga ko‘maklashish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: *Shanxay hamkorlik tashkiloti, MO davlatlari, chegara, bojhona, munozaralar, harbiy birlashuv, mintaqa va mintaqaviylashuv, regionalizm, iqtisodiy birlashuv, siyosiy birlashuv.*

16.1. Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyati

Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo mamlakatlar o‘rtasida hamkorlikning muvaffaqiyatli chuqurlashuvi jahon hamjamiyatining e’tiborini tobora keng jalb etmoqda. Ushbu tashkilot bilan aloqa va hamkorlikni o‘rnatish ishtiyoqidagi mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar soni tobora ko‘payib bormoqda. Ochiqlik tamoyiliga rioya qilgan holda, Shanxay hamkorlik tashkiloti bunga tayyor. 2003-yil Moskva Sammitida qabul qilingan Shanxay hamkorlik tashkiloti Deklaratsiyasida ta’kidlanganidek, “Shanxay hamkorlik tashkiloti geografik joylashuvdan qat’i nazar, boshqa xalqaro tashkilotlar va davlatlar bilan hamkorlikka tayyor”. Shanxay hamkorlik tashkilotining tashqi hamkorlik mexanizmlari qabul qilingan hujjatlarda nazarda tutilgan va ular doirasida olib boriladi. Shanxay hamkorlik tashkilotiga uning faoliyati asosida belgilangan tamoyillar va majburiyatlarga rioya qilishga tayyor boshqa davlatlar ham a’zo bo‘lib kirishi mumkin. Tashkilotning asosiy tamoyillari – uning boshqa davlatlarga qarshi qaratilmaganligi, ham mintaqaviy, ham xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida ko‘p vektorli muloqot olib borishga tayyorlikdir.

2002-yil noyabrida “oltilikning” tashqi ishlar vazirlari yig‘ilishida “Shanxay hamkorlik tashkiloti tashqi aloqalarining muvaffaqiat

sxemasi” qabul qilingan bo‘lib, unga muvofiq, Shanxay hamkorlik tashkiloti boshqa mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarni tashqi ishlar vazirlari yig‘ilishlariga va tashqi siyosiy masalalar bo‘yicha maslahatlashuvlarga mehmon sifatida taklif qilishi, shuningdek, o‘z va killarini boshqa xalqaro tashkilotlarning tadbirlarida ishtirok etish uchun yo‘llashi mumkin. Shu maqsadda “A’zo davlatlarning Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish va hamkorlik to‘g‘risida Protokol” ishlab chiqilgan bo‘lib, unda ko‘p pog‘onali maslahatlashuvlar mexanizmi, shu jumladan, Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlarning Birlashgan millatlar tashkiloti qoshidagi Doimiy vakolatxonalar o‘rtasida muntazam uchrashuvlarni o‘tkazib borish nazarda tutiladi. “Shanxay hamkorlik tashkiloti qoshida kuzatuvchi maqomi to‘g‘risida Nizom” 2004-yil Toshkentda bo‘lib o‘tgan Sammitda tasdiqlandi.

Ayniqsa, Shanxay hamkorlik tashkilotining Birlashgan millatlar tashkiloti bilan hamkorligi muvaffaqiyatli rivojlanishi kuzatilmogda. Moskvada qabul qilingan Shanxay hamkorlik tashkiloti Deklaratsiyasida yozilganidek, “Davlat rahbarlari Birlashgan millatlar tashkiloti va BMT Xavfsizlik Kengashining yirik xalqaro muammolarni hal etishdagi rolini tan olish fundamental ahamiyat kasb etadi. Birlashgan millatlar tashkiloti jahonda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga mos ravishda, birinchi navbatda, jahon siyosati va xavfsizligi muammolarini samarali hal etish ehtiyojidan kelib chiqib isloh etilishi mumkin va shunday bo‘lishi ham kerak.

Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar, Birlashgan millatlar tashkiloti Nizomi va xalqaro huquq normalariga muvofiq ravishda mojarolarning oldini olish bo‘yicha choralarни amalga oshirishni uning faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri deb biladi”. Bundan tashqari, mazkur Deklaratsiyada ta’kidlanganidek, “Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi aloqalarni rivojlantirish bilan bir qatorda, a’zo davlatlar Birlashgan millatlar tashkiloti Xavfsizlik Kengashining Aksilterrorchilik qo‘mitasi bilan faol hamkorlik qilish niyatida”. O‘z navbatida, Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyati va shu formatda o‘zaro aloqalarning chuqurlashuvi BMT tomonidan iliq qarshi olinmoqda. Masalan, 2004-yil yanvarida Shanxay hamkorlik tash-

kiloti Kotibiyatining ochilishi munosabati bilan, BMT Bosh kotibi Kofi Annan shunday deb ta'kidlagan edi: "Oxirgi bir necha yil ichida Shanxay hamkorlik tashkiloti tashkiliy jihatdan mustahkamlandi va xavfsizlik sohasida tobora muhim tashkilotga aylanib bormoqda. Uning olti nafar a'zosi muloqot va hamkorlikda anchagina tajriba to'pladi, o'zaro anglashuvni rivojlantirdi va umumiy kelajak uchun jamoaviy mas'ullikni his etishdi"¹³¹. BMT Bosh kotibi ta'kidlashicha, oxirgi bir necha yil ichida Shanxay hamkorlik tashkilotining qator a'zo davlatlari anchagina iqtisodiy muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi. Boshqalari o'z salohiyatini ishga solishga astoydil intilib kelmoqda. Shu bilan birga, Shanxay hamkorlik tashkilotining barcha mammalakatlari uchun terrorizm va mojarolar xavfi barqarorlik va taraqqiyot hamda universal qadriyatlarni ilgari surish uchun asosiy tahdid bo'lib qolayotgan ekan, Birlashgan millatlar tashkiloti Bosh kotibi hozirgi zamон muammolarini bartaraf qilishda sa'y- harkatlarni birlashtirishni taklif qildi va BMT Shanxay hamkorlik tashkilotining ko'ptomonlama hamkorligiga umid bildirishini bayon qildi.

Fikrimizcha, ushbu ikki tashkilot maqsadlari va yondashuvlarining o'zaro yaqinligi va mosligi tufayli ularning rasmiy aloqalari juda faol rivojlanmoqda. Masalan, Shanxay hamkorlik tashkiloti vakillari BMT Xavfsizlik Kengashi Aksilterrorchilik qo'mitasining yig'ilishida (2003-yil mart, Nyu-York), YeXHT sheriklari muloqotining yig'ilishida (2003-yil aprel, Vena), BMT va Mintaqaviy tashkilotlarning Yuqori darajadagi beshinchi yig'ilishida (2003-yil iyul, Nyu-York), Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining terrorizmga qarshi kurash va uning oldini olish bo'yicha yig'ilishida (2003-yil sentabr, Lissabon) ishtirok etishdi.

2003-yil 2-sentabrida Umumxitoy xalq vakillarining doimiy yig'ini raisi U. Bango va Filippin Parlamenti vakillar palatasi raisi Xose de Venesia ASEANGa a'zo davlatlar Shanxay hamkorlik tashkiloti bilan xalqaro terrorizm jinoyatchiligiga qarshi hamkorlikda kurash to'g'risida Bitim imzolashi kerakligini bayon qilishgan. Ushbu parlamentariylar o'zlarining boshqa Osiyo mamlakatlaridagi

¹³¹ БМТ бош котиби Кофи Аннаннинг ШХТ Котибияти очилиши муносабати билан сўзлаган нутқи. Инт.: <http://www.Un.org/ru/news/html>

hamkasblarini Osiyo aksilterrorchilik ittifoqini tezroq tashkil etishga chaqirdi. Ularning ta'kidlashicha, ushbu tuzilmaga Shanxay hamkorlik tashkiloti va ASEAN davlatlarining kirishini nazarda tutadi.

2004-yil yanvarida Pekin shahrida ko'plab xalqaro tashkilotlar va davlatlar vakillari ishtiroy etgan Shanxay hamkorlik tashkiloti Kotibiyatining ochilish marosimida boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish masalasi faol muhokama qilindi. Masalan, Irelandiyaning XXRdagi elchisi Deklan Konoli "Yevropa Ittifoqi ShHT bilan yaqin aloqalarni olib borish niyatida" deb bayonot berdi, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti Bosh kotibi Yan Kubish esa "Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti Shanxay hamkorlik tashkiloti bilan hamkorlikni rivojlantirishdan juda manfaatdor»ligini ta'kidladi¹³². Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining yuqori darajadagi amaldorining ta'kidlashicha, buning uchun yaxshi asos mavjud: Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo olti nafar davlatning beshtasi Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti a'zosi hisoblanadi. MDH Bosh kotibi o'rribbosari Aslan Kajakov, Shanxay hamkorlik tashkiloti va MDH o'rtasida umumiylig ko'pligini ta'kidlab, "yaqin istiqbolda ikkala tashkilot o'rtasida sermahsul aloqalar o'rnatilishiga" ishonch hosil qildi.

Shanxay hamkorlik tashkiloti bilan hamkorlik qilishga nafaqat xalqaro tashkilotlar, balki boshqa mamlakatlar ham qiziqishmoqda, ayrimlari tashkilotga kirish xohishini ham bildirishmoqda. Masalan, 2003-yil mayida Pokiston davlati rahbari general Parvez Musharraf Xitoya tashrifi arafasida, uning davlati ushbu tashkilotga qo'shilishi bilan mintaqadagi jarayonlarga muhim hissa qo'shishi mumkinligi to'g'risida bayonot qilgan. 2003-yilning 23-apreli dagi ITAR-TASS ma'lum qilgan xabarga ko'ra, Hindiston Shanxay hamkorlik tashkiloti tarkibiga qabul qilish iltimosi bilan murojaat qilgan. Rossiya Federatsiyasi Tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrovning so'zlariga qaraganda, "Hindiston bunday taklif bilan Rossiya yoki Xitoya emas, balki bevosita tashkilotning o'ziga murojaat etdi. Bu masala Shanxay hamkorlik tashkilotiga kirish istagidagi mamlakatlarning tashkilot tamoyillariga nisbatan munosabatidan kelib chiqib ko'rildi".

¹³² www.sectsco.com/news/osce/html

Binobarin, bugungi kunda yetuk xalqaro tashkilotga aylanib, faoliyat doirasini kengaytirayotgan, o'zi qamragan ulkan mintaqadagi ko'plab muammolarni yechishga qodir bo'lган ShHT xaqli ravishda xalqaro hamjamiyat e'tiborini tortmoqda. 2004-yilning dekabrida u BMT Bosh Assambleyasida kuzatuvchi maqomini oldi. 2005-yilning aprelida ShHT bilan ASEAN hamda MDH o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumlari imzolandi. Bular tashkilotning xalqaro maydondagi faolligi, jahonda u bilan hamkorlikka qiziqish ortib borayotganidan dalolatdir.

Dunyodagi ko'plab davlatlar tomonidan ShHT faoliyati ijobiy baholanmoqda.

2001-yil 11-sentabr voqealaridan va AQSH yetakchiligidagi terrorizmga qarshi global kurash bo'yicha xalqaro kampaniyaning boshlanishidan keyin ShHTga salbiy baho berishlar ancha kamaydi.

Xitoy va Rossiya tomonidan AQSHning Afg'onistonidagi aksilterrorchilik operatsiyasining qo'llab-quvvatlanishi va ularning toliblarining oxirigacha mag'lub etilishidan manfaatdorligi, AQSHning mintaqada harbiy ishtirok etish rejalariga qarshiliklarini ancha susaytirdi, deb ko'rsatildi.

AQSHning ayrim ekspertlari ShHTning aksilterrorchilik salohiyatini ijobiy baholagani holda, tashkilot istiqbollarining noaniqligiga qaramasdan, u mintaqada vaziyatni barqarorlashtirishda muhim rol o'ynashi mumkinligini ta'kidlashadi, zero, Rossiya, AQSH va Xitoy mojarolar tahdidining kuchlilagini anglagan holda, maslahatlashuv mexanizmlarini ishga solish yo'li bilan ularning oldini olishdan manfaatdor¹³³.

AQSHda Xitoy va Rossiyaning ShHTdagi yetakchi roliga qaramasdan, bu tashkilotning kelajagi Markaziy Osiyo mamlakatlari, avvalo, O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi munosabatlarga ko'p jihatdan bog'liq, deb hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqining yetakchi mamlakatlari. Yevropa Ittifoqining asosiy mamlakatlari, avvalo, Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniya, umuman olganda, ShHTning tashkil etilishini qo'llab-quvvatlaydi,

¹³³ "Ситуация в Центральной Азии и ШОС. Четвёртая международная конференция-2004"--Китай: ШИМИ, 2004, 57 с.

shu bilan birga, uning istiqbolini noaniq hisoblab, tashkilot yutuqlarini baholashga hali erta deb bilihadi, zero, uning ahamiyati tashkilot oldiga qo‘yilgan vazifalarni hal eta olishi bilan ortib boradi.

Yevropa Ittifoqida ShHTning terrorizmga qarshi hamkorlikda kurash rejalariga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lib, norasmiy darajada Shanxay hamkorlik tashkilotining NATO, Yevropa Ittifoqi, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan axborot almashishlarini yo‘lga qo‘yish imkoniyatlarini ko‘rib chiqilmoqda. Toshkentda Mintaqaviy Aksilterrorchilik tuzilmasining ochilishi ijobiy baholanmoqda.

Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyo davlatlari ichida O‘zbekiston va Qozog‘istonni ham ko‘ptomonlama, ham ikkitomonlama darajada o‘z milliy manfaatlarini himoya qila olishiga ishonadi.

Italiya Tashqi Ishlar Vazirligi bosh mahkamasi boshlig‘i M. Marsil lining fikricha, ShHT o‘z faoliyati davomida katta kuch va salohiyatiga ega ekanligini ko‘rsatdi. Yangi tahdidlarga qarshi turli davlatlarni o‘z atrofiga birlashtira oldi. Uning fikricha, tashkilot shunday davom etaversa, yaqin kelajakda xalqaro maydonda butun jahon siyosatiga ta’sirini o‘tkaza oluvchi yana bir tuzilma paydo bo‘lishi mumkin.¹³⁴

Polshaning “Tribuna” gazetasi yangi xalqaro tashkilotning salohiyatiga to‘xtalar ekan, ShHT haqida “Boltiq dengizidan Tinch okeanigacha joylashgan mamlakatlarni birlashtirgan tuzilma” deb xabar beradi. Bundan tashqari, gazeta ShHT mintaqaviy aksilterror tuzilmasining ochilishi xavfsizlikni ta’minlashdagi muhim tadbir ekanligini ayтиб о‘тади¹³⁵.

Germaniyaning “Diplomati kurer” gazetasi bosh muharriri Konstantin Erlix ShHTga a’zo davlatlarning birgalikdagi harakati amaliy va sezilarli natijalarga olib kelishiga ishonch bildiradi.

Umuman, Yevropa Ittifoqining rasmiy doiralari, agar Shanxay hamkorlik tashkiloti davlatlari ilgari surilgan maqsad va vazifalarni ro‘yobga chiqargan taqdirda, Markaziy Osiyoning xavfsizlik va iqtisodiy taraqqiyot darajasi sezilarli ravishda ortadi, deb hisoblashadi.

¹³⁴ Истиқболли ҳамкорлик // Г. «O‘zbekiston ovozi» ro‘znomasi, 2004-yil 24 iyun/

¹³⁵ Ўша манба.

Afg'oniston. Afg'on hukumati ShHTni mintaqaviy hamkorlikning ishchan mexanizmi sifatida ko'radi. Shu munosabat bilan Afg'oniston tomonidan tashkilotga a'zo davlatlar bilan ham ko'ptomonlama, ham ikkitomonlama munosabatlarni rivojlantirishga tayyorligini ma'lum qiladi.

Afg'onistonning sobiq Tashqi ishlar vaziri doktor Abdullo Abdullo «mintaqada bunday tashkilotning tashkil etilishining dolzarbligi»ga bir necha bor ishora qilgan edi. «Biz Shanxay hamkorlik tashkiloti bilan hamkorlik qilishdan manfaatdormiz, zero, ushbu tashkilotning asosiy vazifalaridan biri-bevosita Afg'oniston joylashgan mintaqada terrorizmga qarshi kurashdan iborat». Afg'oniston, A.Abdulloning so'zlariga ko'ra, bu vazifalarni qo'llab-quvvatlaydi, «Agar hamkorlik uchun tegishli takliflar bo'lsa, biz uni qabul qilamiz», – deb ta'kidlaydi Afg'onistonning sobiq Tashqi ishlar vaziri.

“Toshkent forumida Hamid Karzay va u boshqarayotgan mahkamaning ishtirok etishi Afg'onistonning ShHTga a'zo mamlakatlar bilan hamkorlikka katta ahamiyat qaratayotganidan yaqqol dalolatdir” deydi ushbu mamlakatning BMT dagi doimiy vakili Ravon Farhodiy¹³⁶.

Afg'oniston rasmiy doiralarining fikricha, Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi faoliyatning asosiy yo'naliishlari mamlakatning tiklanish jarayoniga real ko'mak berish, shuningdek, terrorizm, ekstremizm va narkotik moddalarning tarqalishiga qarshi kurashda real vositadan iborat bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan Afg'oniston hukumati boshlig'i Hamid Karzayning ShHTning Toshkent sammitiga taklif etilishi Afg'oniston hukumati tomonidan yuqori baholangan edi.

Xulosa qilish mumkinki, o'zi qamragan ulkan mintaqadagi ko'plab muammolarni yechishga qodir bo'lgan ShHT haqli ravishda xalqaro hamjamiyat e'tiborini tortmoqda, xalqaro tashkilotlar va boshqa davlatlar tomonidan ShHTning tashkil etilishi qo'llab-quvvatlanib, faoliyatni ijobjiy baholanmoqda. ShHT bilan hamkorlikni o'rnatish ishti-

¹³⁶ Афғонистон ҳукуматининг ташрифи / «Тошкент оқшоми» рўзномаси, 2004 йил 22 июнь.

yoqidagi mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar soni tobora ko‘payib bormoqda.

16.2. Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlarning tashkilot doirasidagi manfaatlari

Oxirgi yillarda postsoviet makonda bir qancha integratsion birlashmalar tashkil etildi (MDH, GUAM, YevrAzES va b.). Biroq sir emaski, bugungi kunga kelib ularning hammasi ham yuklatilgan ishonchni oqlayotgani yo‘q. Shu asnoda hozirga qadar eng muvafqaqiyatli va hayotiy, istiqbolli tashkilot sifatida Shanxay hamkorlik tashkiloti o‘zini namoyon qilib kelmoqda. Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo bo‘lib kirgan mamlakatlar o‘rtasida hududiy bahslar yo‘q. Aksincha, anchagina umumiy manfaatlari mavjud. Xususan, Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlari jangovar separatizm va fundamentalizm bilan kurashda sa’y-harakatlarni birlashtirish muhim hisoblanadi.

Islom fundamentalizmining shimoliy yo‘nalishda tarqalishi terrorchilarning hurujlarini bir necha yil davomida boshidan kechirayotgan Rossiyani xavotirga solmasligi mumkin emas. Rossiya, Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlari, shuningdek, transport sohasida hamkorlik qilishdan juda manfaatdor, zero, aynan ularning chegaralari orqali G‘arb va Sharq hududlarini, Osiyo-Tinch Okeani mintaqasini Yevropa-Atlantika mintaqasi bilan bog‘lovchi yangi transport koridorlari o‘tishi rejalashtirilgan.

Umumiy manfaatlari va yaqin hamkorlik alohida mamlakatlar yoki mamlakatlar guruhiiga qarshi turuvchi geosiyoziy alyansning tashkil topishini anglatmaydi. Moskva Sammitining yakunlovchi Deklaratsiyasida, Shanxay hamkorlik tashkiloti «a’zo davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonch, do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilikni mustahkamlash maqsadida tuzilganligi» va «alohida davlatlar yoki davlatlar guruhiiga qarshi qaratilgan blok yohud yopiq alyans emas»ligi aytildi. Shu ma’noda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Sammitda nutqidagi ushbu so‘zlangan so‘zlar juda o‘rinlidir: «hozirda shakllanayotgan Shanxay hamkorlik tashkiloti xalqaro siyosatning konstruktiv organi sifatida shakllanishi zarur, unda Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo bo‘lgan har bir davlatning manfaatlari inobatga

olinishi kerak. O‘ylaymanki, bunda mintaqada har qanday bloklararo yondashuvlar yoxud to‘qnashuvlarning yuzaga kelishi beunum jaryon bo‘ldi»¹³⁷. Shanxay hamkorlik tashkiloti Ijrochi kotibi Chjan Deguan Toshkentga qilgan safarida shunday deydi: «Shanxay hamkorlik tashkiloti tinch hamjamiyat hisoblanadi va hech bir tashkilot bilan to‘qnashishni xohlamaydi».¹³⁸

ShHTga a’zo davlatlarning har birida Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi manfaatlari mavjudki, ular bu tashkilotda faol ishtirok etishga harakat qilmoqdalar.

Xitoyning mazkur tashkilotdan doimiy manfaatdorligi xususidagi fikr shu bilan tasdiqlanadiki, qator xitoylek siyosatshunoslar yangi mintaqaviy tashkilot – Shanxay hamkorlik tashkilotining tashkil etilishini Xitoy tashqi siyosatining eng muhim yutuqlaridan biri sifatida baholaydi.

Xitoy Raisining ta’riflashicha, bu tashkilot na ittifoqchilik, na konfrontatsion munosabatlarga asoslanmaydi. Noyob jihat shundayki, butun tarixi davomida harbiy-siyosiy bloklarni tuzmaslik va ittifoqlarga birlashmaslikka asoslangan harbiy doktrina tarafdoi bo‘lgan Xitoy ilk bor mintaqaviy tuzilmani tashkil etish tashabbus-kori bo‘ldi.

Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida Xitoy manfaatlari ham o‘z siyosiy strategik maqsadlariga erishish, ham mamlakatning barqaror taraqqiyoti uchun iqtisodiy muammolarni yechish ehtiyoji bilan belgilanadi.

Birinchidan, a’zo mamlakatlar geosiyosiy, iqtisodiy va harbiy manfaatlarining yaqin istiqbolda ushbu mexanizm doirasida ko‘ptomonlama hamkorlikni o‘rnatish va mustahkamlash uchun o‘zaro mos kelishi.

Ikkinchidan, Xitoy tashkilotning ikki a’zosi – Rossiya va Tojikiston Respublikasi bilan chegara bahslarini tartibga solish masalasini yakunlanishiga qadar a’zo mamlakatlarning diplomatik va harbiy

¹³⁷ Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараккиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. –Т.: Ўзбекистон, 2003, 277 б.

¹³⁸ Усмонов А. Тошкент саммити арафасида. // “Халқ сузи” рӯзномаси, 2004 йил 1 июнъ.

ekspertlaridan tarkib topgan qo'shma nazorat guruhi orqali harbiy sohadagi bitimlarni amalga oshirishga intiladi.

Uchinchidan, XXR hukumati Afg'onistondan chiqayotgan diniy ekstremizm va separatizm tahdidlarining tarqalishi va Shinjon muxtoriyati (SUAR) bilan bevosita chegaradosh Markaziy Osiyodagi voqealar rivojidan jiddiy xavotirda. Pekinda ko'rsatilgan hozirgi zamon tahdidlari bilan yakka tartibda kurashishning iloji yo'qligini va ularning umumiy xavf solishi tufayli birgalikda kurashish kerakligini tu-shunadi. Shuning uchun tashqi sheriklar va tashkilotning a'zolari salohiyatidan foydalangan holda, Xitoy mojaroni yakuniy hal qilishga kirishish niyatida.

To'rtinchidan, Xitoy o'zining Markaziy Osiyodagi manfaatlarini o'rta muddatli istiqbolda Rossiya manfaatlari bilan ShHT formati orqali mutanosiblashtirishga intiladi, uzoq muddatli istiqbolda esa mintaqada o'zining monopol ustunligini o'rnatish niyatida.

Beshinchidan, ehtimol, Xitoy o'zining Markaziy Osiyodagi ta'sirini kuchaytirish niyatida hozirda mintqa mamlakatlari o'rtasida mavjud bo'lgan muammolardan unumli foydalanish orqali asta-sekin ular o'rtasida kelishtiruvchi rolini qo'lga kiritishi mumkin.

Oltinchidan, Pekin ShHTni mamlakatning g'arbi-shimoliy xavfsizlik chizig'ini ta'minlash uchun ajoyib imkoniyat deb biladi, bu XXR tashqi siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Shu tarzda Xitoy G'arb ta'sirining kuchayib ketishiga va uyg'ur ayirmachilarining kuchayishiga yo'l qo'ymaydigan bufer zonani jashkil etishi mumkin.

Yettingchidan, Xitoy ushbu mexanizmdan «yagona Xitoy» siyosatini yanada kuchaytirish, shuningdek, gegemonizm va kuch siyosatiga qarshi turish va tashqi siyosiy tashabbuslarni ilgari surish orqali ko'pqutblilik jarayonini rag'batlantirish yo'lida foydalanish niyatida.

Sakkizinchidan, Pekin ShHT mexanizmini qo'llash orqali Markaziy Osiyoning issiqlik-yoqilg'isidan keng foydalanish niyatida.

To'qqizinchidan, Xitoy rahbariyati tashkilotga a'zo mamlakatlarning savdo-iqtisodiy aloqalar salohiyatidan XXRning g'arbiy hududlarini keng ko'lamda o'zlashtirishda, shu jumladan, o'z iqtisodiyoti uchun mahsulotlarni sotish bozorini shakllantirish yo'li bilan foydalanish niyatida.

O'ninchidan, Xitoy, ehtimol, ShHTga a'zo mamlakatlar salohiyatini Sharqiy Osiyonni Markaziy Osiyo orqali Yevropa bilan bog'lovchi va XXRning bu mintaqalarga chiqishiga ko'maklashuvchi barqaror transport koridorlarini yaratishga intiladi. Bu, shuningdek, Yaponiya, Janubiy Koreya va Janubi-sharqiy Osiyoning boshqa davlatlaridan mollarni Yevropaga tranzit qilish orqali katta iqtisodiy foyda olish imkonini beradi.

Tahlil natijalari ko'rsatmoqdaki, Shanxay hamkorlik tashkilotiga nisbatan a'zo davlatlarning yondashuvlari, manfaatlarining mushtarakligi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Xitoy. Xitoy ShHT doirasida ko'ptomonlama hamkorlikni rivojlantirish tarafdori sifatida tashkilotning barcha tadbirlarida faol ishtirok etadi.

Pekinning diqqat markazida – xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlik sohalari ustuvordir. Mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlash va «uchta yovuzlik»: xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va milliy separatizm bilan kurashda hamkorlikni mustahkamlashning ustuvorligi Xitoy tomonidan barcha darajalarda ta'kidlanadi va faol harakatlari bilan tasdiqlanadi.

Bu yo'nalishda XXR Shinjonda barqarorlikni ta'minlash va mamlakatning g'arbiy tumanlarini tezroq rivojlantirish, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar, mintaqada uyg'ur ayirmachilarining ta'sirini neytrallashtirish uchun qulay tashqi shart-sharoitni shakllantirish maqsadini ko'zlaydi.

Oxirgi omil, shuningdek, XXRning huquqni muhofaza qilish idoralarini yo'nalishi bo'yicha ham hamkorlikni rivojlantirishni nazarda tutadi. ShHT a'zo mamlakatlarning huquqni muhofaza qilish tuzilmalari o'rtaсидаги aloqalar mustahkamlanmoqda va ularga moddiy- texnik yordam ko'rsatilmoqda. Pekin, shuningdek, tashkilot doirasida qo'shma harbiy va aksilterrorchilik tadbirlarni (mashg'ulotlar, yig'ilishlar) o'tkazishni taklif etmoqda.

XXRda giyohvand moddalarning noqonuniy aylanmasi bilan bog'liq jinoyat ishlarining ortib borishi, Pekinni Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar bilan narkotrafikka qarshi kurash sohasidagi hamkorligini kuchaytirishga undamoqda.

Xitoy ShHT doirasida harbiy sohadagi hamkorlikni rivojlantirish tarafdori, Xitoy tomoni fikricha, bu terrorizmga qarshi kurashga bag‘ishlangan bo‘lishi kerak. Bunga tasdiq sifatida XXR harbiy bo‘linmalarining ShHT mamlakatlarining (O‘zbekiston ishtirokisiz) 2003-yil avgustida Qozog‘iston va XXRning Uyg‘ur muxtoriyatida o‘tkazilgan aksilterrorchilik mashg‘ulotlaridagi ishtirokini ko‘rsatish mumkin. Xitoy, shuningdek, 2004-yil yozida Pekinda ShHT doirasida mudofaa va xavfsizlik masalalari bo‘yicha seminar o‘tkazish tashabbusini ilgari surgan.

XXRning ShHTdagi ikkinchi ahamiyatli ustuvor vazifasidan biribu ko‘ptomonlama iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish. Xitoy fikricha, iqtisodiy hamkorlik terrorizm manbalarini yo‘q qilishga yordam beradi.

2003-yil sentabrda ShHT HBKning Pekinda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishidan keyin, Xitoy iqtisodiy hamkorlik masalalariga, ayniqsa, tasdiqlangan ShHTga a’zo davlatlarning ko‘ptomonlama savdo-iqtisodiy hamkorligi Dasturini amalga oshirishga e’tiborini kuchaytirdi.

Xitoy tomoni iqtisodiy hamkorlikning yakuniy maqsadi – tashkilot doirasida Erkin savdo hududini tashkil etish deb hisoblaydi. O‘rta istiqbolli muddatda ShHT doirasida o‘zaro kelishilgan sa’y-harakatlar orqali savdo sohasida barqaror va transparent qoida va protseduralarni ishlab chiqish, savdo va sarmoyalar sohasida qulay shart-sharoit yaratish vazifasi qo‘ymoqda.

Pekin a’zo mamlakatlarning ShHT dojrasidagi munosabatlarida savdo va investitsion rejimni sezilarli ravishda liberallashtirishga intilmoqda, bu Xitoyga Markaziy Osiyo bozorlarida Rossiya va G‘arb kompaniyalari bilan samarali raqobat qilish imkonini hamda min-taqaning energetika va boshqa xomashyo resurslariga kengroq yo‘l ochishi mumkin.

Hozirda Pekin ShHT doirasida Taraqqiyot Fondi va Iqtisodiy forum (Ishbilarmonlar kengashi)ni tashkil etish g‘oyasini faol ilgari surmoqda.

XXR Xitoyni Markaziy Osiyo orqali Yevropa va O‘rta Sharq bilan bog‘lovchi zamonaviy, iqtisodiy jihatdan samarali transport magistrallarini tashkil etishdan manfaatdorligidan kelib chiqib, transport

sohasida hamkorlikni rivojlantirishga katta ahamiyat qaratadi. XXR ning ShHT doirasida xalqaro atvomobil yuk tashishlari to‘g‘risidagi bitimni imzolash tashabbusi bunga tasdiq bo‘la oladi.

ShHTni kengaytirish masalalari bo‘yicha Xitoy, a’zo davlatlar manfaatlarining to‘qnash kelishidan yiroqlashishga intilgani holda, bu masalada o‘ta faoliyik namoyish etmaydi va muvofiqlashtirilgan yondashuvlar, shu jumladan, bu masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish protsedurasini belgilovchi hujjatlarni kelishtirish zaruratini ta’kidlaydi.

Xitoy tomoni, ShHTning ochiqlik tamoyili tarafdori ekanligini ta’kidlagani holda, ShHT faoliyati masalalari yuzasidan, G‘arb davlatlari bilan faol aloqalarini qo‘llab-quvvatlaydi. Bundan tashqari, Pekin ShHT Kotibiyatining turli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlari bilan hamkorligini qo‘llab-quvvatlaydi.

Pekinda ShHT shakllanish jarayonining yakunlanishi, uning ochiqligi va boshqa davlatlar va tashkilotlarga qarshi yo‘naltilmaganligi Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, ASEAN, Yevropa Ittifoqi va boshqa yirik mintaqaviy tashkilotlar, shuningdek, dunyoning yirik davlatlari bilan aloqalar o‘rnatishi uchun asos yaratadi, deb hisoblashadi.

Pekin Toshkent bilan ShHT doirasida hamkorlikdan manfaatdor. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning tashkilotning Moskva sammitidagi va boshqa sammitlardagi tashabbusing Xitoy sobiq rahbari Xu Szintao tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi ushbu davlatning O‘zbekiston bilan manfaatli aloqalarini qo‘llab-quvvatlash tarafdori ekanligiga yaqqol misol bo‘la oladi. Xitoy ShHT doirasida O‘zbekiston xatti-harakatlariga nisbatan hech qachon tanqidiy munosabat izhor etmagan.

Xitoyda Toshkentda ShHT MATning ochilishi to‘g‘risidagi qaror O‘zbekistonning Markaziy Osiyoda terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashdagi muhim rolini tan olish deb ta’kidlashadi va amalda O‘zbekistonning mintaqada ushbu tahdidlarga qarshi kurashni muvofiqlashtirish maqomini tan olishadi.

Rossiya. Rossiya tomoni ShHTning qaror topish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi, chunki MDHda samaradorlikning ye-

tishmasligi Rossiyani undan tashqari davlatlararo ittifoqlarni mustahkamlashga undaydi.

Rossiyaning ShHTga nisbatan yondashuvlarida ikkita o'zaro ziddiyatli tendensiya ko'zga tashlanadi. Bir tomonidan, tashkilotning xalqaro mintaqaviy tuzilma sifatida mustahkamlanishi Rossiyaning Markaziy Osiyodagi yetakchiliginin ta'minlashga qaratilgan taktikasiga mos keladi.

ShHT Rossiya tomonidan, avvalo, mintaqada barqarorlik va xavfsizlikning muhim omili, terrorizm, ekstremizm va separatizm va nar-kotrafikka qarshi kurashning muhim mexanizmi, shuningdek, mintaqada mojaroli holatlarni mustaqil ravishda hal qila oladigan kuch sifatida qaraladi.

Markaziy Osiyoda Amerika omili Moskvaning ShHT doirasida AQSHning mintaqadagi rolini minimallashtirish nuqtaui nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Rossiya va Xitoy o'rtasidagi strategik sheriklikning mavjudligiga qaramasdan, bu mamlakatlar mintaqada raqobatchi hisoblanishadi va umuman olganda, bir-biriga yashirin-xavotirli munosabatni saqlab turishadi.

Rossiyadagi muayyan siyosiy kuchlar Rossiyaning Xitoy bilan o'ta yaqinlashuvi Rossiya-Amerika munosabatlarining chuqurlashuvi uchun jiddiy salbiy omilga aylanishi mumkin, deb hisoblashadi.

Moskva ShHT doirasida huquqni muhofaza qiluvchi va mudofaa idoralari yo'nalishi bo'yicha, iqtisodiy kooperatsiya va savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishdan manfaatdor.

Biroq Moskvaning YeIsh, YevrAzES, SAOR va Xitoy ishtirokchi bo'limgan boshqa mexanizmlar bilan hamkorlikka e'tiborining kuchayishi bilan, Rossiya tomoni ShHTda ko'ptomonlama iqtisodiy hamkorlik masalalarida mo'tadil yondashuvni ilgari surmoqda.

ShHTning Toshkentdagagi sammitida erishilgan ijobiy natijalarni bayon etgan taqdirda, Rossiya sammitning kun tartibiga masalalar yuzasidan tashabbuslar Toshkent tomonidan ilgari surilishi tarafdori ekanligini izhor etishi bilan ularni qo'llab-quvvatladi.

Qozog'iston. ShHT doirasidagi hamkorlik Qozog'iston tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Qozog'iston hukumati Moskva va Pekin o'rta sidagi ijobiy munosabatlari Markaziy Osiyo davlatlari o'rta sidagi ko'ptomonlama munosabatlarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblaydi.

O'z geosiyosiy joylashuvidan kelib chiqib, Qozog'iston o'z manfaatlariga tayangan holda, yirik davlatlar bilan mutanosiblashgan munosabatlarni o'rnatish imkonini beruvchi ko'p vektorli tashqi siyosat yurgizishga intiladi. Bu ko'p vektorlilik Ostonaning parallel ravishda ShHT, Osiyoda ishonch hamkorligini o'rnatish bo'yicha hamkorlik (SVMDA), KXShT (ODKB), YeEP va YevrAzES tashkilotlari bilan hamkorlikni rivojlantirish intilishlarida o'z ifodasini topadi.

Biroq Xitoy va Rossiya o'rta sidagi ochiq raqobat, shuningdek, AQSHning harbiy va iqtisodiy ta'sirining ortishi Qozog'istonning ShHTning istiqboliga oid ko'plab masalalar bo'yicha yondashuvlarining noaniq bo'lib qolishini belgilab beradi.

Umuman olganda, amaliyot ko'rsatadiki, Qozog'iston ShHT faoliyatini bo'yicha asosan Rossiya yondashuviga moyil.

Ostona ShHT doirasida iqtisodiy, shu jumladan, savdoni liberal-lashtirish, investitsiyalar, Xitoy va Rossiya sarmoyalarini jalb qilish bo'yicha hamkorlikdan manfaatdor. Qozog'iston tomoni tashkilot a'zolarining uzoq istiqbolli savdo-iqtisodiy dasturini ishlab chiqish tashabbuskorlaridan hisoblanadi.

Qirg'iziston. Qirg'iziston ShHTni milliy xavfsizlikni ta'minlashning ishonchli kafolatlarini tashkil etuvchi vositalardan biri va xavfsizlikka tahdid soluvchi davlatlar, shu jumladan, qo'shni mamlakatlarning ta'sirini cheklab turishga qaratilgan real kollektiv mehanizm deb biladi. Shu munosabat bilan, tashkilotning ochiqlik omili va unga boshqa mamlakatlarning a'zo bo'lib kirishiga alohida ahamiyat beradi.

Bundan tashqari, Bishkek Qirg'izistonning ShHT doirasidagi ishtirokiga Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashning eng asosiy komponentlaridan biri deb qaraydi.

Mavjud geosiyosiy realliklar sababli Qirg'iziston jahon kuch markazlari bilan muvofiqlashtiruv siyosatini yurgizishga intiladi. Bishkek bir vaqting o'zida Rossiya, Xitoy va AQSH Shanxay ham-

korlik tashkiloti bilan munosabatlarni rivojlantirish Qирг‘изистонning mintaqadagi mavqeyini o‘zgartirish imkonini beradi, deb hisoblaydi.

Qирг‘изистон ShHT MATni Bishkekda joylashtirish yuzasidan ay-niqla faol sa'y-harakatlarni olib borgan edi. Ammo ShHTga a'zo davlatlar boshliqlarining uchrashuvi bu tuzilmani Toshkentda joylashtirish to'g‘risidagi qarori Qирг‘изистонни ajablantirdi va shu sababdan Bishkek bu yo'qotishni boshqa yo'naliishlarda «qoplash»ga intilmoqda.

Xususan, Bishkek ShHTga a'zo beshta mamlakatning «Hamkorlik-2003» qo'mondonlik-shtab harbiy mashg‘ulotlarining barchasida ishtirok etgan yagona davlat sifatida o'zini namoyon qilishga intildi.

Bishkekning o'z ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishda ShHT doirasidagi iqtisodiy hamkorlikka nisbatan katta umidlari mavjud.

Tojikiston. Tojikiston ShHTdagi ishtirokini, asosan, tashkilotning xavfsizlik sohasidagi muammolarni hal etish, iqtisodiy hamkorlik rejalarini ro'yobga chiqarish, xalqaro munosabatlar tizimi va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv vazifalari bilan bog'laydi.

Dushanbeda ShHTning mustahkamlanishi, uning doirasida hamkorlikning kengayishi tashkilotga a'zo davlatlar manfaatlariga javob beradi, deb hisoblaydi.

2002-yilda Rossiya tomonining ko'magi bilan Tojikiston ShHTdagi ishtirokini faollashtirdi, narkotrafikka qarshi kurash sohasida hamkorlikni rivojlantirish va tegishli bitim imzolash tashabbusini ilgari surdi.

16.3. Shanxay hamkorlik tashkilotining mintaqaviy munosabatlarda tutgan o'rni

ShHTning tashkiliy tuzilishi masalalari bo'yicha Dushanbe, moliyaviy resurslarning cheklanganligidan kelib chiqib, umuman olganda, O'zbekistonning ShHTning muvofiqlashtiruvchi va ixtisoslashgan tuzilmalari shtatlarini kengaytirishi maqsadga muvofiq emasligi to'g‘risidagi qarashlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Shuningdek Tojikiston rahbariyati ShHT davlat boshliqlari Kengashining 2004-yildagi majlisini Toshkentda o'tkazilishi va ShHT MAT Ijroqo'mini Toshkentga ko'chirilishini qo'llab-quvvatladи.

Jahondagi oxirgi o‘zgarishlar asnosida Dushanbe ShHTga a’zo davlatlarning qator jahon muammolariga munosabatini o‘zgartirib turadi va bu tashkilotda tarqoqlikning yuzaga kelishiga hamkorlik istiqbollarining tahdid solishiga xavf tug‘dirmaydi, deb biladi.

Tojikiston ShHT doirasida terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurash bilan bir vaqtida iqtisodiy hamkorlik masalalari ham muhim ahamiyat kasb etish tarafidori.

O‘zbekiston. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov Oliy majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasida ta’kidlaganidek, “Davlatimiz tashqi siyosatining ma’no-mazmuni va maqsadi bitta – u ham bo‘lsa, O‘zbekiston manfaati va yana bir bor O‘zbekiston manfaatidir”¹³⁹.

Ushbu qoidadan kelib chiqib, O‘zbekistonning ShHTdagi o‘z manfaatlari mavjud.

- ShHT mamlakatlari sa’y-harakatlarining birlashuvi mintaqaviy xavfsizlik muammolarini hal etishga xizmat qiladi. ShHT mexanizmlari orqali mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashning: terrorizm, ekstremizm, separatizimga va narkobiznesga qarshi kurashning yangi imkoniyatlariga erishadi. BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a’zolari bo‘lgan Xitoy va Rossiya davlatlari orqali xalqaro terrorizmga qarshi kurashishning siyosiy mexanizmlaridan foydalanish mumkin. Birinchi Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, «mazkur birlashma faoliyatining asosini siyosiy, iqtisodiy va harbiy-texnikaviy jihatdan qudratli, ayni paytda BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a’zolari bo‘lgan ikki buyuk davlat – Rossiya va Xitoy tashkil etayotganligi va kelgusida ham shunday bo‘lib qolishini ta’minlash uchun asos bor».

- ShHT doirasidagi hamkorlik nafaqat O‘zbekistonga yoki mintaqaga, balki butun dunyoga tahdid solayotgan Afg‘oniston muammosini hal etish borasidagi xalqaro sa’y- harakatlarga o‘z hissasini qo‘shadi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek «Afg‘on muammosini hal qilishda Shanxay hamkorlik tashkilotining salohiyatidan foydalanish, aytish mumkinki, uning boshini bu ishga qo‘shish muhim ahamiyat kasb

¹³⁹ Каримов И. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. – Т.: Ўзбекистон, 2005, 58 б.

etadi. Zero, aynan shu tashkilotga a'zo davlatlar Afg'onistonda tez-roq tinchlik va barqarorlik o'rnatilishidan boshqalardan ham ko'ra manfatdorroqdir»¹⁴⁰.

• ShHT doirasidagi ko'ptomonlama iqtisodiy hamkorlik ham alohida ko'ptomonlama infratuzilmaviy loyihalarni yaratish, ham savdo-sotiq va sarmoyalar uchun qulay sharoitni shakllantirish imkonini beradi.

• ShHT doirasida hamkorlik asosida transport, kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish orqali O'zbekistonning Yevrosiyo transport kommunikasiya tarmog'iga qo'shilishi jadallahadi, eksport mahsulotlarini ham G'arb, ham Osiyo mamlakatlariga yetkazib berishda yanada kengroq imkoniyatlarga ega bo'ladi. Shuningdek, den-giz yo'llariga chiqish uchun qo'shimcha imkoniyatlar vujudga keladi.

• Ekologik muammolarni, jumladan, Orol muammosini hal qilish uchun imkoniyatlarga ega bo'lishi mumkin. Bu esa respublikaning iqtisodiy manfaatlariga mos keladi.

Yuqorida gilardan xulosa qilish mumkinki, ShHTga a'zo davlatlarning mazkur tashkilot doirasida hamkorlikdan mushtarak, umumiy mafaatlari mavjud:

– a'zo davlatlarning barchasiga afg'on muammosi, terrorizm, diniy ekstremizm, separatizm va narkoagressiya tahdid solmoqda hamda bu tahidlarni bartaraf etishda va oldini olishda, mintaqaviy xavfsizlikni va barqarorlikni mustahkamlashda hamkorlik samara beradi;

– tashkilot doirasida savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya va gumanitar sohalardagi o'ta yirik loyihalarni amalga oshirishdan barcha a'zo davlatlar manfaatdor. O'zaro foydali savdo-iqtisodiy aloqalar va transport kommunikatsiyasi infratuzilmasining rivojlani-shi mintaqaning barcha davlatlari hamda xalqlarining farovonligi va gullab-yashnashini ta'minlash uchun salmoqli hissa qo'sha oladi;

– suv-energetika, ekologik va boshqa mintaqaviy tizimlarni rivojlantirish, iqtisodiyotning ustuvor sohalarida ishlab chiqarishni zamona-viylashtirish, keng mintaqaviy bozorni raqobatbardosh tovarlar bi-

¹⁴⁰ Каримов И.А. Бизнинг бош максадимиз – жамиятни демократлашириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. – Т.:Ўзбекистон, 2005, 60 б.

lan to‘ldirishga oid qo‘shma loyihalarni amalga oshirish barcha a’zo davlalar uchun istiqbollidir.

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Tojikiston, Qирг‘изистон hamda O‘zbekiston davlatlari o‘rtasida 2001-yil 15-iyunda tashkil etilgan xalqaro mintaqaviy tashkilot hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi a’zo davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonch va yaxshi qo‘shnichilikni mustahkamlash hamda siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy, shuningdek, ta’lim, energetika, transport, turizm, atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqa sohalardagi samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdan iborat. Bundan tashqari, mintaqaviy xavfsizlikni ta’minalash, terrorizm, ekstremizm va ayirmachilikka qarshi birgalikda kurashish ham tashkilotning asosiy vazifalari sirasiga kiradi.

O‘zbekiston 2001-yil iyun oyida ShHTga a’zo bo‘ldi va uning muassisi hamda teng huquqli qatnashchisiga aylandi. Shanxay hamkorlik tashkiloti tartib-qoidalalariga binoan, har yili a’zo mamlakatlardan biri unga rais bo‘ladi. O‘zbekiston raisligi davrida erishilgan yutuqlardan biri – BMT Bosh Assambleyasini tomonidan 2009-yil 18-dekabrda konsensus asosida ShHT va BMT o‘rtasidagi hamkorlik to‘g‘risidagi maxsus rezolyutsiyaning qabul qilinishidir. Shunisi e’tiborga molikki, ushbu rezolyutsiyaga ShHTga a’zo davlatlar – O‘zbekiston, Rossiya, Qozog‘iston, Xitoy, Qирг‘изистон va Tojikiston dan tashqari Pokiston va Dominikan Respublikasi ham hammulliflik qildi.

Har qanday xalqaro tashkilotning nufuzi va ahamiyati unga dunyoda berilayotgan e’tibor va faoliyatning samaradorligi bilan belgilanadi. ShHT nisbatan qisqa vaqt ichida nufuzli xalqaro tashkilotga aylandi. Ta’kidlash joizki, kuzatuvchi mamlakatlar bilan qo‘shib hisoblaganda, ShHT dunyo aholisining yarmini birlashtiradi. Bu esa uning asosiy faoliyat yo‘nalishlari – iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashdagi salohiyatini oshiradi. Ana shu ikki ustuvor yo‘nalishga alohida urg‘u beriladi. Zero, xavfsizlik orqali hamkorlikni rivojlantirish, umumiy taraqqiyotga erishish tashkilotning asosiy maqsadidir. Yevrosiyo hududining 61 foizini, dunyo aholisining to‘rtadan bir qismini tashkil qilgan

mamlakatlar ishtirokidagi yangi tashkilot qabul qilgan birinchi hujjat «Shanxay hamkorlik tashkilotini tuzish to‘g‘risidagi Deklaratsiya», «Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida»gi Konvensiya bo‘ldi.

Oradan 1 yil o‘tib, Sankt-Peterburgda bo‘lib o‘tgan sammitda tashkilotning tuzilmalarini shakllantirish boshlandi. 2003-yilda esa ShHT Kotibiyati (qarorgohi Pekinda) va Mintaqaviy Aksilterror tuzilmasi (qarorgohi Toshkentda) tashkil etildi.

2004-yil-1-yanvaridan boshlab amaliy mexanizmi, ma’muriyati va budgetiga asos solingan ShHT to‘laqonli xalqaro tashkilot sifatida tan olindi. Tashkilotning faoliyat ko‘lamini kengaytirish maqsadida 2005–2006-yillarda ShHTning Banklararo birlashmasi, Ishbilarmonlar kengashi va Forumi tashkil qilindi.

ShHT tuzilganidan keyin ko‘plab davlatlar uning safidan joy olish istagini bildirdi. Bugungi kunda jahonda nufuzi ortib borayotgan ShHTga 6 ta – O‘zbekiston, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Xitoy a’zo. Hindiston, Eron, Mo‘g‘uliston va Pokiston kuzatuvchi maqomiga ega. Belarus va Shri-Lankaga Muloqot bo‘yicha hamkor maqomi berilgan. ShHT sammitlarida MDH, ASEAN va Afg‘oniston rahbarlarining taklif etilishi tashkilotning istiqbolidan darak beradi.

Shuni ta’kidlash kerakki, ShHT harbiy tashkilot emas. Bu tashkilot asosan a’zo davlatlarning havfsizligini ta‘minlashga mas’uldir. ShHTning o‘z oldiga qo‘ygan vazifalar barqaror taraqqiyot va farovon istiqbol uchun hamkorlikda faoliyat yuritishdan iboratdir. So‘nggi vaqtarda jahonda nufuzi ortib borayotgan tashkilot o‘z oldiga urushlar va harbiy-siyosiy to‘qnashuvlar xavfini daf etib, tinchlik, farovon hayotga erishishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan. Qarorgohi Toshkentda bo‘lgan Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi o‘z mevalarini bermoqda. Shu davr mobaynida MATT tomonidan mingdan ortiq terroristik hodisalarining oldi olindi. Tashkilotga a’zo davlatlarning maxsus xizmatlari tomonidan terrorchi tashkilotlarning rahbarlari qo‘lga olindi va yo‘q qilindi. ShHT doirasida madaniy va gumanitar sohalarda aloqlar rivojlanib bormoqda. 2002-yilda Pekinda madaniyat vazirlarining uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. A’zo mamlakatlarda madaniyat kun-

larini o'tkazish borasidagi takliflar qo'llab-quvvatlandi. O'tgan davr ichida bir necha tadbirlar o'tkazildi. Mamlakatlar o'rtasida talabalar va o'qituvchi-professorlar almashuvlari yo'lga qo'yilgan. San'at sohasidagi hamkorlik ham rivojlanib bormoqda.

ShHT davlatlari o'zaro munosabatlarda «Shanxay ruhi»ga amal qiladi. Bu ibora qarorlarni konsensus asosida qabul qilish, o'zaro ishonch va manfaatdorlik, tenglik, maslahatlashuv, madaniy xilmassillikka hurmat bilan yondashuv, birgalikda taraqqiy etishga intilish tamoyillariga qat'iy amal qilish demakdir.

2016-yil Toshkentda ShHT a'zo davlatlari rahbarlari kengashining 15-yilligiga bag'ishlangan yubiley majlisi bo'lib o'tdi. Unda davlat rahbarlari asosiy hujjat – ShHT 15-yilligining Toshkent deklaratsiyasini imzoladilar. Mazkur hujjatda tashkilotning o'tgan 15-yilllik faoliyatini baholash bilan birga, a'zo davlatlarning ShHT rivojlanishi istiqbollariga doir bir-biriga mujassam yondashuvlar, shuningdek, hozirgi xalqaro va mintaqaviy vaziyatga nisbatan davlatlarning pozitsiyalari aks ettirildi.

Davlat rahbarlari ShHTning 2015-yilgacha taraqqiyot strategiyasini amalga tatbiq etish bo'yicha 2016-2020-yillar oralig'ida mo'ljallangan tadbirlar rejasini tasdiqladilar. 2005-yil iyul oyidagi SHHTning navbatdagi samitida SHHT faolitining asosiy yo'nalishlari-xavfsizlik muammolari va savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlikni, transport kommunikatsiyalari borasidagi aloqalarni rivojlantirishga doir masalalar yuzasidan ham fikr almashinildi. Shuningdek, davlat rahbarlari mintaqaviy va xalqaro muammolarga, terrorchilik, ekstrimizm, ayirmachilik, transmilliy uyushgan jinoyatchilik, narkobiznes va qurol-yarog'ning noqonuniy savdosi kabi illatlarga qarshi birgalikda kurashning samaradorligini oshirish borasidagi masalalarga e'tibor qaratdilar. Muzokaralar davomida, Toshkentdagi Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi hamda Pekindagi Kotibiyatining o'tgan davrdagi faoliyati ko'rib chiqildi. Markaziy Osiyo umumiy bozorni shakllantirish, savdo-iqtisodiy hamkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, suv-energetika zaxiralaridan foydalanish, neft-gaz konlarini o'zlashtirish, transport, fan-texnika, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport, sayyohlik va ekologiya

sohalaridagi aloqalar ko‘lmini kengaytirish masalalari yuzasidan fikr almashildi. Sammit yakunlari bo‘yicha ShHT davlat rahbarlarining deklaratsiyasi imzolandi. Shuningdek, ShHTga a’zo davlatlarning terrorchilik, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurashdagi hamkorligi to‘g‘risidagi konsepsiya qabul qilindi. ShHTga a’zo mammalakatlarning ShHT Mintaqaviy aksilterror tuzilmasidagi doimiy va killari to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi. Sammitda Mintqa hududidagi Afg‘onistonda Aksilterror Koalitsiya o‘zining harbiy operatsiyalarini boshlash jarayonida joylashtirgan harbiy bazalarini, xalqaro huquq normalariga asosan, 180 kun ichida olib chiqib ketishi lozimligi haqidagi bayonet e’lon qilindi. Sammitda Eron, Pokiston va Hindistonga ShHT huzurida kuzatuvchi maqomini berish to‘g‘risidagi qarorlarga imzo chekildi. 2017-yilda esa Hindiston va Pokistonning a’zolikka qabul qilinish protsedurasini Ostona sammitida tugatilishi va ularning to‘laqonli a’zo sifatida qabul qilinishi belgilandi. Shu paytgacha Mo‘g‘uliston shunday maqomga ega edi. Tomonlarning birqalikdagi harakatlari bilan tashkilot o‘z faoliyatida yirik muvaffaqiyatlarga erishdi.

2010-yil 5-aprelda Toshkent shahrida BMT va ShHT Kotibiylari o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiyasi imzolanib, unga binoan BMTning tegishli antiterror bo‘linmasi bilan ShHT MATT o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

Shunga o‘xshagan uchrashuv 2016-yil oktabr-noyabr oylarida ham bo‘lib o‘tdi. BMTning Nyu-Yorkning shtab kvartirasida bo‘lib o‘tgan zamonaviy xavf-hatarlarga qarshi kurashda BMT va ShHT hamkorligi bo‘yicha yuqori darajali uchrashuvida “BMT va ShHT o‘rtasidagi hamkorlik” bo‘yicha BMT Bosh Assambleyasining Rezolyutsiyasi qabul qilindi va undagi MATTning roli ta’kidlab o‘tildi. Shuningdek, Venadagi 2017-yil 13-martda BMT yordamchi tashkiloti UNP va ShHT Sekretariatining narkotik xavfi muammosi bo‘yicha yig‘ilishlari ham shular jumlasidandir.

2017-yil 20–21-aprelda Ostonada bo‘lib o‘tgan Tashqi Ishlar Vazirlari Kengashi majlisida ham Afg‘oniston masalasiga katta e’tibor qaratildi. Jumladan, Afg‘oniston hukumati hamda Afg‘oniston xalqini tinchlikni o‘rnatishdagi sa’y-harakatlariga yuqori baho berildi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyati qanday?
2. Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning tashkilot doirasida qanday manfaatlari bor?
3. Shanxay hamkorlik tashkilotining mintaqaviy munosabatlarda tutgan o'rni qanday?

Mustaqil ish savollari:

1. Shanxay hamkorlik tashkilotining mintaqaviy munosabatlarda tutgan o'rnnini o'rganing va shu asosda referat tayyorlang.
2. "Qozog'iston, Rossiya va Belorus ittifoqi" mavzusida prezentsiya tayyorlang.
3. "MDH davlatlari hamkorligining asosiy yo'nalishlari" mavzusida referat tayyorlang.
4. "ShHT" mavzusida ma'ruza tayyorlang.
5. "ShHTning Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan harakatlari" mavzusida referat tayyorlang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Kathy Pain. Changing Urban and Regional Relations in a Globalizing World. – USA, 2014, 248 p.
2. Timo Behr., Juha Jokela. Regionalism and global governance: the emerging agenda. –Notre Europe, 2011, 67 p.
3. Rouben Azizian, Carleton Cramer. Regionalism, security and cooperation in Oceania. – USA: APCSS, 2015, 172 p.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Барыгин И. Н. Международное регионоведение. – СПб.: Питер, 2016, 384 с.
2. Мухаммадсидиков М.М. Замонавий Халкаро муносабатларнинг минтақавий жиҳатлари (ўкув кўлланма). –Т.: ТошДШИ, 2013, 182 б.

3. Мұхаммадсидиқов М.М. Хорижий Шарқ ва Ғарб мамлакатларида ижтимоий-сиёсий жараёнлар (ўқув қўлланма). –Т.: ТошДШИ, 2013, 160 б.
4. Muhammadsidiqov M.M. Sharq mamlakatlari xalqaro munosabatlari (o‘quv qo‘llanma). – T.: ToshDSHI, 2017, 240 b.

GLOSSARY

Anarxizm (yun. anarchia – beboshlik, hokimiyatsizlik) - davlat boshqaruvi va institusional boshqaruvning milliy miyosdagi barcha shakllaridan batamom voz kechishga da’vat etuvchi ijtimoiy-siyosiy oqim.

Globallashuv - iqtisodiyot, ijtimoiy munosabatlar va boshqa turli sohalarda milliy davlat chegaralarining shaffoflashuv jarayoni.

Diplomatiya – davlatning tashqi siyosatini belgilovchi xalqaro munosabatlarning amaliy usullari va amaliyoti. Davlat yordamida o‘z tashqi siyosatini amalga oshiradi.

Donor mamlakat – nochor davlatlarga beg‘araz yordam beruvchi mamlakat.

Isteblishment – 1) jamiyatdagi mustahkam o‘rin; 2) jamiyatda nufuzli o‘rin egallovchi va mavjud tuzumni saqlab qolish, faoliyat yuritishida muhim rol o‘ynovchi qatlam (ijtimoiy guruh).

Kioto protokoli - 1997-yilda Kioto (Yaponiya)da imzolangan bitim. Uni imzolagan tomonlar global isish va iqlim o‘zgarishining oldini olish maqsadida atmosferaga «issiqxona effekti» qo‘zg‘atadigan gazlar chiqarishni kamaytirish majburiyatini olishgan.

Konvensiya (lot. soventio - kelishiv, bitim). Biror-bir maxsus masala bo‘yicha xalqaro bitim va shartnomalar turidan biri bo‘lib, ko‘rilayotgan maxsus soha bo‘yicha davlatlarning o‘zaro huquqlari va majburiyatlarini o‘rnatadi.

Konservativizm – 1) barcha eskirgan, yo‘qolib ketgan narsalarga sodiqlik; 2) ijtimoiy hayot, ilm-fan va san’atda yuz berishi zarur bo‘lgan taraqqiyot omiliga qarshi harakat.

Konsolidatsiya – davlat, ijtimoiy guruh va tashkilotlar urinishi, harakati imkoniyati va qarashining qo‘shilib ketishi, birlashishi, birikishi bilan izohlanadi.

Lobbi (yoki lobbizm) – mintaqqa va mamlakatlarning alohida ijtimoiy-siyosiy kuchlari pozitsiyalari, ijtimoiy harakatlar manfaatlarini, umumijtimoiy va global muammolar yechimlarining strategiyalar va doktrinalarini qo‘llab quvvatlash kabilar bilan belgilanadi.

Federatsiya (lot. «foederare» - ittifoq bo'lib mustahkamlash) – davlat tuzilishi shakllaridan biri. Federativ davlatlar murakkab tuzilishga ega davlatlar deb ham yuritiladi.

Feminizm – ayollarning siyosiy huquqlarda erkaklar bilan tenglashish.

Fors-major (act of God force – «Tangri qudratining natijasi») – yong'in, tabiiy ofat, urush kabi kutilmagan, tabiiy ofatlar natijasida tomonlardan biri o'z majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajara olmay qolishi.

Fundamentalizm – atamasi ilk bor rasmiy ravishda 1908-yilda AQSHning Kaliforniya shtati protestantlari tuzgan «Xristian dinining fundamental tushunchalari konferensiyasi» tomonidan qo'llanilgan.

Xalqaro va ichki siyosat - bir vaqtning o'zida ham ichki, ham xalqaro aspektga ega bo'lgan davlat siyosatini ko'rsatish (namoyon etish uchun ilmiy ibora sifatida fanga kiritilgan atama).

Xalqaro munozara – davlatlararo yoki boshqa xalqaro huquq subyektlari o'rtasidagi kelishmovchiliklar, shuningdek, tinchlik va xavfsizlikni xavf ostiga qo'yilishi mumkin bo'lgan vaziyatlarda huquq me'yorlariga muvofiq, tinchlik vositalari bilan hal qilinadigan muzokaralar, tomonlar maslahati, tekshiruv, yarashish, vositachilik, xalqaro arbitraj, sud ish ko'rishi va boshqalardir. Xalqaro muammolarning tinch yo'l bilan hal qilinmasligi tomonlar o'rtasida qurolli nizolar (urush) paydo bo'lishining dastlabki sharti bo'lishi ham mumkin.

«Xalqaro munosabatlar» tushunchasi va mezonlari - ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos turi bo'lib, ijtimoiy hayotning turli sohalari - iqtisodiy ayirboshlashdan to sport musobaqalarigacha bo'lgan jabhalarni qamrab oladi. o'z xususiyatiga qarab, xalqaro munosabatlarning ishtirokchisi bo'lgan ma'lum ijtimoiy birlikka xos munosabatlardan farq qiladi. ishtirokchilari turlicha bo'lgan davlatlar, nodavlat birlashma va individlar uning tarkibiga kiradi. (odamlar) Xalqaro munosabatlar yoki ijtimoiy hayot sohalari - iqtisodiy, siyosiy, harbiy strategik, madaniy, mafkuraviy munosabatlar yoki ularning ishtirokchilariga qarab, davlatlararo, turli xalqaro tashkilotlar, transmilliy korporatsiyalar o'rtasidagi munosabatlar bo'yicha sinflarga

bo‘linadi. Xalqaro munosabatlар rivojlanishi darajasiga qarab, ular baland, o‘rtacha yoki past darajalarga ajratiladi. Biroq, xalqaro munosabatlarni geopolitik mezonlar asosida global hamda submintaqaviy (mas., Karib havzasi mamlakatlari) darajalarga ajratish juda samarali hisoblanadi. Keskinlik darajasi nuqtai nazaridan xalqaro munosabatlarning turli - barqarorlik va notinchlik, ishonch va adolat, hamkorlik va janjal, tinchlik va urush holatlari bo‘lishi mumkin.

Xalqaro nohukumat tashkilotlar - hukumatlararo bitimlar asosida tuzilmagan va faqatgina bir davlat hududi doirasida faoliyat yuritmaydigan tashkilotlar (shuning uchun ularni transmilliy deb atashadi). Shu bilan birga, ularning faoliyati foyda olishga qaratilmagandir .

Xalqaro xavfsizlik – xalqaro munosabatlardagi kafolatlangan barqarorlik, dunyo hamjamiyatining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy sohalardagi adovat, harbiy nizo va urushlar oldini olish sharoitlarining shakllangan holati. Milliy xavfsizlikni himoyalananish darajasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xalqaro xavfsizlik bilan bog‘liq. X. x. milliy va mintaqaviy xavfsizlikni o‘ziga mujassam qilgan. U – milliy xavfsizlikdan farqli ravishda, davlat xavfsizligini boshqa davlatlar xavfsizligi bilan murakkab bog‘liqligini e’tirof etadi.

Xarizma yoki xarizmatik legitimlik – siyosat va sotsiologiyada – umumiy ommadan ajratib turuvchi shaxs xususiyatlarining majmui; rahbar shaxs xususiyatiga yoki uni o‘z tarafdarlarini jalg qilish qobiliyatiga asoslangan ta’siri. Biror shaxsning boshqalarga nisbatan misli ko‘rilmagan darajada ustun xususiyatlarga egaligi. «Xarizma» tushunchasi ilk bir italiyalik ruhoniylar S.Paul tomonidan mo‘jizaviy qobiliyatga ega bo‘lgan nasroniylar payg‘ambari Isoga nisbatan ishlatalilgan. Ammo ilmiy tushuncha sifatida «xarizma» asosan nemis sotsiologi Veber tomonidan chuqur tadqiq qilinib, «ehson» deya nomlangan.

Shariat (arab. – To‘g‘ri yo‘l) - Islom huquq tizimi. Qur‘on asosida tuzilgan diniy-huquqiy normalarning davlat, meros, jinoiy, nikoh va oila huquqi bilan uyg‘unligi. Ilk Islomda jamiyatni huquqiy boshqarish Qur‘on asosida olib borilgan. Shariat huquqiy tizim sifatida XI-XII asrlarda tugal shakllangan. Shariat hozir ham dunyoning eng yirik huquqiy tizimlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Shartnoma huquqi - suveren davlatning boshqa davlatlar bilan shartnomalar imzolash huquqi.

Shengen shartnomasi (1985-yil 14-iyun, 1990-yil 19-iyun, 1996-yil 25-mart) - bu shartnomaga binoan unga imzo chekkan davlatlar o'rtasida kapital, tovar va fuqarolarning erkin harakatlanishi o'rnatiladi. Ya'ni, fakt jihatdan davlatlararo chegaralar bekor qilinadi. Mazkur davlatlarning yagona umumiy tashqi chegarasigina mustasno. Bitim Lyuksemburgda yetti davlat - Yevropa ittifoqi a'zolari: Belgiya, Germaniya, Ispaniya, Lyuksemburg, Niderlandlar, Portugaliya va Fransiya o'rtasida imzolangan.

1997-yildan boshlab mazkur bitimga Avstriya va Italiya qo'shildi. Garchi Gretsiya bitimni imzolagan bo'lsa ham amalda qo'llanmasligining boisi barcha sharoitlarning yaratilmaganligidir. Skandinaviya mamlakatlari Daniya, Islandiya, Norvegiya, Finlandiya, Shvesiya Shengen shartnomasiga qo'shilish istagini bildirdi, ammo Norvegiya asosiy talab qilinadigan shartga javob bermaydi, chunki u Yel a'zosi emas. Britaniya va Irlandiya bitimga o'z munosabatini bildirgani yo'q.

Ekstremizm (fr. extremisme, lot. extrmus – so'nggi choralar ni qo'llash va keskin hamda qat'iy qarashlarga ega guruhlarni ifodalovchi atama. Eketremizm o'z maqsadiga erishishda eng radikal usullar - zo'ravonlik va terrordan foydalanadi. Bugungi kunda Eksremozmnning turli ko'rinishlari mavjud bo'lib, neofashistik tashkilotlar, diniy ekstremistlar shular jumlasidandir.

Elektorat – saylovlarda ma'lum siyosiy partiyaga (siyosiy lider) ga ovoz beruvchi saylovchilar davrasi; ma'lum bir saylov okrugi yoki mamlakat saylovchilari majmui.

Elita (frans. elite – eng sara) – haqidagi nazariyalar dastavval, Aflatun, Arastu qarashlarida bayon qilingan bo'lib, XX asr boshlarida V.Pareto, G.Mosko, R.Mixele ta'limotida sistemali ravishda tadqiq etilgan. Jamiyat ierarxiyasida, fan, madaniyat, harbiy soha va boshqalardagi oliy ijtimoiy guruhlar.

Emigrant (lot. yemigrare – chiqish) - o'z davlati fuqaroligini tark etgan yoki boshqa davlatga butunlay yashash uchun ko'chib ketgan shaxs.

Emissar - boshqa mamlakatda turli (asosan maxfiy) topshiriqlarni bajaruvchi davlat yoki xususiy tashkilotning maxsus vakili.

Erkin savdo bo'yicha Shimoliy Amerika bitimi - AQSH (NAFTA), Kanada va Meksika o'rtasida tuzilgan bo'lib, erkin savdo zonasini tuzishni nazarda tutadi.

Asosiy adabiyotlar:

1. Kathy Pain. Changing Urban and Regional Relations in a Globalizing World. – USA, 2014, 248 p.
2. Timo Behr., Juha Jokela. Regionalism and global governance: the emerging agenda. –Notre Europe, 2011, 67 p.
3. Rouben Azizian, Carleton Cramer. Regionalism, security and cooperation in Oceania. – USA: APCSS, 2015, 172 p.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Барыгин И. Н. Международное регионоведение. – СПб.: Питер, 2016, 384 с.
2. Мұхаммадсидиков М.М. Замонавий Халқаро муносабаттарнинг минтақавий жиҳатлари (Ўқув қўлланма) –Т.: ТошДШИ, 2013, 182 б.
3. Мұхаммадсидиков М.М. Хорижий Шарқ ва Ғарб мамлакатларида ижтимоий-сиёсий жараёнлар (Ўқув қўлланма) –Т.: ТошДШИ, 2013, 160 б.
4. Каримова Н.Э. История социально-политических процессов в зарубежных странах Востока и Запада. Ташкент, 2011.
5. Каримова Н.Э. Социально-политические процессы в зарубежных странах Востока и Запада. Ташкент, 2013.
6. Петрова Л.П., Каримова Н.Э. Кузьмина Е.М. Региональные аспекты современных МО. Т.: ТашГИВ, 2002.
7. Шарапова С., Каримова Н., Шарапов А. Внутренняя и внешняя политика зарубежных стран Востока и Запада. Учебное пособие. –Ташкент: Фан, 2006.
8. Актуальные проблемы глобализации. Круглый стол в редакции журнала «МЭ и МО» // МЭ и МО. – 1999, №4, 37–52 с.
9. Актуальные проблемы глобализации. Круглый стол в редакции журнала «МЭ и МО» // МЭ и МО. – 1999. –№5. – С.41–57.

10. Александров А.И. Монархии Персидского залива: этап модернизации. –М., 2000.
11. Алексеев, Михайлов. Евразийское экономическое сообщество // Международная жизнь. 2000. № 11. С.38–39.
12. Альбон А.С. Центральная Азия: Средиземье Евразийского материка // Общественное мнение. –Ташкент, 1998. №1.
13. Аракс М. Европейский Союз. Видение политического объединения. –М., 1998.
14. Арин О. Азиатско–Тихоокеанский регион: мифы, иллюзии и реальность. –М., 1997.
15. Арифметика ЕС // Новое Время. – 2004. – №7. – С.7–10.
16. АСЕАН и ведущие страны АТР: проблемы и перспективы. – М., МГУ, 2003.
17. Асираббаева К.С. Сотрудничество между Р. Узбекистан и Р.Кореей как фактор межрегионального сотрудничества // Материалы международной научной конференции по кореведению в СНГ: проблемы и решения. – Т., 2006. – С. 368–375.
18. Асираббаева К.С. Становление и развитие отношений между Р.Узбекистан и Р.Кореей // Востоковедение. –2001. – №2. –С.42–45.
19. Асираббаева К.С. Страны АТР во внешней политике Р.Узбекистан на примере Р. Корея // Востоковедение. –2005. – №1. – С. 117–120.
20. Ата-Мирзаев О., Генштке В., Муртазаева Р. Узбекистан многонациональный: Историко-демографический аспект. Ташкент, 1998.
21. Бакланов А.Г. Ближний Восток: региональная безопасность и интересы России. М., 1999.
22. Баранчук Н. А. Тенденции развития ситуации в странах Магрибы и национально-государственные интересы России // Вестник Московского Университета. Серия 8. Социология и политология. 2003. С.28–30.

23. Белокреницкий В.Я. Проблемы и перспективы формирования Центральноазиатского макрорегиона // Восток. 1993. Р.4–47.
24. Бжезинский З. Великая шахматная доска. Господство Америки и его геостратегические императивы. М.: Международные отношения, 1998.
25. Бжезинский З. Преждевременное партнерство // Политические исследования. 1994. № 1. С. 66.
26. Бовт Г. Косовская драма // Сегодня. - 1998. - 14 окт.
27. Бондаренко С. Ближний, Средний Восток, Северная Африка: развитие нефтегазовой отрасли // Азия и Африка сегодня. 2005. №8. С.21–27.
28. Борисов А. Б. Роль ислама во внутренней и внешней политике Египта. М., 1991.
29. Борко Ю. Евросоюз: углубление и расширение интеграции // МЭ и МО. – 1998. – №8.
30. Боровой В. Региональная политика вовнешнеполитической стратегии КНР после окончания «холодной войны» // Международные отношения. 2005. №1. С.55–60.
31. Булычев Г. Корейская политика России: попытка схематизации // Проблемы Дальнего Востока. 2000. №2. С.5–12.
32. Бухорий М. Арабская Республика Египет. Т., 2002.
33. Быков П., Власов П. Сверхновая Европа // Эксперт. 2000. №7. С. 52–55.
34. Бэттлер А. Биполярность: призрак или реальность? // Проблемы Дальнего Востока. -2001. – №1. –С.44–49.
35. Валев Э.Б. Югославский клубок // География. - 1996. - №13. - С.4.
36. Ванин Ю. КНДР на «форсированном марше» // Проблемы Дальнего Востока. -1998. –№5. –С.20–31.
37. Василенко И.А. Геополитика современного мира. М., 2006.

38. Васильев А. М. Египет и египтяне. М., 2000.
39. Васильев Л.С. История Востока. В 2-х т. М., 1998.
40. Власов П. Сверхновая Европа // Эксперт. 2000. №6. С. 18.
41. Внешняя политика Российской Федерации. М., 2000.
42. Внешняя политика России: мнения экспертов: Аналитический доклад по заказу московского представительства Фонда им. Ф. Эберта. М., 2001.
43. Внешняя политика: российские интересы и задачи нового этапа // Мониторинг общественного мнения. 2004. №2 (70). С.23–25.
44. Волков А. Северные страны Европы: ситуация меняется // МЭМО. №2. 2001. С.34–37.
45. Воробьев В. От Шанхая до Шанхая. К созданию Шанхайской организации сотрудничества // Ж.Проблемы Дальнего Востока. –2001. – №3. –С.6 –12.
46. Гаджиев К.С. Введение в geopolитику. –М., 1998.
47. Гаджиев К.С. Геополитика. М., 1997.
48. Гаджиев К.С. Геополитика Кавказа. М., 2001.
49. Галенович Ю. М. Россия - Китай - Америка. От соперничества к гармонии интересов? М.: «Русская панорама», 2006.
50. Ганоненко А.Л., Полянский В.Г. Развитие региона: методы управления. –М.: Изд-во РАГС, 1999.
51. Гафуров С.М. Королевство Саудовская Аравия. Т., 2001.
52. Гафуров С.М. Национальная, региональная и глобальная безопасность: роль и место арабских государств Персидского залива и Республики Узбекистан. – Т., 2005.
53. Гегелащвили Н. Дискуссии о новой стратегии США в Центральной Азии // США-Канада ЭПИ. 2005. № 7. С. 107–118.
54. Гельbras В. Г. Китайская реальность России. М.: «Муравей», 2001. 320 с.
55. Геополитика современного мира: учеб. Пособие / И. А. Василенко. М., 2007.

56. Гладкий Е.Н., Чистобаев А. Основы региональной политики. М., 1998.
57. Глобальное сообщество: новая система координат // Подходы к проблеме. –Спб., 2000. –С.11–95.
58. Гончаренко С. Саммит АТЭС в Куала-Лумпуре // Проблемы Дальнего Востока. –1999. –№1. –С.32–40.
59. Гончаренко С. Саммит АТЭС в Окленде // Проблемы Дальнего Востока. –2000. –№1. –С.12–23.
60. Грэхэм Т. Вопросы из Вашингтона: Есть ли у России достаточно уверенности в своих силах, чтобы вести конструктивный разговор с США // Независимая газета. 2001. 21 марта.
61. Гудби Дж. Неразделенная Европа. М.: Международные отношения, 2000.
62. Давыдов А. Китай в современной внешнеполитической стратегии США // Проблемы Дальнего Востока. 2005. № 3. С. 44–60.
63. Данг Тхи Хиен Ла. Рынок с социалистической ориентацией // Азия и Африка сегодня. № 12. 2002. С. 34–35.
64. Данилов Д.А., Можеев А.Л. Структуризация пространств, безопасности на Западе и Востоке Европы. М., 2000.
65. Дергачев Л.А. Геополитика. Киев, 2000. С.269–281.
66. 10 лет СНГ // Компас. 2001. №49. С.45–47.
67. Дубровин Д. «Несоциалистический» Вьетнам // Азия и Африка сегодня. 2001. №5. С.31–32.
68. Дугин А. Основы geopolитики. М.: Арктогея, 2000.
69. Дугин А.Г. Основы geopolитики. Геополитическое будущее России. М., 1997.
70. Европейская политика в области обороны // Компас. –2000. –№32.
71. Егорин А.З. История Ливии. XX век. М.: Институт востоковедения РАН, 1999.
72. Жебин А.З. О возможных сценариях развития ситуации

на Корейском полуострове // Корейский полуостров и вызовы XX века. М.: ИДВ РАН, 2003. С. 38–45.

73. Зайцев Б. ЕС на пути к созданию новой архитектуры безопасности // Компас. №2. 2001. С. 32–34.

74. Засыпкин А.С. Безопасность в Персидском заливе // Международная жизнь. №1. 2009. С. 3–5.

75. Зудина Л.П. Союз Арабского Магриба: возможности развития в контексте глобализации // Сборник “Ближний Восток и современность”. Выпуск 16. М., ИИИиБВ, 2002.

76. Ивасита А. Москва–Пекин: «стратегическое партнерство» и пограничные переговоры // МЭиМО. – 2000. – №11. – С.92–96.

77. Ирано-иракская война 1980–1988 гг. Симферополь, 2000.

78. История Ирака. М., 2000.

79. История Кореи. Новое прочтение. Под ред. Торкунова А.В. М., 2003.

80. Кам Сам Гу. Китай и Центральноазиатский регион (взгляд из Сеула) // Проблемы Дальнего Востока. 2002. № 5. С. 35–40.

81. Кан Ван Сок. Роль России в объединении Кореи // Проблемы Дальнего Востока. 1999. №1. С.41–49.

82. Каримов В. Из истории модернизации Республики Корея // Ижтимоий фанларнинг долзарб муаммолари. Иккинчи анъанавий илмий-услубий конференция материаллари туплами. Тошкент, 2011 йил, 12 май. 45–47 б.

83. Каримов В. Из истории урбанизации Южной Кореи: Сеул // Актуальные вопросы современных международных отношений. – Ташкент: ТашГИВ. – Ташкент, 2010. С. 54–58.

84. Каримова Н.Э. Африканское направление внешней политики Китая в свете Целей развития тысячелетия // Узбекистон Республикаси Конституцияси – жамиятнинг баркарор ривожланиш кафолати: сиёсий, хукукий ва ташкилий жихатлари. Илмий-амалий конференция материаллари туплами. 3 декабрь, 2010. – Ташкент, 2010. С. 121–124.

85. Каримова Н.Э. Центральная Азия - Республика Корея:

исторические и культурные связи // Центральная Азия: актуальные проблемы и перспективы интеграции. Материалы круглого стола. Астана - 2009. С. 41–55.

86. Катамидзе В. Ирако-кувейтский конфликт. М., 2000.
87. Кимура Х. Японское направление внешней политики России // МЭиМО. 2003. №3. С.84–94.
88. Кистанов В. АТР на пороге XXI века: к тихоокеанскому сообществу «азиатским путем»? // Проблемы Дальнего Востока.–1998.–№1. –С.28–39.
89. Клепацкий Л. Глобализация и национальные интересы // Ж. Международная жизнь. –2000. – №1. – С.87–95.
90. Корейский полуостров и вызовы XX века. М.: ИДВ РАН, 2003.
91. Кошелев В. С. Египет: уроки истории (1979–1981). М., 1985.
92. Кузнецов В. Что такое глобализация? // МЭ и МО.– 1998. – №2. –С.12–21.
93. Кузнецов В. Что такое глобализация? // МЭ и МО.– 1998. –№3. – С.14–19.
94. Ландабасо А. К вопросу о теории регионального развития // МЭ и МО. – 1998. –№3. –С. 133–137.
95. Ларин А. Американский фактор в российско-китайском стратегическом партнерстве // Проблемы Дальнего Востока. –2000. –№6. –С.20–32.
96. Лаумулин М.Т. Европейский Союз как новая геополитическая сила // Казахстан – Спектр. 2001. №5. С.51.
97. Лебедева М. Мировая политика. – М.: Аспект-Пресс, 2003.
98. Леонтьева Е. Япония // МЭиМО. 2001. №8. С.109–118.
99. Ли Вл.Ф. Россия и Корея в геополитике Евразийского Востока. – М., 2000.
100. Листопадов Н. Бирма. Страна к югу от горы Меру. М.: Ин–Т Востоковедения РАН, 2002.

101. Листопадов Н. Мьянма. Есть о чем сказать // Международная жизнь. №2. 2003. С. 41–43.
102. Листопадов Н. Мьянма. «Солдат-буддист» // Азия и Африка сегодня. № 6. 2003. С. 27–29.
103. Маквайер Ф. Военно-промышленный комплекс стран – участниц ССАГПЗ. Вызовы и ответы. Нью-Йорк, 2001.
104. Малые страны Европы - Португалия, Нидерланды, Бельгия. Экономика и политика // Компас. №1. 1999. С. 20–22.
105. Международные экономические отношения. –М., 1998.
106. Мелихов И.А. Арабские монархии Персидского залива на этапе модернизации (70–90-е годы) // Автореферат дисс. док.ист. наук. М., 2000.
107. Мельченко Б. Н. Лаос. М., 1994.
108. Михайлов В.А. Внешняя политика Российской Федерации. М., 2000.
109. Михеев В. Китай в свете тенденций глобализации и азиатского регионализма // Проблемы Дальнего Востока. –2000. –№3. –С.35–56.
110. Мунавваров З.И. Узбекистан и арабский мир: перспективы сотрудничества. Т., 1997.
111. Мясников В. Россия и Китай: перспективы в АТР в XXI веке // Проблемы Дальнего Востока. –1998. –№6. –С.5–22.
112. Нартов Н.А. Геополитика. Учебник. М.: Юнити, 2004.
113. Николаева К.С. Основные принципы «мирной» внешней политики Китайской Народной Республики // Сборник научных статей преподавателей, аспирантов и студентов кафедры Международных отношений ТашГИВ. – Ташкент, 2009. – С. 38–41.
114. Николаева О. Японская политика сегодня: и снова коалиция // МЭиМО. 1999. №9. С.91–97.
115. Новейшая история стран Азии и Африки. ХХ век. М., Владос, 2001.
116. Основы региональной политики. –М., 1998.

117. Орлов В. Внешняя политика и российские регионы // Международная жизнь. –2000. –№10.
118. Панарин А.С. Глобальное политическое прогнозирование. –М., 2000.
119. Пахомова Л. Трудный путь к демократии // Азия и Африка сегодня. 2001. №11. С.7–12.
120. Петраков В. «Учителя и ученики» в ОБСЕ // Международная жизнь. №5. 2001. С.15–17.
121. Погадаев В. Бруней: маленький да удаленький // Азия и Африка сегодня. 2001. №9. С.56–59.
122. Политическая история государств Азии и Северной Африки. ХХ век. М., 1996. Т.1–2.
123. Польша, Чехия, Венгрия - новые члены НАТО // Компас. №13. 1999. С. 25–27.
124. Проблемы регионального развития. Модели и эксперименты. Сб. статей. –М., 1997.
125. Самойленко В. АТР: станет ли Великий океан мелководным озером? // Проблемы Дальнего Востока. –1999. №5. –С.5–18.
126. Сантер Д. Крушение «европейской мечты». – М., 2006.
127. Свешников А. А. Концепции КНР в области внешней политики и национальной безопасности // Китай в мировой политике. М.: РОССПЭН, 2001. С.130–136.
128. Семененко И. Группы интересов в Евросоюзе: региональный аспект // МЭ и МО.– 1998. –№4.
129. Семин А. Внешнеполитические ориентиры Японии 90-х гг. // Проблемы Дальнего Востока. 2000. №2. С.23–30.
130. Семин А. Токио – Пекин: непростой диалог // Проблемы Дальнего Востока. 1999. №3. С.45–49.
131. Сергеев М.С. История Марокко – ХХ век. М., 2001.
132. Сергунин А. США и Россия и международная безопасность в АТР в постконфронтационную эпоху // Проблемы Дальнего Востока. –1998. –№4. –С.5–14.

133. Скоробатюк И. О воззрениях корейцев на объединение // Проблемы Дальнего Востока. 1998. №2. С.50–55.
134. Современные международные отношения. –М., 2000.
135. Сорокин К.Э. Геополитика современности и геостратегия России. М., 1996.
136. Степанов Е. Д. Пограничная политика КНР // Китай в мировой политике. М.: РОССПЭН, 2001. С.165–170.
137. Суюмбаев М., Мамытова А. Природные ресурсы как фактор развития Центральной Азии // Центральная Азия и Кавказ. 1998. №1. С.34–37.
138. Ся Ишань. О китайско-российских отношениях в новой обстановке // Проблемы Дальнего Востока. –1999. – №6. –С.13–15.
139. Такэхиро Того. Японо-российские отношения: прорыв в XXI в. // Проблемы Дальнего Востока. –1998. –№1. –С.7–17.
140. Терентьев А. Торийская внешняя политика Тони Блэра // Мировая экономика и международные отношения. 2005. №9. С. 46–55.
141. Торкунов А. Международные отношения после косовского кризиса // Международная жизнь. – 1999. - №12. - С.44–47.
142. Травкина Н. Внутренняя политика Дж.Буша: некоторые особенности // США-Канада ЭПИ. 2005. № 10. С. 3–21.
143. Трубников В. Десятилетие СНГ // Международная жизнь. 2001. №11. С.45–47.
144. Уайт С., Лайт М., Лоунхард Дж. Белорусь, Молдавия, Украина: к востоку или к западу // МЭМО. 2001. №7. С.24–26.
145. Ушаков Л.Д. Экономический подъем Великобритании 90-х гг. Москва, 1995.
146. Фишджеральд Ч.П. История Китая. М., 2005.
147. Хакимов Б. Коллективная безопасность СНГ // Международная жизнь. –2001. –№7.

148. Ходжаев А. Китайский фактор в Центральной Азии. Ташкент, 2007. – 171 с.
149. Цветов П. Вьетнам на грани веков // Азия и Африка сегодня. №10. 2002. С. 24–25.
150. Центрально-азиатская интеграция: проблемы и перспективы // Перспектива. –1993. –№1–2. –С.52–57.
151. Цыганков П. Международные отношения. – М.: Новая школа, 1996.
152. Чжан Чантай. Итоги развития ситуации в АТР в 1997 г. // Гоцзи чжанълюэ яньцзю. –Бэйцзин, 1997. – №1. –С.20–25.
153. Чижов. Стамбульский саммит // Международная жизнь. №1. 2000. С.45–48.
154. Чугров С. Мир «после холодной войны» в концепциях японских политологов // МЭиМО. 1999. №9. С.98–107.
155. Чугров С. О традиционализме в японском мышлении // МЭиМО. 1999. №1. С.58–66.
156. Шалак А.В. Основы геополитики. Учебное пособие. Иркутск: Изд-во ИГЭА, 2001.
157. Шарипов У.З. Международные отношения в регионе Персидского залива и роль нефтяного фактора (Запад и страны региона) // Автореф. дисс. док.полит.наук. М., 1999.
158. Шишков Ю. Интеграция и дезинтеграция: корректировка концепции // МЭ и МО. –1993. –№10. –С.50–68.
159. Шлындов А. Япония в ООН // Проблемы Дальнего Востока. 2002. №1. С.62–76.
160. ЮВА в конце XX века: политика и экономика. – М., ИНИОИ, 2001.
161. Яковлев А. Модернизация по-саудовски // Азия и Африка сегодня. №4. 2003. С.34–36.
162. Яковлев В. Военные аспекты сотрудничества СНГ // Международная жизнь. –2002. –№1.

163. Яскина Г. Малайзия: из опыта преодоления последствий экономического кризиса // Проблемы Дальнего Востока. 2001. №5. С.70–78.

164. Ban K.M. Korea – US relations in the post–Cold War world // Journal of Northeast Asian Studies. 1992, Summer, Vol.XI, №1. – P.52 –53.

Internet-saytlari

165. Бжезинский З. Америка терпит катастрофу (для газеты Los Angeles Times) // <http://www.lenta.ru/>

166. Бжезинский З. Великая шахматная доска // <http://rus-sky.org/history/library/bzhezins.htm> ВЦИОМ на Полит.Ру.

167. Выступление Президента Республики Узбекистан Ислама Каримова на пленарном заседании Саммита ООН «Цели развития тысячелетия». 20.09.2010 // <http://www.mfa.uz>

168. Ивашов Л.Г. В чем состоит геополитическая стратегия США-НАТО? // <http://old.iamik.ru/14387.html>

169. Кабанов Н. Секреты тотальной власти // http://rusarmageddon.narod.ru/HTML/23_19.htm

170. Лисичкин В., Шелепин Л. Глобальная империя зла // <http://www.x-libri.ru/elib/lssh1001/00000125.htm>

171. Межлумянц А.Р. Геополитическая стратегия Бжезинского и ее исторические перспективы // <http://whiteworld.ru/s000102.htm>

172. Нарочницкая Н. Старая Европа // <http://pravoslavie.ru/analit/index.htm>

173. Николаева К.С. Китайская политика «мягкой экспансии» в Африке: история и современность // Материалы XX молодежной научной конференции студентов, аспирантов и молодых ученых «Ломоносов-2013», МГУ им. Ломоносова. Москва, 2013 // http://lomonosov-msu.ru/archive/Lomonosov_2013/structure_20_2215.htm.

174. Обзор событий по материалам сервера: <http://lenta.ru/news/2008/12/09/lisbon/>

175. Обзор событий по материалам сервера: <http://www.lenta.ru/news/2008/06/13/reject/> Ирландцы заблокировали принятие новой европейской конституции.

176. Обзор событий по материалам сервера: [//www.infoport.ru/main_po-pur.php?ID=260054](http://www.infoport.ru/main_po-pur.php?ID=260054). В Бельгии прошло очередное заседание Совета сотрудничества Узбекистан – ЕС. 24/01/2001.

177. Обзор событий по материалам сервера: http://www/kabar.kg/russ_news/-Nov/12html/ Председатель Совета ЕС обсудил в Ташкенте перспективы сотрудничества стран Евросоюза с Узбекистаном. 01/11/2001.

178. Обзор событий по материалам сервера //<http://www/uza.uz/business/2001/11/01> - print.shtml/23/11/2001

179. Панарин И.П. Дипломатия и политика // <http://www.panarin.com>

180. Руководитель отдела по связям со странами Центральной Азии, Кавказа и Монголии обсудил перспективы сотрудничества Узбекистана и ЕС. 23/11/2001

181. <http://www.rian.ru/analytics/20080807/150161800.html>

182. <http://www.worldstory.ru/livia/01.html>

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-BOB. O'QUV KURSINING PREDMETI VA VAZI-FALARI.....	5
1.1. O'quv kursiga kirish	5
1.2. Mintaqaviylashuvning nazariy masalalari	8
1.3. Mintaqalar tasnifi	10
2-BOB. MINTAQAVIY TARAQQIYOTNING TARIXIY JI-HATLARI	16
2.1. Mintaqaviy siyosatga doir ilmiy yondashuvlar	16
2.2. Mintaqaviy tadqiqot metodlari.....	20
3-BOB. XALQARO MINTAQASHUNOSLIKNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	25
3.1. Mintqa va mintaqaviylashuvning nazariy masalalari.....	25
3.2. Mintaqaviy raqobat masalasining nazariy va konseptual asoslari.	29
4-BOB. XALQARO MINTAQAVIY JARAYONLARNI MODELLASHTIRISHNING ASOSIY METODOLOGIK YONDASHUVLARI.....	36
4.1. Xalqaro mintaqaviy jarayonlarni modellashtirishga nisbatan qarashlar.....	36
4.2. Xalqaro mintaqaviy jarayonlarni modellashtirishning metodlari	40
5-BOB. GLOBALLASHUV JARAYONI, UNING ASOSIY JI-HATLARI VA YO'NALISHLARI.....	45
5.1. Globalashuv jarayonining mazmuni va mohiyati	45
5.2. Globallashuv jarayonining jahon axborot tizimiga ta'siri...	51

6-BOB. MINTAQAVIY INTEGRATSION UYUSHMALAR	61
6.1. Integratsiyaning mazmun va mohiyati	61
6.2. Mintaqaviy integratsion birlashmalar	72
7-BOB. XALQARO MINTAQAVIY SIYOSAT	77
7.1. Xalqaro siyosiy mintaqa va mintaqaviy hudud tushunchasi	77
7.2. Mintaqaviy tuzilish muammosi.....	83
7.3. Xalqaro mojarolar interpretatsiyasi.....	86
8-BOB. MINTAQAVIY HAMKORLIK JARAYONLARINING METODOLOGIK ASOSLARI	96
8.1. Mintaqaviy hamkorlik tushunchasining mazmun va mohiyati	96
8.2. Mintaqaviy hamkorlik va globallashuv.....	104
8.3. Mintaqaviy hamkorlik va mintaqaviy integratsiya	109
9-BOB. OSIYO REGIONALIZMINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	118
9.1. OTMning xalqaro munosabatlar tizimidagi roli.	118
9.2. ASEAN va ATES tavsifi.....	126
10-BOB. YAQIN SHARQ MINTAQASI DAVLATLARI JAHON SIYOSATIDA	132
10.1. Yaqin Sharq mintaqasining o'ziga xos xususiyatlari	132
10.2. Yaqin Sharqdagi so'nggi siyosiy jarayonlar.....	137
11-BOB. AFRIKA MINTAQASINING O'ZIGA HOS JIHATLARI	147
11.1. Afrika mintaqasining o'ziga hos xususiyatlari	147
11.2. Afrika qit'asi mojarolarining genezisi va qit'adagi gumanitar muammolar	154

12-BOB. AQSH TASHQI SIYOSATINING MINTAQAVIY JI-HATLARI	169
12.1. AQSH tashqi siyosiy konsepsiya va doktrinalari	169
12.2. Markaziy va Janubiy Osiyo.....	175
12.3. Rossiya, NATO va Ommaviy qirg‘in qurollari (OQQ)...	176
12.4. AQSH tashqi siyosatida Yaqin Sharq mintaqasining o‘rni	178
13-BOB. ROSSIYA TASHQI SIYOSATINING MINTAQAVIY JI-HATLARI	185
13.1. Rossianing tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlari.....	185
13.2. Rossianing Markaziy Osiyo mintaqasidagi o‘rni.....	193
14-BOB. XALQARO MUNOSABATLARDA OSIYO TINCH OKEANI MINTAQASI DAVLATLARI	199
14.1. OTOM davlatlari va ularning siyosiy xususiyatlari	199
14.2. OTOM davlatlarining mintaqaviy jarayonlardagi siyosati....	212
14.3. ASEAN	212
14.4. OTOM xaqaro munosabatlarda.....	224
15-BOB. XITOY XALQ RESPUBLIKASI VA OSIYO REGIONALIZMI	229
15.1. Osiyo regionalizmining xususiyatlari	229
15.2. Xitoy Xalq Respublikasining milliy rivojlanish strategiyasi va uning asosiy yo‘nalishlari	233
15.3. Xitoy Xalq Respublikasining tashqi siyosiy maqsadlari	238
16-BOB. SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI	247
16.1. Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyati	247
16.2. Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a‘zo davlatlarning tashkilot doirasidagi manfaatlari.....	252
16.3. Shanxay hamkorlik tashkilotining mintaqaviy munosabatlarda tutgan o‘rni.....	260
GLOSSARY	269
TAVSIYA ETILAYOTGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	274

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN

Muhammadsidiqov M.M.

Xalqaro mintaqashunoslik

O‘quv qo‘llanma.

Toshkent – «Barkamol fayz media» – 2017

Muharrir: A.Eshov

Tex.muharrir: F.Tishaboyev

Musahhih: D.Vohidova

Kompyuterda

sahifalovchi: A.Kuchkarov

E-mail: Barkamolfayz@mail.ru

Nashr.lits. AIN№ 284, 12.02.16. Bosishga ruxsat etildi 18.12.2017.

Bichimi 60x84 1/16. «Times New Roman» garniturasi. Offset bosma usulida
bosildi. Shartli bosma tabog‘i 18.25 nashriyot bosma tabog‘i 18,5.

Tiraji 200. Buyurtma № 7

«Grafpoligrafprint» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Qatortol ko‘chasi, 44-a uy.

ISBN 978-9943-5010-8-9

A standard one-dimensional barcode is positioned vertically on the right side of the page. It corresponds to the ISBN number 978-9943-5010-8-9.

9 789943 501089